

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORUJY OLIVY TALIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

FEVRAL

№ 75  
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР  
2-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC RESEARCH  
PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 75-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрел 2025 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 140 бет.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазибалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

## **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

## **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

## **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -**

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

## **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тугган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **5. Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

## **6. Журналистика -**

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

## **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**

Самигова Умида Ҳамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

## **8. Адабиёт -**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни -**

Phd Воҳидова Меҳри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Таҳировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

## **11. Жисмоний тарбия ва спорт -**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



## 14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 15.Муסיқа ва хаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## 17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## 18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Зупарова Зулфия Ахрор кизи, Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, DSc (фармацевтика фанлари доктори)

## 19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

## 20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

## 21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

## 22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## 23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

---

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000





## ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ЗЎРЛИК ИШЛАТМАСДАН ЎЗГАЛАР МУЛКИНИ ТАЛОН-ТОРОЖ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

**Ўталов Илёсжон Абдусаломович**  
Ўзбекистон Республикаси Судьялар  
олий кенгаши ҳузуридаги  
Судьялар олий мактаби тингловчиси  
Телефон: +998 90 008 87 24  
muhammad.laziz2002@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада зўрлик ишлатмасдан ўзгалар мулкани талон-торож қилиш тушунчаси, унинг жиноий-ҳуқуқий белгиларини тавсифлаш, ушбу жиноятнинг турлари ва унинг бошқа мулкий жиноятлардан фарқлари таҳлил этилган. Шунингдек, амалдаги қонунчиликка таянган ҳолда жиноятни квалификация қилишда учрайдиган муаммоларга тўхталиб, ҳуқуқни қўллаш амалиётига оид таклиф ва тавсияларини баён қилинган.

**Калит сўзлар:** талон-торож қилиш, зўрликсиз мулкий жиноят, мулкка қарши жиноятлар, ўзлаштириш, расрата, фирибгарлик, квалификация, моддий томон, субъектив аломат.

#### I. Кириш

Мулкий жиноятлар — жамиятда энг кўп учрайдиган ва ижтимоий хавф даражаси юқори бўлган жиноят турларидан бири ҳисобланади. Хусусан, зўрлик ишлатмасдан ўзгалар мулкани талон-торож қилиш жиноятлари мамлакатимизда ҳам жиноятчилик статистикасида салмоқли ўрин эгалламоқда. Ушбу жиноятлар нафақат мулкка зарар етказди, балки фуқаролар ўртасида ҳуқуқий ҳимояга нисбатан ишончсизликни кучайтиради. Шу боисдан мазкур жиноят турининг жиноий-ҳуқуқий моҳияти, турлари ва уларни аниқ таснифлаш масалалари назарий ва амалий жиҳатдан долзарб ҳисобланади.

#### II. Зўрлик ишлатмасдан талон-торож қилишнинг жиноий-ҳуқуқий таърифи

“Зўрлик ишлатмасдан ўзгалар мулкани талон-торож қилиш” атамаси, аввало, жиноят субъекти томонидан мулк эгасининг розилигисиз, куч ишлатмасдан мол-мулкни ўзлаштириш ёки ундан ноқонуний фойдаланиш ҳолатларини англатади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига бу жиноятлар асосан қуйидаги моддаларда белгиланган:

- ЖК 167-модда – ўзлаштириш ёки расрата йўли билан талон-торож қилиш (ишониб топширилган мол-мулкни талон-торож қилиш);
- ЖК 168-модда – фирибгарлик (ишончни суиистеъмол қилиш ёки алдов орқали мулкни қўлга киритиш);
- ЖК 169-модда – ўғирлик (яъни, ўзгалар мол-мулкни яширинча олиб қўйиш).

Бу жиноятларнинг умумий хусусияти шундаки, уларда мулкни олиш жараёнида куч ишлатиш, таҳдид қилиш ёки жисмоний таъсир кўрсатиш ҳолатлари мавжуд эмас.

#### III. Жиноятларнинг турлари ва уларни фарқлаш

1. **Ўзлаштириш ёки расрата йўли билан талон-торож қилиш** (ЖК 167-модда) Ушбу жиноят шаклларида мулк жиноятчининг қўлида қонуний асосда бўлади, аммо у ундан ўз манфаатида ноқонуний фойдаланади. Масалан, кассачи ўз вазифасидан фойдаланиб, пул маблағларини шахсий эҳтиёжларига ишлатса.

2. **Фирибгарлик** (ЖК 168-модда) Фирибгарлик — шахснинг ишончини суиистеъмол қилиш ёки унга нисбатан алдов қилиш орқали мулкни қўлга киритиш. Бунда мулк эгаси мулкни ихтиёрий равишда беради, аммо алдов таъсири остида.

3. **Ўғирлик** (ЖК 169-модда) Ўғирлик — бошқа шахсга тегишли мол-мулкни яширинча олиб қўйиш орқали уни ўзлаштириш. Бу жиноятда мулк эгаси хабардор бўлмайди, ва бу унинг асосий белгисидир.



## IV. Ушбу жиноятларнинг ўзаро фарқлари

Белги	Ўғирлик	Фирибгарлик	Ўзлаштириш/расрата
Мулкни олиш усули	Яширинча	Алдов/ишонч	Қонуний эгаликдан кейин ноқонуний фойдаланиш
Эгаси хабардорлиги	Хабардор эмас	Ихтиёрий беради	Хабардор, лекин ишонч билан берган
Субъектив ҳолат	Бевосита қасд	Бевосита қасд	Бевосита қасд

## V. Аҳамияти ва ижтимоий хавфлилик даражаси

Бундай жиноятлар нафақат шахсий мулк ҳуқуқини бузади, балки ишонч, фуқаролар ўртасидаги муносабатлар, давлат органлари ва хизматларига нисбатан ишончсизликни келтириб чиқаради. Айниқса, фирибгарлик йўли билан содир этилган жиноятлар иқтисодий муомалалар хавфсизлигига жиддий таҳдид солади.

## VI. Статистик маълумотлар таҳлили

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги маълумотларига кўра:

- 2024 йилда жами 83 261 та иқтисодий соҳадаги жиноят қайд этилган бўлиб, шундан 62,9% зўрликсиз содир этилган.
- Шулардан ўғирлик – 48 375 та, фирибгарлик – 29 252 та, ўзлаштириш ёки расрата йўли билан талон-торож қилиш – 1 368 та ҳолатни ташкил этган.
- Жиноятларнинг аксарияти иш жойларида, давлат ташкилотлари ва тадбиркорлик субъектлари ҳисобидан амалга оширилган.

## VII. Қонуний асослар ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти

Мазкур жиноят турларини аниқ квалификация қилиш ҳуқуқни қўлловчи органлар учун долзарб масала бўлиб қолмоқда. Айрим ҳолларда, бир жиноят бир вақтнинг ўзида бир нечта модда талабларига мос келади. Масалан, фирибгарлик ва ўзлаштириш чегарасида туриб қолган жиноятлар ҳуқуқий баҳсларга сабаб бўлади.

Шунинг учун жиноятларни аниқ белгиларга таянган ҳолда квалификация қилиш зарур, бунда:

- жиноят субъектининг нияти,
- мулкни қўлга киритиш усули,
- жабрланувчининг ҳолати ва
- ижтимоий хавф даражаси инобатга олинishi лозим.

## VIII. Муаммолар ва ечимлар

### Муаммолар:

1. Фирибгарлик ва ўзлаштириш ўртасидаги чегаралар ноаниқлиги.
2. Амалдаги қонун нормаларининг турфа талқин қилиниши.
3. Молиявий таҳлил ва эксперт хулосаларининг етишмовчилиги.

### Тавсиялар:

- Жиноятлар бўйича янги классификатор ишлаб чиқиш;
- Суд амалиётида янги методологик қўлланмалар тайёрлаш;
- Аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш.

### Фойдаланилган адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси – <https://lex.uz/acts/111453>

1. Ўзбекистон Республикаси Олий суди қарорлари тўплами, 2022 йил.
2. М.Абдуллаев. “Жиноят ҳуқуқи. Хусусий қисм”, Тошкент, 2021.
3. Ички ишлар вазирлиги жиноятчилик статистик маълумотлари – <https://mvd.uz>
4. Ю.Ҳамидов. “Мулкний жиноятлар ва уларни квалификация қилиш муаммолари”, Тошкент, 2020.
5. Б.Абдужабборов. “Фирибгарлик жиноятининг ҳуқуқий таҳлили”, “Ҳуқуқ” журнали, 2023/1.
6. UNODC 2023 Crime Report – <https://www.unodc.org>



## ТЕРГОВ ВА СУД ИШЛАРИГА АРАЛАШИШ: ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИК ВА АМАЛИЙ ЖИХАТЛАР

Саломов Нодир Қурбонович  
Жинойт ишлари бўйича Ўзбекистон  
туман судининг тергов судьяси

**АННОТАЦИЯ:** Тергов ва суд ишларига аралашуш қонунбузарлик бўлиб, у адолатли судлов тизимига катта зиён етказди. Ўзбекистонда бу борада муҳим ҳуқуқий асослар яратилган бўлса-да, амалиётда ҳали ҳам ҳал этилиши лозим бўлган масалалар мавжуд. Шунинг учун суд ва тергов органлари мустақиллигини таъминлаш, коррупцияга қарши курашуш ва жамиятда қонун устуворлигини ошириш борасида ислохотларни давом эттириш муҳим вазифа бўлиб қолмоқда.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Тергов ва суд мустақиллиги, суд ҳокимияти мустақил, тергов ва суд ишларига аралашуш, коррупцияга қарши кураш, тергов ва суд ишлари адолатли.

Ҳуқуқий давлат тамойиллари асосида жамиятда қонун устуворлигини таъминлаш, адолатли суд тизимини шакллантириш ва мустақил тергов олиб бориш жуда муҳим ҳисобланади. Демократик жамиятда ҳар бир фуқаро ва мансабдор шахс қонунларга риоя этиши, айниқса, тергов ва суд жараёнларига ноқонуний аралашушдан тийилиши шарт.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва бошқа ҳуқуқий ҳужжатларда тергов органлари ҳамда суд ҳокимияти мустақиллиги кафолатланган. Бироқ, амалиётда айрим ҳолларда мансабдор шахслар, сиёсий ва иқтисодий манфаатдор гуруҳлар томонидан тергов ишларига ва суд қарорларига таъсир кўрсатишга уринишлар кузатилиши мумкин. Ушбу мақолада мазкур муаммонинг ҳуқуқий ва амалий жиҳатлари, шунингдек, унинг олдини олиш бўйича чора-тадбирлар таҳлил қилинади.

Тергов ва суд мустақиллигини таъминлашнинг ҳуқуқий асослари

Ўзбекистонда тергов ва суд ишларини адолатли, қонуний ва холис олиб бориш учун бир қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинган.

Улар қуйидагилардан иборат:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси;

Конституциянинг 11-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикасида давлат ҳокимияти қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлинади. Суд ҳокимияти мустақил бўлиб, фақат қонунга бўйсунди.

2. “Судлар тўғрисида”ги қонун;

Мазкур қонунда судьяларнинг мустақиллиги, уларга ташқи таъсир ўтказиш мумкин эмаслиги ва суд қарорлари фақат қонунда белгиланган тартибда қайта кўриб чиқилиши мумкинлиги қайд этилган.

3. Жиноят-процессуал кодекси;

Ушбу кодексга мувофиқ, тергов органлари фаолияти қонун доирасида олиб борилиши шарт ва ҳеч бир шахс уларнинг ишига ноқонуний аралаша олмайди.

4. Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси;

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида терговга ва суд фаолиятига аралашуш жиноий жавобгарликка сабаб бўлиши белгиланган. Жумладан, 236-моддага кўра, ноқонуний таъсир кўрсатиш, тергов органлари ёки судьяларнинг қарорларига аралашуш жиноят ҳисобланади ва оғир жазоланади.

Тергов ва суд ишларига аралашушнинг кўринишлари қуйидагилардан иборат.

Тергов ва суд фаолиятига аралашуш турли кўринишларда содир бўлиши мумкин. Қуйида ушбу ҳолатларнинг энг кенг тарқалган турлари таҳлил қилинади:

1. Давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан аралашуш;

Айрим ҳолларда давлат идоралари ёки юқори лавозимдаги мансабдор шахслар тергов жараёнига таъсир кўрсатишга уринади.

Масалан, юқори мансабдор шахснинг яқин қариндоши ёки таниши жиноят содир этган тақдирда, тергов органларига босим ўтказиб, ишни бошқача йўналишга буришга ҳаракат қилиши мумкин.

2. Иқтисодий ёки сиёсий манфаатдор шахсларнинг аралашуви;



Кўп ҳолларда йирик бизнес вакиллари ёки сиёсий гуруҳлар ўз манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида суд ва тергов жараёнига таъсир ўтказишга интилган ҳолатлар учрайди.

Масалан, катта молиявий ресурсларга эга шахслар тергов органлари ёки судьяларга турли йўллар билан таъсир ўтказишга уриниши мумкин.

3. Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлар орқали аралашув;

Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлардаги босимлар ҳам тергов ва суд жараёнига таъсир кўрсатиши мумкин.

Масалан, суд ёки тергов жараёни охирига етмасдан, айрим шахслар ижтимоий тармоқларда иш юзасидан нотўғри маълумотлар тарқатиб, жамоатчилик фикрини манипуляция қилишга уринади. Бу эса суд ва тергов органларига босим ўтказишнинг ноанъанавий усули ҳисобланади.

Тергов ва суд ишларига аралашушнинг оқибатлари

Тергов ва суд ишларига аралашуш нафақат қонунбузарлик, балки жамият ва давлат учун жиддий оқибатларга олиб келиши мумкин:

- Адолатли судловга бўлган ишонч пасайиши. Агар фуқаролар суд ва тергов органларининг мустақиллигига ишонмаса, улар қонун устуворлигига нисбатан шубҳа билан қарай бошлайди.

- Жиноятчиликнинг авж олиши. Агар айбдор шахслар тергов ёки суд жараёнига таъсир ўтказиб, жазодан қутулиб қолса, бу бошқа шахсларни ҳам жиноят содир этишга руҳлантириши мумкин.

- Давлатнинг халқаро имижига салбий таъсир. Қонун устуворлиги ва суд мустақиллиги таъминланмаган давлатларда инвесторлар фаолият юритишдан қочади, бу эса иқтисодий ривожланишга тўсқинлик қилади.

Тергов ва суд ишларига аралашушнинг олдини олиш чоралари

Ушбу муаммони бартараф этиш учун қуйидаги чора-тадбирлар амалга оширилиши лозим:

- Судьялар ва терговчилар мустақиллигини кучайтириш. Судьялар ва терговчилар фақат қонунга бўйсунуши учун уларнинг мустақиллигини таъминлаш зарур.

- Жамоатчилик назоратини кучайтириш. Суд жараёнлари ва тергов ишлари шаффоф бўлиши керак, лекин ижтимоий тармоқлар орқали босим ўтказишнинг олдини олиш учун ҳуқуқий чоралар кўрилиши шарт.

- Халқаро стандартларга мувофиқ ислохотлар олиб бориш. Суд мустақиллигини таъминлаш учун халқаро ҳуқуқий стандартларга мос ислохотлар амалга оширилиши керак.

- Коррупцияга қарши курашни кучайтириш. Тергов ва суд органларида коррупциянинг олдини олиш учун самарали механизмлар жорий этилиши керак.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/111453>. (Мурожаат этилган сана 23.04.2025 йил).

2. Алимов С.Ж. Тергов ва суд ишларига аралашуш: ҳуқуқий ва амалиёт масалалари. – Тошкент: “Юристар нашриёти”, 2022.

3. Мухамедов И.Қ. Жиноят иши юритиш ва терговдаги ҳуқуқий хато. – Тошкент: Фан ва технологи, 2021.

4. Мухторов Н.А. Суд ишларига аралашуш ва ҳуқуқий жавобгарлик. – Тошкент: Академия нашриёти, 2020.

5. Исломов С.Ж. Суд амалиётида терговнинг ҳуқуқий асослари. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2022.





## ПРОКУРАТУРАНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ ВА МОҲИЯТИГА ОИД НАЗАРИЯЛАР

**Махмудов Алишер Абдусалимович,**  
Ўзбекистон Республикаси Хуқуқни муҳофаза қилиш  
академияси мустақил изланувчиси,  
юримдик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

**АННОТАЦИЯ:** Ҳозирги пайтда глобаллашув шароитида прокуратура органларининг шаклланиши ва ривожланишига оид назарияларни тадқиқ этиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Мазкур мақолада муаллиф ушбу назарияларнинг мазмун-моҳиятини очиб беришга ҳаракат қилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** прокуратура, эволюция, назария, рақобатли (adversarial) тизим, инквизиторил тизим.

Юртимиз истиқлолга эришган дастлабки кунлардан бошлаб давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари қатори хуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг, шу жумладан прокуратуранинг хуқуқий мақомини белгилаш, қонунчилик асосларини яратиш бўйича изчил чораларни кўра бошлади.

2016 – 2024 йиллар мобайнида прокуратура фаолиятига оид 30 га яқин норматив-хуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб, мазкур тизим фаолиятини тубдан ислоҳ этишга хизмат қилди. Бош прокурор Н.Йўлдошевнинг таъбири билан айтганда, “суд-хуқуқ соҳасида қисқа муддатда амалга оширилган ислоҳотлар нафақат тизим вакиллари, балки жамият учун ҳам оғриқли нуқталарга айланган муаммоли масалаларни ҳал қилиш имконини берди. ... прокуратура органларининг бутун қиёфаси ҳам кейинги йилларда тубдан ўзгарди” [1].

Ушбу даврда прокуратура органлари фаолиятини такомиллаштириш мақсадида прокуратура органлари ходимларини рағбатлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Шу сабабли, 2016 йил 19 декабрдаги Қонунга асосан **8 январь – Ўзбекистон Республикаси прокуратура органлари ходимлари куни** этиб белгиланди [2].

Сўнгги йилларда прокуратура органларининг фаолиятида хуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 январда прокуратура ходимлари ва фахрийлари билан бўлиб ўтган учрашувида “айни вақтда, афсус билан айтиш керакки, кўп ҳолларда қонун устуворлигини таъминлаш бўйича прокурор назорати хуқуқбузарлик содир этилганидан сўнг намоён бўлмоқда. Бир сўз билан айтганда, асосий эътибор хуқуқбузарликларни барвақт аниқлаб, уларнинг олдини олишга эмас, балки оқибатлари билан курашишга қаратилмоқда. Бундай ҳолатга чек қўйиш вақти келди” [3], деб таъкидлагани прокуратура органлари фаолиятини тубдан қайта кўриб чиқишга асос бўлди.

Прокуратура органларининг шаклланиши ва ривожланишига оид илмий изланишларнинг таҳлилидан кўриш мумкинки, ушбу органлар тарихий, ижтимоий-сиёсий вазият, хуқуқий тизимларнинг хусусиятлари, мақсад ва ваколатларининг ўзига хослиги нуқтаи назаридан шаклланиб, такомиллашиб борган.

Хуқуқий адабиётларда прокуратуранинг шаклланиш ва ривожланиш генезисини тадқиқ этиб, тизимларининг мазмуни ва эволюцияси ҳақида турли назария ва концепциялар таклиф қилинади [4]. Хусусан, америкалик олим Ю. Ма (*Yue Ma*) Англия, Европа ва Америкада жиний таъқибнинг тарихий ривожланишини ўрганиб, турли тарихий, маданий ва сиёсий кадриятларнинг ҳозирги прокуратура тизимларининг шаклланишига таъсирини ёритаркан, ушбу ривожланишда муҳим ролни сиёсий институтлар ўйнайди, деб ҳисоблайди ҳамда бунга кўплаб мисоллар келтиради [5].

Инглиз олими Б.Форст (*Brian Forst*) эса прокуратуранинг ваколатига алоҳида урғу беради, унга кўра прокуратура тизими келиб чиқиши ва ривожланишини ўрганишда уни **мақсад ва ваколатларига** кўра ажратиш ҳамда функционал қиёслаш ғоят муҳим [6].

Айрим адабиётларда прокуратура тизими келиб чиқиши ва моҳиятидаги фарқлар ва уларнинг мазмуни миллий хуқуқ тизимларининг хусусиятларидан келиб чиқиши қайд этилади. Масалан, М.Тонри (*M. Tonry*) континентал Европа хуқуқий анъаналари ва инглиз-америка



(ва умумий ҳуқуқ) тизимларида прокуратура фаолияти мазмуни тегишлича “қонунийлик принципи” (*legality principle*) ва “мақсадга мувофиқлик принципи” (*expediency principle*) асосига қурилганлигини таъкидлайди. Қонунийлик принципи амал қиладиган континентал Европа юрисдикциялари (масалан, Франция, Германия, Италия)да прокурорлар алоҳида ишларни кўриб чиқишда расман чекланган ёки алоҳида ваколатга эга эмас [7].

Бундан ташқари, умумий ҳуқуқ тизимлари мақсадга мувофиқлилик тамойилига амал қилишини доим ҳам адолатли деб бўлмайди, чунки бунда прокурор қарорларига сиёсий таъсир қонуний ҳисобланади (улар тегишли округлар бўйича сайланади ва сиёсий босимлар остида бўлади).

**Рақобатли** (*adversarial*) ва **инквизиториал** (*inquisitorial*) тизимлар ҳуқуқ тизимини иккига – континентал Европа ва англиз-америка (умумий ҳуқуқ)га бўлинишини ифодалайди. Яъни прокуратура англиз (умумий) ҳуқуқ тизимларида рақобатли, Европа ҳуқуқий тизимларида (Ўзбекистонда ҳам) эса инквизиториал (таъкиб қилувчи) мазмунга эга. Рақобатли тизимларда судлар кўрилатган жиноий иш ҳақида маълумотга эга бўлмайдилар, процессда прокурор ва адвокатлар қоидалар ва ахлоқий меъёрлар доирасида далиллар ва асосларни тақдим этишади. Судья ёки ҳакамлар ҳайъати тақдим этилган маълумотларга асосланиб, бир қарорга келади. Аксинча, инквизиториал тизимларда судлов жараёни жиноят ва судланувчининг айби ҳақидаги ҳақиқатни очишга қаратилган бўлади ва судлов тизими, прокуратура ҳам шунга масъул бўлади. Бу тизимда прокуратура далиллар тўплайди ва айбловни қўллаб-қуватлайди, суд эса муҳокамада фаол иштирок этади, далилларни баҳолайди, судланувчи ва гувоҳларни сўроқ қилади (рақобатли тизимда эса икки томон судга нисбатан фаолроқ бўлади), жазо тайинлайди [8].

Ҳуқуқшунос олим Райт (*R. Wright*) Америка прокуратура тизимларини таҳлил қилиб, улар тарихан дискрецион ваколатларга эгаллиги ҳамда мақсадга мувофиқлик принципи асосидаги фаолиятини тарихий контекстда ўрганган. Унга кўра, бу тизим АҚШга Европа ҳуқуқи (Франция)дан кириб келган бўлиб, аввалроқ у инквизиториал (таъкиб қилувчи) хусусиятга эга бўлгани ва эволюция натижасида бугун рақобатли (*adversarial*, яъни адвокатура ва прокуратура рақобати) хусусиятга эгаллигини таъкидлайди [9]. Шунингдек, у прокуратура бугунги ҳуқуқий стандартларга, жамоат хавфсизлиги ва жиноий судлов талабларига жавоб бериш учун етарли ваколатларга эга бўлиши зарурлигини муҳокама қилади.

Рус олимлари Т.Вилкова, Р.Мазюкларга кўра, Францияда мутлақ монархия даврида вужудга келган таъкиб қилувчи орган сифатида прокуратура Россия (у орқали Ўзбекистонга – *изоҳ.*)га империя даврида кириб келгани ҳам бугунгача прокуратура фаолияти қонунийлик принципи ҳамда инквизиториал хусусиятларини сақлаб қолганини таъкидлайди [10].

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида прокуратура шаклланиши ва ривожланиши (эволюцияси) ҳамда моҳиятига оид бир неча назариялар ишлаб чиқилганининг гувоҳи бўлишимиз мумкин.

Умуман олганда, прокуратуранинг шаклланишига оид илмий-назарий қарашлар тизимида прокуратура органлари сиёсий жараёнлар таъсири остида бўлиши ва унинг моҳияти ташкилий жиҳатга кўра белгиланишини ҳамда бошқа бир неча омиллар билан боғлиқлигини асослантирувчи *ҳуқуқий жараён, ижтимоий назорат, институционал, сиёсат ва ресурсларга қарамлик назариялари* илгари сурилгани алоҳида эътиборга лойиқ.

**Ҳуқуқий жараён назариясига** (*Legal Process Theory*) кўра, прокуратура тизимининг эволюцияси (ривожланиши) ўзгарувчан ҳуқуқий ландшафт ва ижтимоий эҳтиёжларга жавоб эканлигини кўрсатади. Бу назария ҳуқуқшунос мутахассисларнинг, шу жумладан прокурорларнинг қонунийлик ва адолатни таъминлашда муҳимлигини таъкидлаб, қонунлар, ижтимоий нормалар ва ҳуқуқий тартиб-қоидалардаги ўзгаришлар **прокурорнинг роли ва масъулиятининг эволюциясига** тўртки бўлади деб ҳисоблайди [11].

**Ижтимоий назорат назарияси** (*Social Control Theory*) эса, прокуратура тизими ижтимоий тартибни сақлаш ва жиноий ҳагги-ҳаракатларни назорат қилиш механизми сифатида ривожланади, деб таъкидлайди. Унга кўра, прокурорлар жиноий фаолиятни бартараф этиш ва олдини олиш учун келиб чиққан ва шу йўлда ривожланиб бораётган ижтимоий назорат агентлари сифатида кўрилади [12].

**Институционал назарияда** (*Institutional Theory*) прокуратура тизимининг ташкилий жиҳатларига эътибор қаратилади, унинг ташқи босим ва таъсирларга қандай мослашиши ўрганилади. Ушбу назарияда прокуратура тизимининг келиб чиқиши ва ривожланиши



қонунчиликдаги ўзгаришлар, жамоатчилик таъсири ва ҳуқуқий муҳит каби институционал босимларга жавоб сифатида қаралади. Прокурорлар ўз амалиётлари ва устуворликларини институционал меъёрлар ва тахминларга мослаштириши мумкин [13].

**Сиёсат назарияси** (*Policy Feedback Theory*) эса ўтмишдаги сиёсат жорий ва келажакдаги сиёсат қарорларига, шу жумладан прокуратура тизими билан боғлиқ қарорларга қандай таъсир қилишини ўрганади. Бу назария тарафдорлари прокуратура тизими мазмуни ўтмишдаги сиёсат ва амалиётлар жорий қарорлар қабул қилинишига таъсир қиладиган тесқари алоқа занжирлари орқали шаклланади, деб ҳисоблайди. Масалан, баъзи прокуратура стратегияларининг муваффақияти ёки муваффақиятсизлиги келажакдаги ёндашувларга таъсир қилишини совет ҳукумати томонидан 1918 йилдан прокуратура тизимининг тугатилиши ва кейинроқ уни қайтадан бошқача мазмунда ташкил этилиши ҳамда ушбу совет сиёсати бутун мамлакатдаги прокуратура мазмунига бугунгача таъсир этишида кузатиш мумкин [14].

**Ресурсларга қарамлик назариясига** (*Resource Dependency Theory*) кўра, ташкилотларнинг, шу жумладан прокуратура тизимининг шаклланиши ва ривожланишига моддий таъминот (маблағлар), кадрлар ва давлатнинг ёрдами каби ресурсларга бўлган эҳтиёж катта таъсир ўтказди. Ресурсларнинг мавжудлиги ва тақсимланишидаги ўзгаришлар прокурорлик стратегиялари ва устуворликларининг ўзгаришига олиб келиши мумкин [15].

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1) Йўлдошев Н. Янги Ўзбекистон прокуратураси: ислохотларнинг дастлабки самаралари // Халқ сўзи. № 184-185 (7964-7965). 2021 йил 27 август. 5-б.
- 2) Ўзбекистон Республикасининг 19.12.2016 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси прокуратура органлари ходимлари кунини белгилаш тўғрисида”ги ЎРҚ-414-сон Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 51-сон, 578-модда.
- 3) Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 194 б.
- 4) Liu, T. (2020). Research on the Current Operation Situation of the Chief Prosecutor System.
- 5) Yue Ma. (2008). Exploring the Origins of Public Prosecution. *International Criminal Justice Review*, 18(2), 190-211. <https://doi.org/10.1177/1057567708319204>.
- 6) Forst, Brian, & Brosi, Kathleen B. (1977). A theoretical and empirical analysis of the prosecutor. *The Journal of Legal Studies*, 6(1), 177–191.
- 7) Yue Ma. (2008). Exploring the Origins of Public Prosecution. *International Criminal Justice Review*, 18(2), 190-211. <https://doi.org/10.1177/1057567708319204>.
- 8) Tonry, M. (2012). Prosecutors and Politics in Comparative Perspective. *Crime and Justice*, 41(1), 1–33. <https://doi.org/10.1086/666975>.
- 9) Wright R. F. (2017a). Reinventing American prosecution systems. *Crime and Justice*, 46(1), 395–439. <https://doi.org/10.1086/688463>.
- 10) Vilkova, T.Y., Maziuk, R., & Khokhryakov, M. (2022). Expediency as the Principle and Grounds for Decision-Making in Criminal Proceedings: Foreign Experience and the Prospects for Using it in Russia. *Russian Journal of Criminology*.
- 11) Forst, B., & Brosi, K. B. (1977). A Theoretical and Empirical Analysis of the Prosecutor. *The Journal of Legal Studies*, 6(1), 177–191. <http://www.jstor.org/stable/724193>.
- 12) <https://www.simplypsychology.org/social-control-theory.html>.
- 13) Hendry, J., & King, C. (2017). Expediency, Legitimacy, and the Rule of Law: A Systems Perspective on Civil/Criminal Procedural Hybrids. *Criminal Law and Philosophy*, 11, 733-757.
- 14) Yue Ma. (2008). Exploring the Origins of Public Prosecution. *International Criminal Justice Review*, 18(2), 190-211. <https://doi.org/10.1177/1057567708319204>.
- 15) Forst, B., & Brosi, K. B. (1977). A Theoretical and Empirical Analysis of the Prosecutor. *The Journal of Legal Studies*, 6(1), 177–191. <http://www.jstor.org/stable/724193>.



ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА ҚАДИМГИ ДАВР ВА ЎРТА АСРЛАРДА  
ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН НАЗОРАТ ҚИЛИШ ХУСУСИДА

Махмудов Алишер Абдусалимович,  
Ўзбекистон Республикаси Хуқуқни муҳофаза қилиш  
академияси мустақил изланувчиси,  
юримдик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

**АННОТАЦИЯ:** Юртимизнинг яқин ва узоқ ўтмишидаги қонунчилик ижросини назорат қилиш масалаларини тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга эга. Мазкур мақолада муаллиф ушбу даврларда қонунийликни таъминлашнинг ўзига хос хусусиятларини очиб беришга ҳаракат қилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** прокуратура, муҳтасиб, қонунийлик, қонунчилик ижросини назорат.

Муҳтарам Президентимизнинг раҳбарлигида мамлакатимизда барча соҳаларда улкан ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу ислохотларнинг туб моҳияти, аввало, инсон қадрини улуғлаш, фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини рўёбга чиқариш, халқимизнинг тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш, турмуш фаровонлигини оширишга қаратилганлиги билан ҳам аҳамиятлидир. Очқиклик ва шаффофликни таъминлаш, барча соҳаларни рақамлаштириш, инсон омилини қисқартириш чораларига алоҳида масъулият билан ёндашилмоқда. Энг муҳими, бугун тўла ишонч билан айтиш мумкинки, мамлакатда ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлаш нафақат ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, балки бошқа идоралар ва кенг жамоатчиликнинг умуммиллий иши ва муҳим вазифасига айланди.

Дарҳақиқат, “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунда Ўзбекистон Республикаси прокуратура органларининг асосий вазифалари сифатида қонун устуворлигини таъминлаш, қонунийликни мустаҳкамлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ҳамда эркинликларини, жамият ва давлатнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларини, Ўзбекистон Республикаси конституциявий тузумини ҳимоя қилиш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактика қилиш санаб ўтилган.

Юртимиз ҳудудида қонунийликни таъминлаш ўзига хос ва мос тарихга эга.

Шарқда, хусусан, юртимиз ҳудудида ҳам қонунчилик ижросини назорат қилиш турли шаклларда амалга оширилганини манбалар тасдиқлайди. Ҳар бир соҳа каби ҳам қонунчилик ижросини назорат қилиш соҳасининг ҳам ўз тарихи, асрлар оша шаклланган ҳуқуқий қадриятлари мавжуд [1].

Нафақат зардўштийлик динининг муқаддас китоби, балки миллий давлатчилигимиз тарихи бўйича илк ёзма манба ҳисобланган Авестода давлат бошқаруви сиёсий-ҳуқуқий тамойиллар асосида амалга оширилганлиги, “заратуштроэма” деб аталган Оқсоқоллар кенгашининг мўътабар уламози бўлган коҳин эса, Олий судья вазифасини бажарганлиги манбаларда қайд этиб ўтилган. Қонунлар ижроси устидан назорат функциясини ҳам бу даврда “заратуштроэма” бажарган [2].

Ўрта асрлардаги ислом ҳуқуқи амал қилган давлатларда учта суд ва ярим суд институтлари пайдо бўлган: қози (суд ҳокимияти), мазалим (омбудсман), ҳисбаҳ ёки ихтисаб. Ҳисбаҳ (*Hisbah*) ёки ихтисаб биринчи навбатда шариат кўрсатмаларининг амалда бажарилишини, хусусан, яхшиликка даъват (даъват ила ал-хайр) ва амри маъруфни ва ёмонликдан қайтармоқни ўзида мужассам этган (амр би ал-маъруф ва нахий ан ал-мункар) [3]. Ҳисбани амалга оширувчи шахс муҳтасиб деб аталиб, ўз функцияларига кўра бугунги прокуратурага анча яқин институт сифатида кўрилади. Айрим олимлар ислом дунёсидаги биринчи муҳтасиб халифа Умар ибн Хаттоб бўлганини айтишади. Лекин Р.Буклей (R.Buckley) “ушбу назорат институти исломга қадар ҳам Арабистон яриморлида мавжуд бўлган” [4], деб ҳисоблайди.

Дастлаб, Исломда қозилик лавозими жорий этилиб, барча ҳуқуқ-тартибот ишлари улар томонидан юритилган. Ҳукуматнинг вакили ҳисоблангани учун қозилар ҳукмдор томонидан тайинланган. Кейинчалик шариат нормаларининг ривожланиши билан уларга риоя этилишини назорат қилиш учун алоҳида тузилма – ҳисба (қонунлар назорати) ташкил этилди. Ушбу фаолиятни амалга ошириш учун муҳтасиб лавозими жорий этилди. Арабча ҳисобланган “ҳисба” ва “муҳтасиб” сўзларининг ўзаги “ҳасаба – ҳисобга олиш” бўлиб, муҳтасиб – Ислом маънавий меъёрларининг ҳаётга татбиқ этилишини назорат қилувчи махсус ташкилотнинг хизматчиси маъносини билдирса, ҳисба эса – шу ташкилотнинг ўзини англатади. Айнан шу





даврдан бошлаб қонун-қоидалар ижроси устидан назорат қилиш вазифаси билан алоҳида тузилма ва шахслар шугулланадиган бўлди [5].

Шундай қилиб, мухтасиб институти Марказий Осиёга Араб халифалиги таъсири остида кириб келди ва ривожланди. Таъкидлаш керакки, мухтасиблар ҳақидаги илк эслатмалар ўрта асрлар Шарқининг буюк арбобларидан бири Низом ул-Мулкнинг машхур “Сиёсатнома” асарида қайд этилган [6].

Қайд этиш ўринлики, Г.Маликова мухтасиб (раис) институтининг шаклланиши ва ривожланишини жиддий ҳамда чуқур ўрганган миллий олима ҳисобланади. У мусулмон ҳукукида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга қаратилган, даставвал савдогарлар фаолиятини назорат қилиш институти сифатида ташкил топганига урғу беради [7]. Унинг таъкидлашича, мухтасибларнинг асосий фаолият йўналишларидан бири бозорларда тартиб ва қонунийликни таъминлаш бўлган, чунки бозорлар одамлар кўп тўпланадиган, учрашадиган, ахборот алмашадиган муҳим нуқта бўлган [8].

Бинобарин, мазкур даврда, бозорлар барча янгиликларни эшитадиган, бир-бирига етказадиган ва хабарларни муҳокама этадиган марказ бўлганлиги учун жамоатчилик фикрини мувофиқлаштириш, муайян даражада, мухтасибларга ҳам боғлиқ бўлган. Улар ўлчов ва тарозиларнинг тўғрилигини, белгиланган нархларга риоя этилишини ва диний мажбуриятларнинг бажарилишини назорат қилганлар [9]. Шунингдек, ҳукмдор (амир) томонидан ваколат берилган мухтасиб жамиятда қонунийлик ва тартибни таъминлаб, қонун-қоидаларга зид хатти-ҳаракатларга қарши курашади.

Г.Маликова фикрича, халифалик даврида мухтасибларга ваколатни қозилар берган бўлса, Марказий Осиёда кейинги даврларда мухтасиблар амир бўйсунувига ўтишган ва ундан ваколат олишган. Бу лавозимга тайинланадиган номзодлар сайид (Муҳаммад (с.а.в.)нинг қизлари Фотима ва куёвлари Али розияллоху анҳудан тарқалган авлодлари) ва хўжалар (тўрт саҳобаи киромларнинг авлодларидан) орасидан танланган [10].

Мухтасибларнинг асосий вазифаси қонунбузарликларнинг олдини олиш бўлган. Кейинчалик жамоат тинчлиги ва осойишталигини муҳофаза қилиш, халқ маънавиятини назорат қилиш, шунингдек шаҳар кўчаларининг тозаллиги, шаҳардаги ҳуқуқий тартиб, саломатлик муҳофазаси каби вазифалар ҳам улар зиммасига юкланди [11].

Демак, мухтасиб институти мусулмон ҳукукида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга қаратилган қонунлар ижросини назорат қилиш, авваламбор, савдогарларнинг фаолиятини текшириб бориш учун вужудга келганлигини ва кейинчалик фаолият доираси кенгайиб борганини кўриш мумкин.

Юртимизда мўғуллар истилосидан сўнг мухтасибларнинг мавқеи бироз пасайди. Сабаби улар ўзларининг “Ясо” қонунларини бош қомусга айлантирганлар ва бунинг оқибатида “Ясо” қонунлари ва шариат ўртасида зиддиятлар вужудга келган. Шариат амалларини бажарган мусулмонларга нисбатан шафқатсиз сиёсат олиб борган чингизийлар даврида ясовул ёки “Ясо амири” бўлган амалдор чиқарилган ҳукм ва қарорлар ҳамда Чингизхон ясоқларининг бажарилишини назорат қилган. Бундан ташқари, ясовул кўчманчиларда суд ишларига ҳам бошчилик қилган. Мухтасиблар эса шариат қонунлари амал қилган ҳудудлардагина фаолият олиб борганлар. Амир Темур Мовароуннаҳрда ҳокимият тепасига келгач, мухтасибликнинг мавқеи тўла тикланган ва унинг вафотидан кейин ҳам бутун темурийлар даврида амалдаги қонун-қоидалар устидан назорат вазифаларини мухтасиблар шараф билан адо этишган [12].

Г.Маликова назорат институтининг мусулмон ҳуқуқи нуқтаи назаридан ривожланиш динамикаси миллий тадқиқотчилар томонидан ўрганилмаган [13], деб қайд этади. Шу сабабли ҳам, XIX асрда, яъни Россиянинг Ўрта Осиёни босиб олишидан аввал – Бухоро амирлиги, Хива ва Қўқон хонликлари каби давлатларда прокуратура ва шунга ўхшаш органлар умуман мавжуд бўлмаган ва мусулмон ҳуқуқи прокурор назорати каби институт ҳақида ҳеч қандай тасаввурга эга эмаслиги борасида нотўғри ва асоссиз хулосалар чиқарилган [14]. Бундай фикрларга қарши чиққан О.Мадалиев мухтасиблик институти ва прокуратура ўртасида ўзаро манتيқий боғлиқлик мавжудлигини ҳамда уларнинг муайян ваколатлари ўхшашлигини қайд этади [15].

А.Логинов, Н.Кучимов ва Гасанли Азер Абдул-Али ўғли каби хорижлик олимлар мухтасиблик институтини омбудсман институтининг прототиби сифатида тадқиқ этадилар. Хусусан, А.Логиновнинг таъкидлашича, омбудсман – подшо ва парламент ваколатларини тенглаштириш мақсадида ташкил этилиб, фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳаққоний



фаолиятини кузатувчи махсус мансабдор шахс сифатида намоён бўлади [16]. Н.Кучимов эса мухтасиб ва уларнинг ёрдамчилари ўғриларни ҳибсга олганини таъкидлаб, бу ваколат Фарбий Европада омбудсманга тегишли бўлганлигини қайд этади [17]. Гасанли Азер Абдул-Али ўғли мухтасибларнинг асосий вазифаси назорат ҳисобланишини алоҳида таъкидлаб ўтади [18].

Г.Маликова эса ўзининг бу борадаги муносабатини билдириб, мухтасиблар омбудсманнинг эмас, балки прокуратура институтининг “қондош акаси” эканлигига урғу беради ва бугунги кундаги прокуратуранинг вазифалари, хусусан, унинг назорат функциясини ўтмишдаги мухтасиб институти вазифалари билан таққослаш ноўрин, деб ҳисоблайди. Шунингдек, мухтасиблик институти ҳақидаги фикрларини умумлаштириб, мухтасиблар бугунги кунда прокуратуранинг асосий вазифаси ҳисобланган қонунлар ижроси устидан назорат функциясини бажаргани, кўшинлар орасидаги мухтасиблар ҳарбий прокурорлар институтининг шаклланишига асос бўлгани, Чор Россияси томонидан мухтасиблар институтининг тугатилиши кўпгина ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларнинг, айниқса бозорларда авж олишига сабаб бўлганини таъкидлайди [19].

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1) Қонун ҳимоясига ҳаёт бахшида... Ўзбекистон Республикаси прокуратурасининг 30 йиллигига бағишланади. – Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 10-б.
- 2) Ўша манба, 11-б.  
Akhtar, S. (2009). The Institution of Hisbah and Demand for its Revival. Policy Perspectives, 6(1), 89–104. <http://www.jstor.org/stable/42909227>
- 3) Buckley, R. P. (1992). The Muhtasib. *Arabica*, 39(1), 59–117. <http://www.jstor.org/stable/4057074>
- 4) Пертушевский И.П. Ислам в Иране в VII – XV веках. – Ленинград, 1966. С. 195.
- 5) Низом ул-Мулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. 48-б.
- 6) Маликова Г.Р. Ўзбекистон прокуратурасининг генезиси. Монография. – Тошкент: “Университет”, 6-б.
- 7) Маликова Г.Р. Генезис прокуратуры Республики Узбекистан: «Восток – дело тонкое» // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. №4. 2020. С. 80-96.
- 8) Қонун ҳимоясига ҳаёт бахшида... Ўзбекистон Республикаси прокуратурасининг 30 йиллигига бағишланади. – Тошкент: Тамаддун, 2022. - 12-б.
- 9) Халикова Р.Э. Об административном управлении Бухарского ханства во второй половине XVIII – начале XIX вв. // <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-administrativnom-upravlenii-buharskogo-hanstva-vo-vtoroy-polovine-xviii-nachale-xix-vv/viewer>
- 10) Қонун ҳимоясига ҳаёт бахшида... Ўзбекистон Республикаси прокуратурасининг 30 йиллигига бағишланади. – Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 12-б.
- 11) Қонун ҳимоясига ҳаёт бахшида... Ўзбекистон Республикаси прокуратурасининг 30 йиллигига бағишланади. – Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 14-б.
- 12) Маликова Г.Р. Генезис отечественной прокуратуры // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси ахборотномаси. №2 (42). 2020. С. 19.
- 13) Махбубов М. Создание и развитие органов прокуратуры в Узбекистане: автореф. дисс. ... докт. юрид. наук. – Тошкент, 1993. С. 4.
- 14) Мадалиев О.М. Прокурор назорати. Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ, 2009. – Б. 68-71.
- 15) Логинов А.В. Становление института уполномоченного по правам человека (омбудсман) в Республике Абхазия и в Российской Федерации // Московский журнал международного права. 2018. № 2. С.25.
- 16) Кучимов Н. Должность «мухтасиб» в истории государств Востока и его влияние на формирование института омбудсмана // Единый всероссийский научный вестник. 2016. № 2. С.25-28.
- 17) Гасанли Азер Абдул-Али Оғлы. Мухтасибская институциональная система как версия совершенной организации правозащитной системы омбудсманского рода // Политика и общество. 2009. №1. С.54-59.
- 18) Маликова Г.Р. Ўзбекистон прокуратурасининг генезиси. Монография. – Тошкент: “Университет”, 29-б.



ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МОҲИЯТИ ВА ҲИМОЯ ҚИЛИШ  
МЕХАНИЗМЛАРИ.

Мирзобоев Миродил Минавварович

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши  
хузуридаги Судьялар олий мактаби тингловчиси

Телефон: +998 97 501 00 88

*mmirodil.1986@gmail.com*

**Аннотация:**

Ушбу мақолада виждон эркинлигининг ҳуқуқий моҳияти, унинг аҳамияти ва халқаро ҳамда миллий қонунчиликдаги ҳимоя қилиш механизмлари таҳлил қилинган. Шунингдек, виждон эркинлигини таъминлаш ва унинг бугунги кундаги муаммоларига йўналтирилган самарали чора-тадбирлар таклиф этилган.

**Калит сўзлар:** виждон эркинлиги, дин эркинлиги, ҳуқуқий ҳимоя, қонуний тартиб, қонунчилик, халқаро ҳамкорлик, инсон ҳуқуқлари.

**I. Виждон эркинлигининг ҳуқуқий моҳияти**

Виждон эркинлиги – ҳар бир инсоннинг ўзининг рухий ва ахлоқий қонунларига мувофиқ ҳаёт кечириш, динни эркин танлаш ва унга амал қилиш, ўз эътиқодига асосланган қарорлар қабул қилиш эркинлигидир. Бу ҳуқуқ жаҳон бўйлаб инсон ҳуқуқлари шартномаларида ва қонунларида кафолатланиб, ҳар бир шахснинг ўз қалбига ва ишончларига бўлган ҳурматни, ўз эътиқодига асосланган равишда ҳаёт кечириш ҳуқуқини таъминлайди.

Ушбу ҳуқуқ нафақат дин билан боғлиқ бўлиб, балки ҳар бир инсоннинг фикрлаш, ҳис қилиш ва янгиликлар сўзлаш эркинлигини ҳам қамраб олади.

Виждон эркинлиги — фуқароларнинг хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик бўйича кафолатланган конституциявий ҳуқуқидир.

**II. Виждон эркинлигини ҳимоя қилиш механизмлари**

Виждон эркинлигини ҳимоя қилиш механизмлари бир қатор халқаро ва миллий қонунчилик асосида амалга оширилади.

1. **Халқаро ҳимоя механизмлари** БМТнинг Инсон ҳуқуқлари декларацияси ва Европадаги инсон ҳуқуқлари конвенциясида виждон эркинлиги кафолатланган. Шунингдек, унинг бузилишига қарши халқаро судлар ва кўмиталари бор.

- **БМТ Инсон ҳуқуқлари декларацияси (1948)** – 18-моддада виждон ва дин эркинлиги таърифланган. Унга кўра, ҳар бир инсон фикр, виждон ва дин эркинлиги ҳуқуқига эга эканлиги таъкидланган. Бу ҳуқуқ ўз дини ёки эътиқодини ўзгартириш эркинлигини, шунингдек, таълимотда, тоат-ибодат қилишда ва диний расм-русм ҳамда маросимларни оммавий ёки хусусий тартибда адо этиш, ўз дини ёки эътиқодига бир ўзи ҳамда бошқалар билан бирга амал қилиш эркинлигини ўз ичига олиши белгиланган.

- **Европа инсон ҳуқуқлари конвенцияси** – 9-моддада ҳар бир шахс фикр, виждон ва дин эркинлиги ҳуқуқига эга эканлиги, ушбу ҳуқуқ доирасида инсон ўз дини ёки эътиқодини эркин танлаш ва ўзгартириш, шунингдек, ушбу эътиқодини яқка ҳолда ёки жамоа билан биргаликда, махфий ёки ошкора равишда ифода этиш, ибодат қилиш, таълим бериш, диний маросимларда иштирок этиш ва тадқиқот олиб бориш каби имкониятларга эга бўлиши қайд этиб ўтилган.

- **Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияси** – 14-моддада иштирокчи давлатлар боланинг фикрлаш, виждон ва дин эркинлиги ҳуқуқини ҳурмат қилиши, шунингдек, оналар ва зарур ҳолларда қонуний васийлар боланинг ушбу ҳуқуқларини ривожланаётган қобилиятларига мос равишда амалга оширишида унга раҳбарлик қилиш ҳуқуқи ва мажбуриятига эгаллиги мустаҳкамланган.

2. **Ўзбекистон Республикасининг қонунлари** Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва Қонунларида виждон эркинлиги билан боғлиқ қатор муҳим нормалар мавжуд. Конституциянинг 35-моддасида ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланганлиги, ҳар ким хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эгаллиги, диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмаслиги қатъий белгилаб қўйилган. Шунингдек, Ўзбекистонда “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонун ҳам мавжуд бўлиб, у одамларнинг диний эркинликларини ҳимоя қилади.



III. Виждон эркинлигини таъминлашдаги муаммолар Виждон эркинлиги соҳасидаги муаммолар кўпинча сиёсий ва ижтимоий вазиятларга боғлиқ бўлиб, қуйидаги муаммоларни қамраб олади:

1. Диний ва эътиқод эркинлигининг чекланиши – баъзи давлатларда диний эркинликларга, масалан, диний маҳкамаларга ёки диний маркаларга кўрсатилган чекловлар сабабли виждон эркинлиги бузилади.

2. Миллий ва диний камситишлар – инсонлар ўзининг эътиқодига асосан ижтимоий, иш жойи ва сиёсий ҳаётда камситилади.

3. Маълумотлар ва маълумотга бўлган ҳуқуқнинг чекланиши – кўпчилик одамлар, айниқса, диний этник гуруҳлар ўз эътиқодларини амалга оширишда ёки диний ақидаларини кенг оммага тарқатишда чекловларга дуч келадилар.

IV. Виждон эркинлигига бўлган хавф ва муаммоларни ҳал қилиш йўллари Виждон эркинлигини таъминлаш ва унинг бузилишига қарши курашиш учун қуйидаги чора-тадбирлар амалга оширилиши зарур:

1. Қонунчиликни такомиллаштириш – виждон эркинлигига боғлиқ ҳуқуқий нормаларни мунтазам равишда таҳрирлаш ва мукамаллаштириш, янги халқаро стандартларга мувофиқлаштириш.

2. Ҳуқуқий таълимни кучайтириш – инсонларнинг ҳуқуқий билимини ошириш, виждон эркинлиги ва унинг ҳимояси тўғрисидаги ҳуқуқий тушунчаларни кенг тарғиб қилиш.

3. Диний ва маданий бағрикенгликни тарғиб қилиш – жамиятда турли дин ва эътиқодлар ҳақида ахборот бериш, улуғлашган ва хурматга лойиқ мулоқотни таъминлаш.

4. Ташкилотлар ва халқаро ҳамкорликни ривожлантириш – виждон эркинлиги соҳасидаги халқаро ташкилотлар ва платформадаги ҳамкорликни кучайтириш, умумжаҳон кўрсаткичларини ва стандартларини ривожлантириш.

### V. Хулоса

Виждон эркинлиги – инсон ҳуқуқларининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, унинг тўлиқ амалга оширилиши жамиятда барқарорликни таъминлашга ёрдам беради. Шунинг учун, виждон эркинлигини ҳимоя қилиш учун самарали ҳуқуқий механизмларни ривожлантириш, жамиятда дин ва эътиқодга нисбатан бағрикенгликни тарғиб қилиш ҳамда халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш зарур.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // <https://lex.uz>
2. БМТ Инсон Ҳуқуқлари Декларацияси // <https://www.un.org>
3. Европа Инсон Ҳуқуқлари Конвенцияси // <https://www.echr.coe.int>
4. Ўзбекистон Республикасининг “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz>
5. Халқаро ҳуқуқ ва дин эркинлигига оид тадқиқотлар // <https://www.ohchr.org>
6. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияси // <https://www.ohchr.org>





КУЧЛИ РУХИЙ ҲАЯЖОНЛАНИШ ҲОЛАТИДА ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ  
ЖИНОЯТИНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Ахмедов Шухратжон Камилович  
Жиноят ишлари бўйича  
Қўқон шаҳар судининг раиси

**Аннотация:** Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 98-модда-сида назарда тутилган кучли рухий ҳаяжонланиш ҳолатида қасддан одам ўлдириш жинояти-нинг таркиби ва квалификация қилиш масалалари, кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳола-тида жиноят содир этган шахсни индивидуал хусусиятлари, унинг хулқ-атвори, жиноят содир этишга ундовчи белгилари таҳлил қилинган. Шунингдек, кучли рухий ҳаяжонланиш ҳамда аффектни тушуниш бўйича асосий ёндашувлар, уларнинг ҳуқуқий ва психологик жиҳатдан тушуниш муаммолари батафсил кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** кучли рухий ҳаяжонланиш, аффект, кучли рухий ҳаяжонланиш ва аффект ҳолати, жиноят ҳуқуқи, психологик ҳолат, эмоция, жиноятчи шахси, баҳолаш мезонлари.

Жиноят қонунчилигини либераллаштириш ва айбдорга адолатли жазо тайинлашда мавжуд жиноят қонуни нормаларини чуқур илмий жиҳатдан таҳлил қилиш ҳамда уларни амалиётда қўллаш билан боғлиқ муаммоларни ечиш борасида таклифлар билдириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзида вазиятга боғлиқ равишда вужудга келиш характерини касб этувчи кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида қасддан одам ўлдириш жиноятида айбдорнинг ўзига хос ижтимоий хавфлилик даражасини инобатга олиниши муҳим аҳамиятга эга.

Гарчи кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида шахснинг хулқ-атвори ўзи учун одатдагидек бўлмасада, унда айбдор шахсининг ўзига хос жиҳатлари ва аниқ социал-психологик сифатлари намоён бўлади.

Аффект (кучли рухий ҳаяжонланиш) ҳолатида содир этилган жиноятни қонун билан муҳофазаланадиган ижтимоий муносабатларга зарар етказувчи ижтимоий хавфли қилмиш сифатида эмас, балки жиноятни содир этишга олиб келувчи бир қанча сабабларга эга бўлган социал ҳодиса сифатида баҳолаганимизда, кўпчилик ҳолатларда айбдор ижтимоий хавфли қилмиш содир этишни тўғридан-тўғри мақсад қилмаганлигига ва уни ўзидаги вазиятга нисбатан салбий таъсирини тўхтатишга етарли даражада куч топа олмаганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида пайдо бўлган низоли вазият кучли эмоционал энергияни ва жисмоний кучни бошқариш имкониятини чекловчи жараён билан бир вақтда юз беради ва у шахснинг психик жадаллигини тўсатдан ошириб юборувчи катализатор вазифасини ўтайди.

Бундай вазиятда шахс жиноят содир этиш ҳақидаги қарорни бу қарор тўғрилигига амин бўлганлиги учун эмас, балки бу ҳолат ўз ҳаракатини тўғри танлашини қийинлаштирувчи шароитда юз берганлиги ва бу шахсга чуқур ўйланган қарор қабул қилиш имкониятини бермаслиги билан тавсифланади.

Кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатидаги шахс хулқ-атворни танлаш жараёни ўйланмаган ҳолда юз беради, лекин бу ҳолат хулқ-атворни қўққисдан юз беришини англамайди, бу вақтда ҳам индивид аниқ бир социал назорат таъсири остида бўлади.

Индивиднинг шахсий фазилатларида тажовузкор хулқ-атвор куйидаги икки кўринишда намоён бўлади:

1. Етарли даражада ўзини-ўзи бошқариш қобилиятига эга бўлмаган шахс. Бундай шахслар кўпчилик томонидан ўрта меъёрга қабул қилинадиган ёки умуман эътибор ҳам қилинмайдиган вазиятларга ҳам тажовузкор жавоб беришга мойил бўлади. Бу каби ҳиссий беқарор шахсларда аффект кўпчилик ҳолатларда кутилмаган кўзғатувчи таъсирлар (кутилмаганда қилинадиган тажовуз, ҳақорат қилиш ва бошқалар) натижасида юзага келади.

2. Ўзини-ўзи бошқариш қобилияти юқори бўлган шахслар ўзларининг тажовузкор хатти-ҳаракатларини боса олади, лекин алоҳида ҳолатларда улар ҳам ҳаддан ташқари тажовузкор ҳаракатларга қўл уруши мумкин. Бу шахсларни аффектни вужудга келишига нисбатан мойиллиги, аввало, ташқи ҳолат ёки вазиятга ва аффектни вужудга келишига



хизмат қилувчи руҳий қийинчиликларни тўпланишига нисбатан пассив шаклдаги муносабати билан ажралиб туради. Узоқ муддатли руҳий тушкунлик ёки қийинчиликлар ҳолати мавжуд шароитларда аффект арзимаган сабаб туфайли ҳам вужудга келиши мумкин. Бу ҳар иккала турдаги шахсий фазилатларга эга бўлган шахслар аффект ҳолатида портлашга мойил бўлади. Улар бир-биридан аффектни кўзғатувчи вазиятларнинг ўзига хос характери билан фарқланади.

Шахсда шаклланидиган хулқ-атвор шаклига тўхталадиган бўлсак, бу индивидни тасавурида бир неча маротаба такрорланиш натижасида ҳам вужудга келиши мумкин. Масалан, агар субъект ўз хотини хиёнат қилган тақдирда уни ўлдириши ҳолатини кўп маротаба тасаввур қилган бўлса, шу ҳолат ҳақиқий ҳаётда юз берган тақдирда худди шу шаклда ҳеч қандай иккиланишларсиз мазкур жиноятни содир этиши мумкин. Чунки, бу вақтгача субъект онгида бу жараён қатъий хулқ-атвор шакли сифатида мустаҳкам ўрин эгаллаб бўлган бўлади.

Кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида хулқ-атвор шаклини танлашда субъектни айнан қайси ижтимоий қадриятга зарар етказишга урунмоқчилиги муҳим рол ўйнайди. Бундай фикрга келишимизга сабаб, ҳатто аффект ҳолатида ҳам шахс ўзи учун жуда қадрли бўлган объектга зарар етказишга қўли бормайди.

Шу сабабли, юқори ҳуқуқий онг даражасига эга бўлган шахс ўч олиш эҳтиёжини қондириш учун бўлсада аффект ҳолатида қасддан одам ўлдира олмайди. Юқори ҳуқуқий онгининг таъсири туфайли шахснинг одам ўлдириш хулқ-атвор шаклини амалга ошириш даражаси пасайиб кетади. Бу каби ҳолатларда одам ўлдириш содир этилиши учун иродавий кучланиш зарур ва уни таъсирида одам ўлдириш хулқ-атвор шакли сифатида шахс томонидан қабул қилинади.

Бу ўринда қотилнинг психикасини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Тадқиқотлар кўрсатишича, кўпчилик (76%) маҳкумлар содир этган жиноятларини таснифи бўйича ўзларини фақат тергов ва суд муҳокамасида айбдор деб ҳисоблаб, ўз қилмишларига пушаймон бўлишган. Қолганлари ўз айбларини тан олишмаган (5,5%) ва қисман тан олишган (18,8%).

Ўрганилаётган жиноятларнинг ўзига хослиги шундаки, аффект ҳолатида жиноят содир этган шахс хулқ-атворида нафақат уни шахсини тавсифловчи салбий хусусиятлар (жамиятда ўрнатилган нормаларга зид зарарли одатлар ва қарашлар), балки, шахсни шаъни ёки қадр-қимматига қилинган ғайриқонуний тажовузларга нисбатан ўз муносабатини билдириш орқали жамиятда адолатни ўрнатишга бўлган айбдор позициясини ифодаловчи ижобий жиҳатлар ҳам таъсир кўрсатади. С.С.Ниезова олиб борган тадқиқотларга кўра, “одам ўлдириш жиноятининг 10 фоизида виктим ҳолат шахсларнинг эпизодик (вақтинчалик) хулқ-атвори оқибатида тасодифан юзага келса, 90 фоизида шахсларнинг актив- салбий виктим хулқ-атвори оқибатида юзага келади”.

Жиноятчи шахсини криминологик тавсифлашда социал - демографик белгилар муҳим рол ўйнайди. Ушбу белгилар аниқ бир шахсни шаклланиш манбаларини ва аффект ҳолатида субъектни жинойи хулқ-атворида таъсир кўрсатувчи ҳолатларни аниқлаш имконини беради.

Мазкур тоифадаги жиноят ишларини ўрганиш натижасида маҳкумларни куйидаги икки гуруҳга ажратиш мумкин:

Биринчи гуруҳга узоқ муддат давомида руҳий бузилиш ҳолатида бўлган; жабрланувчи томонидан мунтазам равишда ҳақоратга учраган, бир неча маротаба зўрлик ишлатиши натижасида салбий ҳис туйғуларни аккумуляция бўлишига олиб келган ҳамда шу каби бир вазият натижасида кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолати вужудга келган шахслар;

Иккинчи гуруҳга эса жабрланувчи билан нормал муносабатда бўлган, лекин жабрланувчи томонидан кутилмаганда содир этилган ахлоққа зид ёки ҳуқуққа хилоф ҳаракатлар натижасида аффект ҳолати вужудга келган ва жиноят содир этган маҳкумлар киради.

Жиноят содир этилгунга қадар жабрланувчи ва айбдор ўртасидаги ўзаро яхши муносабатни мавжудлиги, аввало, кутилмаганда жабрланувчи содир этадиган ҳуқуққа хилоф ёки ахлоққа зид ҳаракатларни айбдорда кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатини вужудга келтиришдаги юқори даражадаги таъсиридан далолат беради.

Ўрганилган жиноятларнинг кўпчилик қисми оилавий-маиший низолардан (оилада, қариндошлар ўртасида, қўшнилари ва бошқа яқин танишлар) келиб чиққан ҳолда содир этилган бўлиб, бу ҳолат жабрланувчи ва айбдорнинг бир-бири билан яқин таниш бўлганлигидан далолат беради.

Мазкур жиноятни криминологик тавсифида жиноят содир этган шахсни индивидуал-психологик ўзига хослиги, хусусан, асаб фаолиятининг тури, темпераменти, бошқа психофизиологик ўзига хослиги муҳим аҳамият касб этади. Ушбу хусусиятлар аффектни



вужудга келишини осонлаштиради ва бу ўз навбатида криминал хулқ-атворни амалга ошишига туртки бўлувчи омил бўлиб хизмат қилади. Бу шахснинг ўзига хос белгилари ҳамда бошқа жиноят содир этишга туртки бўлувчи ҳолатлар барчаси биргаликда бизга аффект ҳолатида содир этиладиган жиноятларда асосий ролни шахсни ижтимоий-психологик жиҳатлари ташкил этади, деган хулосага келишимизга олиб келади.

Шундай қилиб, индивид табиатини жамиятдан ажратган ҳолда тасаввур қилиб бўлмайди, чунки инсонни қобиляти узоқ йиллар давомидаги жамиятдаги ижтимоий муносабатлар жараёнида шаклланади ва бу ўз навбатида шахсни ижтимоий-психологик ривожланишига таъсир кўрсатади. Ижтимоий омиллар инсон руҳияти ва ҳаётини фаолиятида муҳим рол ўйнайди. Шу сабабли, шахснинг ғайриқонуний ҳаракатларни содир этишига нафақат эмоционал кўзғалиш асос бўлади, балки ушбу эмоционал портлашга замин ҳозирлаган ижтимоий-иқтисодий шароитлар ва жамиятнинг таъсири ҳам муҳим туртки бўлиши мумкин.

Демак, кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида қасдан одам ўлдириш жиноятини содир этган шахс бу ҳаракатлари билан ўзини ҳақиқий социал қиёфасини ҳам кўрсатади. Гарчи бу каби жиноятлар олдиндан ўйланмаган ҳолда содир этилсада, лекин у тасодифийликни ҳам ўзида касб этмайди, шахс ғайриқонуний ҳаракатлари орқали жамиятдаги ижтимоий қадриятларга бўлган иродавий муносабатини ифодалайди. Бу иродавий муносабатларни шаклланиши ва пайдо бўлишига эса жамиятдаги ижтимоий муносабатларнинг таъсири замин бўлиб хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/111453> . (Мурожаат этилган сана 11.03.2025 йил).

2. Алиев Х.Р. Жиноят ҳуқуқи. Хусусий қисм. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2021.

3. Солихов У.Б. Жиноят ва жазо назарияси. – Тошкент: Академия нашриёти, 2022.

4. Абдуллаев Ш.А. Жиноят психологияси ва криминалогик таҳлил. – Тошкент: Юристарлар нашриёти, 2020.

5. Каримов Б.К. Аффект ҳолатида содир этилган жиноятларнинг ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатдан таҳлили. – Тошкент: Фан, 2019.

6. Маҳмудов С. Одам ўлдириш жинояти: ҳуқуқий ва криминалогик таҳлил. – Тошкент: Адлия нашриёти, 2021.

7. Раҳимов Ж. Аффект ҳолатидаги жиноятларнинг криминалогик хусусиятлари // “Юристарлар журналі” – 2023, №3, 45–52-бетлар.

8. Сайфуллаев Н. Кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида содир этилган жиноятларни квалификация қилиш масалалари // “Ҳуқуқ ва бурч” – 2022, №2, 33–40-бетлар.

9. Йўлдошев Ф. Одам ўлдириш жиноятларининг психологияси ва уларнинг профилактикаси – Диссерт. юрид. фан. ном. – Тошкент: ТДЮУ, 2021.

10. Ҳасанов К. Жиноятчи шахсининг криминалогик хусусиятлари // “Иқтисод ва ҳуқуқ” – 2023, №5, 60–67-бетлар.



ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИ ЁКИ ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИДАН  
ҲУҚУҚҚА ХИЛОФ РАВИШДА ФойДАЛАНИШ ВА ЖИНОИЙ  
ЖАВОБГАРЛИККА ТОРТИШ МУАММОЛАРИ

Мухаммедов Жалолiddин Шарофжон ўғли,  
Судьялар олий мактаби тингловчиси

**АННОТАЦИЯ:** Мазкур мақолада йўл ҳаракати хавфсизлиги ёки транспорт воситаларидан ҳуқуққа хилоф равишда фойдаланиш ва жиноий жавобгарликка тортиш муаммолари, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 18-бобининг умумий мазмунини ёритиш ва унинг таркибий тузилишини таҳлил қилиш, амалдаги қонунчиликка киритилиши лозим бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар ва бу борадаги муҳим концептуал ёндашувлар илгари сурилган.

**Калит сўзлар:** йўл ҳаракати, транспорт воситалари, учиш қоидаларини бузиш, самовий ҳудуд, алоқа йўллари.

Йўл ҳаракати хавфсизлиги мамлакатнинг муҳим ижтимоий-иқтисодий ва демографик муаммоларидан бири саналиб, автотранспортдаги бахтсиз ҳодисалар бутун жамиятга ҳам, алоҳида фуқароларга ҳам катта моддий ва маънавий зарар етказади. Йўл-транспорт ҳодисалари меҳнатга лаёқатли ёшдаги кишиларни ишлаб чиқаришдан четлаштиришга, болалар ўлимига ёки ногиронлигига сабаб бўлиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида йўл ҳаракати хавфсизлиги ёки транспорт воситаларидан фойдаланиш қоидаларини бузганлик учун жавобгарлик чоралари ёки МЖТКда айрим қилмишлар учун учун маъмурий жавобгарлик назарда тутилган. Шунинг таъкидлаш керакки, ушбу ҳуқуқбузарликларни очишда жиддий қийинчиликлар юзага келмоқда, мамлакатнинг турли минтақаларидаги тергов ва суриштирув органларида нормаларни қўллашнинг ягона амалиёти мавжуд эмас. Йўл ҳаракати хавфсизлигига қарши жиноятлар тўғрисидаги тушунчалар ноаниқ бўлиб қолмоқда, мураккаблик суд ва терговда хато ва камчиликлар юзага келишига олиб келмоқда, жиноятларни квалификация қилишга салбий таъсир кўрсатмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига транспорт воситалари ҳаракати ва улардан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар тўғрисида алоҳида боб киритилган. Транспорт соҳасидаги жиноятларни алоҳида боб сифатида ажратиш таҳлил қилинаётган жиноятлар предмети турининг хусусиятларини аниқроқ акс эттиради, уларнинг хусусиятлари ва ижтимоий хавфлилик даражасини тушунишга кўмаклашади, тегишли малакани ошириш, ушбу жиноятлар гуруҳида жазони кўпроқ индивидуаллаштириш ва жавобгарликни чегаралаш имконини беради, шунингдек, уларни келтириб чиқарадиган сабаблар ва шарт-шароитларни янада мақсадли аниқлашга ёрдам беради [1].

Ўзбекистон қонун чиқарувчи органи томонидан таклиф этилган транспорт жиноятлари учун жавобгарлик қоидалари тизими бир қатор жиддий камчиликларга эга. Биринчидан, у йўл ҳаракати хавфсизлигига амалда тўсқинлик қиладиган барча жиноятларни қамраб олмайди. Автомобиль ёки бошқа транспорт воситасини ўғирламасдан ноқонуний эгаллаб олиш, самолёт, сув ёки темир йўл транспортини ўғирлаш ва олиб қочиш каби анъанавий ҳуқуқбузарликлар мавжуд. Тилга олинган нормалардан бири Жиноят кодексига мулкка қарши жиноятлар тўғрисидаги бобга, иккинчиси эса жамоат хавфсизлигига қарши жиноятлар ҳақидаги бобга киритилган.

Иккинчидан, Жиноят кодексининг “Транспорт ҳаракати ва улардан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар” бобида транспорт операциялари хавфсизлигига қарши эмас, балки бошқа турдаги ижтимоий муносабатларга қарши ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликни назарда тутувчи иккита янги таркиб мавжуд: алоқа йўлларини яроқсиз ҳолатга келтириш (263-модда); халқаро учиш қоидаларини бузиш (265-моддаси). Булардан биринчисининг тури бўйича объекти иқтисодий фаолият соҳасидаги муносабатлар ёки жамоат хавфсизлиги ҳисобланади, аммо хавфсиз транспорт операциялари соҳасидаги муносабатлар эмас. Демак, алоқа йўлларини қуриш, улардан фойдаланиш ёки уларни таъмирлашда хавфсизлик қоидаларини бузиш транспорт жинояти сифатида квалификация қилинмайди, балки иқтисодий жиноят ёки жамоат хавфсизлиги соҳасидаги жиноятнинг бир тури бўлиб, масалан, қазиб олиш, қурилиш ва бошқа ишларда хавфсизлик техникаси қоидаларига риоя этилишини бузиш ҳисобланади. Халқаро учиш қоидаларини бузиш Ўзбекистон Республикаси





Жиноят кодексининг 260-моддасида кўрсатилган ҳаво транспортининг ҳаракати ва улардан фойдаланиш қоидаларини бузиш ҳисобланади. Агар қонун чиқарувчи орган халқаро учуш қоидаларини бузишни ҳаво ҳаракати хавфсизлигини таъминлашда жамоатчилик билан алоқаларга тажовуз сифатида кўриб чиқса, уни мустақил таркибга ажратиш мумкин бўлар эди.

Халқаро учуш қоидаларини бузиш объекти сифатида жамоатчилик билан алоқалар қаралиши керак [2].

Жиноят кодексининг янги таҳрирдаги 262-моддасида (транспортни таъмирлаш ёки уни фойдаланишга чиқариш қоидаларини бузиш) “фойдаланиш қоидаларини бошқача тарзда кўпол равишда бузиш” учун жиноий жавобгарлик кўрсатилмаган. Бу, оқибатда, ҳайдовчилик гувоҳномасига эга бўлмаган ёки ҳайдовчилик гувоҳномасидан маҳрум қилинган ёхуд тиббий кўрсатмаларга кўра транспорт воситасини бошқариш тақиқланган ёки ушбу ишдан четлатилган ҳайдовчиларга транспорт воситасини бошқаришга рухсат беришга, шунингдек ҳайдовчиларнинг иш вақтига жиддий зарар етказганлиги учун шахс жавобгарликка тортилмаслигига имкон беради.

Жиноят ҳуқуқи доктринаси баъзи бошқа жиноятларни ҳам транспорт жиноятлари сифатида кўриб чиқиш мумкинлигини назарда тутди. Масалан, Ю.В. Грачева ва А.И. Чучаев портловчи ёки тез алангаланувчи моддаларни ҳаво йўли орқали ноқонуний ташишни транспорт жинояти сифатида таснифланиши мумкин, деб ҳисоблайди [3]. Мазкур фикрга қўшилишсак, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига ушбу қоиданинг киритилмаганини асоссиз бўлиб чиқади. Аммо, бундай ғоя муаллифларининг зиддиятли ва етарлича изчил бўлмаган нуқтаи назари кўзга ташланади. Ҳаво транспорти ёнувчан моддаларни, балки пиротехника маҳсулотларини ҳам ташиши ва ўткази хавfli ҳаракат, бу тўғри, лекин жиноий фаолиятнинг ушбу турини транспорт жинояти сифатида белгилаш мантиққа зид. Ва аксинча, пиротехника буюмларини ташиш ва енгил алангаланувчи моддаларни ташиш транспорт жиноятлари ҳисобланмас экан, нима учун уларни ташишга бундай ёндашиш керак? Транспорт воситасининг идентификация рақамини қалбакилаштириш ёки йўқ қилиш ҳам мумкин. Биринчидан, ушбу қилмишни жиноий жавобгарликка тортишнинг асослилиги ва мақсадга мувофиқлиги жуда шубҳали. Иккинчидан, бундай ҳаракатнинг предмети транспорт ҳаракати хавфсизлиги эмас, балки транспорт воситаларини ҳисобга олиш ва рўйхатдан ўтказиш соҳасидаги назорат тартиби эканлиги аниқ, ҳатто биз таснифлашни жиноят сифатида асослашни маъқулласак ҳам. Шу боис, транспорт соҳасидаги жиноятлар билан боғлиқ муаммолар ҳали ҳам кўп бўлиб, уларни ҳал этишда ўтган йиллар ва хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланиш лозим.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, жиноят қонунчилигида қайси таркиблар транспорт жиноятлари сифатида таснифланиши лозимлиги тўғрисида умумий фикр мавжуд эмас. Бироқ, транспорт жиноятларига Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 265-моддасида (халқаро учуш қоидаларини бузиш) назарда тутилган жиноят ва кўплаб МДХ давлатлари жиноят қонунчилигида кўрсатилган фалокатда қолган кема капитанига ёрдам бермаслик жинояти кирмайди. Улар транспорт жиноятининг аломатларига эга бўлмайди, айнан қуйидаги сабабларга кўра: жиноий ҳаракатнинг объекти - йўл ҳаракати хавфсизлиги ва (ёки) транспорт воситасидан фойдаланиш бўлиши керак; жиноятнинг предмети – технологик тизим сифатидаги ҳаракат ёки транспорт воситасининг ўзи; жиноий тажовуз объектига етказилган зарар механик транспорт воситаси, темир йўл, ҳаво ва метрополитендан фойдаланиш хавфсизлигига ички ёки ташқи таҳдид юзага келиши натижасида вужудга келиши; инсоннинг ҳаракат билан ўзаро таъсири соҳасида содир этилиши: унинг хавфсизлигига ички таҳдид юзага келганда – транспорт воситасини бевосита бошқараётган ёки ҳаракатнинг узлуксиз ишлашини таъминлаётган шахснинг иштироки; ташқи хавф туғилганда – кўрсатиб ўтилган функцияларни шахс (масалан, пиёда, йўловчи ва бошқалар) бажармаслиги.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 223-моддаси Ўзбекистон Республикаси Давлат чегарасини ноқонуний кесиб ўтишнинг аниқ таркибини тавсифлайди. Аммо, ҳуқуқбузарликнинг алоҳида тури мавжудки, масалан ҳаво йўллари чегарасидан кесиб ўтувчи маҳсус жиноятчи – халқаро парвоз қоидаларига риоя қилиш учун масъул бўлган шахснинг (масалан, кема командири) ҳаракати алоҳида масаладир. Халқаро парвозлар қоидаларини бузиш турли маъмурий тартиблар ва стандарларда келтирилган бўлиши лозим. Мазкур вазиятда барча транспорт жиноятларига хос бўлган жиноий оқибатлар инобатга олинмаган жиноий ҳаракат таркибининг конструкциясини келтириш мумкин. Ушбу норма (халқаро учуш қоидаларини бузиш) кўриб чиқиётган жиноий тизим учун ортиқчадир. Ўзбекистон Республикаси Жиноят



кодексининг 260-моддаси моҳиятан ҳаво, темир йўл, денгиз, дарё траспортидан фойдаланиш қоидаларини бузишнинг барча ҳолатларини қамраб олади. Бу эса амалиётда ушбу таркибларни бир-биридан фарқлашда қийинчиликларга олиб келади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 260<sup>1</sup>-моддасида Ўзбекистон Республикасининг самовий ҳудудидан қонунга ҳилоф равишда (рухсатсиз) фойдаланиш учун жиноий жавобгарлик назарда тутилган. Яъни, Ўзбекистон ҳаво ҳудудидан фойдаланиш тартиби жиноий ҳимоя остида, шунинг учун бу қонданинг ўрни бошқарув тартибга қарши жиноятлар бобида акс этиши лозим. Г.К. Буранов бундай позицияга қўшилмайди. Унинг фикрича, Жиноят кодексининг 260<sup>1</sup>-моддасида назарда тутилган жиноят ҳаво траспортидан фойдаланишда ҳаво ҳаракатининг хавфсиз ишлашини таъминлаш мақсадида транспорт инфратузилмаси ва транспорт воситаларини қонунга ҳилоф равишда аралашувдан (ҳаракат хавфсизлигидан) ҳимоя қилиш мақомини таъминлаш муносабатларини бузади [4]. Лекин, биринчидан, муаллиф жиноят объектининг моҳиятини унинг мавжудлигини таъминловчи ижтимоий муносабатлар билан алмаштиради. Ва иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 260<sup>1</sup>-моддасида транспорт инфратузилмаси ва транспорт воситалари умуман тилга олинмаган ва ҳаво ҳудуди бу тоифаларга кирмайди. Шунинг назарда тутиш керакки, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг махсус бўлими тизимидаги норманинг ўрни нафақат қонунчилик техникаси, балки яна икки жиҳат бўйича муҳимдир: биринчидан, жиноятнинг ҳуқуқий табиатини аниқлаш; иккинчидан, унинг бошқа жиноятлар билан алоқадорлиги.

Ўзбекистон Республикасининг янги Жиноят кодекси лойиҳасини ишлаб чиқишда транспорт жиноятлари учун жавобгарлик нормалари тизимида яна камчилик бўлмаслиги учун айрим ҳолатларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. Масалан, у транспорт ҳаракатининг хавфсиз ишлашига амалда тўсқинлик қиладиган барча жиноятларни қамраб олиши лозим. Аввало, гап транспорт воситасини ўғирламасдан қонунга ҳилоф равишда олиб қочиш ёки эгаллаб олиш (Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 264-моддаси), темир йўл, денгиз, дарё ёки ҳаво траспортини ўғирлашдан фарқ қиладиган ва улар алоҳида моддалар билан квалификация қилиниши лозим. Бу ерда, шубҳасиз, бошқа объектларга тажовуз кўзда тутилган. Қонун чиқарувчи органнинг ушбу жиноятларни баҳолашдаги ёндашуви жуда мантиқсиз кўринади, чунки тилга олинган меъёрлардан бири Жиноят кодексининг ўзгалар мулкни талон-тарож қилишга қарши жиноятлар бобида (169-модда), бошқаси эса транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар бобида (264-модда) киритилган.

Шу боисдан, Жиноят кодексининг илмий модели ҳозирги воқеликни ҳисобга олиши шарт ва яқин келажакни қамраб олиши керак. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг бутун амал қилиш муддати давомида адабиётларда 18-боб нормалари асосли равишда танқид қилинган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шунини таъкидлаш мумкинки, қонун чиқарувчи органнинг йўл ҳаракатининг ўзига хос хусусиятларига асосланган қарори мақбул деб қаралиши лозим, шунда транспортда ташиш ёки ундан фойдаланиш қоидаларини бузишнинг мумкин бўлган оқибатларини ҳисобга олинади. Жиноят кодексининг таклиф этилиши кутилаётган варианты замонавий Ўзбекистон учун жиноят қонунчилигининг янги талабларига жавоб бериши ва жиноятлар сонини камайтириш ва олдини олишга хизмат қилиши лозим.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Маршакова Н.Н. Классификация преступлений против безопасности движения и эксплуатации транспорта // Транспортное право. 2014. № 2. - С.18-28.
2. Жулев В. И. Транспортные преступления / В.И. Жулев. М.: Юристъ, 2014. - С. 29-180.
3. Грачева Ю.В., Чучаев А.И. Дополнительные уголовно-правовые меры обеспечения безопасности автотранспорта // Уголовное право. 2015. № 3. - С. 10-15.
4. Буранов Г.К. Нарушение правил использования воздушного пространства Российской Федерации как предусмотренный уголовным законом вид транспортного преступления // Транспортное право. 2018. № 3. - С. 15.



Olimova Sharifa Oybek qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 11-sinf o'quvchisi

**Annotatsiya.** Alloma bobomiz hazrat **Alisher Navoiyning** “**Emas oson bu maydon ichra turoq...**” deb boshlanadigan misralari bejiz bitilmagan. Bugungi globallashuv jadallik bilan rivojlanayotgan dunyo hamjamiyatida jamiyat muvozanatini ushlab turish juda murakkab. Turli geosiyosiy o'yinlar va tahlikali jahon siyosati davom etayotgan bir davrda vatanimiz tinchligi saqlash, xalq farovonligini asrash eng dolzarb mavzulardan biridir. Keyingi paytlarda ilmiy manbalarda tez-tez “axborot iste'moli madaniyati” atamasi qo'llanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ushbu maqolada axborot tarqatayotgan va qabul qilish jarayonida kiber jinoyatlardan ogoh bo'lish haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalitso**'z. *internet, vizual olam, kiberterrorchilik, kiberterrorizm, kiber zo'rvonlik (cyberbullying), diniy targ'ibot, virtuallik, axborot urushi*

Axborotni qabul qiluvchi o'zi, atrofdagilar, yaqinlari, xalqi, yurti manfaatlarini himoya qilishi, shunga mos va xos ma'lumotlarni tanlashni bilishi, o'zlashtirishi va tarqatishi lozim. Bu, o'z navbatida, tarbiyaga bog'liq. Bugun yoshlarga “Bu axborotni kim taqdim qilmoqda?”, “Nima uchun taqdim qilmoqda?” va “Qanday maqsadda taqdim qilmoqda?” degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishni o'rgatish kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli kamayib, taklif etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. “Axborot tashnaligi”ga barham beriladi.

Darhaqiqattelekomunikatsiyalar va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan bir davrda insoniyatning qiyofasi ham jinoyatlarning qiyofasi ham o'zgacha tus olib boryapti. Biz virtual qaramlik, intellektual qoloqlik davriga kirib boryapmiz. Inson o'rnini texnologiyalar egallayotgan, inson bajaradigan vazifalarni kompyuter texnologiyalari bajarayotgan bir davrda yashar ekanmiz virtual bo'ysinish virtual hukmronlik doirasiga tushib qolganekmiz aslida. Bugungi kiber jinoyatlarning rivojlanishi insonlarning axborot texnologiyasidan noo'rin foydalanishidan kelib chiqadigan girdobga tushib qolishdan boshlanyapti. Kiber jinoyatlar aslida kiber o'yinlar bo'lib pul bilan iqtisodiy muammolar bilan bogliq bo'lgan jinoyatlar hisoblanadi. Bu jinoyatlarning ildiz otib ketish sababi ham aslida zamonaviy vositalar bilan bog'liq bo'lgan qaramligimiz, virtual bo'ysinishimizdadir. Biz bugun qiziqib borayotgan, bizni o'ziga tortib borayotgan bu olchoq “Alal oxir” insoniyat dunyosini katta inqirozga olib kelishi, insonlarni bir umr “Dogma” yoki psixologik ruhiy qaramlik holatida saqlab qolishi mumkin. Yechim sifatida aytishimiz mumkinki ota-onaning farzandiga e'tibori, mamlakatning o'quvchilarga, yoshlar tarbiyasiga e'tibori, mahallaning yosh mutaxassislarni tarbiyalashga qaratilgan e'tibor. Bugungi kun uchun kiber jinoyatlarni oldini olish ularni bartaraf qilish uchun yechim bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlikni oshirish, yosh avlodga texnologiyalardan to'g'ri va maqsadli foydalanishni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun oilada, maktabda va jamiyatda hamkorlikda ishlash zarur. Bundan tashqari, davlat darajasida maxsus profilaktik dasturlar, ommaviy targ'ibot-tashviqot ishlari ham kengaytirilishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlardagi noxush kontentni nazorat qilish, yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali salbiy oqibatlarining oldi olinadi. Zero, raqamli texnologiyalar – bu yovuz kuch emas, balki uni qanday va qanday maqsadda ishlatish insoniyatning o'ziga bog'liq. Agarda texnologiya to'g'ri maqsadga yo'naltirilsa, u insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi, aks holda esa, ongni zabt etuvchi qurolga aylanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – T.: “O'zbekiston”, 2022. – 413 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma'naviy ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
3. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
4. Turdiev, B. (2025). Political reforms for sustainable development in Uzbekistan. *Education and research in the era of digital transformation*, 1(1), 1260-1264.
5. Sobirovich, T. (2025). New Uzbekistan and Political Reform: The Role of National Strategies In Strengthening Governance. *Indonesian Journal of Public Administration Review*, 2(2), 12-12.



## ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНОГО ПРОСТРАНСТВА

Файзуллаева Рухшона Лутфуллоевна

Студентка Факультета английской филологии и переводоведения  
Самаркандского Государственного института иностранных языков

**Аннотация.** В статье рассматривается роль литературы как одного из ключевых факторов, влияющих на формирование и развитие культурного пространства общества. Анализируются функции художественного слова в конструировании национального самосознания, трансляции ценностей, памяти поколений и диалога культур. Особое внимание уделено взаимодействию литературы с другими компонентами культуры и её способности формировать символические горизонты коллективной идентичности.

**Ключевые слова:** литература, культура, культурное пространство, идентичность, символическое мышление, ценности.

Литература занимает особое место в системе духовной культуры человечества. Через художественное слово общество отражает себя, переосмысляет прошлое и формирует образ будущего. Литература не только представляет культурные коды определённой эпохи, но и активно участвует в их создании. Она трансформирует повседневный опыт в символическую систему, доступную для интерпретации и сохранения в коллективной памяти.

Формируя культурное пространство, литература становится посредником между личным и коллективным, между прошлым и настоящим. Её значение возрастает в условиях глобализации, когда традиционные формы культуры подвергаются переосмыслению, а идентичность оказывается в состоянии трансформации.

Одной из важнейших функций литературы является трансляция культурных норм, ценностей и представлений. Через литературные произведения передаются морально-этические ориентиры, нормы поведения, модели взаимодействия. В художественном тексте фиксируются особенности национального характера, исторические события и формы коллективного мышления.

Классическая и современная литература создаёт особую языковую и смысловую среду, в которой воспитываются новые поколения. Таким образом, литература способствует не только сохранению, но и обновлению культурных кодов.

Литература играет ключевую роль в формировании национальной идентичности. Она создаёт мифологемы и образы, объединяющие общество на основе общих символов и исторических воспоминаний. Через литературных героев, сюжетные архетипы и культурные топосы создаётся пространство, в котором нация осознаёт свою уникальность.

В этом контексте особенно важны эпические произведения, поэзия, исторические романы — они формируют коллективное самосознание и укрепляют чувство принадлежности к определённой культуре.

Литература также выступает важным каналом межкультурной коммуникации. Переводы, интерпретации, литературные диалоги между авторами и культурами способствуют взаимопониманию и расширению культурного горизонта. Изучение литератур других стран позволяет читателям взглянуть на мир с иной точки зрения, осмыслить иные ценности, традиции, мировосприятие.

Таким образом, литература формирует культурное пространство не только внутри одной нации, но и на уровне мировой культуры, укрепляя гуманистические и универсальные ценности.

Художественная литература часто становится зеркалом общественных трансформаций. Она отражает социальные конфликты, ценностные сдвиги, кризисы идентичности. Литература может предвосхищать или, наоборот, критиковать общественные изменения, тем самым





участвуя в формировании общественного мнения и культурного климата.

Произведения литературы фиксируют культурные тренды, формируют стиль эпохи, а иногда и направляют ход культурного развития.

Таким образом, литература оказывает многоуровневое и многоплановое влияние на формирование культурного пространства. Она выполняет функции хранения, трансляции и создания культурных смыслов, способствует формированию идентичности, укреплению памяти и развитию межкультурного диалога. В условиях глобализации значение литературы как средства сохранения и развития культурного многообразия только возрастает, делая её одним из важнейших факторов культурной устойчивости общества.

### Список использованной литературы

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1979.
2. Лотман Ю. М. Семисфера культуры // Семиосфера. — СПб.: Искусство-СПб, 2000.
3. Каган М. С. Философия культуры. — СПб.: Ленанд, 1996.
4. Тынянов Ю. Н. Литература и литератор. — М.: Наука, 1982.
5. Элиас Н. О процессе цивилизации. — М.: Академический проект, 2001.
6. Кассирер Э. Опыт о человеке. Введение в философию человеческой культуры. — СПб.: Университетская книга, 1998.
7. Said E. Culture and Imperialism. — New York: Vintage Books, 1994.
8. Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. — Oxford: Blackwell Publishing, 2008.
9. Hall S. Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference. — London: Lawrence & Wishart, 1990.
10. Бойм С. Будущее ностальгии. — М.: Новое литературное обозрение, 2010.



О‘ЗБЕК ХАЛҚИ ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРИ МУСТАҲКАМЛИГИДА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАР УЙГ‘УНЛИГИ

**Murotov Akmal Inoyatovich**

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** O‘zbek xalqida asrlar davomida shakllangan er-xotin, ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar o‘zining go‘zal aksiologik mohiyati bilan nafaqat Sharq davlatlarida, balki G‘arb mamlakatlarida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Asrlar sinovidan o‘tgan, qimmatli ma‘naviy merosga ega bo‘lgan islom dini qoidalari milliy mentalitetimiz va qadriyatlarimiz shakllanishida muhim manba bo‘lib kelmoqda. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining oilaviy munosabatlari shakllanishida milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi, mazmun-mohiyati bo‘yicha manbalar tahlili hamda nazariy xulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila, qadriyat, din, modernizatsiya, transformatsiya, bag‘rikenglik.

**Аннотация:** Семейные отношения между мужем и женой, родителями и детьми, формировавшиеся веками в узбекском народе, вызывают большой интерес не только в странах Востока, но и в странах Запада своей прекрасной аксиологичностью. Правила исламской религии, прошедшие проверку веками и имеющие ценное духовное наследие, являются важным источником в формировании нашего национального менталитета и ценностей. В данной статье представлен анализ источников и теоретические выводы о гармонии национальных и религиозных ценностей в формировании семейных отношений узбекского народа.

**Ключевые слова:** семья, ценность, религия, модернизация, трансформация, толерантность.

**Annotation:** Family relations between husband and wife, parents and children, which have been formed for centuries in the Uzbek people, are attracting great interest not only in Eastern countries, but also in Western countries with their beautiful axiological nature. The rules of the Islamic religion, which have passed the test of centuries and have a valuable spiritual heritage, are an important source in the formation of our national mentality and values. This article presents the analysis of sources and theoretical conclusions on the harmony of national and religious values in the formation of family relations of the Uzbek people.

**Key words:** family, value, religion, modernization, transformation, tolerance.

Markaziy Osiyo xalqlarining oilaviy hayotida doimo farzand va uning tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratib kelingan. Buning natijasida shakllangan bir qancha odatlar va yurish-turish qoidalari qadriyat darajasiga ko‘tarilib, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelmoqda. Xalqimizda mavjud “Farzandingni emas, o‘zingni tarbiyala-kelajak avlod sendan namuna olib ulg‘ayadi”, degan nasihatimiz fikr doimo o‘z isbotini topib kelmoqda. Er-xotinning oiladagi o‘zaro munosabati va milliy-diniy qadriyatlarga amal qilishi farzandlar tarbiyasida o‘z aksini ko‘rsatadi.

Islom dini qoidalarining mintaqamiz xalqlari hayotiga kirib kelishi, qadriyatlarining odamlarimiz ongi va shuurida, oilaviy turmush tarzidan o‘rin olishi bilan aksiologik tafakkuri shakllanishi va yuksalishida yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki “...Din o‘z mazmun-mohiyati bilan azaldan jamiyat taraqqiyotiga, kishilarning tafakkuri va ma‘naviyatiga, shu jamiyatga xolisona xizmat qiladigan ma‘naviy komil insonlarni tarbiyalashdek sharafli ishga xizmat qilib kelgan” [1: 4]. Haqiqatan ham, islom dinining xalqimiz ma‘naviyati va madaniyati, aksiologik tafakkuri rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotganligi rad etib bo‘lmaydigan aksiomadir. Islom dini o‘zining manbalari bo‘lmish Qur‘oni Karim va hadisi sharifga suyanib, mahalliy xalqlarning o‘z milliy madaniyati, urf-odatlarini va marosimlarini (ayniqsa, hanafiya mazhabi doirasida) bajarishini taqiqlamagan. Bunda islomiy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar yonma-yon yashagan, hattoki ayrim hollarda uyg‘unlashib ketgan. Mintaqamizda islomdan tashqari boshqa dinlar (Zardushtiylik, Buddaviylik, Xristianlik) ham mavjud bo‘lib, ularning din sifatida faoliyat ko‘rsatishi, qadriyatlariga amal qilishi islom tarqalganidan keyingi asrlarda ham davom etgan.

Oila mustahkamligi va barqarorligi milliy va diniy qadriyatlar orqali mustahkamlanib boradi hamda bu umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. M. Veber fikricha, umumiy genezisga ishonadigan kishilar, ularni ma‘lum bir etnosga taalluqli deb biladilar, hattoki ular kolonizatsiya va migratsiya jarayonlarini boshdan kechirgan taqdirda ham, o‘zlarining tabiiy-biologik ko‘rinishlari yoki an‘analariga mos etnifferensial xususiyatlarini asrab qoladilar va umuminsoniy negizini



saqlashga intiladilar [2: 8].

Islomiy qadriyatlarining xususiyatlaridan biri shundaki, unda har bir inson amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yor va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Shariat bo'yicha ummatlarga buyurilgan amallar sakkiz xil bo'lib (farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh, mustakrah), jami 934 ta huquq va nizomlarni tashkil etadi [3: 178]. Ularning aksariyati hanuzgacha o'z amaliy ahamiyatini, ya'ni o'zbek oilalari uchun dolzarbligini yo'qotmagan.

Ushbu fikrlardan ko'rinadiki, fuqarolik jamiyatini ma'naviy jihatdan shakllantirishda diniy va milliy qadriyatlar sifatida tan olingan-ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, do'stlik va hamjihatlik, sabrlik, axloqiy poklik, mehnatsevarlik kabi omillarni yoshlar ongi va tafakkuriga singdirib borish orqali ularning yuksak aksiologik tafakkurini shakllantirish mumkin bo'ladi. Diniy qadriyatlarining inson ongiga singib, uning qalbi va shuurida chuqur ildiz otishining asosiy sababi-uning asosiy qoidalari va amallari shaxs ruhiyatiga mos kelib, hissiyot va tafakkurga ta'sir etadigan va uzoq vaqtgacha xotirada saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida bayon qilinishidir.

Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatda muhim hikmat, chuqur falsafiy fikr va ma'no mavjud. Shu sababdan ular barhayot bo'lib, avloddan-avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bunday ma'naviy qadriyatlarni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, insonda komillik fazilatlarini shakllantirish uchun mustahkam negiz vazifasini bajaradi.

Bugun jamiyatimizda inson kamoloti, har bir inson hayotda o'z o'rnini topishi uchun milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligi asosida sog'lom muhit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo ma'lum bir sabablarga ko'ra, ayniqsa "Ommaviy madaniyat" ta'siri ostidagi axloqsizlik, ota-onaga nisbatan hurmatsizlik, xudbinlik kabi illatlarning avj olayotgani islomiy qadriyatlarni bilmasligimiz sabab bo'lmoqda. Vaholanki, Sharqda farzand tarbiyasi avvalo ota-ona, kattalarga hurmat, ularga quloq solish, or-nomus, sharm-hayo, o'zaro hurmat, Allohga ishonch kabi qadriyatlarni e'zozlashdan boshlangan. Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasi 23-oyatida musulmonlarga yolg'iz Allohga itoat qilishdan keyin ota-onaga yaxshilik qilish, ular huzurida ta'zimda turish, aytganlarini chin dildan bajarish buyuriladi: "Parvardigoringiz, yolg'iz Uning o'ziga itoat qilishingizni hamda ota-onaga itoat qilishingizni amr etgan. Agar ota-onangizdan bittasi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetib kelsa, ularga qarab "uf" demagin va ularning (so'zlarini) qaytarmagin! Ularga (doimo) yaxshi so'z ayt!" [4: 248].

Xalqimiz ongida ko'plab diniy qadriyatlar diniy marosim va an'analardan kelib chiqib, milliy qadriyatlarga aylangan. Masalan, islom dinidagi tabiatga e'tiqod, o'simlik va hayvonot dunyosiga muhabbat, hech kimga ozor bermaslik, qo'ldan kelgancha yaxshilik qilish, qo'shnichilik, qarindoshlar o'rtasidagi munosabat, ota-onaga hurmat, kichiklarni e'zozlash kabi fazilatlar ajdodlarimiz ongiga singib, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketgan.

Milliy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ma'lum bir ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy muhit ta'sirida, madaniy negizlar, ob'ektiv va sub'ektiv omillar asosida yuzaga keladi. Agar ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy aniq davr munosabatlari va integratsion aloqalar orqali milliy va diniy qadriyatlarining shakllanishiga, ularning dialektik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, madaniy negizlar va sub'ektiv omillar ularni aniq ko'rinishda ifodalab, sintezlashtirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy va diniy qadriyatlar dialektikasini ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy muhitdan alohida qarash mumkin bo'lmagani kabi, ularni madaniy negizlar va sub'ektiv omillar ta'siridan ham ayri qarash mumkin emas.

Demak, milliy va diniy qadriyatlar dialektikasi oilaviy muhit, ushbu muhitda yuz berayotgan transformatsiya, modernizatsiya va demokratlashtirish jarayonlari, integratsion aloqalar orqali o'rganilishi lozim. Tahlillar natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Birinchi, milliy qadriyatlar o'zbek xalqining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllanib, kundalik hayotda, o'zaro munosabatlarda sinalib, mustahkamlanib avloddan avlodga o'tib kelayotgan go'zal axloq-odob namunalarini o'zida namoyon etsa, diniy qadriyatlar esa diniy tasavvurlar, qarashlar, xususan jahon dinlari vujudga kelishi bilan ma'naviy madaniyatning ajralmas qismiga aylanib bordi.

Ikkinchi, zardushtiylik dinidan boshlangan o'zbek xalqining diniy qadriyatlari oilalarda insonlarni ezgu ish, ezgu niyat, yaxshi xulq-atvoriga ega bo'lishga da'vat etdi. Shu asnodan shakllangan milliy-oilaviy qadriyatlar islom dini qadriyatlari bilan qo'shib, o'zining axloqiy mohiyatini oshirib keldi. Islomiy qadriyatlar bizning davrimizgacha yetib kelib, hozirgi huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini bunyod etishda, kishilarning ma'naviy madaniyatini, aksiologik tafakkurini shakllantirishda ham muhim o'rin tutmoqda.

Uchinchi, hozirgi globallashtirish jarayonida oilaviy munosabatlarda islomiy qadriyatlar



muhim omil ekani asoslanib, undan islom dini keng tarqalgan mamlakatlarda qanday maqsadlarda foydalanilayotgani, xususan islom ta'limoti va qadriyatlarini chet eldagi siyosiy kuchlar, guruhlar, ekstremistlar tomonidan soxtalashtirib, ba'zi mamlakatlarda o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanayotganliklari yoshlar aksiologik tafakkuriga zararli ta'sir ko'rsatayotgani ko'rsatildi.

### Foydalanilgan adabiyatlar

1. Уватов У. Иймон нури. –Т.: Ёзувчи, 1996. –Б.4.
2. Weber M. Ethnic groups // Theories of society. Free press. 1961. – p.8.
3. Аҳмад Ходий Максудий. –Т.: Шаръий ҳукмлар тўплами. 1990 -178
4. Қуръони Карим (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур).- Т: 1992-Б.248
5. KOMILOV, R. R. (2021). BREAKING OF FAMILY RELATIONSHIP IN PERIOD OF GLOBALIZATION. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 56-62.
6. Комилов, Р.Р. (2020). ИСЛОМ ДИНИНИНГ ЎЗБЕК ХАЛҚИНИКОҲМУНОСАБАТЛАРИ АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК МОҲИЯТИДА НАМОЁН БЎЛИШИ. *OF SOCIO-CULTURAL ENVIRONMENT*, 41.
7. Комилов, Р. Р. (2020). ЎЗБЕК ХАЛҚИ НИКОҲ МУНОСАБАТЛАРИ ГЕНЕЗИСИНинг АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Интернаука*, 15(144 часть 2), 95.
8. Komilov, R. R. (2018). THE AESTHETIC AND MORAL SIDES OF THE FAMILY AND WEDDING CEREMONIES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 10-14).
9. Komilov, R. R. (2017). THE AESTHETIC SIGNIFICANCE OF THE UZBEK NATION'S WEDDING CEREMONIES EVOLUTION. In *PRACTICE OF COMMUNICATIVE BEHAVIOR IN SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCHES* (pp. 47-50).





Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i

**Annotatsiya:** Mazkur maqola hayot va o'lim muammosining falsafiy tahliliga bag'ishlanadi. Hayot falsafasi hayotning mazmuni, maqsadi va qadr-qimmatiga oid muammolarni tadqiq va talqin etuvchi falsafiy oqim ekanligi yuzasidan manbalar tahlili hamda nazariy xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** hayot, hayot va o'lim, yashash, rivojlanish, transformatsiya.

**Аннотация:** Статья посвящена философскому анализу проблемы жизни и смерти. Представлен анализ источников и теоретические выводы о том, что философия жизни-это философское течение, изучающее и осмысливающее проблемы, связанные со смыслом, целью и ценностью жизни.

**Ключевые слова:** жизнь, жизнь и смерть, проживание, развитие, трансформация.

**Annotation:** This article is devoted to the philosophical analysis of the problem of life and death. The analysis of sources and theoretical conclusions are presented on the fact that the philosophy of life is a philosophical movement that studies and interprets problems related to the meaning, purpose and value of life.

**Keywords:** life, life and death, living, development, transformation.

Hayot falsafasi XIX asrning 60–70-yillarida paydo bo'lib, XX asr birinchi choragida keng tarqalgan. Keyinchalik ta'siri ancha pasaygan bo'lsada, uning ayrim g'oya va tamoyillari ekzistensializm, personalizm, neogegeyanchilik, pragmatizm, fenomenologiya kabi falsafiy oqimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Hayot falsafasi hayotning mohiyatini uning o'zidan anglab olishga intiladi. Hayot falsafasi oqimi vakillarining nazarida, voqelik ruh ham, materiya ham emas, u intuitiv tarzda anglanishi mumkin. Hayot falsafasi his-tuyg'u va instinktlarni ulug'laydi, aqlni tanqid va inkor qiladi. Hayot falsafasining asosiy tushunchasi "hayot" hisoblanadi va u turli variantlarda turlicha talqin etiladi. Fridrix Nisshe tomonidan asos solingan, keyinchalik Klages va T.Lessing tomonidan rivojlantirilgan tabiiy-biologik talqinda hayot tabiiylik bilan qiyoslanadi va har qanday sun'iylikka qarshi qo'yiladi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari kuch-qudratni ulug'lab, har qanday g'oyaning ro'yobga chiqishini kishilar yoki ijtimoiy guruhlarning manfaatlari bilan bog'laydi. Tarixiy talqin tarafdorlari bo'lmish Diltey, Shpengler, Zimmel, Ortega-i-Gasset hayotning mohiyatini ichki ruhiy kechinmalardan izlaydi. Hayot va hayotiylikni borliqning o'zgarish tamoyili sifatida talqin etgan faylasuflardan farqli o'laroq, bu mutafakkirlar asosiy e'tiborni hayotning individual shakllariga qaratadi. Bergson esa, Gyotening romantizmidan ruhlanib, hayotning panteistik talqinini taklif etadi. Uning fikriga ko'ra, hayotning mohiyati o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish va yangi shakllarni yaratishdan iborat. Bergson hayotning biologik shaklini uning turli ko'rinishlaridan biri sifatida e'tirof etadi. [1,2].

Inson hayotning tez oqarligini yodda tutishi, odamzod hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzodning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzilkesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman», deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqto'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim, oxir-oqibatda, o'zi bilan o'zi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil echish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi. Bundan ekzistensializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. [3].

Har qanday jonli mavjudot singari inson hayotining nihoyasi borligi, boshqa mavjudotlardan farqli



o'laroq u o'zining oxiroqibatda o'limga mahkumligini anglashi ham falsafiy muammolar doirasiga kiradi. Bu - tasodifiy hol emas. Inson hayoti va o'limi masalalari asotirlar va dinlarda ham markaziy o'rinni egallagan. Kishilarda dastlab o'limdan qo'rqish tuyg'usi kuchli bo'lgan. Keyinroq asotiriy diniy tasavvurlar vositasida bu jarayon «majburiy» ekanligi haqidagi e'tiqod bilan almashindi. Asotirlarda hayvonlar ham, kishilar ham o'ladigan tana va o'lmas ruhga ega deb ko'rsatilgan. Ruh nozik, nomoddiy tabiatga ega bo'lib, o'zida inson vujudi timsolini gavdalantirgan. U yo'qolmaydi, o'lmaydi va o'z makonida yashaydi, hamda o'z joyini almashtirib turadi. Ba'zi diniy ta'limotlarda tana o'lgach, ruh bir jonzotdan ikkinchisiga o'tib turishi ko'rsatilgan. Islom dinida inson hayoti, uning ma'nosi va o'limi masalasi katta o'rin olgan. Hayotning ma'nosi - bu uning salomatligi, doimiy rohat-farog'atga eltuvchi mehnat va bilimdir. Inson o'z hayotini xudbinlik va yovuzlikdan saqlamog'i, butun umri davomida oxiratni o'ylamog'i kerak. Inson hayoti, o'limi va manguqligi masalasi tasavvuf tariqatlarida ham muhim o'rin olgan. Uning yirik ilk vakillari Hasan Basriy, Al Muxsimiy va Junaydlar islomning monoteistik talablariga muvoiq, insonning mohiyati va hayot yo'nalishi Olloh ko'rstgan yo'ldan borish, deb tushuntirdilar. Sufiymutafakkirlar - Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va Bahovuddin Naqshband ta'limotlarida hayotning ma'nosi, o'lim va manguqlik masalalari insonning ilohiy mohiyatini bilishga intilishi, halol mehnat qilib boshqalarga mehr-muravvatli, rahmshafqatli bo'lishi bilan bog'liq ravishda yoritildi.

Yevropadagi Yangi davr falsafasida ham Sharq falsafasi ta'siri ostida hayot va o'lim masalalariga yangi qarashlar shakllandi. Jumladan hayot va o'limni anglash muammosi ikki antropologiyaviy modelda - tabiiy inson va yangi Yevropacha inson modellari orqali ifodalanadi. Agar birinchi modelda inson (biologiya, fiziologiya, psixologiya va boshqa) fanlar ob'ekti bo'lsa, ikkinchisida u o'zini olamning markazi sifatida anglagan, aql idroki va erkinligini o'zi yo'naltiradigan, o'z hayotini o'tmishdan hozirgi, undan esa kelajakka qarab borishini tushungan ijtimoiy mavjudot sifatida baholanadi. Bu fikrlar insonga, uning hayoti mazmuni va maqsadga ratsionalyondashishning natijalaridir. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab G'arb antropologik falsafasida shakllangan irratsional yo'nalishda («hayot falsafasi», ekzistensializm va boshqalar) o'lim biologiyaviy ma'nodagina tan olinmay inson borlig'ining nihoyasi sifatida qaraladi. Bu nuqtai nazarga binoan o'lim diniy yoki siyqa tabiiy tushunilishdan farqli o'laroq, sub'ektivlik sohasi voqeasiga aylanadi. F.Nitsshening so'zlari bilan aytganda inson o'limi uning hayotidan ahamiyatliroqdir. Ya'ni o'lim tuyg'usi inson hayotini ma'noli qiladi. Hayot va o'lim nisbatiga bunday qarashlar keyinroq Germaniyada, Ispaniyada, Fransiyada rivojlantirildi. Hozirgi inson ko'proq shartli mulohazalar asosida yashashga moyilki, uni bunday yashash va fikrlash yo'liga radio, televideniye, kino, teatr, badiiy adabiyot va albatta, o'zining mustaqil fikr-o'ylari olib kelgan. Natijada u o'zining o'limidan keyingi hayotidan ko'proq tashvishlanmoqda. Hayot qancha yaxshi bo'lsa kishiga o'lim shunchalik dahshatli ko'rinadi. O'limni ma'naviy anglashdan undan keyingi umrning ma'nosi to'g'risidagi masala kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, bu ma'noli yashalgan umrning o'limdan keyingi davomi, ya'ni yuksak manguqligi masalasidir. [4].

Manguqlik - inson o'z ijodiy, yaratuvchilik faoliyati bilan hayotda abadiy iz qoldirishdir. Inson dunyoda iz qoldirgan yaxsh inom - uning ikkinchi umridir. Shu sababli insoniyat xayrli, adolatli ishlar qilib, yaxshi nom qoldirgan kishilarni abadiy hurmat bilan tilga oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Уватов У. Иймон нури. –Т.: Ёзувчи, 1996. –Б.4.
2. Weber M. Ethnic groups // Theories of society. Free press. 1961. – p.8.
3. Қуръони Карим (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур).- Т: 1992-Б.248
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Munozara:Hayot\\_falsafasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Munozara:Hayot_falsafasi)



Vohidova Dilshoda Vohid qizi

Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahonga mashhur yassaviya tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning istedadli shogirdi, turkiy tasavvuf shariyatining noyob namoyandasi Sulaymon Boqirg‘oniy haqida ma‘lumot beriladi. Sulaymon Boqirg‘oniyning ma‘naviy merosini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish yoshlar tarbiyasi uchun muhimdir. Inson ruhiyati tarbiyasi oid o‘g‘itlari kelajak avlod uchun o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim ibrat maktabi ekanligi maqolada aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, tariqat, ma‘naviyat, ma‘rifat, jism va ruh, adabiyot, ilm, tarbiya, nafs, ahloq, ishq

**“Jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo‘lsa, uning ruhi va joni ma‘naviyatdir”.** [1] Ma‘naviyat tarixdan yetib kelayotgan manbalarni o‘qish, ibrat olish orqali rivojlanib boradi. Ma‘naviy rivojlanish jarayonida tasavvufning o‘rni beqiyos. Tasavvuf insonning ruhiy pokligi, aqliy sog‘lomligini ta‘minlovchi muhim ta‘limot bo‘lib, “tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin”.[2]

Tasavvuf rivojida ko‘hna Xorazm tarixini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi, bu maskan fan, adabiyot, ma‘daniyat va ijtimoiy taraqqiyot markazlaridan biri bo‘lgan. Minglab serqirra ilm sohiblari qatoridan Sulaymon Boqirg‘oniy ham munosib joy olgan shu o‘lkaning buyuk farzandi bo‘lgan.

Sulaymon Boqirg‘oniy Xorazmning Boqirg‘on degan kentida tug‘ilib (tug‘ilgan yili aniq emas) 1186 yoki 1192 yillarda vafot etgan. Sulaymon Boqirg‘oniy turkiy tasavvuf shariyatining jahonga mashhur vakili Xoja Ahmad Yassaviyning noyob istedad sohibi bo‘lgan shogirdi. Sulaymon Boqirg‘oniyning ma‘naviy merosini o‘rganish, ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish yoshlar tarbiyasi uchun muhim. Zero, prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “...buyuk ajdodlarimizning boy diniy-ma‘rifiy merosi biz uchun bebaho manba...”. [3] Bu kabi manbalarni barcha makon va zamon uchun o‘rganish shartdir.

Sulaymon Boqirg‘oniy tariqatda ham, shariyatda ham u ustozlari an‘analarini davomchisi bo‘ldi. Uning ta‘rifiga ko‘ra, Ahmad Yassaviy “Mashoyihlar ulug‘i”, “Ikki jahon ko‘zgusi” bo‘lmish piri komildir:

Yassi suvining orasi, yotur gavhar parasi,  
Mashoyixlar sarasi shayxim Ahmad Yassaviy,  
Qarchig‘oni qishlog‘an, shunqor, lochin ushlag‘an.  
Sonsiz murid boshlag‘an shayxim Ahmad Yassaviy.  
Shariati orasta, shariqati payvasta,  
Haqiqatda shohista shayxim, Ahmad Yassaviy.

Boqirg‘oniy turkiy xalqlar orasida Hakim ota laqabi bilan ham mashhur bo‘lgan. Moziyda yaratilgan ba‘zi bir asarlarda Sulaymon ota va Hakim ota boshqa shaxslar sifatida noto‘g‘ri qayd etilgan.

Alisher Navoiy “Nasoyimul muhabbat”da yozadi: “Hakim Ota - Oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning muridudur. Hamonki, bir kun Xoja tabxe (ovqat pishirish) buyurg‘ondurlarki, matbaxiy (oshpaz) o‘tun etmaydur deb kelgandur. Alar ashobg‘a degandurlarki, yozidin o‘tun terib kelturing va ul zamon yog‘in yog‘odur ekandur. Ashobkim, o‘tin terib turlar, matbaxg‘a (oshxonaga) kelguncha yog‘un jihatidan o‘tunlar ho‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ota tergan o‘tunlarni to‘nig‘a chirma, quruq kelturgandur. Xoja hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg‘a bu laqab andin qolg‘andur va Hakim otag‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubtur”.

Alisher Navoiy Hakim otaning hikmatlari Turklar orasida shuhrat topganligini ta‘kidlab, ulardan birini misol keltiradi:

Tiki turg‘on to‘badur,  
Borg‘onlarni yutadur.  
Borg‘onlar kelmas bo‘ldi  
Magar manzil andadur.

Ushbu misralardan ham anglash mumkinki, Boqirg‘oniy sherlarining tili sodda, ifodasi xalqona



bo'lgan. Lekin bu So'fiy shoir ijodiyotining tub mohiyatini tasavvufiy g'oyalar tashkil etadi. Boqirg'oniyning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi asarlari Turkistonda keng tarqalib, sevib o'qilgan. Xusayn Voiz Koshofiy Boqirg'oniyni "Darveshlar ahvolidin turkiy tilda kalimotu hikmatomiz va latoyifu ibratangizlari Turkiston viloyatida ma'ruf va mashhur va alarning favoyidi anfosi qudsiyalaridandur" – deb ta'riflaydi.

Boqirg'oniyni o'tmish ajdodlarimiz "aqli komil" va "ma'rifati shomil", "qanoati tamom", "shukranoi ne'mati ilohiy" dan ta'lim o'rgatgan shoir bo'lganligi uchun qadrlashgan. U "Lutfu muruvvat", "Izzati mutavoze", "Axloqi hamida", sidqu sadoqatni ulug'laganligi sababli asrlar davomida el mehrini qozongan.

Boqirg'oniyni ko'nglida "shavqi ilohiy va zavqi ilohiy" tug'yon qilgan murabbiy. Uning tafakkur kuchini to'g'ri belgilash – taxayyul sirlarini kashf etish demak. Ma'lumki, har qanday din va chinakam mistikaning asosida "dunyo"ni tark qilish mayllari mavjuddir. Lekin bu mavjud olamga nafrat yoki badbinlik aqidasini ifodalamaydi. "Tarki dunyochilik" - ruhiy mashq, olam go'zalliklarining mutlaq mohiyatiga yetishish tajribasi. Uning mundarijasi juda keng va insonning botiniy hayotini tushunmoq uchun mislsiz bir "hujjat"dir. Ma'lumotlarga ko'ra, Iroq shayxi Xuroson shayxiga bir necha qiyin savollar bilan murojaat qilganida savollarni u Ahmad Yassaviyning xalifalariga yo'llaydi. Tasavvufga doir o'sha savollarga Hakim ota she'r bilan javob qaytaradi. Uning bir baytida bunday deyilgan ekan:

Har kim ko'rsang Xizr bil

Har tun ko'rsang Qadr bil

Bayt mazmunini biz "inson farzandini kamsitma. Har qaysi odam Xizr timsoli, uni qancha ko'rsang o'shancha e'zozla va manzur qil", deb sharhlaymizmi? Bunday talqin ham Boqirg'oniyning pand-nasixat so'zlari omma ongini "zaharlashga" qo'l kelgan deyishga asos bermaydi. Mutlaq haqiqatga erishishning yagona yo'li va vosita yo'q. Ilohiy ishq kaltabinlikka ziddir. Chin oshiq borki, barchasining jonni jonon bilan topishmoqqa qodirdir. Ma'shuqi azal husn nuridan yorishmagan tun yo'q. Yeru ko'k, oyu quyosh, tog' va daryo-xullas, butun mavjudot uning zohiriy timsollari. Bayt tarkibidagi asl ma'no ana shu. Demak, shoir bu g'oyani ilgari surishda vahdati ta'limotiga suyangan. Shuning uchun u "Sofiy bo'lib" "Haqq'a yonib", nafsga qahr qilish bilan qanoatlanmasdan "sirin halqdin gezlal" Mansur yanglig' "Haqiqat bozorinda asir" bo'lmoqni ko'zlagan.

Qachon bo'lg'ay visoling, jamolingni ko'rsam man,

Qachon bo'lg'ay visoling, jamolingni ko'rsam man.

Nazar tegsa ul zamon, ochilur chechak ming alvon,

Farah qilur bunda jon, jondin kechib o'lsam man.

Jondir kechmay ish bitmas, nafsi ammoratima,

Quruq da'vo sud etmas, yolg'on ko'ngul bersam man.

Da'vo tilim soni yo'q, ishqsizining joni yo'q,

Dardsizlarga davo yo'q, tabibimdin so'rsam man.

Tabib sensan da'vo qil, tabibimdin so'rsam man.

Tabib sendan da'vo qil, xojatimni ravo qil.

Fazling birla yoriy qil, yo'lsiz qadam ursam man.

Qul Sulaymon so'zladi, sirin xalqdin gezladi,

Suratsizni izladi, kerak diydor ko'rsam man.

Ko'ryapsizki, Boqirg'oniyni "nafsi ammora"ni tilga olish bilan she'rxonni botiniy illat va nuqsonlarga qarshi turish, ulardan ko'nglini poklashga chorlagan. Uning talabi ishqiy iymon rostligi, quruq da'vo va riyoni la'natlashdir. "Tasavvuf -o'limning tirikligi, tiriklikning o'limidirki, bu ma'naviy ruhiy hayotda tirilib, nafsoniy hayotda o'lmoq ma'nosini bildiradi" - deydi bobo Tohir. Ayni shu haqiqat Boqirg'oniyni she'rlarida ham aksini topgan.

Afsuski, Boqirg'oniyni ijodiyotining tub mohiyati to'g'ri belgilanmasdan, uzoq vaqtlar johillik bilan qoralab kelindi.

Diniy mifologiya va tasavvuf falsafasi Boqirg'oniyni asarlariga o'zgacha nigoh bilan qarash, ularning majoziy mazmunlarini boshqacha yo'nalishda talqin qilishni talab etadi. Shoir manzumalari bu dunyoni do'zaxga aylantirmaslik, nafsi havoga berilib Xalq boshiga qiyomat azoblarini solmaslik, ong qullaridan xalos bo'lish, din qudratini ulug'lash kabi ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarni ifodalaydi.

Olim Matan Mallaev Boqirg'oniyni "reaksion she'rlar" yaratishini bevosita Ahmad Yassaviyga bog'laydi; "Boqirg'on kitobi"dagi she'rlar g'oyasi, uslubi va tili jihatidan Ahmad Yassaviy she'rlariga shunchalik yaqin va monandki, ba'zan ularni bir-biridan ajratish ham amri maholdir". G'oya, uslub, tilda chindan ham o'xshashlik kuchli. Qul Sulaymon, Hakim Sulaymon, Hakim ota tahalluslari bilan





yoziqlan she'rlar shakl va ma'no, obraz va ohanglarda Yassaviy hikmatlariga yaqin, goho favqulodda o'xshash, Ahmad Yassaviyning qiziqtirgan bosh masalalarga Boqirg'oniy befarq qolmagan. Umuman, "Devoni hikmat" ruhidan Boqirg'oniy asarlarini ajratib bo'lmaydi. Shu g'oyaviy-badiiy uyg'unlikni Kuplizoda "Yassaviylikning xususiy odobi" ekanligini ta'kidlab deydi; "Hakim Sulaymon ota bu an'anani ilk daf'a ta'sis etmog'i nuqtai nazaridan Yassaviy izdoshlari orasida eng muhim mavqega erishishga haqli edi. Uning asarlari ham sakkiz yuz yildan beri Shayxning asarlari ila barobar xalq orasida barhayot yashab kelganligi bundan dalolatdir".

Alohida ta'kidlash joizki, Boqirg'oniy Yassaviyning munosib shogirdi bo'lganligini ta'kidlaydigan naql va hikoyatlarning ko'p yaratilganligi ham tasodifiy emas. Emishki, Sulaymon madrasaga qatnaganda boshqa bolalarga o'xshab "Qur'on"ni yelkasiga olmasdan ikki kaftida ko'tarib qadam bosar, tahsil tugagach, uyiga yetib olguncha madrasaga orqa o'girmas ekan. Bir kun masjid yonida o'tirgan Ahmad Yassaviy bu holni ko'rib, hushdan ketadi. Shundan e'tiboran Xoja "Qur'on" o'qimoqqa Sulaymonni yoniga olibdi. O'n besh yoshga kirgandan so'ng esa Yassaviyga u murid bo'lgan ekan. Bir rivoyatda dashtdan o'tin terib kelish voqeasi Xizr alayhissalomning Yassaviyga mehmon bo'lib kelishiga bog'lanadi. Sulaymonning tadbirkorligidan mutaassir bo'lgan Xizr unga "bundan so'ngra laqabing Hakim bo'lsin. Jim yurma, fayz izhor qil", degan ekan. Shu-shu Sulaymon hikmatlar ayta boshlagan ekan.

Sulaymon Boqirg'oniy she'rlari "Boqirg'oniy kitobi" nomi bilan Qozonda bir necha marotaba bosilgan. Mazkur to'plam 1848 va 1898 yillarda chiqqan, Sharqshunoslik saqlanayotgan (Inv. №12646, №289) shu ikki kitob asosida dunyoga kelgan. To'plamda tasavvuf dil pokligi ruh komilligiga o'rgatadigan ta'limot ekanligi aks etadi. Tasavvufdagi ko'p fikrlar nafs va ahloq, ruh va ishq to'g'risidagi she'rlar keltiriladi. Boqirg'oniyning ilohiy ishq haqidagi falsafiy, ahloqiy qarashlari bugungi globallashuv davrida, ma'rifatli jamiyatda o'rganilishi lozim bo'lgan ilmdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent – 2022. 249-b.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм И суфийская литературе. –М.: Наука, 1995. С.54
3. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent – 2022. 283-b.
4. Sulaymon Boqirg'oniy "Boqirg'oniy kitobi" Sharqshunoslik (Inv. №12646, №289)
5. Najmiddin Komilov Tasavvuf. "O'zbekiston" – "Toshkent" Toshkent– 2009. 283-b.
6. Homidjod Homidiy Tasavvuf allomalari. "Sharq" Toshkent-2009.
7. Turdiyev, B. (2024). The Priority Of Human Interests In Uzbekistan's Ideospheric Development. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(15), 120-123.
8. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. Academic research in educational sciences, 2(4), 443-451.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

CHENG XIAOQING USLUBI VA LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Хожијева Махбуба Умиджон қизи

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyshunoslik oliy maktabi, magistratura 2-bosqich talabasi

+99894 6070162

abdulazizovamakhbuba888@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Xitoy detektiv adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan yozuvchi Cheng Xiaoqing uslubi hamda leksikasi haqida gap boradi. “Huo Sang hikoyalari” asarida qo‘llanilgan leksika tahlil qilinib, uning o‘ziga xos xususiyatlari, uslubiy ifodasi ochib beriladi. Jinoyat leksikasiga oid so‘zlarning semantik tahlili, leksikaning stilistik xususiyatlari ham keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Huo Sang hikoyalari”, emantik tahlil, stilistik xususiyat, syujet, izchillik, mantiq, izquvar, ijodiy bo‘yog‘dorlik, psixologik tasvir

Cheng Xiaoqingning detektiv romanlari tili o‘ziga xos va noyob bo‘lib, unda metaforalar, epitetlar va boshqa leksik-stilistik vositalarning bir kontekstdagi uyg‘unligi kuzatiladi. Ushbu vositalar yuqori badiiylik va tasviriylikka ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida mudhish jinoyatlar hujjatbardorlik darajasida batafsil va aniq tasvirlanadi.

Yozuvchi leksikasidagi o‘ziga xosliklardan biri ma’no ta’sirchanligini orttirish uchun sifatlardan ko‘p foydalanish hamda ularning sinonimlarini o‘z o‘rniga qo‘ya bilish. Detektiv asarlarda jinoyatni tasvirlash uchun eng ko‘p ishlatiladigan sifat bu “qo‘rqinchli, dahshatli” so‘zlari. Ushbu sifatlar qo‘llanilishini Cheng Xiaoqingning “Huo Sang hikoyalari” dan olingan misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

Jinoyatni tasvirlash jarayonida quyidagi gap ishlatiladi. «露出两行惨白可怕的牙齿» “ikki qator qo‘rqinchli darajada oqarib ketgan tishlarini ko‘rsatib, 可怕 qo‘rqinchli, dahshatli deb tarjima qilinadi, bu yerda 惨白 rangpar sifatining ma’nosini kuchaytirish uchun ishlatilgan. Yana bir o‘rinda dahshatli sifatining boshqa ko‘rinishi qo‘llaniladi: «许先生，你昨夜的经历委实是很离奇恐怖的» “...janob Syu, kechagi tajribangiz haqiqattan ham juda dahshatli edi”<sup>1</sup>

Cheng Xiaoqing detektiv romanlarida jinoyatni ochish yo‘llarini ko‘rsatib berish bilan birga, o‘sha davrdagi jamiyatda sodir bo‘layotgan muammolarga nisbatan o‘z qarashlarini ham keltirib o‘tgan. Misol uchun asar qahramoni Fu Xiangling tilidan shunday deydi «他对于我和祥做的婚姻有些不满，曾劝我毁约。我以为在现今时代，婚姻问题，女子应有自主的权，兄长不能干涉。所以我不听从他», “Akam mening Syanlun bilan nikohlanishimga qarshi edi, u meni unashtiruvni bekor qilishga undadi. Lekin men hozirgi zamonda ayollar nikoh borasida mustaqil qaror qabul qilishi kerak deb o‘ylayman, shuning uchun uning gapiga quloq solmadim.”<sup>2</sup> Bu misol orqali yozuvchi o‘sha davrda Xitoyda ayollarda erkinlik bo‘lmagani, hatto umr yo‘ldoshini o‘zlari tanlash imkoniyatiga ega bo‘lmaganliklarini tanqid qilib, hozir zamon o‘zgargan, ayollar mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerakligini ta’kidlab o‘tadi.

Yana bir misol: «他说祥麟太没有志向。在这革命进行国家需才的当地，祥麟受了高等教育，却袖手旁观，只顾个人的安享，未免太腐化» “Uning aytishicha, Xoang Lin mutlaqo maqsadsiz odam. Inqilob va yurtimiz iste’dodli odamlarni talab qilayotgan paytda, Xoang Lin oliy ma’lumot olib, faqat o‘z shaxsiy farovonligini o‘ylab, qo‘llarini qovushtirib o‘tirgan. Bu esa uning tubanlashib ketayotganidan dalolat beradi”. 1912-yilda Sin 清朝 sulolasining qulashi hamda Xitoy Respublikasi 中华民国 e’lon qilinishi bilan mamlakat yangi davrga qadam qo‘ydi, biroq 1920-30-yillarda Xitoy harbiy hukmdorlar 军阀 tomonidan bo‘lingan bo‘lib, markaziy hukumat ancha zaif edi. Bu davrda tabiiyki, islohotlarga ochiq, zamonaviy fikrlaydigan, vatanparvar yoshlarga ehtiyoj kuchli bo‘ladi, ushbu ehtiyojni va yoshlarning beparvoligini Cheng Xiaoqing asar orqali ko‘rsatib o‘tgan.

1 Захарова Н. В. *Переводы европейской литературы и рождение новой прозы в Китае* // Успехи современной науки / Институт мировой литературы имени А. М. Горькова РАН. — 2017. — Т. 2, № 1. — С. 137.

2 郭延礼著. 《中国近代翻译文学概论》 [M]. 湖北教育出版社. 1998



Cheng Xiaoqing romanlarida voqealar, ko‘pincha, manzara tasviri bilan boshlanadi, bu tasvir voqea psixologiyasini ham ochib beradi. Misol uchun jinoyat sodir bo‘lgan joylar sovuq, qorong‘u qilib ta‘riflanadi. Yozuvchi voqea psixologiyasini ta‘riflashda foydalanadigan leksikalardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz: 半夜过后, 十二点钟已经敲过了好一会” (“O‘sha vaqt yarim tundan o‘tgandi, soat o‘n ikkidan ancha vaqt o‘tgan edi”) — Kechasi tasvirlanishi sirli va noaniq holatni kuchaytiradi, bu esa detektiv romanlarga xos tashvish, xavotir va noaniqlik hissini uyg‘otadi. “天色仍是阴沉沉的” (“Osmon hamon tund edi”) — To‘xtagan yomg‘irga qaramay, osmonning ochilmasligi tashvish va mavhumlik tuyg‘usini kuchaytiradi. “忽又下起大雨来, 足足注泻了三个多钟头” (“To‘satdan kuchli yomg‘ir quya boshladi, uch soatdan ortiq davom etdi”) — To‘satdan kuchaygan yomg‘ir taranglik va keskinlik yaratadi, go‘yo nimadir sodir bo‘lishi kutilayotganday. “屋檐下的水溜中奔流不绝” (“Uying ostidan suv tinimsiz oqib turardi”) — Bu detal shunchaki tabiat hodisasi bo‘lib qolmay, beqarorlik, keskinlik va xavf hissini ham ifodalaydi. “呼呼的风声转了方向” (“Shamol yo‘nalishini o‘zgartirdi”) — Bu o‘zgarish voqealar rivoji yaqin ekanligini anglatib, sirli muhitni kuchaytiradi.<sup>1</sup>

Yo‘qotilgan izlar, noaniq voqealar va sirli jinoyatlar fonida yozuvchi ob-havo va muhit tasvirlarini kayfiyat yaratish uchun ishlatadi: 阴沉沉的天色- tund osmon, 呼呼的风声-uvillagan shamol ovozi. Shunga o‘xshash tasvirlar taranglik va sirli muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Cheng Xiaoqing “Huo Sang hikoyalari” asarini “Sherlok Holms” ga taqlid qilib yozganini yuqorida ham aytib o‘tgan edik. Aynan qaysi jihatidan taqlid qilingan savoli o‘rtaga tashlansa, aytishimiz mumkinki, personaj dizayni va hikoya nuqtai nazaridandir. Shuningdek, asarda o‘sha paytdagi Xitoyning ijtimoiy muammolari yoritilgani ham o‘quvchilarni topishda muhim o‘rin tutgan. Xitoylik detektiv ixlosmandlari Sherlok Xolmsga bo‘lgan muhabbatlarini “Sharq Sherlok Xolmsi” “Huo Sang”ga o‘tkazdilar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Huo Sang, shubhasiz, Xitoy zamonaviy detektiv adabiyoti tarixidagi eng jozibali tergovchidir. U ilmiy tafakkurga, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga va adolatparvar qalbga ega. Shu bilan birga, Cheng Xiaoqing bu obrazni jonli tasvirlab, uni qog‘ozda hayotga olib keluvchi xarakter kuchi bilan boyitgan.

Ushbu obrazning muvaffaqiyatli yaratilishi adabiy qahramonlar galereyasining son jihatdan ko‘payishidan ko‘ra muhimroq ahamiyatga ega. Eng asosiysi, Huo Sangning paydo bo‘lishi adabiy tiplarning klassik axloqiy va hissiy yo‘nalishdan zamonaviy ratsional va intellektual yo‘nalishga o‘tganini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu davr jamiyatining urf-odatlarini va adabiy shakllanish jarayonlaridagi o‘zgarishlarni va yangilanishlarni ma‘lum darajada aks ettiradi.

Huo Sang obrazining muvaffaqiyatli yaratilishi Cheng Xiaoqingning chuqur badiiy mahorati bilan bog‘liq. Uning detektiv romanlaridagi san‘atkorlikning o‘ziga xos jihatlari, avvalo, tilning ixcham va aniq bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Ushbu jonli va ravon uslub detektiv romanlarning tezkor sur‘atiga juda mos tushadi. Tuzilish va kompozitsiya jihatidan esa, asarlarda murakkab va mohirona qurilgan intrigalar, qiziqarli va mantiqiy yechimlar uchraydi.

Cheng Xiaoqing asar bosh qahramoni – Huo Sangni quyidagicha ta‘riflaydi: Huo Sang gavdali va baquvvat, bo‘yi besh fut to‘qqiz dyum og‘irligi 150 funtdan ko‘proq, keng peshona, ko‘zlari qora va chaqnaq turadi. Xarakteri qat‘iyatli, aqlli va ehtiyotkor, kuchli xotira va g‘ayritabiiy fikrlash qobiliyatiga ega. Inson tabiati haqida tezda xulosa qila oladi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, bosh qahramonni kuchli, ishbilarmon, adolatli izquvar – turli muammolar, adolatsizliklardan ezilib ketgan o‘sha davr odamlari orzu qilgan haloskor obrazi edi. Shuningdek, qahramon yaratishda “psixologik darajasi”ga ham urg‘u bergan. Huo sangni hamisha o‘z pozitsiyasida turadigan qilib tasvirlagan. Huo sang nafaqat, izquvarlik, balki Xitoy an‘anaviy jang san‘atlarida ham mohirligi bilan ham ajralib turardi. Huo Sang amaliyot jarayonida xitoy an‘anaviy moizm aqidasi amal qilganini ham ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Cheng Xiaoqing asarlarida qo‘llagan leksikasi rang-barang, ijodiy bo‘yog‘dorligi bilan boshq yozuvchilardan ajralib turadi. Qahramonlar ta‘rifidan tortib ularning psixologik portretini yaratishda eng ko‘p qo‘llanilgan so‘z turklumlaridan biri sifat bo‘lib, bu asarlardagi ta‘dirchanlikni kuchaytirishga yordam bergan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Захарова Н. В. Переводы европейской литературы и рождение новой прозы в Китае // Успехи современной науки / Институт мировой литературы имени А. М. Горькова РАН. — 2017. — Т. 2, № 1. — С. 137.

<sup>1</sup> Robert E. Hegel. *Reading Illustrated Fiction in Late Imperial China*. — Stanford University Press, 1998. — С. 32. — 528.



2. Борхес Х. Л. Детектив / Л. Х. Борхес // Как сделать детектив / пер. с англ., франц., нем., исп.; сост. А. Строев ; ред. Н. Португимова – Москва : Радуга, 1990. – С. 236–272.
3. 汤锐. 狐狸侦探. 南京: 江苏少年儿童出版社, 1995. – 271页.
- Robert E. Hegel. Reading Illustrated Fiction in Late Imperial China. — Stanford University Press, 1998. — С. 32. — 528.
4. 郭延礼著. 《中西文化碰撞与近代文学》 [M]. 山东教育出版社. 1999
5. 郭延礼著. 《中国近代翻译文学概论》 [M]. 湖北教育出版社 . 1998





IKKI VALENTLI YADRO IKKI KARRA PREDIKATLANUVCHI KOMPONENTNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Asadova Gavhar Teshabayevna,  
Samarqand davlat chet tillar  
instituti doktoranti  
telefon: +99886129878  
asadova@samdchti.uz

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslik doirasida yangicha yondashuvlar asosida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur maqola sintaktik valentlikka sintaktik aloqalar nuqtai nazaridan yondashilgan holda ikki valentli yadro predikativ 1 (ega) vazifasidagi elementlarning tashqi qurilmasi komponent tahlil va yunksion modellar asosida aniqlashga qaratilgan. Tahlil natijasida tadqiq etilgan sintaktik birliklarning morfologik imkoniyatlari ochib berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** *valentlik, yadro predikativ aloqa, noyadroviy predikativ aloqa, tobe komponent, ikki karra predikatlanuvchi, yunksion model*

Gap qurilmasida ikki valentli sintaktik birliklarni aniqlashda sintaktik aloqalar soniga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Gap tarkibida ikki valentli sintaktik birliklar ikki sintaktik aloqa asosida boshqa komponentlar bilan bog'lanib keladi [1, 110], ya'ni ikki valentli sintaktik birlik yadro predikativ va noyadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ aloqalar bazasida vujudga kelishi mumkin.

Mazkur maqolada yadro ikki karra predikativ 1 ( $NP_1P_1$ ) komponenti o'rnida kelgan ikki valentli sintaktik birliklar komponentlarga ajratib tahlil qilinadi, sintaktik va morfologik imkoniyatlari ochib beriladi va modellashtiriladi, sintaktik aloqalari yunksion modellarda aks ettiriladi.

Yadro ikki karra predikativ 1 ( $NP_1P_1$ ) o'rnida kelgan ikki valentli komponentlar ikki xil sintaktik aloqa – yadro predikativ aloqa va noyadroviy predikativ aloqa bazasida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Yadro predikativ aloqa gap tarkibida ikki yadro komponentlarni, ya'ni gapning asosiy qurilmasini tashkil etuvchi yadro predikativ 1 (ega) va yadro predikativ 2 (kesim) komponentlarni o'zaro bog'laydi [6, 1970]. Noyadroviy predikativ aloqa esa birinchi sintaktik aloqadan farqli o'laroq, gapning asosiy qurilmasi sifatida baholanmaydi. N.E.Voskresenskaya mazkur sintaktik aloqaning boshqalaridan farqi haqida shunday yozadi: "...bu aloqa bir tomonlama yo'naltirilmaydi, ya'ni komponentlarning tobeligini bir tomonlama ifodalamaydi. Noyadroviy predikativ aloqaning yadro predikativ aloqadan farqi shundaki, u gap tarkibining asosiy yadrolariga kirmaydigan komponentlarni o'zaro bog'lashi mumkin" [3, 228]. Ammo, u sintaktik aloqa sifatida yadro predikativ 1 ( $NP_1$ ) va noyadroviy predikativ 2 ( $\tilde{NP}_2$ ) komponentlarni bir-biri bilan bog'lashga xizmat qiladi.

To'plangan misollarni transformatsiya usullari orqali tahlil qilish jarayonida gap qurilmasida ikki valentli sintaktik birliklarning yadro ikki karra predikativ 1 ( $NP_1P_1$  – ega) o'rnida kelishi kuzatildi. Ushbu hodisani quyidagi gaplarda ko'ramiz:

1. *I stopped to listen to the wind in the trees (ChBJE, 109).*
2. *The decision happened to change the course of their entire lives (KHN, 123).*
3. *The book was thought to hold the key to unlocking the secrets of the universe (EMSS, 112).*
4. *She was standing beside me looking across at the shapes of the trees against the sky (DTG, 27).*


Bu gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishdan avval ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalari hamda ayrim ilmiy risolalarga e'tibor qaratganimizda, ushbu masala yuzasidan tilshunoslarning fikrlari turlicha ekaniga guvoh bo'ldik. Birinchi gapdagi *to listen* komponentining maqsad holi vazifasini bajarishi va kesimga tobelanishi haqida fikr bildiriladi, biroq uning ega vazifasidagi bo'lakka nisbatan sintaktik munosabati haqida ma'lumot berilmaydi. L.V.Kaushanskaya, B.S.Xaymovich, B.I.Ragovskayalar 2, 3-gaplar tarkibidagi uchinchi sintaktik birliklar *to change, to hold*, gap egasi bilan birgalikda murakkab ega funksiyasini bajaradi [4, 253; 2, 156], desa, M.G.Mandichev esa *happened to change, was thought to hold* birikmalarini murakkab kesim yoki qo'shma fe'l kesim [5, 115], deb qaraydi. To'rtinchi gapda *looking* elementi tarz holi sifatida talqin qilinadi, biroq ushbu sintaktik birlik yadro predikativ 1 o'rnidagi *she* sintaktik birlik bilan bog'lanishi haqida ma'lumot berilmaydi.



Ushbu birikmalarga turli xil yondashuvning barham topishi uchun mazkur masalani elementar sintaktik birliklar tushunchasidan kelib chiqqan holda, gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishda transformatsiya va modellashtirish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Demak, *I, The decision, The book, she* komponentlari gap qurilmasida yadro predikativ 2 (kesim) o'rnida kelgan *stopped, happened, was thought, was standing* sintaktik birliklar bilan yadro predikativ aloqa asosida bog'lanadi. Tobe elementlar hisoblanuvchi sintaktik birliklar *to listen, to change, to hold, looking* gapning egasi o'rnida kelgan sintaktik birliklar bilan noyadroviy predikativ aloqaga kirishadi.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan misollarning yunksion modellari, komponent va morfologik xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin. Modellashtirishda qulaylikka erishish uchun gap tarkibidagi ba'zi tobe komponentlarni tushirib qoldiramiz:

- 1) *I stopped to listen to the wind...*
- 2) *The decision happened to change the course...*
- 3) *The book was thought to hold the key ...*
- 4) *She was standing ... looking ... at the shapes ...*



Berilgan misollar bir xil yunksion modelga ega, ya'ni ularningsintaktik aloqalari bir xil, ammo ularning morfologik xususiyatlari farqlanadi.

1) <i>I stopped to listen to the wind..</i>	$\frac{NP_1 P_1}{Pnp} \cdot \frac{NP_2}{Vf} \cdot \frac{\tilde{NP}_2}{Vinf} \cdot \frac{\tilde{ND}}{prS}$	K.M.1.
2) <i>The decision happened to change the course</i>	$\frac{NP_1 P_1}{S} \cdot \frac{NP_2}{Vf} \cdot \frac{\tilde{NP}_2}{Vinf} \cdot \frac{\tilde{ND}}{S}$	K.M.2.
3) <i>The book was thought to hold the key</i>	$\frac{NP_1 P_1}{S} \cdot \frac{NP_2}{auxVp2} \cdot \frac{\tilde{NP}_2}{Vinf} \cdot \frac{\tilde{ND}}{S}$	K.M.3.
4) <i>She was standing ... looking ... at the shapes</i>	$\frac{NP_1 P_1}{Prp} \cdot \frac{NP_2}{auxVp1} \cdot \frac{\tilde{NP}_2}{Vp1} \cdot \frac{\tilde{ND}}{prS}$	K.M.4.

Bu tartibda qurilgan gaplar tarkibidagi noyadroviy predikativ aloqani aniqlashda transformatsiya metodining tushirib qoldirish va verbalizatsiya qilish usullaridan quyidagicha foydalanish mumkin:

- (1) *I stopped to listen to the wind... → she to listen to the wind → she listened to the wind;*
- (2) *The decision happened to change the course... → the decision to change → the decision changed;*
- (3) *The book was thought to hold the key ... → the book to hold the key → the book holds the key;*
- (4) *She was standing ... looking ... at the shapes → She looking at the shapes → She was looking at the shapes.*

Yig'ilgan misollarni tahlil qilish asosida yadro ikki karra predikativ 1 o'rnidagi ikki valentli sintaktik birlikni aniqlashda yadro predikativ 2 (kesim) o'rnida kelgan sintaktik birlik nafaqat fe'ning majhul nisbatida berilishi bilan chegaralanadi, balki gap tarkibida kesim o'rnida to'liq ma'noga ega bo'lgan fe'ning shaxsli shakli va undan keyin kelgan sifat, ot, sifatdoshlardan iborat bo'lishi ham kuzatildi.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'lishicha, gap qurilmasida ikki valentli komponent faqat yadro ikki karra predikativ 1 o'rnidagi emas, balki noyadroviy tobe predikativ 2 o'rnida kelgan sintaktik birliklar ham ikki valentli komponentlar hisoblanadi. Xuddi shunga o'xshash qurilmalarda ikki valentli komponentlarni yadro predikativ 1 hamda uch valentli komponentlarni noyadroviy predikativ 2 komponentlari o'rnida kelishini ham kuzatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Asadov R. M. Syntaxemes expressed by bivalence components in the position of homogeneous nuclear predicated elements in the structure of sentences //Neue methodische Ansätze im DaF-Unterricht. – 2014. – С. 109-123.
2. Khaimovich B.S., Rogovskaya B.I. A Course in English Grammar. – Moscow: Vysšaya škola, 1967.-298p.
3. Воскресенская Н.Е. Предложение с ядерным дважды предидируемым компонентом в современном английском языке // Сборник материалов международной конференции,



посвященной проф. В.А.Дорошенко и памяти проф. А.М.Мухина «Когнитивно-дискурсивные исследования языка и лингвистический анализ» г. Краснодар, 17 мая 2012г.– Краснодар: КГИК, 2012.– С.227-230.

4. Каушанская В.Л. Грамматика английского языка. 5-й изд., испр. и доп. – М.: Айрис Пресс, 2008. -384 с.

5. Мандычев М.Г. Субъективный инфинитивный оборот в современном английском языке // Иностранные языки в школе. – Москва, 1956.– №1.– С.105-115.

6. Мухин А.М. Модели внутринных синтаксических связей предложений // Вопросы языкознания.– Москва: 1970.– №4.– С.68-80.



Ergasheva Madinabonu Rustamjon qizi

TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi magistratura 1-kurs

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent L.A.Sultanova

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xitoy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan 歇后语 (xiehouyu)lar o‘ziga xos madaniy vosita sifatida tahlil qilinadi. Xiehouyu nafaqat xalq donishmandligi va til o‘yinining namunasi, balki xitoy xalqining tarixiy, axloqiy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlikdir. Maqolada bu iboralarning kelib chiqishi, madaniyatdagi o‘rni, ijtimoiy kommunikatsiyadagi funksiyasi va zamonaviy xitoy jamiyatidagi qo‘llanishi misollar bilan yoritib beriladi. Shuningdek, xiehouyular orqali milliy fikrlash tarzi, qadriyatlar va an‘analar qanday ifoda topishini lingvistik tahlil asosida ko‘rsatishga harakat qilinadi. Ushbu maqolada xitoy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan 歇后语 (xiehouyu)lar o‘ziga xos madaniy vosita sifatida tahlil qilinadi. Xiehouyu nafaqat xalq donishmandligi va til o‘yinining namunasi, balki xitoy xalqining tarixiy, axloqiy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlikdir. Maqolada bu iboralarning kelib chiqishi, madaniyatdagi o‘rni, ijtimoiy kommunikatsiyadagi funksiyasi va zamonaviy xitoy jamiyatidagi qo‘llanishi misollar bilan yoritib beriladi. Shuningdek, xiehouyular orqali milliy fikrlash tarzi, qadriyatlar va an‘analar qanday ifoda topishini lingvistik tahlil asosida ko‘rsatishga harakat qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** xiehouyu, xitoy madaniyati, lingvomadaniy birlik, xalq og‘zaki ijodi, til va madaniyat

## THE ROLE OF “XIEHOUYU” IN CHINESE CULTURE

Ergasheva Madinabonu Rustamjon qizi

Tashkent State University of Oriental Studies, Institute of Sinology

Scientific advisor: PhD, associate professor L.A. Sultanova

**Abstract:** This article explores *xiehouyu*, a distinctive form of Chinese idiomatic expression, as a cultural phenomenon deeply rooted in the heritage of the Chinese people. These expressions, often humorous and metaphorical, reflect the collective wisdom, moral values, and aesthetic preferences of Chinese society. The paper discusses the historical background, cultural significance, and social functions of *xiehouyu*, emphasizing its role in communication and education. Linguistic examples are provided to demonstrate how *xiehouyu* serves as a mirror of national thinking and traditional beliefs.

**Keywords:** *xiehouyu*, Chinese culture, linguistic and cultural unit, folklore, language and culture

歇后语 xitoycha ideomatik iboraning o‘ziga xos shakli bo‘lib, birinchi qismi vaziyat yoki hodisani tasvirlaydigan ikki qismli jumlaning o‘z ichiga oladi. Ikkinchi qismi esa odatda javob tarzida bo‘lib, yumor orqali ifodalanadi. 歇后语 asrlar davomida Xitoy madaniyatining muhim qismi bo‘lib kelgan va uzoq vaqt o‘tishiga qaramay o‘z mashhurligini yo‘qotmagan. 歇后语 Xitoyda Tang sulolasi (618-907) davridan boshlangan uzoq va boy tarixga ega. Eng qadimgi 歇后语 larni Tang davri she‘riyatida uchratish mumkin. Xususan, Tang davrida yozilgan “Wen Xuan” (文选) she‘riy asari va Sun sulolasi (960-1279) davridagi “Yun Jing” (韵镜) nomli lug‘atda 歇后语 larning ilk namunalari uchraydi. 歇后语 Ming sulolasi (1368-1644) davriga kelib mashhur bo‘ldi va Qing sulolasi (1644-1912) davrida o‘zining eng cho‘qqisiga chiqdi. O‘sha paytdan buyon u xitoy madaniyatining muhim qismiga aylandi va avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. 歇后语ning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning qisqaligidir. Har bir fraza ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, ularni yodda saqlash va gap tuzish jarayonida ifodalashda qiyinchilik tug‘dirmaydi. Shuningdek, 歇后语 ko‘pincha hazil orqali ifodalanadi va tinglovchilar uchun qiziqarli suhbat jarayonini tuzishga xizmat qiladi. Ko‘pgina iboralar so‘z o‘yinlari va qochirimlar asosida yaratilgan bo‘lib, bu ularning jozibasini yanada oshiradi. 歇后语larning yana bir xususiyati uning ko‘p qirraliligidir. Ya‘ni ular turli xil kontekstlarda, kundalik suhbatlardan tortib, adabiyot va she‘riyatgacha qo‘llanilishi mumkin. 歇后语lar hazildan istehzoga, donolikka qadar turli xil his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, 歇后语lar axloqiy saboq yoki madaniy qadriyatni ham tinglovchiga yetkazish uchun xizmat qila oladi. 歇后语lar bir necha sabablarga ko‘ra Xitoy madaniyatida muhim rol o‘ynagan.





Birinchidan, bu asrlar davomida shakllangan va turli xil yoshdagi insonlar tomonidan sevib qarshi olinadigan frazeologizmining tinglovchiga zavq bag'ishlovchi turi sifatida qaraladi. Uning qisqaligi va zukkoligi uni mashhur yumoristik jumlagacha aylantiradi. Natijada ko'plab xitoyliklar o'zlarining sevimli iboralarini boshqalar bilan bo'lishish va muhokama qilishdan zavqlanadilar. Ikkinchidan, xitoy tili va adabiyotining muhim jihati hisoblanadi. Unda so'z o'yini va qochirimlardan foydalanish xitoy tili va adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu sabab, ko'plab mashhur xitoy yozuvchilari va shoirlar ham o'z asarlariga 歇后语larni kiritadilar. Shuningdek, 歇后语lar Xitoyda madaniy ahamiyatga ega. Ko'p iboralar Xitoyning an'anaviy qadriyatlari va e'tiqodlari, ya'ni farzandlilik burchi, halollik, mehnatsevarlik kabilarga asoslanadi. 歇后语lardan foydalanib, odamlar bu qadriyatlarni yengil va esda qolarli tarzda avloddan-avlodga yetkazishlari mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda Xitoyda 歇后语lardan nafaqat gapga biroz yumor ulashish uchun foydalaniladi, balki ta'limda ham keng qo'llaniladi. Ko'pgina o'qituvchilar lug'at boyligi va grammatika kabi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'rgatish uchun 歇后语dan foydalanadilar. 歇后语 ifodaning qadimiy shakli bo'lsa-da, u hozirgi Xitoy jamiyatida hamon dolzarbdir. Ko'p xitoyliklar hanuzgacha 歇后语lardan foydalanish va baham ko'rishni xush ko'radilar. Aksariyat holatlarda ulardan ommaviy axborot vositalari va reklama kompaniyalarida xabarni tinglovchining yodida uzoq vaqt qolishi va qiziqarli tarzda yetkazilishi uchun foydalaniladi. 歇后语 qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, Xan millatining o'ziga xos til shaklidir. Jamiyat rivojlanishi bilan 歇后语 soni doimiy ravishda oshib bormoqda va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Ma'lum darajada allegoriya tarixiy taraqqiyotning guvohi sifatida ishlatilishi mumkin. Madaniyat – bu insonlar tomonidan amaliy faoliyatda yaratilgan moddiy boyliklar va ma'naviy boyliklar yig'indisidir. Vu Zhankun (武占坤) o'zining “Xitoy maqollari bo'yicha tadqiqot” (中华谚语研究) asarida shunday degan: “歇后语 – bu Xitoy ideomalarining o'ziga xos tili va xorijiy tillarda xitoycha 歇后语larga teng keladigan til shakli mavjud emas.” Til shakli sifatida 歇后语 xitoy tiliga xosdir, u xitoy madaniyatining bir turini ifodalaydi. 歇后语 xitoy frazeologiyasiga xos bo'lib, uzoq vaqtdan buyon lug'at tadqiqoti turkumiga kiritilgan. 1989-yilda Jilin (吉林) universitetidan Sun Veyzhang (孙维张) “Xitoy frazeologiyasi” (汉语熟语学) kitobini yozgan bo'lib, unda frazeologizmlar alohida tadqiq qilingan. Janob Yao Xiyuanning (姚锡远) “Frazeologizmlar haqida tezis” (熟语学纲要) asarida ideomalar va so'zlar o'rtasidagi farq aniqlanadi. 2002-yilda janob Ven Duanzheng ham o'zining “Xitoy tilshunosligi” va “Xitoy tilshunosligi kursi” nomli monografiyalar chiqardi. Bu esa akademik doiralar tomonidan ijobiy baholandi. Unda keltirilishicha, 歇后语 taraqqiyoti uzoq tarixni bosib o'tgan bo'lib, soni mutassil ortib bordi va mazmuni doimiy ravishda boyidi. Uning yaratilishi mehnatkash xalqning donoligini o'zida mujassam etgan va xalq hayotining kayfiyatini aks ettiradi. Bu til shakli oddiy xalq folklor ijodi namunasi bo'lib, savodxon va mohir olimlarning she'rlari bilan solishtirganda go'zalroqdir. Frazeologizmlar tizimida nafaqat ideomalar bilan ifodalanadigan nafis madaniyat, balki 歇后语 tomonidan ifodalanadigan dunyoviy madaniyat ham mavjud bo'lib, u madaniyat xilma-xilligini aks ettiruvchi o'ziga xos uyg'unlikdir. 歇后语 – bu Xitoy xalqining kundalik hayot amaliyotida yaratilgan maxsus til shakli bo'lib, u qisqa, kulgili va jonli jumladir. U ikki qismdan iborat: birinchi qismi topishmoq kabi “kirish” vazifasini bajaradi, ikkinchi qismi esa topishmoqning javobi sifatida keldi. Xitoy frazeologiya tizimida bu holat juda tabiiy va o'rinli deb baholanadi. Muayyan til muhitida odatda birinchi yarmi gapiriladi, ikkinchi yarmini esa asl ma'nosini tushunish va taxmin qilish mumkin. Shuning uchun 歇后语 nomini olgan. “歇后语” atamasi birinchi marta “Qadimgi Tang kitobi” da, milodiy 898-yilda vujudga kelgan. U dastlab yashirin va kulgili tilga ega she'riyat janri edi. 歇后语 vujudga kelgandan to hozirgi kungacha ikki davrni bosib o'tdi. Ilk 歇后语 ijtimoiy ideomalar va jumlar (asosan klassikalar) asosida tuzilgan. Keyingi bosqichda esa 歇后语lar metaforik til tuzilishini shakllantirdi va omma bilan muloqot qilish turiga aylandi. 歇后语lar xitoy xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bizning tadqiqotimizda keltirilgan 歇后语larning aksariyati ularning keyingi davrda paydo bo'lgan shaklidir. 歇后语 ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi yarmi metafora, ikkinchi yarmi esa birinchi qismini e'lon qilishdir. 歇后语dan oldingi va keyingi qism metafora bilan izohlangan ob'ekt o'rtasidagi ma'lum bir o'xshashlik bilan bog'langan. 歇后语ning old va orqa qismlari o'rtasidagi munosabatlarga kelsak, janob Wen Duanzheng (温端政) so'z birikmasi sifatida 歇后语ning oldingi qismi metafora yoki “sir” bo'lib xizmat qilmasligini, balki “kirish” qism sifatida ifodalannishini ta'kidlaydi.<sup>1</sup> 歇后语ning birinchi yarmi ikkinchi yarmi bilan munosabatga kirishganda izoh vazifasini o'taydi. Bu 歇后语ning muhim xususiyati va ma'lum bir til shakli ekanligini farqlashimiz uchun muhim asosdir.

1 曾小武：《歇后语的语义关联的微观考察》，《华南农业大学学报》，2003年，第2期。



歇后语 - xitoy frazeologik tizimi a'zolaridan biridir. U maxsus til shakli sifatida Xitoyning unumdor tuprog'i va milliy tilning mohiyatiga chuqur ildiz otgan ajoyib guldur. Janob Yao Xiyuan aytganidek, "Ideomalar tilning orttirilgan shaklidir. Ideomatik til komponentlari nutqga olib kirilishi jarayonida Xan millatining turli madaniy hodisalari unda aks ettirilgan. Shu sababli, 歇后语larda xitoy millatiga xos bo'lgan ma'lumotlar va turli xil voqealar orqali madaniy asosni o'rganishimiz mumkin. 歇后语 va madaniyat o'rtasidagi munosabatni quyidagicha tushunishimiz mumkin:

Birinchi, til shakli sifatida 歇后语 madaniyatning ajralmas qismi va madaniy tizimlarning rivojlanishi va qurilishining muhim shaklidir.

Ikkinchi, 歇后语 – xitoy frazeologiyasining bir turi bo'lib, boshqa til shakllari bilan taqqoslaganda, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosan, fonetika, sintaksis, semantika va hokazolarda namoyon bo'lib, 歇后语 ontologiyasining madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Uchinchi, 歇后语ning paydo bo'lishi va rivojlanishi Xan millati madaniyati fonida amalga oshiriladi.

Xan millati uzoq muddatli tarixiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos milliy madaniyatni shakllantirgan. Shu sabab, 歇后语lar faqatgina xitoy tiliga xosdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, xitoy iyerogliflari tovush, shakl va ma'noga ega bo'lgan ideografik yozuv bo'lib, omonimlar, sinonimlar, semantik so'zlar va hokozalar orqali ma'noni bevosita ifodalay oladi. Bundan tashqari, xitoyliklar tarix, madaniyat, ishlab chiqarish va turmush tarzi, geografik muhit va boshqalar ta'sirida o'ziga xos fikrlash tarzini shakllantirganlar. 歇后语lar esa Xan millatining timsolidir. Biz 歇后语dagi ma'lumotlarga ko'ra Xan millati ya'ni xitoy xalqining noyob tarixi va madaniyatini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zeng, S. *Xiehouyu'ning semantik bog'liqligini mikro tahlil qilish* // Xuanan qishloq xo'jaligi universiteti jurnali. – 2003. – № 2.
2. Li, S. *Xiehouyu'ning semantik tuzilmasi va izoh masalalari* // Pedagogika instituti jurnali. – 2004. – № 6.
3. *Xiehouyu so'zlig'i* / tahrir. Wendi, D. va boshqalar. – Pekin: Pekin nashriyoti, 1984. – 2-fevral.
4. Voytsexovich, I. V. *Prakticheskaya frazeologiya sovremennogo kitayskogo yazyka*. – Moskva: Vostok-Zapad, 2007. – 509 s.
5. Isaeva, N. Sh. *Frazeologicheskaya semantika, natsional'nyy mentalitet i natsional'naya kul'tura* // Molodoy uchenyy. – 2011. – S. 82-85.



Kuchkarov Iskandarbek Alisher o‘g‘li

ADPI 1 bosqich tayanch doktoranti,

Email: ula20061985@gmail.com. 998934261881

**Annotatsiya:** Hozirgi globallashuv jarayoni ko‘p jabhalarga, binobarin tilshunoslikka ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda. O‘zaro aloqa va munosabatlar o‘zlashma so‘zlarni vujudga kelishiga turtki bo‘lmoqda. Ushbu maqolada o‘zlashma so‘zlarning kirib kelish omillari va ularning lingvistik jihatidan o‘zlashishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Lingvistik omil, o‘zlashma so‘zlar, til, ekstralingvistika, globallashuv.

**Kirish.** Butun borliq yaralibdiki barcha tirik mavjudotlar orasida insongagina so‘zlar orqali muloqot qilish, ma‘lum bir jamiyat uzra o‘zaro so‘zlar, iboralar yaratish va ular orqali muloqot qilish kabi buyuk bir ne‘mat ato etilingan. Bir til asrlarga teng bo‘lgan uzoq muddatda paydo bo‘lib, vaqt deya atalmish sinovda olovda sayqallangan po‘lat kabi shakillanib, o‘zida bir yoki bir necha xalq-elatlarining qadimiy madaniy va ma‘rifiy boylilari, ijtimoiy va ruhiy borlig‘i, urf-odatlar va adabiy merosini o‘zida mujassam etadi. Shu bilan bir qatorda o‘ziga xos bo‘lgan fonetik, leksik, frazeologik va grammatik xususiyatlari, kundalik hayotdagi so‘zlovchi hech qanday qiyinchiliksiz foydalanayotgan iboralari, ularning rivojlanish tarixi, o‘zaro boshqa bir tillar bilan ta‘siri unikal bir xarakterga egadir. Dunyodagi hech qaysi bir tillar hoh sharq mamlakat tillari, hoh g‘arb davlatlari tillari bo‘lmasin o‘zlari boshqa bir til ta‘siriz rivojlana olmaydi. Shu sabab tilning lug‘at boyligi rang – barang o‘zgarishlar uchun ochiq va dinamik tizimdir. Uzoq vaqtlar davomida barcha tillarda kundalik ehtiyojdan kelib chiqqan holda yangi so‘z va iboralar paydo bo‘ladi, qisman eskirgan so‘zlar iste‘moldan chiqadi yoki o‘z tub ma‘nosini yo‘qotib, ma‘no ko‘chish hodisasi sodir bo‘ladi. Mustaqillikka erishishimiz, xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lishimiz, hamda globallashuv hodisasi bu fenomenni sodir bo‘lishini tezlatib yubordi. Bu jarayonda bir tilga boshqa bir dominant tildan ekstralingvistik omillar asosida so‘zlar va atamalar kirib kela boshladi.

Mustaqillik tariximizga nazar solsak, quyidagi voqealarni keltirishimiz mumkin. 1990 yil 20 iyunda mustaqillik deklaratsiyaning qabul qilinishi jamiyatimizning o‘z mustaqilligiga erishishini huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan to‘ldirdi va ulkan bir tarixiy voqeaga aylandi. 1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi davlat mustaqilligi e‘lon qildi. Unda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti va Respublika davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi hamda 1 sentyabr – Mustaqillik kuni milliy bayram deb belgilandi. Mustaqillik e‘lon qilinganidan so‘ng, 1991- yil dekabr oyida O‘zbekiston MDH ga 1992-yil 2-martda esa BMTga a‘zo bo‘ldi. 1993-yili 24-oktabr kuni BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi, shu bilan birgalikda, BMTda O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi BMTning Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti — YUNESKOga ham a‘zo bo‘lgan.<sup>1</sup> Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, bir qator horijiy davlatlar bilan o‘zaro elchixonalar tashkil etildi. Bu aloqalar orqali iqtisodiyot, umumjahon ekologiyasi, fan – texnika, ta‘lim – tarbiya, tibbiyot va madaniy boylıklar almashinuvi sodir bo‘la boshladi. Tashqi olam bilan munosabatda bo‘lish, turizmning rivojlanishi, chet el xom ashyolarining davlatimizga import sifatida kirib kelishi, hamda media olamining rivoji o‘zbek tili lug‘atining ichki tizimidan tashqari holatida ekstralingvistik omil asosida boyishiga ulkan turtki bo‘ldi.

Tabiiyki boshqa tillar bilan aloqada bo‘lish orqali o‘zlashgan so‘zlar qabul qiluvchi tilning ichki qonuniyatlariga lingvistik omillar asosida moslashish jarayonidan o‘tadi. Lingvistika — bu ilmiy asosda tilning rivojlanishi, tuzilishi va ishlatilinishi o‘rganuvchi sohadir. Lingvistikaning o‘rganuvchi obyektlari keng bo‘lib, ularga fonetika (tovushlar), morfologiya (so‘zlarning tuzilishi), sintaksis (gap qurilishi), semantika (ma‘no), pragmatika (tilning qo‘llanilishi), va sotsiolingvistika (til va jamiyat aloqalari) kabi yo‘nalishlar kiradi. Lingvistika o‘z tadqiqot sohalari chegarasidan tashqarida bo‘lgan ko‘plab fan va yo‘nalishlar bilan doimiy ravishda aloqada ish olib borib, ma‘lum bir ichki guruhlarga ajratib turadi. Lingvistika turg‘un, o‘zgarmas va statik fanlar turkumiga mansub bo‘lmasdan, til ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinib, vaqt o‘tgan sari ba‘zi fundamental qarashlar o‘zgarib turishi, turli jamiyatda turlicha talqin qilinishi sababli mazkur sohadagi yetakchi filolog olimlarning fikr va

1 [https://uz.wikibooks.org/wiki/O%60zbekiston\\_tarixi\\_darsligi](https://uz.wikibooks.org/wiki/O%60zbekiston_tarixi_darsligi)



mulohazalari farq qilib turadi.

Ingliz filolog olimi Robert Henry Robins “Lingvistika dunyo tillarini umumiy va tanib olinadigan jamiyatning xulq – atvori va qobiliyatning bir qismi sifatida tadqiq etadi. Bu qobiliyat tarixdan erishilgan yutuqlar orasida eng muhimlaridan biri bo‘lib, keng ko‘lamli imkoniyatlarni yaratadi”<sup>1</sup> deya fikr yuritgan. Dunyodagi deyarli barcha tillar fonetik, grammatik, leksikologik va stilistik jihatidan umumiy jihatlarga ega bo‘lganligi tufayli, tillarga abstrakt xususiyatlar yig‘indisi sifatida qarashimiz mumkin. Bu kabi xususiyatlar insoniyat aqlining yoki miyyasining biologik tomondan meros bo‘lib o‘tgan shaklining ma‘lum bir jihati sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday fikr asosan universal tilshunoslik yoki umumiy grammatika kabi ilmiy tarmoqlarda muhokama qilinadi. Universal xususiyatlar olamdagi hamma tillarga xos deyilishi yoki aksincha, ilmiy baxs – munozalarning asosiy muhokama mavzusi bo‘lishi mumkin. Hozirda kurrai zaminda uch mingdan ortiq mustaqil til mavjudligini hisobga olsak, aksar tillar to‘liq tadqiq qilinmagan bo‘lib, lingvistika tilning universal xususiyatlarini o‘rganib, xulosa berish jarayonida aniq bir ajratib olingan tillar va ularning og‘zaki va yozma shakllari asosida ish olib boradi. Dunyo filolog olimlari imkon qadar barcha tillarga ilmiy jihatdan umumiy yondashishga harakat qiladi. Biroq, bu tillarning ichki va tashqi qonuniyatlarini keng ko‘lamda o‘rganish imkonsiz bo‘lganligi uchun, tilshunoslar cheklangan miqdordagi tillarni, asosan o‘z ona tili va unga yaqin bo‘lgan til oilalarini tadqiq qilishga e‘tiborini qaratadi. Poliglot olimlarning qay darajada ko‘p bo‘lishi, ularning mehnat samarasi va subyektiv omiliga bog‘liqdir. Shu sabab, lingvistika sohasida tilshunos olim va til biluvchi shaxs atamalarida katta farq mavjuddir.

Lingvistik omil — bu tilning ichki tizimi, ya‘ni fonetik, morfologik, sintaktik va semantik qonun-qoidalari majmuidir. Til boshqa tillardan yangi birliklarni qabul qilganda, ularni o‘z tizimiga moslashtiradi. Bu moslashuv tilshunoslikda strukturalistik, funksional yondashuv va sotsiolingvistika kabi nazariy asoslar orqali tahlil qilinadi. Strukturalistlarga ko‘ra, har bir til o‘zining mustahkam tizimiga ega bo‘lib, yangi unsurlar ayni tizim asosida qayta ishlanadi<sup>2</sup>.

O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish qadimdan davom etib kelayotgan hodisadir. Arabcha va forscha diniy, ilmiy va adabiy so‘zlar (masalan, *ilm*, *ma‘rifat*, *kitob*), rus tilidan sanoat, fan va kundalik hayotga oid so‘zlar (masalan, *zavod*, *maktab*, *kalendar*), so‘nggi yillarda esa ingliz tilidan internet va texnologiyaga oid terminlar (*kompyuter*, *login*, *onlayn*) kirib kelmoqda<sup>3</sup>. Har bir tarixiy bosqichda so‘zlar o‘zbek tilining fonetik va morfologik tizimlariga moslashtirilgan. Yangi so‘zlar fonetik jihatdan o‘zbek talaffuziga moslashtiriladi. Masalan, ingliz tilidagi *computer* so‘zi *kompyuter* shaklida talaffuz qilinadi. Morfologik jihatdan esa o‘zlashtirilgan so‘zlarga o‘zbekcha qo‘shimchalar qo‘shiladi: *printer* → *printerdan*, *printerchi*<sup>4</sup>. Bu moslashuv jarayoni til ichki qonuniyatlari asosida amalga oshadi.

Ko‘plab o‘zlashma so‘zlar semantik jihatdan yangi konnotatsiyalar bilan boyiydi. Masalan, *market* so‘zi nafaqat bozori, balki savdo markazi ma‘nosini ham anglatadi. Sintaktik jihatdan esa bu so‘zlar o‘zbek tilining gap tuzilmasiga qo‘shiladi: “Biz onlayn darsga kiramiz.” Shu jumladan, yangi so‘zlar iboralar tarkibida mustahkam joylashadi: *internet aloqasi*, *video qo‘ng‘iroq*<sup>5</sup> va h.k.

Neologizmlar — bu yangi paydo bo‘lgan, hozirgi zamon ehtiyojlariga javob beruvchi so‘zlardir. Ular ijtimoiy, texnologik va madaniy o‘zgarishlarni ifodalovchi vosita sifatida tilning leksik tarkibini yangilaydi<sup>6</sup>. Masalan, *blogger*, *vlog*, *selfi*, *stream* kabi atamalar zamonaviy axborot muhitining natijasidir. Ularning ko‘pchiligi ingliz tilidan kirgan bo‘lsa-da, ular fonetik va morfologik jihatdan moslashtirilgan holda tilga singgan.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlab o‘tish mumkinki so‘z o‘zlashtirish — bu tilning tirik va harakatchan tizim sifatidagi ifodasidir. Lingvistik omillar bu jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Ular orqali har bir yangi birlik tilning mavjud tizimiga muvofiqlashtiriladi va uni boyitadi. O‘zbek tilida bu jarayon asosan fonetik, morfologik, semantik va sintaktik moslashuv orqali amalga oshmoqda. Demak, lingvistik omillarni chuqur tahlil qilish, til siyosati va ta‘limi uchun muhim nazariy va amaliy asos

1 Robins R.H. General linguistics page 26. 2014

2 Mamarasulova N. *O‘zbek tilshunosligida leksik tizim*. – T.: Fan, 2020.

3 Saidov M. *So‘z yasalishi va leksik o‘zgarishlar*. – T.: O‘qituvchi, 2019.

4 Jo‘rayev O. “Neologizmlarning lingvistik xususiyatlari” // *Filologiya masalalari*. – 2022. – №4. – B. 40–45.

5 Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. – Wiley-Blackwell, 2008.

6 Oxford English Dictionary – Online Edition.





bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mamarasulova N. *O‘zbek Tilshunosligida Leksik Tizim*. – T.: Fan, 2020.
2. Mcgregor, William B. *Linguistics An Introduction*. Bloomsbury Publishing, Page 3. 2024
3. Saidov M. *So‘z yasalishi va leksik o‘zgarishlar*. – T.: O‘Qituvchi, 2019.
4. Jo‘rayev O. “Neologizmlarning Lingvistik Xususiyatlari” // *Filologiya Masalalari*. – 2022. – №4. – B. 40–45.
5. Crystal D. *A Dictionary Of Linguistics And Phonetics*. – Wiley-Blackwell, 2008.
6. Oxford English Dictionary – Online Edition.
7. Haugen E. *The Analysis Of Linguistic Borrowing*. – Language, 1950.
8. Robins R.H. *General Linguistics* Page 26. 2014
- 9.. [https://Uz.Wikibooks.Org/Wiki/O%60zbekiston\\_Tarixi\\_Darsligi](https://Uz.Wikibooks.Org/Wiki/O%60zbekiston_Tarixi_Darsligi)



Sapayeva Feruza Norbayevna

Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Urganch filiali katta o‘qituvchisi.

Email:feruza2508@mail.ru.

**Annotatsiya:** Mifologiya ko‘pincha xudolar va qahramonlar bilan bog‘liq an‘anaviy hikoyalarni anglatadi. Ushbu ertaklarning aksariyati keng ommalashgan va o‘z navbatida ingliz tili va madaniyati rivojlanishini o‘rganishda katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Mifologiyalar ko‘pincha madaniyatlar orqali o‘tganligi sababli, bu afsonalar zamonaviy an‘analar va e‘tiqodlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ular ayrim tillarning rivojlanishi va taraqqiyotida ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada mifologiya, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar mifologiyalar, lug‘atlar, adabiy asarlardagi atamalarni qiyosiy tahlil qilish orqali muhokama qilinadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab inglizcha so‘z va iboralar yunon va rim mifologiyasidan kelib chiqqan bo‘lib, shaxsning e‘tiqodi madaniyat mifologiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Madaniyat va mifologik afsonalarni tushunish odamlarga adabiyotni ham, madaniy an‘analarni ham yaxshiroq qadrlash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** Mifologiya, ingliz tili, afsona, madaniy an‘analar, madaniyatlararo solishtirish.

Yunoncha mythos (hikoya) va logos (nutq) so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan mifologiya so‘zi qadim zamonlardan beri kelayotgan an‘anaviy hikoyalarni anglatadi. Ular odatda xudolar va g‘ayritabiiy narsalar atrofida aylanadi shuningdek, insoniyat va madaniyatning kelib chiqishi va qadriyatlarini tushuntirishga harakat qiladi.[1] Qadim zamonlardan beri mifologiya bizning hozirgi egallayotgan bilimlarimizga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bu bilan qaysidir ma‘noda odamlarning umumiy e‘tiqodlari, mifologik irsiyat izlarini topish mumkin. Shunday qilib, bugungi kunda ingliz tili va madaniyatini afsonalar bilan bog‘liq holda baholash va ko‘rib chiqish muhimdir, chunki bu G‘arb madaniyatining ta‘sir etuvchi omillari va kelib chiqishi haqida yaxlit tushunchani beradi. Insoniyat tarixida mavjud bo‘lgan ko‘plab afsona va rivoyatlar orasida yunon mifologiyasi, shubhasiz, eng ta‘sirli va muhimidir. Miflar qadimgi yunon sivilizatsiyasining dini va madaniy muhitini aks ettiradi va yunon mifologiyasi sevgi, taqdir va jasorat kabi insoniy qadriyatlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uni badiiy va falsafiy qadriyatlarga boy qiladi. [2] Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlar madaniyatini tushunish uchun bu afsonalarning asl oqibatlarini tushunish kerak.

Milliy madaniyat har bir til leksikasi manbai sanalishi madaniyat va tilning o‘zaro birligi, uning tilning leksik tizimiga ta‘siri kabi masalalarni qamrab oladi. Bu borada A.A.Потебная, E.M.Верещагин, Б.Т.Костомаров, J.Kramschi, Лаксф, M.Jonson va boshqalarning kontseptsiyalari haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Tilning rivojlanishida madaniy omilning o‘zi alohida o‘rin tutadi, boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi, ingliz xalqi hayotida ham ikki jihat – leksika va frazeologiyasida madaniyatning bir tarmog‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Tilning madaniyatning ajralmas qismi sifatidagi faoliyati har bir xalq tilida bo‘lgani kabi ingliz tilining leksik qatlamida ham yorqin aks etadi. [3]

Faqat ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqlar tillarida kuzatiladigan va boshqa tilda so‘zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan mifonimlarni tarjima qilish va muloqot qilishda bir qator sezilarli qiyinchiliklar tilshunoslar e‘tiborini tarmoqda. Chog‘ishtirma tilshunoslikda birinchi milliy madaniyat, boshqa tillarda leksik ekvivalenti bo‘lmagan voqelik o‘rganiladi. Tilshunoslikning ushbu sohasi tadqiqotchilari С. Влахов va S.Florinlar realni quyidagicha tavsiflaydilar: “Real – boshqa xalqlarning ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotida boshqa bir xalq turmushi (turмуш ta‘rifi, madaniyati va boshqa) bilan bog‘liq bo‘lgan narsa va tushunchalar, so‘z va so‘z birikmalaridir”. [4]

#### **Mifologiyaning ingliz tili va adabiyotiga ta‘siri**

Til shaxs va madaniyatning muhim jihati hisoblanadi. Bir tomondan, bu e‘tiqodlarni, fikrlarni ifodalash usulidir. Boshqa tomondan, u madaniy yuksalish va o‘ziga xoslikni aks ettirishga yordam beradi. Turli tillardagi so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi bo‘lgan etimologiya sohasidagi tadqiqotlar yordamida mifologiyaning til va lingvistik atamalar bilan chambarchas bog‘liqligini aniqlash mumkin. Bu bog‘lanish ayniqsa yunon va ingliz tillariga kelganda kuchli bo‘ladi, chunki hozirgi ingliz lug‘atidagi yuzlab so‘zlar qadimgi Yunoniston xudolari va qahramonlari haqidagi afsonalardan olinganligi aniqlangan. Yunon afsonalari bugungi kunda ingliz lug‘atiga ko‘plab lug‘atlarni kiritdi. Bular biologiya, psixologiya va hatto ingliz tilini o‘z ichiga oladi.



Ushbu maqolada mifologiya va til o'rtasidagi murakkab aloqalar haqida umumiy tushuncha berish uchun E.A. Wallisning *An Etymological Dictionary of Classical Mythology* (Klassik mifologiyaning etimologik lug'ati) da keltirilgan ba'zi misollar ko'rib chiqiladi.[5]

**“Arachnid”**- *araxnid* so'zi o'rgimchaklar, chayonlar va shomillarni o'z ichiga olgan hayvonlar sinfini anglatadi. Bu Afina xudosiga qarshi chiqqandan so'ng o'rgimchakka aylanib, abadiy yigirish va to'qishga majbur bo'lgan iste'dodli to'quvchi Araxne haqidagi yunon afsonasidan kelib chiqadi.

**“Lupine & Lycanthropy”** - yunon mifologiyasidan hayvonlarga aylangan odamlar haqidagi so'zlarning yana bir misoli - mos ravishda “bo'ri” va “bo'ri bo'lish holati” degan ma'noni anglatuvchi Lyupin va Lycanthropy. Bu so'zlar xudolar shohi Zevsni o'ldirmoqchi bo'lganidan keyin bo'riga aylangan Likeon haqidagi ertakdan olingan. Bo'ri bilan bog'liq boshqa ko'plab lug'atlar bu ertakdan kelib chiqadi.

**“Python”** - bu katta ilonlarini tasvirlash uchun ishlatiladigan keng tarqalgan so'z. Bu “pito” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, xudo Apollon Delfini zabt etish uchun ajdahoni o'ldirgan joy.

**“Hyacinth”** - bu gul o'z nomi Hyacinthus ertakidan olingan. Tasodifan o'ldirilgan Apollonning sevgilisi qonidan yaralgan gul sifatida talqin qilingan.

**Narcissus & Narcissistic** - hovuzdagi o'zining go'zal aksiga uzoq vaqt tikilib, gulga aylangan Narcissus hikoyasidan narcissus - gul va narsisistik - o'zini haddan tashqari hayratga solish sifati-so'zlari yaratilgan.

**East, West, Night** - hatto Sharq, G'arb va Tun kabi umumiy so'zlar ham yunon mifologik xudolarining nomlaridan kelib chiqqanligi aniqlangan. Sharq so'zi yunon tong ma'budasi **Eos**, g'arb so'zi yunon kechki payt xudosi **Hesperus**, tun so'zi esa yunon tun xudosi **Nyx** nomlaridan kirib kelgan.

Mifologiyadan olingan ko'plab lug'atlarning mashhurligi va keng tarqalishi yunon, rim va boshqa madaniyatlar mifologiyasining ingliz tilining shakllanishi va rivojlanishidagi rolini isbotlashga yordam beradi. Shu jumladan:

Ishorali iboralar - adabiy an'analarga ishora qiluvchi ibora yoki gap. Ular odatda his-tuyg'ularni yoki g'oyalarni ifodalash uchun ishlatiladi. [6] Ingliz tilshunosligida ko'pgina iboralar o'z ma'nosini mifologik ertaklardan olgan. Quyida miflardan kelib chiqqan bir necha keng tarqalgan idiomalar keltirilgan. [7]

**Achilles' Heel** - yunon mifologiyasida Axilles Troya urushida qatnashgan qahramon bo'lib, Axilles tovoni atamasi zaiflik yoki zaiflikni anglatadi. Bu Axillesning onasi uni Styx daryosiga cho'mdirib, butun vujudini daxlsiz qilib qo'ygani haqidagi afsonaga asoslanadi, urushda oyog'ining onasi ushlab turgan qismidan zaharlangan o'q tufayli jang maydonida vafot etadi.

**The Midas Touch** - yunon afsonalarida keltirilishicha Midasga xudo Dionysus

tomonidan tegib turgan hamma narsani oltinga aylantirish huquqi berilgan. Oxir-oqibat, u o'ylagan hamma narsa kutganidek emasligini bilib oldi, chunki u ovqatlanish va ichishda qiynalib qoladi. Hattoki, qizini quchoqlaganda qizi ham oltinga aylanib qoladi. Ushbu voqeadan keyin afsuslangan Midas tovba qiladi. Hozirgi kunda “Midas teginish” yunon afsonalaridagi asl kuchga o'xshab, pul topish uchun kuch yoki iste'dodni anglatadi.

**Trojan Horse** - bu idioma ko'pincha yolg'onni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Qadimgi Yunonistonda Troya jangi paytida ot Troyaga sovg'a sifatida taqdim etilgani aytilgan. Biroq Troya otga ruxsat berganida, otning ichi yunon askarlari bilan to'lganligi ma'lum bo'ladi. Shunday qilib, “troyan oti” endi oddiy, mehribon ko'rinadigan, ammo yomon niyatli kimgadir yoki biror narsaga ishora qilinadi. [8]

Bularning barchasi kundalik ingliz tilida juda keng tarqalgan idiomalardir. Albatta yunon mifologiyasi bilan bog'lanishi yunon miflari va butun mifologiyasining ingliz tilini rivojlanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu rivoyat va afsonalarsiz ingliz tili o'zining ko'plab iboralari va metaforalarini o'z o'rnida ishlatilishida ma'nosini yo'qotadi.

Lingvistik lug'atda ham, adabiy asarlarda ham mifologiyaning yuqori tezlik bilan ingliz tilining rivojlanishida ayniqsa yunon mifologiyasi muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi. Adabiy asarlarda idiomatik so'zlar va gaplardan foydalanish mifologiyaning keng tarqalganligini isbotlashga yordam beradi va nozik his-tuyg'ularni oddiy denotatsiya qila olmaydigan tarzda etkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, mifologik afsonalar madaniyatlarni shakllantirgani, bu esa o'z navbatida shaxslarning fikrlari va e'tiqodlarini ongsiz ravishda shakllantirganini ko'rsatadi. [9] Ushbu natijalar chuqurroq o'rganishga arziydi, chunki ular qadimgi ertaklar hozirgi shaxslar va jamiyatlarga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi va til yoki inson tafakkurining rivojlanishi haqidagi



munozaralarda katta ahamiyatga ega bo'лади.

Til tahlilidan ma'lum bo'ladiki, mifologiyalar ham lug'at, ham idiomalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tafakkur teranligi uni adabiy asarlar uchun asosiy ilhom manbai sifatida joylashtiradi. Ushbu maqola mifologiyaning til va madaniyatga ta'sirining faqat bir qismini qisqacha qiyosiy sharh bo'lganligi sababli, bunday mavzularning kengligi va chuqurligi kabi cheklovlar mavjud. Ushbu maqolada mifologiyaning til, adabiyot va madaniyatdagi ahamiyati va mifologiyasiz ingliz tili o'zining go'zalligi va qulayligini yo'qotishi aniq ko'rsatilgan. Mifologiya shuningdek, turli madaniyatlar va shaxslarning hayot va o'lim tushunchasi haqidagi munosabatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu til yoki madaniyatni tahlil qilishda mifologiyaning qanchalik ahamiyatli ekanligini asoslaydi va yuqoridagilarni o'rganishda mifologiyalar haqida ma'lumotga ega bo'lish juda zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Shinde, S. (2023) Influence of Greek Mythology on English Language and Literature. Journal of Emerging Technologies and Innovative Research, 10(5), 909-916.
2. Kramsch C. Language and Culture. Oxford University Press, 2009, 134 p
3. Влахов С., Florin. S. Непереводимое в переводе. М.: Международные отношения, 1986, 416 с.
4. Cui, X. (2020) Analysis of the Influence of Greek Mythology upon English Culture. Atlantis Press, Advances in Economics, Business and Management Research, 155, 475-478.
5. Bertels V. Peri// Kultura i iskusstva narodov Sredney Azia v drevnosti i srednevekovye. M., 1979. - S. 124.
6. Mahmud Zamakhshari. Introduction ul-adab. Volume I. Names chapter. Preparers for publication: A. Orozboev, A. Matniyozov, L. Abdugarimov. – Tashkent: Navroz, 2018.– B. 185.
7. Kayumov O. The image of a fairy in Uzbek folklore (genesis and poetics): Philol. fanlarinomzodidiss... autoref...– Tashkent, 1999. – B. 14.
8. Sapayeva F. N. (2023) "Ingliz va o'zbek adabiyotida afsonaviy obrazlarning mifologik talqini" O'zMU XABARLARI, 6. 315-318b
9. Sapayeva F. N. "O'zbek xalq maqollarining shakllanishida mifologik so'zlarning ta'siri". Янги Ўзбекистон: инновация, фан ва таълим 7-қисм 11-13б





SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARI SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Baymuradova Gulbaxar Chari qizi  
Termiz davlat universiteti Lingvistika:  
o'zbek tili yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Surxondaryo viloyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — bu hududda ko'p uchraydigan turli madaniy va yovvoyi o'simlik turlarining xilma-xilligidir. Ushbu o'simliklarning ko'pligi sababli, viloyatda o'simlik nomlari bilan atalgan geografik nomlar ham keng tarqalgan. Bu holat viloyatdagi turli toponimlarning nomlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu tezisdagi fitotoponimlarning semantic xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** *semantika, tahlil, toponim, fitotoponim, nom.*

SEMANTIC FEATURES OF PHYTOTOPONYMS OF SURKHANDARYA REGION

Baymuradova Gulbaxar Chari kizi  
Master's degree student of Termez State University

**Annotation:** one of the distinctive features of Surkhandarya region is the variety of different cultural and wild plant species found in the area. Due to the abundance of these plants, Geographical Names named after plants are also common in the province. This has had a significant impact on the naming of various toponyms in the province. This thesis focuses on the semantic properties of phytotoponyms.

**Keywords:** *semantics, analysis, toponym, phytotoponym, noun.*

Tilshunoslikda toponimik nomlar turlari quyidagilar: Gidronimlar — tabiiy yoki inson tomonidan yaratilgan har qanday suv obyektlarining nomlari. Masalan, daryo, ko'l, soy kabi suv havzalari. Oronimlar — tog', tepalik, qum, o'ydim kabi relyef shakllarining nomlari. Oykonimlar — aholi yashaydigan har qanday joyning nomlari, ya'ni qishloq, shahar, mahalla kabi manzillar.

Surxondaryo hududida o'simlik nomlariga asoslangan geografik nomlarning mavjudligi tabiiy muhitning viloyat geografik nomlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganini va bu nomlarning shakllanishida o'simliklar muhim o'rin tutishini ifodalaydi.

Fitotoponimlar (o'simliklar nomlari asosida shakllangan geografik nomlar) hududning o'simliklar dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etadi. Bu nomlar hududning boshqa geografik obyektlardan ajralib turishiga xizmat qiladi, chunki ular o'sha yerning o'ziga xos o'simlik turlarini yoki o'simliklarga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, agar bir joyda o'rik daraxtlari ko'p bo'lsa, u yerga "O'rikzor" kabi nom berilishi mumkin.

O'zbekistonda joy nomlarini o'simlik nomlari asosida shakllantirish an'anasi keng tarqalgan. Bu borada N.Oxunov, G.Abishov<sup>1</sup> va boshqa olimlar o'z ilmiy ishlarida o'simlik nomlari asosida yaratilgan toponimlarni o'rganishgan. Ular turli o'simlik turlarini to'plab, ularni guruhlariga ajratgan, ya'ni ayrim hududlarda aynan qanday o'simlik turlariga asoslangan toponimlar keng tarqalganini aniqlashgan. Bu ilmiy ishlar o'simlikka asoslangan toponimlarning shakllanish mexanizmini va ularning respublikamiz geografik nomlanishidagi o'rnini tushunishga yordam beradi.<sup>2</sup>

Fitotoponimlar haqida olim Q.Hakimov quyidagicha fikr bildirgan: "Geografik nomga asos bo'lgan o'simlik turini o'sha hududda miqdorini kamligi, ammo ko'zga tez tashlanadigan, xarakterli belgi sifatida alohida ajralib turadi. Fitotoponim uni ifoda etgan o'simlik turidan ko'ra uzoqroq, yashashi mumkin. Natijada o'simlik turi yo'q bo'lib ketgan taqdirda ham, joy nomi uni bir vaqtlar ushbu hududda ko'p tarqalganligidan darak berib turadi<sup>3</sup>".

Suningdek, Surxondaryo viloyati hududida "bog'" arxisemasi atrofida birlashgan quyidagicha fitoponimlar aniqlandi: Qorabog', Gulbog', Yoqutlibog', Yakkabog', Bog'iston, Bog'aro, Bog'ishamol Bog'iobod, Chorbog', Kattabog', Zarabog', Yakkabog', Bog'cha, Qilichbog', Kampirchorbog'.

1 Abishov G. Shymbay rayoni toponimlari: monografiya.—Nekis:Qaraqalpaqstan, 2020.—80 b./ Oxunov N. O'zbekiston toponimiyasi. — Qo'qon, 2005. — 90 b.


2 Abishov G. Shymbay rayoni toponimlari: monografiya.—Nekis:Qaraqalpaqstan, 2020.—80 b./ Oxunov N. O'zbekiston toponimiyasi. — Qo'qon, 2005. — 75 b.

3 Hakimov Q. Toponimika. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. — 368 b.



Bizning ma'lumotlarimiz bo'yicha, Surxondaryo viloyati hududida 70dan oshiq toponim (gidronim, oronim, oykonim) o'simliklarning nomlari bilan bog'liqligini aniqladik.

Quyida berilgan diagrammalarda (1 va 2-rasmlar) Surxondaryo viloyati bo'yicha fitotoponimlarning tarkibida toponimlarning turli kategoriyalarning ulushi va fitotoponimlarning o'simlik guruhlari bo'yicha tarkibini ko'rishimiz mumkin.



**1-rasm**

Surxondaryo viloyatida o'simlik nomlariga asoslangan hamda "Bog" arxisemali fitotoponimlarning salmog'i teng ravishda 21%ni tashkil etadi, bundan xulosa qilish mumkinki, surxondaryo viloyati aholisi ijtimoiy hayotida madaniy va don o'simliklari hamda bog' muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yovvoyi o't o'simliklariga bog'liq fitotoponimlar ham keng tarqalgan bo'lib, ular 23% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida yovvoyi o'simlik turlarining ham geografik nomlanishda ahamiyatli o'rin tutishini anglatadi. Biroq, mevasiz daraxt nomlaridan kelib chiqqan fitotoponimlar kam uchraydi — ularga 17% to'g'ri keladi. Bu esa mevasiz daraxtlarga asoslangan nomlarning nisbatan kamroq qo'llanilganini ko'rsatadi. (2-rasm).

Tadqiqot davomida fitooykonimlar — o'simlik nomlariga asoslangan aholi punktlari nomlari orasida takroriy nomlar (masalan, *Paxtachi*, *Paxtakor*, *Guliston*) ko'pligi kuzatildi. Barcha toponimlarning asosiy vazifasi manzilni belgilash hisoblanganligi sababli, bir xil nomlarning bitta hududda takrorlanishi odamlar uchun noqulaylik tug'dirishi mumkin. Shu sababdan, Surxondaryo viloyati toponimiyasidagi takroriy nomlarni kamaytirish va o'ziga xosligini saqlab qolish uchun chora ko'rish lozim deb hisoblaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abishov G. Shymbay rayoni toponimlari: monografiya. — Nökis: Qaraqalpaqstan, 2020. — 80 b. / Oxunov N. O'zbekiston toponimiyasi. — Qo'qon, 2005. — 90 b.
2. Hakimov Q. Toponimika. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. — 368 b.
3. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарынской области: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. — Ташкент, 1968. — 24 с.
4. Ziyonet.com



**О‘ЗБЕКИСТОНДА SUN’IY INTELLEKT: TIL O‘RGANISHDA QO‘LLANILISHI, MAVJUD IMKONIYATLAR VA IQTISODIY SIYOSATNING HARAKAT YO‘NALISHLARI**

**Nigoraxon Israilova Xudaberdiyeva**  
ADCHTI, nemis tili nazariyasi va amaliyoti  
kafedrası doktoranti  
israilova.n@gmail.com

**Zarinabonu Zokirjonova Shuxratbek qizi**  
ADCHTI, Filologiya va tillarni o‘qitish: nemis tili  
1-kurs talabasi  
zarinazokirjonova99@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda til o‘rganish jarayoniga ta’siri, mavjud imkoniyatlari va bu boradagi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt asosidagi dastur va ilovalarning joriy qilinishi orqali til o‘rgatish samaradorligini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlash va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos raqamli vositalarni qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi, investitsiyalar va ilmiy loyihalar bilan bog‘liq harakatlar ham tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlari:** *Sun’iy intellekt, texnologik infratuzilma, innovatsion platformalar, raqamli texnologiyalar, ta’limda innovatsiyalar, iqtisodiy siyosat, AI ilovalari, individual yondashuv.*

So‘nggi o‘n yillikda sun’iy intellekt texnologiyalari jahon miqyosida jadal rivojlanib, turli sohalarga, jumladan, sanoat, sog‘liqni saqlash, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimida ham keng qo‘llanila boshladi, ayniqsa chet tillarini o‘rganish jarayonida bu texnologiyalarning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. sun’iy intellekt vositalari, jumladan, nutqni tanish tizimlari, avtomatik tarjimonlar, intellektual repetitorlar, chat-botlar, va ovozli yordamchilar til o‘rganishni yanada samaraliroq, individuallashtirilgan va qiziqarli jarayonga aylantirmoqda.

Rivojlangan davlatlarda, masalan AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlarida sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan til o‘rgatish platformalari keng ommalashgan. Duolingo, Babbel, ChatGPT kabi tizimlar foydalanuvchilarning til o‘rganish darajasini real vaqtda tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni avtomatik tuzatish kabi ilg‘or funksiyalarni taklif etadi. Bu esa an’anaviy dars uslublarini to‘ldirib, til o‘rgatishda yangi yondashuvlar yaratmoqda.

O‘zbekiston ham bu global texnologik jarayondan chetda qolmayapti. Mamlakatimizda raqamli ta’lim, xususan chet tillarini o‘rgatishda zamonaviy metodikalar va raqamli platformalarni joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin hali bu borada qilinadigan ishlar talaygina: texnologik infratuzilma, malakali kadrlar, sun’iy intellektga moslashtirilgan o‘quv resurslarining yetarli emasligi kabi muammolar mavjud.

Mazkur tezisda sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda chet tillarini o‘rganishdagi roli, amaldagi imkoniyatlar, duch kelinayotgan muammolar va bu yo‘nalishda iqtisodiy siyosat doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shu orqali til o‘rganish jarayonini takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va istiqbollari yoritiladi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasida, ayniqsa chet tillarini o‘rganishda qo‘llanilishi global miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Til o‘rganish inson miyasi uchun eng murakkab kognitiv jarayonlardan biri hisoblanadi. Bunday murakkab jarayonda sun’iy intellekt vositalarining joriy qilinishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt yordamida interaktiv va individual yondashuv asosida tuzilgan dasturlar, mashina o‘qitish algoritmlari orqali foydalanuvchining bilim darajasiga mos mashqlar taklif etilishi, ularning xatolari tahlil qilinib, real vaqtda to‘g‘ri javoblar va tushuntirishlar berilishi mumkin.

Til o‘rganishda qo‘llanilayotgan mashhur sun’iy intellekt asosidagi platformalar — Duolingo, Memrise, Rosetta Stone, shuningdek, ChatGPT va Google Translate kabi tizimlar foydalanuvchilarga grammatikani mustahkamlash, so‘z boyligini oshirish, talaffuzni to‘g‘rilash, shuningdek, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishda yordam bermoqda. Ayniqsa, ChatGPT singari ilg‘or sun’iy neyron



tarmoqlarga asoslangan chatbotlar orqali foydalanuvchi bevosita til amaliyoti olib borishi, muloqotga kirishishi mumkin, bu esa tabiiy tilga yaqin muhit yaratishga xizmat qiladi.


O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari boshlangan bo'lsa-da, sun'iy intellekt texnologiyalarining to'liq joriy etilishi hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ayni paytda mavjud imkoniyatlar quyidagilar bilan belgilanadi:

1. davlat tomonidan raqamli ta'limni rivojlantirishga qaratilgan siyosat,
2. xorijiy til o'rganishga bo'lgan ijtimoiy talabning oshishi,
3. internet va mobil texnologiyalarning keng tarqalganligi.

Biroq bu imkoniyatlar qator muammolar bilan ham yuzlashmoqda. Avvalo, o'quv resurslarining (korpuslar, ovozli va yozma matnlar, milliy lug'atlar) sun'iy intellekt tizimlariga mos shaklda mavjud emasligi muammo tug'diradi. O'zbekiston tillarida, xususan o'zbek tilida yetarli hajmda raqamli til materiallari va trening ma'lumotlar bazalari mavjud emas. Shuningdek, o'qituvchilarning aksariyati sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega emas. Bu esa texnologik vositalardan unumli foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Shu sababli, quyidagi chora-tadbirlarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. O'zbek va boshqa mahalliy tillarda sun'iy intellekt modellarini o'qitish uchun kerakli korpuslar yaratish.
2. O'qituvchilarni sun'iy intellekt va raqamli pedagogika bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslariga jalb qilish.
3. Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan til o'rgatish platformalarini mahalliy sharoitga moslashtirish.
4. Innovatsion startaplar va ilmiy loyihalarni grantlar orqali qo'llab-quvvatlash.
5. Chet tili o'rganishga ixtisoslashgan maktablar, kollejlar va universitetlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini tajriba tariqasida joriy qilish.



**Rasm 1: O'zbekistonda su'niy intellekt va til o'rganish statistik ma'lumotlari.**

Shuningdek, davlat siyosati doirasida sun'iy intellektni til ta'limiga integratsiya qilish bo'yicha kompleks milliy strategiyani ishlab chiqish zarur. Bu strategiya texnologik rivojlanish, ta'lim sifati va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari nemis tilini o'rganish jarayonini an'anaviy usullardan ko'ra samaraliroq, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Grammatika qoidalarining murakkabligi, jins va artikllarning o'zgaruvchanligi, talaffuzdagi o'ziga xosliklar kabi jihatlar SI asosidagi texnologiyalar yordamida sodda va tushunarli ko'rinishda taqdim etilishi mumkin.

O'zbekistonda nemis tiliga qiziqish ortib borayotgan bir paytda, bu texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, nutqni tanish, talaffuzni tahlil qilish va interaktiv muloqot qilish imkonini beruvchi platformalar (masalan, ChatGPT yoki AI-assistentlar) nemis tilini mustaqil o'rganayotganlar uchun katta yordam beradi:





1. Nemis tiliga ixtisoslashgan AI ilovalarini o‘zbek ta’lim muassasalariga joriy qilish;
2. Nemis tili o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish;
3. O‘zbekcha-nemischa sun’iy intellekt modellarini rivojlantirish;
4. Nemis tilida ta’lim olayotgan talabalar uchun AI asosida maxsus mashqlar platformasini yaratish.

Biz o‘ylaymizki, ushbu yuqoridagi takliflar nemis tilini o‘rganishni O‘zbekistonda yanada qulay va zamonaviy shaklga olib chiqishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chomsky, N. (2021). *Language and Mind*. Cambridge University Press. “Til o‘rganishning kognitiv asoslari va sun’iy intellekt modellari uchun nazariy poydevor”.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education. “Ta’limda SI qo‘llanilishi bo‘yicha asosiy manbalardan biri”.
3. Васильева, Н. А. (2020). “Искусственный интеллект в преподавании иностранных языков”. *Вестник современных исследований*, №4.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “2023–2030 yillarda raqamli ta’limni rivojlantirish strategiyasi” (2023-yil, sentabr). “Raqamlashtirish va ta’lim siyosati doirasidagi rasmiy hujjat”.
5. Qodirova, M. “Sun’iy intellekt va til o‘rganish: imkoniyatlar va istiqbollar”. *Til va Madaniyat ilmiy jurnali*, 2023, №2, 54–60-bet.
6. Israilova N., Zokirjonova Z., Jahon universitetlari reytingida yuqori o‘rinlarni egallasg uchun transformatsion strategiyalar: Muammo va yechimlar. Fevral, 2025. “Su’niy intellekt va nemis tili o‘rganishda yangi innovatsiyalar”.



**Matyakubova Noila Shakirjanovna**  
ToshDO‘TAU, Raqamli texnologiyalar va  
Kompyuter lingvistikasi Doktoranti  
[matyakubovanoila@navoiy-uni.uz](mailto:matyakubovanoila@navoiy-uni.uz)

**Annatotsiya.** Insonlar orasida til to‘siqlarini bartaraf etish uchun eng katta ko‘makchi bo‘lgan texnik vosita bu mashina tarjimasi vositasi bo‘lib u tabiiy tilni qayta ishlashning ko‘plab sohalari orasida samarali natijalar ko‘rsatgan elektron vosita hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti jarayonida mashina tarjimasi ham o‘zing jadal taraqqiyot davrini o‘tkazdi va hali hanuz uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada biz mashina tarjimasi, uning taraqqiyot bosqichlari va bugungi kunda eng ko‘p qo‘llanilayotgan mashina tarjimonlarining turlarini ko‘rib chiqamiz.


**Kalit so‘zlar:** mashina tarjimasi, qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi, neyron mashina tarjimasi, statistik modellar, tabiiy tilni qayta ishlash.

**Kirish.** Bir tildan boshqa tilga matnlarni avtomatik tarjima qilish usul mashina tarjimasi deb yuritilib ilmiy texnika taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Mashina tarjimasiga bo‘lgan ehtiyoj dunyoning globallashuvi va insonlar orasida o‘zaro bog‘liqligining kuchayishi natijasida paydo bo‘ldi. Turli tillarga mansub odamlar savdo, diplomatiya, fan va texnologiya kabi turli sohalarida tez-tez muloqot qilganligi sababli, til to‘siqlarini bartaraf etishning samarali usullariga talab ortib bordi. Ushbu ehtiyojlar natijasida tadqiqotchilar tarjimalarni mashinalar orqali avtomatlashtirish g‘oyasini o‘rgana boshladilar. Bu 1950-yillarda qoidaga asoslangan yondashuvlar va 1990-yillarda statistik metodlardan foydalanib tarjima qiluvchi dastlabki mashinali tarjima tizimlarining rivojlanishiga olib keldi va bu bugungi kunda bizda mavjud bo‘lgan zamonaviy mashina tarjimasi texnologiyalariga asos soldi.

Bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan mashina tarjimasi(MT) vositalariga Google Translate, Yandex Translate, DeepL, Amazon Translate kabilar bo‘lib ular turli usullardan foydalanib matnlarni tarjima qilish imkoni bilan bir qatorda keng ko‘lamda tillar tanlash imkonini beradi. Ammo MT tarixiga nazar soladigan bo‘lsak tarjima qilingan gapning kontekstual ma‘nosini tabiiy tildagidek chiqarish bir muncha murakkab bo‘lgan va asosan qoidalarga asoslanib va mavjud bo‘lgan statistik ma‘lumotlardan foydalangan holda berilgan matnlar tarjima qilinigan. Machine Learning hamda Deep Learning mexanizmlarining takomillashuvi zamonaviy tarjima tizimlariga ham katta tasir ko‘rsatdi. Sun‘iy intellekt algoritmlari va neyron tarmoqlari tufayli mashina tarjimasi deyarli insoniy aniqlik darajasiga yetdi.

Mashina tarjimasi boy tarixga ega bo‘lib, yillar davomida uning rivojlanishiga bir qancha olim va tadqiqotchilar hissa qo‘shgan. Warren Weaver amerikalik olim va matematik 1949-yilda nashr etilgan mashhur memorandumda “mashina tarjimasi” atamasini qo‘llagan ilk olim deb hisoblanadi[1]. “Tarjima” deb nomlangan ushbu memorandumda kompyuterlar yordamida tarjima jarayonini avtomatlashtirishning qiyinchiliklari va imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Amerikalik kompyuter olimi va elektrotexnika muhandisi Piter Zade va Paul Garvin 1954-yilda Georgetown-IBM eksperimentini [2] o‘tkazdi va ushbu tajriba IBM 701 kompyuteridan foydalangan holda mashina tarjimasi bo‘yicha eng dastlabki urinishlardan biri edi. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida IBM tadqiqotchilari guruhi, jumladan Leon Dostert [1], Uilyam N.Lokk va boshqalar turli xil mashina tarjimasi loyihalari ustida ishladilar va dastlabki tizimlar va metodologiyalarning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar.

Piter Toma va J. L. Delkroix tomonidan 1968 yillarning boshlarida ishlab chiqilgan SYSTRAN [3] tizimi ilk samarali mashina tarjima tizimlaridan biri edi. Sovuq urush davrida ingliz va rus tillari o‘rtasida tarjimalarni taqdim etish uchun keng qo‘llanilgan. 1990-yillarning o‘rtalarida IBM tadqiqotchilari 1-dan 5-gacha bo‘lgan IBM Modellarini deb nomlanuvchi bir qator statistik mashina tarjimasi modellarini taqdim etdilar[4]. Bu modellar, ayniqsa Model 4 va Model 5, katta ahamiyatga ega bo‘ldi va statistik MTning keyingi rivojlanishi uchun zamin yaratdi.



1-rasm. MTning qisqacha taraqqiyot bosqichi

Google Translate rasmiy ravishda 2006-yil 28-aprelda ishga tushirilgan[5]. U asosan Neyron Mashina Tarjimasini(NMT)dan foydalanishga o'tgan bo'lsa-da, u ilgari Statistik Mashina Tarjimasini(SMT)dan foydalangan. Google Translate dastlab statistik modellarga tayangan bo'lsada tarjima sifatini yaxshilash uchun NMT ga o'tdi. Google Neural Machine Translation (GNMT) — 2016- yilda Google tomonidan ishlab chiqilgan ilg'or mashina tarjimasini tizimi bo'lib, tarjima sifati va ravonligini yaxshilash uchun neyron tarmoqlar va Deep Learning usullaridan foydalanadi.

Kompyuter yordamida tarjima qilish tizimlarining to'rt turi mavjud bo'lib:

- Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasini (RBMT)
- Misollarga asoslangan mashina tarjimasini(EBMT)
- Statistik mashina tarjimasini (SMT)
- Neyron mashina tarjimasini (NMT)

Ushbu maqolada biz yuqorida keltirilgan MTlarini va ularning ishlash bosqichlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

### Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasini

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasini (RBMT) son-sanoqsiz o'rnatilgan lingvistik qoidalarga va har bir til juftligi uchun millionlab ikki tilli lug'atlarga tayanadi. Dastur matnni tahlil qiladi va tarjima qilinadigan tildagi matn yaratiladigan o'tish davri tasvirini yaratadi. Bu jarayon morfologik, sintaktik va semantik ma'lumotlarga ega bo'lgan keng leksikalarni va katta qoidalar to'plamini talab qiladi. Dasturiy ta'minot ushbu murakkab qoidalar to'plamidan foydalanadi va keyin manba tilning grammatik tuzilishini maqsadli tilga o'tkazadi. Tarjima qilish jarayoni ulkan lug'atlar va murakkab til qoidalariga asoslanadi. Foydalanuvchilar tarjima jarayoniga o'z atamalarini qo'shish orqali tarjima sifatini yaxshilashlari mumkin. Ular tizimning standart sozlamalarini bekor qiladigan foydalanuvchi tomonidan belgilangan lug'atlarni yaratadilar.



2-rasm. RBMT ishlashi uchun talab qilinadigan asosiy vositalar.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasida qoidalar asosan asliyat va tarjima tillarining grammatik tuzilishini tavsiflaydi va atamalarini tarjima qilish uchun lug'atdan foydalanadi. Analizator grammatik kirish strukturasiini tahlil qiladi va kiritilgan matnning oraliq tasvirini yaratadi. Analizator ushbu tasvirni tarjima tilining grammatik tuzilishiga o'tkazadi.



1-jadval. RBMT ishlash bosqichlari

Bosqichlar ketma ketligi	Bosqich nomlari	Vazifalari
1- bosqich	Morfologik taxlil	Jumladagi so‘zlarni morfologik taxlil qiladi, kontekst darajasida Grammatik noaniqlik orqali so‘zlarning ma’nosini aniqlaydi.
2- bosqich	Sintaktik taxlil	Gap bo‘laklar va ularning gapdagi o‘rnini taxlil qiladi, POS tagging, gap turlari va ularning orasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi
3- bosqich	Gap/Jumla sintezi	Tarjima qilinayotgan tilning Grammatik qoidalariga asoslangan holda tarjima qilingan jumlaning shakllantiradi.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi tarjima jarayonida asosan uchta strategiyalarga asoslanadi:



3-rasm. RBMT strategiyalari

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuv - asliyat tilida berilgan matn tarjima tilda so‘zma-so‘z tarjima qilinadi.
- Transfer yondashuvi - asliyat tili va tarjima til qoidalariga asoslangan holda tarjima tilidagi matn ko‘rinishlarga o‘tkaziladi.
- Interlingual yondashuv - asliyat til kiritish matnning semantik ifodasiga, interlingvaga aylanadi. Interlingua tarjima matnni yaratish uchun asosdir.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi bir muncha qiyin, chunki u vaqt va kuch talab qiladi. Qoidalarga asoslangan tizimlar kengaytirilmaydi, chunki qoidalar qo‘lda yozilishi kerak. Samaradorligi va sifatini yaxshilash uchun ko‘proq qoidalar va ko‘proq inson ishtirokini talab qiladi.


### Misollarga asoslangan mashina tarjimasi

Misollarga asoslangan mashina tarjimasi (EBMT), bazi hollarda Hotiraga asoslangan mashina tarjimasi deb ham yuritiladi, korpusga asoslangan metodlardan biri bo‘lib ilk bor 1984- yilda Makato Nagao [6] tomonidan yaratilgan. EBMTning asosiy jihati allaqachon tarjima qilingan misollar korpusi ma‘lumotlar bazasidan foydalanish va tegishli misollarni olish uchun ushbu ma‘lumotlar bazasiga yangi kiritilgan ma‘lumotlarni moslashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi, so‘ngra to‘g‘ri tarjimani aniqlash uchun analogik tarzda qayta birlashtiriladi. Harold Somersning fikriga ko‘ra EBMT va misollarga asosan o‘rganish (Exemple-Based Learning), hotiraga asosan o‘rganish (Memory-Based Reasoning), manba analogiyasi (Derivational Analogy) kabi Machine Learning (ML) texnikalari bilan o‘xshash jihatlari ko‘p [7]. Chunki ushbu texnikalar ham EBMT kabi oldindan mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bazasiga asoslangan holda yangi ma‘lumotlarni o‘zlashtiradi. EBMT bilan deyarli bir vaqtda shakllantirilgan statistik uslublardan foydalangan holda tarjima qilish usulining paydo bo‘lishi va uning samadorlik darajasining yuqoriligi EBMT ga bo‘lgan qiziqish va izlanishlarga keskin taʼsir qildi.



**Statistik mashina tarjimasi**

Statistik mashina tarjimasi - bu statistik modellar yordamida matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish usuli bo'lib qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi yondashuvlaridan sezilarli darajada farq qiladi va u asosan 2000-yillarning boshlarida ommalasha boshladi. SMT statistik modellar va katta hajmdagi ikki tilli korpuslardan olingan ehtimollar asosida ishlaydi. SMTning asosiy vazifasi matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun parallel ma'lumotlardan (asliyat va tarjima tillardagi jumlar yoki hujjatlar orqali) o'rganilgan statistik ma'lumotlardan foydalanishdir.



**4-rasm. SMTda qo'llaniladigan modellar**

Jarayon parallel ma'lumotlar bo'yicha turli statistik modellarni o'qitishni o'z ichiga oladi, ularga quyidagilar kiradi:


- **Tarjima modeli:** Tarjima modeli parallel ma'lumotlarda kuzatilgan tarjimalar asosida so'zlar, iboralar yoki so'z birliklarini asliyat tildan tarjima tilga qanday tarjima qilishni o'rganadi. U turli xil tarjima variantlariga ehtimollarni belgilaydi, bu tizimga kiritilgan jumlaning hisobga olgan holda eng ehtimoliy tarjimani tanlash imkonini beradi.
- **So'zlarni moslashtirish modeli:** So'zlarni moslashtirish modeli parallel ma'lumotlardagi asliyat va tarjima jumlar o'rtasida alohida so'zlar yoki so'z birliklarini moslashtiradi. Bu tarjima jarayonida foydalaniladigan so'zma-so'z tarjimalarini shakllantirishga yordam beradi.
- **Til modeli:** Til modeli asliyat tildagi so'zlar ketma-ketligi ehtimolini baholaydi. Bu yaratilgan tarjimalarning ravon va grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.
- **Dekodlash algoritmi:** Dekodlash algoritmi statistik modellar va so'zlarni moslashtirish ma'lumotlaridan asliyat tilda berilgan jumlar uchun moslik ehtimolligi yuqori deb hisoblangan tarjimani yaratish uchun foydalanadi. Dekodlash jarayoni tarjima va til modellari asosida umumiy ehtimollikni maksimal darajada oshiradigan tarjimani qidirishni o'z ichiga oladi.

SMT o'quv ma'lumotlarida kuzatilgan o'xshash jixatlar yangi, ko'rilmagan jumlar uchun mos kelishi mumkin degan taxminga tayanadi. Shuning uchun SMT tizimining sifati va aniqligi ko'p jihatdan o'quv ma'lumotlarining hajmi va xilma-xilligiga bog'liq.

**Neyron Mashina Tarjimasi**

Shuni ta'kidlash kerakki, SMT o'tmishda mashina tarjimasi uchun dominant yondashuv bo'lgan bo'lsa-da, NMT yangi texnikalar, yanada murakkab lingvistik bog'liqliklar va uzoq muddatli kontekstni qo'lga kiritish qobiliyati tufayli ishlash va mashhurlik bo'yicha SMT dan oshib ketdi. Shunga qaramay, SMT mashina tarjimasi tarixi va rivojlanishining muhim qismi bo'lib qolmoqda. SMT NMT rivojlanishidan oldin eng ko'p o'rganilgan mashina tarjimasi usuli edi. NMT ham, SMT kabi til tarjimasiga ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar sifatida tanilgan. Ya'ni, ular tushunchalarni olish va aniqlik/ish samaradorligini oshirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarga bog'liq. Ushbu ma'lumotlar odatda korpus formatida (jumlar/so'zlar/iboralar to'plami) taqdim etiladi.

NMT bosqqa MT usullaridan farqli ravishda matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun sun'iy neyron tarmoqlariga tayanadi. U Deep Learning tamoyillari asosida ishlaydi va tarjimalarni yaratish uchun turli tillardagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqliklar va munosabatlarni o'rganish uchun neyron tarmoqlardan foydalanadi. Uning tizimining odatiy arxitekturasi encoder-decoder modelidan iborat. Buni 5-rasmda ko'rib chiqishimiz mumkin.



5-rasm. NMT ishlash mexanizmi

Katta hajmdagi o'quv ma'lumotlari va kuchli hisoblash resurslaridan foydalangan holda, NMT modellari turli til juftliklari o'rtasida tarjima qilishda ajoyib samaradorlikni ko'rsatdi va mashina tarjimasining eng zamonaviy usuliga aylandi.

2-jadval. Mtlarning ishlash mexanizmlarining umumiy va farqli jixatlari

Imkoniyatlari	RBMT	EBMT	SMT	NMT
Ko'p tilli korpusga asoslanadi	+	+	+	+
Mavjud ma'lumotlar bazasiga tayanadi	-	+	-	-
Grammatik qoidalarga asoslanadi	+	-	-	-
Moslashtirish usulidan foydalanadi	-	-	+	+
Ehtimoliy va neyron modellardan foydalanadi	-	-	+	+

**Xulosa.**

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mashina tarjimasi sohasi tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi bo'lib kelmoqda va bugungi kunga qadar ko'plab ijobiy rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelgan bo'lsa ham mukammallik darasidan hali ham uzoqda. Chunki bugungi kundagi MTLar texnik va ilmiy turdagi matnlarni to'g'ri va samarali tarjima qilayotgan bo'lsa ham badiiy janrdagi ko'plab ibora va ideomalarga boy bo'lgan asarlarni tabiiy va mukammal tarzda tarjima qila olmaydi. Ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bunday muammolarni hal qilishning samarali yo'li gibridd (statistik ma'lumotlar va qoidalarni birlashtirgan holda) uslubidan foydalanadigan MTLarni yaratishga e'tibor qaratish.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. John Hutchins, “The first public demonstration of machine translation: the Georgetown-IBM system, 7th January 1954”, AMTA conference, Sentyabr, 2004 (Hutchins 2004).
2. Paul I. Garvin, “The Georgetown-IBM experiment of 1954: an evaluation in retrospect”, An office of scientific research of the office of Aerospace Research, 1967.
3. Angeliki Petrits, “Ec Systran: the commission’s machine translation system”, European Commission Translation Service, 30 Avgust 2001, 4-5 b.
- Ilya Pestov, ”A history of machine translation from the Cold War to deep learning”. <https://freecodecamp.org/news>
4. D.Elliot, “Corpus-based machine translation evaluation via automated error detection in output texts”. University of Leeds, 2006.
5. Ralf Brown, “Example-based Machine Translation”. Fifth Biennial Conference for the Association of Machine Translation in the Americas, October, 2022.
6. Harold Somears, “Review Article: Example-based Machine Translation”, Kluwer Academic Publishers, Netherland, 2001.
7. Nilufar Abdurahmonova, “Mashina tarjimasining lingivistik asoslari”, Akademnashr, Toshkent, 2012.



## АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ISHONCH VA MAQSADNING KUCHI: "O'YLA VA BOY BO'L " KITOBINI TALQINIDA

**Linora Shermuhammedova Alijon qizi**

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Ilmiy rahbar: **Muqaddas Murodova Ikromovna**

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali ingliz tili  
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

#### **Annotatsiya.**

Biz ko'rib turgan dunyo turli sir-sinoatlarga boy.

Unda yashab qolish va o'z o'rnimizni topishimiz bizning kuch va irodamizga bog'liq. Hayotning maqsadiga qarshi tura olganlarga o'zining maqsadini yarata olishadi. Shu kabi hayot maqsadlarini anglab yetgan Hill Napoleon ham: " Siz dunyodagi eng mo'jizali ta'sir ko'rsatuvchi kitoblardan birini o'qiysiz ", - deya bu asarini- O'yla va boy bo'l nomli kitobini yaratadi. Ushbu kitobdan boy bo'lishning sinovdan o'tgan rejalari, ya'ni u qanday qilib ishga kirishishi to'g'risida hikoya qilib beradi.

Boy, boylik, boy bo'lish azal-azaldan barchani qiziqtirib kelayotgan, hammani diqqatini o'ziga qaratayotgan shu so'zlar emasmi? Boylikdan muhim narsalar ham ko'pligi haqida aytgan insonni o'zi ham bu jumalarga bir nigoh tashlab o'tgan emasmi? Shu o'rinda, bu bir tomondan murakkab va ikkinchi tomondan osondek tuyulishi mumkin. Biroq, Hill Napoleon ham bularga osonlikcha erishmadi va shu bilan birga hayot uni o'ylashga, fikrlashga undadi. U o'zining butun hayoti davomida bularni o'rgandi. Ushbu kitob boy fikrlash, orzu-istaklar ustidan hukmron bo'lish, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan. Siz hayotda qanday qilib maqsadga yetish va qat'iyatli bo'lishning aniq rejasini topasiz. Bu esa har bir ishda sizga qo'l keladi. Kitob omad sari undovchi tamoyillar, yo'nalish, qoidalar bilan boyitilgan. Aniq maqsad qo'yib, unga sari chalg'imag borish uchun nimalar qilish kerakligi muxtasar aytib o'tilgan. Garchand, kitobning ayrim o'rinlari Napoleon Hill tilidan hikoya qilinmasa-da, uning qarashlari, nuqtayi nazari, tamoyillarda o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Muvaffaqiyat siri; Karnegi formulasi; muvaffaqiyat formulasi; chekinmaslik; ma'lumot; Jennings Randolph; ilojsiz iloj; omadsizlik; ishonchsizlik.

#### **Kirish**

Hayoti davomida insonga olg'a qadam tashlash, o'z baxt-saodatini yaratish va boylikni ko'paytirish uchun nimalar yordam beradi, boshqalar, hatto bu ishni boshlamagan damlarda qay tarzda ko'maklashadi - kitobda ana shu haqida so'z boradi.

Bu asar o'zining kichik-kichik qismlariga ega bo'lib, u adib turmush-tarzi haqida hikoya qiladi. Ammo, bu asarni to'laqonli adib hayotidan iborat deya ayta olmaymiz, ammo, barcha ma'lumotlarni sinalgan usul samarasi deyinim mumkin. Inson bu yo'l davomida chalg'ishi yoki yo'ldan adashishi ehtimoldan holi emas. Biz ko'pincha qaysidir kitobni o'qib unda ilgari surilgan fikrlarni o'z hayotimizga tatbiq etishga qaror qilamiz. Lekin, afsuski, bir necha hafta o'tgach o'ylaganlarimizni esdan chiqarib yuboramiz. Quyida ana shunday holatlar bo'lmasligi uchun ba'zi amaliy yo'llar bor.

Shunday mutlaq haqiqat mavjud: agar biz rejalashtirishda mag'lubiyatga chidashga chidam bersak, ehtimol o'zimizning mag'lubiyatimizni rejalashtirgan bo'lamiz.

Ba'zida esa, "men bunday qilolmayman" deganda, inson miyasi ishni to'xtatadi. "Men buni qilishim mumkin", - deb o'z miyamizni ishlashga majburlaymiz. Biz o'zimizni undash orqali maqsadga yetishamiz. Inson biror natijaga erishishni xohlar ekan albatta sababi va oqibati uni qiziqtiradi. Muvaffaqiyat va mag'lubiyat uni cho'chitadi. Muvaffaqiyat mag'lubiyatimizdan bir qadam keyinda bo'ladi, bu vaqtda inson qanchalik irodali bo'lsa, u muvaffaqiyat yuzini shunchalik tez ko'radi, yo'qsa, mag'lubiyat uni yengadi.

Bunday bo'lmasligi uchun biz o'zlashtirgan mazmunimizni zudlik bilan amalda sinab ko'rishimiz kerak.

Eskidan qolgan bir maqol bor:





Agar eshitsang- esingdan chiqarasan,

Agar ko'rsang yodingda turadi.

Agar o'zing bajarsang mohiyatini anglaysan. [ 2. 5-6 ]

Sizing ham hayotingizga muvaffaqiyat kirib kelar ekan, vaqtinchalik omadsizlik va, hatto mag'lubiyatlar bo'lmasin, bariga chidashingizga to'g'ri keladi! Haqiqatan ham bizni omadsizlik ta'qib etdimi, bas, eng oddiy mantiq - ishni tashlash bo'ladi-qoladi. Ko'pchiligimiz xuddi shunday yo'l tutamiz. Shunday emasmi? Xullas, ularning aytishiga ko'ra, eng "savdoyi" muvaffaqiyat mag'lubiyatga bir qadam qolganda kelar ekan.

Eh, bu mag'lubiyat... U muloyimgina nigoh, nozik qarashlar va hazil aralash shafqatsizlik ila tashrif buyuradi-ya! Va muvaffaqiyat chegarasida odamni ovlab, domiga tushiradi-yu, maza qiladi...

Muvaffaqiyatning mo'jizaviy formulasi janob Karnegining g'oyalaridan kelib chiqqan edi. Bu unga haddan ziyod boylik keltirgan, endi esa, ushbu formula boy bo'lish kabi uzoq va mashaqqatli mehnatga vaqti bo'lmagan kishilarni qurollantirish uchun kerak edi. Karnegi o'z xulosalarimizni tekshira olishimizga va turli jins, yosh va har xil sohadagi kishilarga bayon eta olishimizga umid bog'ladi. "It ham ilm o'rgangach, to'g'ri yo'lga kiradi, o'rmonlarda halol hayvonlar ovlaydi. It ham olim bo'lgach jangda chapdastlashadi, it ham orif bo'lgach as'hoobi qahf bo'ladi. It ham ovchilarni taniydi, biladi. Ko'ring taniy olmasligi ko'zi yumuqligidan emas, bilimsizlik tufayli sarmastligidandir. Nene olimlar haqiqiy ilmdan, haqiqiy irfondan benasiblar. Bunday olim ilmning hofizidir oshig'i emas". (Rumi) [ 6 ]. Biroq, siz eng muhimi, o'z fikringizning xo'jayini bo'ling va aslo ularning sizning xo'jayiningiz bo'lishiga yo'l qo'ymang! Kim bo'lishingizni tasavvur qiling va xuddi shunday odam bo'lishga harakat qiling. Agar siz o'zingizni bechora tasavvur qilsangiz, bechora bo'lib qolasiz. Agar siz hayotga to'g'ri maqsad sari ishonch bilan qarasangiz, xuddi shunday bo'lasiz.

### Asosiy qism

Hayotda, ishda, biznesda muvaffaqiyatga erishishni kim ham istamaydi. [ 1.2 ] Ko'rib turganimizdek, yozuvchi asari motivatsiyaga boy va biznes adabiyotlari orasida eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Bu kitob ko'plab muvaffaqiyatli insonlarga ilhom bergan. Misol uchun, ko'pchilikka ma'lum va mashhur Virjiniyadan kelgan amerikalik siyosatchi olim Jennings Randolph ham Hill Napoleoning so'zlagan nutqidan ilhomlanganligi va bular uni o'ziga bo'lgan ichonchini orttirganini so'zlab, yozuvchiga maktub yo'llagan edi. Keling, avvalo, janob Randolphning yozuvchimiz Hill Napoleonga maktubida nimalar yoritilgani va bunga nima undaganligini ko'rib chiqamiz:

"Ko'p yillar muqaddam Salem kolleji bitiruvchilari sha'niga nutq so'zlagan edim (Salem shahri G'arbiy Virjiniya shtatida joylashgan). Keyingi bo'limda kamina bayon etadigan tamoyil o'z nutqimda ixcham shaklda aks etgan". Mening bilishimcha, bitiruvchilardan biri uni faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki dunyoqarashining bir qismiga aylantirdi ham. Demak, o'qish bilan uqishning farqi bo'lganidek, o'zlashtirish bilan unga amal qilish o'rtasida ham katta tafovut mavjud. Keyinchalik bu o'smir kongressmen va prezident D.Ruzvelt ma'muriyatida e'tiborli xodimga aylandi. "U menga xat yuborib, bu tamoyil to'g'risida o'zining qarashlarini ifoda etgan edi. Men uni navbatdagi bo'limga so'zboshi sifatida chop etishni lozim topdim ". Xullas qisqa qilib aytganda maktub quidagicha.

Shunday qilib: "Qadrdonim Napoleon! Mening kongressdagi ishim Amerika erkak va xotin-qizlari duch keladigan muammolar zamiriga qarash imkoniyatini beradi. Kamina sizga xat yozib minglab odamlarga ma'qul keladigan maslahat berishingizni so'rayman. 1922-yilda men hali Salem kollejining bitiruvchi kursi talabasi ekanman, siz bizga nutq so'zlab murojaat qilgan edingiz. Siz ongimga g'oya berdingizki, u tufayli men shtatim xalqiga xizmat qilish kabi baxtga ega bo'ldim".

Bu so'zlardan ko'rinib turibdiki, inson o'zini biror narsaga undar ekan unga dalda kerak, uni fikrini ma'qullovchi tomon kerak. Ko'plab insonlar o'z g'oyalarini pulga aylantirishni qo'lda ketgan mag'lubiyatlarini o'rnini to'ldirishni istaydilar. Ular bu holatda biror ruhlantiruvchi so'zlar yohud uni fikri ma'qbul ekanini tasdiqlovchi shaxs kerak bo'ladi. "Bu yo'lidan adashgan yoki o'z yo'lini izlayotganlar uchun qo'l keladi. Bu ishda dangasalik ketmaydi. Dangasalik boyligimiz va sog'ligimiz imkoniyatlarini cheklaydi ". [ 7 ]

"Iloji yo'q " degan so'z insoniyat mavjud bo'lganidan buyon mavjud. Bo'lmasa-chi! U ishlamaydigan barcha qoidalarni biladi. Maqsad qo'yish hayotdagi barcha muvaffaqiyatning poydevori. Shu fursatda Robert Keyosakining hikoyasini aytish o'rinli bo'ladi.

"Mening ikki otam bo'lardi, biri boy va biri kambag'al otam. Ular doim ikki xil fikrlashardi. Biri: "Pulga muhabbat xirs qo'yish - barcha kulfatlarning ildizidir"-, desa, yana biri: "Pulning yetishmasligi-barcha kulfatlarning boshalnishi"-, derdi. Kuchli ta'sir o'tkazuvchi ikki otam bo'lgani uchun men yosh



yigitcha qiynalgan edim. Men otalarimning gapiga quloq soladigan yaxshi o'g'il bo'lmoqchi edim, biroq, ular har xil gapirardi. Ularning pul to'g'risidagi nuqtayi nazarlari bir emasdi va bu fikrlar bir-biridan shunchalik farq qilardiki, mening qiziqishimni kuchaytirib, o'ylantirib qo'yar edi.[7.156] Bu insonni ancha o'ylashga undaydi. Bunday olib qaralsa, ikkala fikr ham noto'g'ri emas. G'alabaga erishish uchun kerak bo'lgan fazilat maqsadning aniqligi, nimani istayotganingizni bilish va unga erishish yo'lida sobitqadamlikdir.

### Xulosa

O'tkir aql egalari shunday fikrlaydi. Men pulga ishlamayman, pul menga ishlaydi. Bu pulga eltuvchi xaritaning eng muhim jumlasini hisoblanadi. Buni bir so'z bilan mutolaa qiluvchiga yetkazib berish mushkul, bularning barchasini o'z hayotimiz davomida anglab yetamiz. "Hayot-eng yaxshi o'qituvchi. Hayot sen bilan gaplashmaydi. Hayot maktabi hamma tomoningdan urulib, turtkilaydiganga o'xshaydi. Bundan xulosamiz to'g'ri bo'lsa, biz to'g'ri yo'ldamiz. Insonlar jamoadagi mavqeyidan yoki oldingi xizmatlaridan qat'iy nazar faqat eng yaxshilari. " Yakuniy ro'yxatga tushadigan professional sport jamoasi kabi".Rahbar va g'olib bu yashirin imkoniyatlarni aniq natijalarga aylantiradigan kishidir.

O'z oldiga qo'ygan maqsaddan keladigan ezgulik va foyda osonlik bilan qo'lga kiritilmaydi. Aniq maqsad bo'lmasa, sizning istiqbolingiz ezgu orzudan bo'lak hech narsa emas. Maqsad qo'yish ulkan manfaat keltiradi. U muammolarni hal qilishni osonlashtiradi, sizning jismoniy va ruhiy holatingizni yengillashtiradi, hayotga ijobiy munosabatda bo'lishingizni oshiradi. Maqsad qo'yish tufayli sizga vahima va qo'rquvdan, tushunmovchiliklardan qutilish oson kechadi. Odamlar maqsadlari bor kishilarni e'zozlashadi. Maqsad qo'yish sizni ko'zlangan g'alabaga, kelajakka ishonch sari intilishga chorlaydi. Ana shu kelajakka ishonch va qat'iyat g'olibni boshqalar orasidan ajratadi.[2.19]

O'zgarmoqchi bo'lsangiz, o'zingizga yuqoriroq standard belgilang va bunga erishish uchun mos strategiya ishlab chiqing. Har kimga, agar kerak bo'lmasa, devorga qo'yilgan narvonga chiqish xohishi bo'lmaydi!

Yutuq- bu bir turkum aniq saylanishdir. Biz har kuni hayotning turli chorahalarida bo'lamiz. Bir narsani qaror qildikmi, boshqa narsalarning bahridan kechishimiz kerak.

Haqiqiy yo'lbo'shchilar o'zlari tanlagan yo'lida qurbon bo'lishga tayyor turganliklari bilan ajralib turadilar. Biz nimaga intilayotganligimizni bilib, shundan so'ng unga hech qanday ikkilanishlarsiz intilishimiz lozim.

"Buyuk Kvaker Elton Trublud ko'p yillar oldin yuqori ishonch bilan e'tirof etgandi: Inson barcha noqulayliklarga ruhan va jisman toqat qilishga tayyordir. Lekin bir narsa borki, unga hech qachon chidab bo'lmaydi – bu hayotning ma'nosini bilmaslik. Biz hayotla qandaydir ma'no berishimiz kerak, aks holda aqlsizlik muhtalosi bo'lamiz.[8]

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hill Napoleon " O'yla va boy bo'l " , 2020-yil nashri. 516 b.
2. Bill Nyumen "Muvaffaqiyatlarga erishishning o'n usuli " , 2013-yil, 66 b.
3. Tony Robbins " Cheksiz kuch " , 1986-yil, 400 b.
4. Jim Collins " Yaxshi holatdan eng zo'riga " , 2011-yil , 157 b.
5. Shoxista Shoyimova "Psixologiya va pedagogika " , 2022-yil , 386 b.
6. Najmiddin Komilov " Qalb ko'zingni och- Rumi " to'plami.
7. Robert Keyosaki " Boy ota va kambag'al ota " , 1997-yil , 250 b.
8. <https://uz.m.wikiquote.org>
9. [kitobxon.com/uz/kitob/strategiya\\_xaritalari](http://kitobxon.com/uz/kitob/strategiya_xaritalari).



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

RESPUBLIKAMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI  
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Raxmonova Feruza Musakulovna**

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat  
arxitektura qurilish universiteti

“Biznesni boshqarish” kafedrasida katta oʻqituvchisi  
feruzaraxmonova1976@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati va rolini oshirish masalalari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, kredit, imtiyoz, subsidiya

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev bu borada quyidagilarni taʼkidlagan: “2030 yilga borib, Oʻzbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari oʻrtacha koʻrsatkichdan yuqori boʻlgan davlatlar qatoridan oʻrin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni ragʻbatlantirish va uning ulushini oshirish hamda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish koʻzda tutilmoqda” [1].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “**2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi**”da: tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish; xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; sharoiti ogʻir boʻlgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish; 2026 yil borib tadbirkorlik subektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish; hududlarda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, ishsizlik va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan [2]. Shulardan kelib chiqib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini atroflicha oʻrganish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2017-2021 yillarda joriy narxlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 98,3, qurilish ishlari hajmi 246,1, savdo aylanmasi qiymati 120,3, qishloq, oʻrmon va baliqchilik mahsulotlari yetishtirish 102,1, xizmatlar koʻrsatish 109,2, eksport hajmi 34,5 va import hajmi 64,9 foizga oshgan (1-jadval).

1-jadval

Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi dinamikasi, joriy narxlarda

Koʻrsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 y. 2017 y.ga nisb., %
Sanoat (mlrd. soʻm)	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2	198,3
Qurilish (mlrd. soʻm)	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0	346,1
Bandlik (ming kishi)	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7	95,5
Eksport (mln. AQSH dol.)	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2	134,5
Import (mln. AQSH dol.)	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0	164,9
Savdo (mlrd. soʻm)	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4	220,3
Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi (mlrd. soʻm)	152010,5	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2	202,1



Xizmatlar (mlrd. so'm)	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	209,2
Yuk tashish (mln. tonna)	548,8	611,7	641,0	638,9	678,9	123,7
Yuk aylanmasi (mln. tonna-km)	10444,4	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1	125,5
Yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi)	5037,5	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6	104,0
Yo'lovchi aylanmasi (mln. pass. km)	111435,0	115335,2	117412,7	107766,7	114681,5	102,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. Toshkent-2022. –1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 2021 yilda har 1000 aholiga 16,5 birlikni tashkil qildi. 2021 yilning yanvar-dekabrida 98,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 foizga ko'p demakdir.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushi muttasil oshib borib, 2021 yil yakunlari bo'yicha 54,9, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 96,7, qurilish ishlarida 72,4, xizmatlar hajmida 51,1, sanoat ishlab chiqarishida 27,0 va eksportda 22,3 foizni tashkil etgan (2-jadval).

**2-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog'i, jamiga nisb. %da**

Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 y. 2017 y. ga nisb., f.p.
Yalpi ichki mahsulot	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	- 10,4
Bandlik	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	- 3,6
Sanoat	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	-14,2
Qurilish	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	+7,6
Investitsiya	34,8	38,0	47,0	46,0	47,9	+13,1
Eksport	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	+0,3
Import	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	- 4,9
Savdo	88,3	86,3	84,3	82,3	82,1	-6,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	98,1	98,3	98,3	96,7	96,7	- 1,4
Xizmatlar	58,4	56,0	52,1	51,8	51,1	- 7,3
Yuk tashish	54,2	55,5	54,6	51,6	49,4	- 4,8
Yo'lovchi tashish	90,1	89,6	90,7	93,5	92,8	+ 2,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. Toshkent-2022. – 1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

Tahlillarga ko'ra respublikamizda kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi tarmoqlar bo'yicha keskin farqlanadi (2021 yilda savdo hissasiga 33,8, sanoatga 19,5, qishloq, o'rmon va baliqchilikka 9,9, qurilishga 9,4, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga 7,1, tashish va saqlashga 3,9, axborot va aloqaga 2,2, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga 1,9 va boshqa faoliyat turlariga 12,2 %). Bu borada ayrim tarmoqlar salohiyati yaxshi ishga solinmagan [3];

- yangi tashkil etilayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonini viloyatlar bo'yicha taqsimlanishida keskin tafovutlar mavjud (2021 yilda Toshkent shahri hissasiga 16,2, viloyatlardan Samarqandga 10,9, Qashqadaryoga 9,6, Farg'onaga 9,2 foiz to'g'ri kelgan bo'lsa, Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 4,9, Jizzaxga 4,4 va Sirdaryoga 2,3 foizga teng bo'lgan [3]), ya'ni mazkur hududlarning salohiyati ham yaxshi ishga solinmagan;

- kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan eksportning viloyatlar jami eksportidagi salmog'ida Sirdaryo (76,4 %), Surxandaryo (60,0 %), Xorazm (51,7 %), Namangan (49,6 %) va Farg'ona (49,4 %) viloyatlari yetakchi bo'lsa, Toshkent (23,4 %) va Navoiy (11,9





%) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (22,1 %) va Toshkent shahri (17,2 %) ancha past ko‘rsatkichlarni namoyish etgan [3];

- hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi salmog‘i ham keskin farq qiladi (2021 yilda eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri (31226,2 mlrd. so‘m), Toshkent (14407,4 mlrd. so‘m), Farg‘ona (12746,0 mlrd. so‘m) va Andijon (9739,5 mlrd. so‘m) viloyatlariga, eng kami esa Sirdaryo (3868,9 mlrd. so‘m), Surxandaryo (3488,2 mlrd. so‘m) va Xorazm (3003,1 mlrd. so‘m) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib respublikamizda kichik tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun birinchi navbatda hududlarning imkoniyatlari va salohiyatini chuqur tahlil etish asosida tizimli yondashish, har bir hududda kichik tadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini kuchaytirishni tavsiya etamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 2021 yil 6 noyabr. [www.president.uz](http://www.president.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. Toshkent-2022. –1-2 b. <https://www.stat.uz>.



RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHOLI TURMUSH TARZIGA TA'SIRI:  
O'ZBEKISTON MISOLIDA.

Duvshatova Nigora

Abu Rayxon Beruniy nomidagi

Urganch Davlat Universiteti

Raqamli iqtisodiyot guruhi magistranti

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston Respublikasidagi aholi turmush tarziga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotning aholi hayotidagi ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, bu jarayonning istiqbollari ko'rib chiqiladi. Maqolada raqamli iqtisodiyotning bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy xizmatlar va ijtimoiy aloqalarga ta'siri statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida raqamli transformatsiyani yanada samarali boshqarish bo'yicha takliflar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, aholi turmush tarzi, raqamlashtirish, iqtisodiy transformatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

**Kirish.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi barcha iqtisodiy tarmoqlar singari aholi turmush tarzi o'zgarishiga va shu bilan birga turmush sifati yaxshilanishiga hamkatta ka'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarni amalga oshirish tizimi bo'lib, u aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mijozlarga tezkor va qulay xizmatlar taqdim etish orqali turmush tarzi va sifatini oshirish imkoniyatlarini ham yaratmoqda. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yilni “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e'lon qilib, bu sohaning mamlakat taraqqiyotidagi muhim o'rnini ta'kidladi. Raqamli iqtisodiyotning aholi turmush tarziga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, u iqtisodiy imkoniyatlardan tortib ijtimoiy aloqalar va shaxsiy hayot sifatigacha bo'lgan sohalarni qamrab oladi. Ushbu maqola O'zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotning aholi hayotiga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, soha mutaxassislari bilan suhbatlar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasiga ta'sirini baholash uchun misollar va holatlar tadqiqi (case study) usuli qo'llanildi. Shuningdek xalqaro va mahalliy kompaniyalarning raqamli transformatsiyalari tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Raqamli iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt, blokcheyn, elektron tijorat va boshqa raqamli platformalar asosida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida jadallashtirildi. Bu davrda internet infratuzilmasi kengaytirildi, elektron to'lov tizimlari joriy etildi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi tezlashdi. Bu raqamlashtirishning tezlashishida raqamli transformatsiyalar muhim o'rin turdi. Jumladan, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinishi, “my.gov.uz” portali orqali yuzlab davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etilishi va Startup va texnoparklar yoshlar, tadbirkorlar va aholi uchun imkoniyat yaratmoqda. Bu imkoniyatlar o'z navbatida internetdan foydalanuvchilar soniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, 2025 yilga kelib, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 30 milliondan oshdi, bu esa aholining 85% dan ortig'ini tashkil etadi.

Zamonaviy iqtisodiyot rivojida xizmatlar sohasini alohida o'rnini beqiyos, chuni u strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning rivoji aholi turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, O'zbekistonda 2020-2024 yillar davomida xizmatlar sohasi YaIMdagi ulushi (2020-yilda 36,2%; 2024-yilda 47,4%)ning muntazam o'sib borishi bu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ro'lini kuchaytirganini ko'rsatadi.

Quyida 2020-2024 yillar oralig'ida O'zbekistonda xizmatlar sohasi va raqamli xizmatlar hajmi, shuningdek, ularning Yalpi ichki mahsulot (YaIM) dagi ulushi yillar kesimida taqqolanadi (1-jadval):



O'zbekistonda xizmatlar sohasi va raqamli xizmatlar hajmi(2020-2024)<sup>1</sup>  
(so'mda)

№	Yillar	Xizmatlar sohasi hajmi	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi <sup>2</sup>	Xizmatlar sohasi YaIMdagi ulushi
1	2020	194,36 trln	13,8trln	36,2%
2	2021	284,2 trln <sup>3</sup>	17,7 trln	39,6%
3	2022	368,7 trln <sup>4</sup>	24,5 trln	41,5%
4	2023	469,4 trln <sup>5</sup>	39,1 trln	46,2%
5	2024	687 trln	56,2 trln	47,4%

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning aholi turmush tarziga ta'siri bir qator sohalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning aholi hayotiga ta'siri ijobiy va salbiy jihatlarni o'z ichiga oladi va quyida ushbu ta'sirlar asosiy yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi.

**Bandlik va mehnat bozori.** Raqamli iqtisodiyot mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'zbekistonda elektron tijorat platformalari (masalan, ZoodMall, Olcha.uz) va frilans xizmatlari (Upwork, Freelancer) orqali yangi ish o'rinlari yaratildi. 2023 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli sohada band bo'lganlar soni 150 ming kishidan oshdi, bu esa umumiy bandlikning 2% ni tashkil etadi.

Biroq, raqamlashtirish ba'zi an'anaviy kasblarni (masalan, bank kassirlari, pochta xodimlari) avtomatlashtirish orqali ish o'rinlarini qisqartirdi. Shu bilan birga, raqamli ko'nikmalarga ega bo'lmagan aholi qatlamlari mehnat bozorida raqobatbardoshlikni yo'qotmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli savodxonlik darajasi past bo'lgan hududlarda ishsizlik darajasi 1,5 barobar yuqori.

**Ta'lim va bilim olish imkoniyatlari.** Raqamli iqtisodiyot ta'lim sohasida katta imkoniyatlar ochdi. Onlayn ta'lim platformalari (Coursera, Udemy, Bilimdon.uz) va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan raqamli ta'lim loyihalari (masalan, "Bir million dasturchi") yoshlarning zamonaviy ko'nikmalarni egallashiga yordam bermoqda. 2022 yilda O'zbekistonda 500 mingdan ortiq yoshlar raqamli ta'lim dasturlarida ishtirok etdi, bu esa 2020 yilga nisbatan 3 barobar ko'pdir.

Biroq, qishloq hududlarida internet sifati va raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi ta'lim imkoniyatlariga tengsiz kirish muammosini keltirib chiqarmoqda. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning uzoq hududlarida faqat 60% aholi barqaror internetga ega.

**Sog'liqni saqlash va raqamli xizmatlar.** Raqamli iqtisodiyot sog'liqni saqlash sohasida ham muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'zbekistonda telemeditsina platformalari (masalan, Med24, Teletibb) va elektron tibbiy yozuvlar tizimi joriy etilmoqda. 2023 yilda 200 mingdan ortiq fuqarolar telemeditsina xizmatlaridan foydalangan, bu esa shifokorlar bilan masofaviy maslahatlashuv imkonini kengaytirdi.

Biroq, raqamli sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish darajasi shahar va qishloq hududlarida notekis. Shahar aholisining 70% ga yaqini raqamli tibbiy xizmatlardan foydalansa, qishloq hududlarida bu ko'rsatkich 30% dan past.

**Moliyaviy xizmatlar va elektron to'lovlar.** Raqamli iqtisodiyot moliyaviy xizmatlarga kirishni soddalashtirdi. O'zbekistonda Payme, Click, Uzcard kabi elektron to'lov tizimlari keng tarqaldi. 2023 yilda elektron to'lovlar hajmi 150 trillion so'mdan oshdi, bu 2020 yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p. Bu aholining kundalik xarajatlarini boshqarishini osonlashtirdi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirdi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik muammolari va raqamli savodxonlikning yetishmasligi ayrim fuqarolar uchun xavf tug'dirmoqda. Masalan, 2022 yilda 10 mingdan ortiq fuqaro onlayn firibgarlik qurboni bo'lgan.

1 Muallif ishlanmasi  
2 UZ24  
3 Statistical Analysis of Trends in the Development of the Service Sector  
4 Trade.gov  
5 World bank- The promise of services-led growth in Uzbekistan



**Ijtimoiy aloqalar va turmush tarsi.** Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy aloqalarni o'zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram) va onlayn kommunikatsiya platformalari orqali aholi o'zaro aloqa va axborot almashish imkoniyatlarini kengaytirdi. O'zbekistonda Telegram foydalanuvchilari soni 2023 yilda 25 milliondan oshdi, bu esa aholining 70% dan ortig'ini tashkil etadi.

Biroq, raqamli aloqalarning jadal rivojlanishi ijtimoiy izolyatsiya va raqamli qaramlik kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yoshlar orasida smartfonlardan foydalanishning ortishi psixologik salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa davlat tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlarni talab qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Raqamli iqtisodiyot O'zbekiston aholisining turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. U bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirishni yaxshilash, moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish kabi ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Biroq, raqamli savodxonlikning yetishmasligi, infratuzilmaning notekis rivojlanishi va kiberxavfsizlik muammolari ushbu jarayonning salbiy jihatlari sifatida qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning ijobiy ta'sirini oshirish uchun quyidagi takliflar keltiriladi:

- Raqamli infratuzilma rivojlanishini hududlar bo'yicha tenglashtirish;
- Yoshlar va qishloq aholisi uchun raqamli ko'nikmalarni oshirish dasturlarini kengaytirish;
- Kiberxavfsizlik bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish va aholini xabardor qilish kampaniyalarini yo'lga qo'yish;
- Davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash orqali raqamli startaplarni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi islohotlari davom etar ekan, bu jarayon aholining turmush darajasini yanada yaxshilash va mamlakatning global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.worldbank.org>
2. <https://www.itu.int>
3. <https://www.statista.com>
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
6. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)
7. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) va [www.digital.gov.uz](http://www.digital.gov.uz)
8. <https://mitc.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
10. "Elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorlar. 10. Brynjolfsson, E. & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.
11. Tapscott, D. (1996). The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence.
12. Bukht, R. & Heeks, R. (2018). Defining, conceptualising and measuring the digital economy. Development Informatics Working Paper Series, Paper No. 68.





**QURILISH SANOATI KORXONALARI IQTISODIY FAOLIYATINI  
BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Yembergenova Aynur Aydosbaevna**

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini  
kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK yetakchi mutaxassisi

Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyat darajasini o‘rganish va uni baholashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyat darajasini shakllantirish, uni miqdoriy baholash, bu boradagi turli-tuman nazariy va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish, tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va mazkur korxonalarining iqtisodiy faoliyati natijasida umumiy manfaatning ortib borishini tadqiq etish, iqtisodiy salohiyatini baholash va boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, qurilish sanoati korxonalarining raqobat muhitini yanada yaxshilash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, o‘z navbatida qurilish sanoati – bu ma’lum bir mamlakat hududida turar joy va noturarjoy binolari qurish bo‘yicha faoliyat majmuasidir [2]. O‘z navbatida bizningcha, qurilish sanoati korxonalarini – bu ma’lum bir mamlakat hududida turar joy binoalari va noturarjoy majmualarini qurish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalaridir. Qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyatini boshqarish esa aynan turar-joy va noturar joy binolarini qurish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga turli usul va vositalar orqali ta’sir etishni tushunish mumkin. Ya’ni korxonaning iqtisodiy faoliyatini boshqarish – bu korxonaning iqtisodiy faoliyatini ilmiy, texnik, sanoat, texnologik, ma’muriy va boshqa sohalarida boshqaruv funksiyalari va tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish demakdir. Qurilish korxonalarini o‘z navbatida - bu qurilish majmuasining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib ularni quyida keltirilgan ko‘plab mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkin.

Jumladan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning iqtisodiy maqsadiga ko‘ra barcha qurilish korxonalarini 2 guruhga bo‘linadi:

1. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar;
2. Iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Bundan tashqari, kapital qurilishdagi faoliyat mazmuniga ko‘ra qurilish korxonalarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- qurilish va montaj ishlarini bajarish (barcha turdagi qurilish ishlarini bajarish);
- qurilish sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlarini bajarish (qurilish materiallari va mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun);
- qurilish transporti korxonalarini (qurilish ishlab chiqarish elementlarini tashishni amalga oshiruvchi korxonalar);
- mexanizatsiyalashuv korxonalarini (qurilish texnikalaridan foydalanish va ta’mirlash korxonalarini) va boshqalar.

Qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyati tushunchasini talqin qilish jarayonida salohiyat (potensial) tushunchasining ma’nosiga to‘xtalish ahamiyatli hisoblanadi. “Salohiyat” tushunchasining atama sifatida turli olimlar tomonidan talqinlarini ko‘rib chiqish va uning iqtisodiy manfaatlar shakllanishidagi o‘rnini belgilashimiz zarur hisoblanadi. “Salohiyat” tushunchasi lotincha “potentia” so‘zidan olingan bo‘lib, “imkoniyat, kuch, qudrat” kabi ma’nolarni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda “salohiyat” tushunchasi “mavjud vositalar majmui”, “har qanday sohadagi imkoniyatlar” mavjud manbalar, vosita, zaxira,” sifatida ta’riflanadi [1]. “Salohiyat” tushunchasining atama sifatida yuqorida berilgan talqinlarining umumiy jihati sifatida ma’lum bir maqsadlarga erishish uchun kerak bo‘ladigan va talab etiladigan ayrim vositalar yig‘indisining amalga oshirilish imkoniyatlari mavjudligidan tashkil topadi. Shundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, iqtisodiy adabiyotlarda “iqtisodiy salohiyat” tushunchasining bir qancha talqinlari keltirilgan.

Qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyatini tadqiq etishda uning bugungi mavjud holati hamda rivojlanish imkoniyatlarini qarab chiqish lozim bo‘ladi. Chunki qurilish sanoati korxonasining boshqa tarmoq korxonalaridan farqli jihatlari mavjud bo‘lib, ushbu jihatlari korxonaning rivojlanishi va samarali



faoliyat olib borishida muhim rol o'ynaydi. Qurilish sanoati korxonasi qurilish sanoatining iqtisodiy faoliyati ishlash mexanizmlarida o'z ifodasini topgan qurilish sanoatining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

1. Qurilish obektlarining tovar sifatida turg'un joylashganligi va asosiy vositalarning mobilligi.
2. Qurilish faoliyati olib borilishining ob-havo va atrof-muhit ta'siriga bog'liqligi.
3. Ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi uzoq vaqt talab qilinishi hamda qurilish mahsulotlari (tovarlari)ning yuqori xarajatga ega ekanligi.
4. Hamkorlikning o'ziga xos shakllari.
5. Brigada ishini tashkil etish qiyinchiliklari.
6. Ijrochilardan asosiy mehnat vositalarini begonalashtirgan holda maxsus ixtisoslashuv shaklining mavjudligi.
7. Maxsus to'lov shakllaridan foydalanish.
8. Qurilish ishlab chiqarishining katta moddiy sarfga ega ekanligi.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlardan shuni aytish mumkinki, qurilish sanoati iqtisodiyoti milliy iqtisodiyotning barcha boshqa tarmoqlari iqtisodiyotidan sezilarli farq qiladi degan xulosaga kelish mumkin. Aytaylik qurilish tarmog'idagi mavjud holat boshqa tarmoq imkoniyatlaridan farqli jihatlari o'z navbatida ish jarayonining tashkillashtirilishi, ko'p miqdordagi xarajat talab etilishi, maxsulot (tovar) shakli va xususiyatlari bilan farq qilishi bundan tashqari qurilish faoliyati olib borilishida ob-havoning to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishi va boshqalar.

### Adabiyotlar

1. Борисов, А.Б. Большой экономический словарь / А.Б. Борисов. – М.: Книжный мир, 2003. – 895 с.
2. Elekton manba. [https://spravochnikvs.com/stroitel\\_naya\\_promyshlennost\\_#2](https://spravochnikvs.com/stroitel_naya_promyshlennost_#2)



КАМБАҒАЛЛИК ДАРАЖАСИНИ КАМАЙТИРИШНИНГ БАРҚАРОР  
ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШГА ЭРИШИШДАГИ ЎРНИ

Абилов Феруз Нематуллаевич

Самарканд вилоят ҳокимининг  
молия-иқтисодиёт ва камбағалликни  
қисқартириш масалалари бўйича биринчи  
ўринбосари. feruzabilov@gmail.com

**Аннотация** Мазкур мақолада камбағаллик даражасини камайтириш учун аввало мамлакатимизда барқарор иқтисодий ривожланишга эришиш муҳимлигига алоҳида эътибор қаратилган. Бунда илмий салоҳияти юқори бўлган кадрларни етиштириш, иқтисодиётнинг тармоқлари ва соҳаларида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, доимий равишда замонавий технологиялар ҳамда инновацияларни жорий этиш талаб қилинишига урғу берилган.

**Калит сўзлар:** камбағаллик, қашшоқлик, камбағаллик даражаси, иқтисодий ривожланиш, илмий салоҳият, иқтисодиёт, тармоқ, соҳа, ишлаб чиқариш.

**Аннотация** В данной статье рассматривается важность достижения устойчивого экономического развития в нашей стране в целях снижения уровня бедности. Подчеркивается необходимость выращивания кадров с высоким научным потенциалом, модернизации производства в отраслях и секторах экономики, его технического и технологического обновления, постоянного внедрения современных технологий и инноваций.

**Ключевые слова:** бедность, нищета, уровень бедности, экономическое развитие, научный потенциал, экономика, промышленность, сектор, производство.

**Abstract** This article discusses the importance of achieving sustainable economic development in our country in order to reduce poverty. It emphasizes the need to cultivate personnel with high scientific potential, modernize production in industries and sectors of the economy, its technical and technological renewal, and the constant introduction of modern technologies and innovations.

**Key words:** poverty, destitution, poverty level, economic development, scientific potential, economy, industry, sector, production.

Дунёнинг турли минтақаларида содир бўлаётган урушлар, ҳарбий тўқнашувлар, табиат ҳодисалари мамлакат иқтисодиётига ўз таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Ушбу ҳодисалар таъсирида бутун дунёда ижтимоий-иқтисодий қолоқлик ва мамлакатлар аҳолисининг қошшоқлик даражасини ортишига юзга келади.

Бугунги кунда 1,2 миллиардгача киши очарчиликдан азият чекаётган бўлса, 1,7 миллиарддан ортиқ аҳолининг ўртача умр кўриши ёши 60 ёшга етмайди, 1,5 миллиарддан ортиқ кишиларнинг тиббий хизматлардан фойдаланиш имконияти умуман йўқ, шу билан биргаликда 1 миллиардан ортиқ одамлар ўта камбағал турмуш кечирмоқда, 200 миллиондан ортиқ бола мактаб таълимини олмаётган бўлса, жаҳонда 800 миллиондан зиёд инсонлар умуман саводсиз, улар ўқиш ва ёзишни билмайди<sup>1</sup>.

Юқоридаги ҳисоб – китобларни ва бутун дунё мамлакатларида яшаш нархидаги фарқларни ҳисобга олган ҳолда, халқаро таққослашларни ўтказиш учун **“камбағалликнинг халқаро кўрсаткичи”** усулини ишлаб чиқиш ва ундан фойдаланиш самарали ҳисобланади.

Жаҳон банки **“камбағалликнинг халқаро кўрсаткичи”** тушунчасини янада тушунарли тарзда тўлдириб, даромадлар бўйича камбағаллик таснифини киритди. Бу ҳолда асосий ёндашув бир хил бўлади - фуқароларнинг даромад даражаси тўртта гуруҳдан бирига кирадиган мамлакатларда камбағаллик миллий чегарасининг қийматига асосланади:

кам даромадли мамлакатлар (йилига бир кишига 1035 доллар ёки ундан кам);

✓ паст-ўрта даромад (йилига 1036-4045 доллар);

✓ ўрта-юқори даромад (йилига 4046-12535 доллар);

✓ юқори даромад (йилига 12 536 доллар ёки ундан кўп).

Натижада, ўртача паст даромадли мамлакатлар, шу жумладан, Ўзбекистон учун камбағаллик чегараси бир кишига кунига 3,2 АҚШ доллари, юқори ўртача даромадли мамлакатлар учун эса кунига бир киши учун 5,50 АҚШ доллари этиб белгиланди. Барча қийматлар PPP ни ҳисобга

1 <http://geografiya.uz/10-sinf-geografiya/11309-insoniyatning-global-muammolari.html>



олган ҳолда ҳисобланади<sup>1</sup>.

Халқаро тартибот оқибатларини олдиндан башорат қилиш қийин бўлган шиддатли трансформация жараёни ҳамда жаҳондаги геосиёсий вазиятларнинг мамлакатимизга бевосита таъсир кўрсатаётган мана шундай мураккаб бир пайтда давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг олиб бораётган сиёсатига бутун дунё диққатини қаратмоқда десак муболаға бўлмайди. Таъкидлаш жоиз, давлатимиз раҳбари томонидан ташқи сиёсатдаги бош устувор йўналиш Марказий Осиё давлатлари ўртасида тинчлик, барқарорлик, хавфсизлик муҳитини яратиш, иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш масалалари бош бўғинни ташкил қилади. Бундан буён камбағалликни қисқартириш умуммиллий ҳаракатга айланади. Ҳукуматдан тортиб, туман ташкилотигача барча бўғиндаги раҳбарларнинг кундалик иши оилаларни камбағалликдан олиб чиқиш бўлиши керак. Бу борада назорат ҳам, сўров ҳам қаттиқ бўлади, – деди мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев<sup>2</sup>.

Мамлакатимиздаги аксарият миллий ўлчовлар ҳар ойда амалга оширилади ва кўпинча уй хўжаликлари ёки оилаларга тегишли бўлиб, одатда кунига бир киши учун қийматларни ҳисоблаш амалиёти қўлланилмайди.

Камбағаллик бу йўналишни қисқартириш ва унга қарши курашиш мамлакатимизда 2020 йилда бошланди. Изланишлар ва кузатишлар натижасида 7,5 миллион ёки 23 фоиз аҳолининг даромади камбағаллик чегарасига етмасди. Утган йиллар сарҳисоби ҳамда 3,5 миллион одамни даромадли қилиш натижасида, 2023 йил якунига келиб камбағаллик даражаси 11 фоизга камайишига эришилди<sup>3</sup>.

Камбағаллик даражасини камайтириш учун аввало мамлакатимизда барқарор иқтисодий ривожланишга эришиш муҳим аҳамият касб этади, бунда илмий салоҳияти юқори бўлган кадрларни етиштириш, иқтисодиётнинг тармоқлари ва соҳаларида ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, доимий равишда замонавий технологиялар ҳамда инновацияларни жорий этиш талаб қилинади.

Камбағалликни қисқартириш орқали иқтисодий барқарор ривожланишга эришиш учун бугунги бозор шароитида кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш тармоқларни кўпайтириш муҳим аҳамият касб этади. Хўжалик юритувчи субъектлар томонидан ижтимоий–иқтисодий фаолиятини тўлиқ таъминлашлари учун етарлича маблағга эга бўлишлари ҳамда ушбу маблағдан самарали фойдаланишлари билан биргаликда бозор ўзгаришларига мослаша олиш қобилиятларини шакллантириб бориш талаб этилади.

Шу нуқтаи назардан миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантириш кўп жиҳатдан иқтисодиётни бозор шароитида бошқариш ва унинг йўналишлари ҳамда соҳаларини техник ва технологик жиҳатдан янгилаш, юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини барпо этиш, ер ва бошқа ресурслардан унумли фойдаланиш бўйича қулай шарт-шароитларни яратиш билан бевосита боғлиқ. Шу боис, мамлакатимизда иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши учун унинг тармоқлари родини, айниқса юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш салоҳиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоғи зарур.

Ҳозирги иқтисодий қийинчиликлар кооперация ва интеграцияни такомиллаштирган ҳолда шакллантириш заруриятини кетириб чиқармоқда. Булар, авваламбор, баҳолар диспаритети (баҳолар номутаносиблиги) ва солиққа тортишнинг мураккаб тизими, маҳсулотларни сотишда ва ишлаб чиқариш ресурсларини харид қилишда муккамал алоқаларнинг йўқлиги, қишлоқда мулкчилик ва ер муносабатларининг ўзгариши, шаҳар марказларидан 70-80 км узоқликда жойлашган чекка ҳудудлар аҳолисининг камбағал (ишсиз) қатлами билан иқтисодий фаолиятни самарасиз бошқариш тизими, бозорнинг шаклланиши билан боғлиқ кескин зиддиятлардир. Ишлаб чиқарувчи, қайта ишловчи, хизмат кўрсатувчи ва бошқа корхоналар моддий манфаатлари бевосита қуйи мажмуа якуний натижа билан эмас балки ўз фаолияти натижаси билан боғлиқлиги ўзаро иқтисодий манфаатли алоқаларни йўлга қўйилишидаги жиддий тўсиқлардан биридир.

1 Ўша жойда

2 Камбағалликни қисқартириш умуммиллий ҳаракатга айланади

3 Ўша жойда





### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда ПФ-60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПК-104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.
3. Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. “Зарафшон”, 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.
4. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж. Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. - Т.: “Иқтисод-молия”, 2014. - 384 б.
5. Тўхлиев Н., Ўзбекистон иқтисодиёти. - Т.: Ўқитувчи, 1994 ва 1998.
6. Қувондиқов Ш.О. Хизмат соҳасида оилавий тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. Иқтисод фанлари номзоди. Дис. автореферати. Самарқанд: СамИСИ, 2008.- 23 б.



TURIZM SOHASIDA UMUMIY OVQATLANISH RESURSLARI SIFATINI  
OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI

**Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi**

*“Ipak Yo’li” turism va madaniy meros xalqaro  
universiteti mustaqil izlanuvchi*

*“Ipak Yo’li” turism va madaniy meros xalqaro  
universiteti assistent-o’qituvchisi*

amiriddinovamuslima@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatimizda bugungi kunda umumiy ovqatlanish shaxobchalarini yanada kengaytirish maqsadida chet el tajribalaridan foydalangan holda hamda xorijiy malakali mutaxassisilarning bilim va ko’nikmalari asosida hududimizda turli xil umumiy ovqatlanish shaxobchalari ochilmoqda va bu tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash asosida gastronomik turizm axborot markazlarini tashkil etish va u orqali xorijiy mamlakatlarning umumiy ovqatlanish xizmatiga qaratilgan tamoyillarning sifati va sifatini oshirishdagi ilg’or tajribalar tahlili muhim xususiyatlari ilmiy asoslantirilgan.

**Kalit so’zlar:** Gastronomik turizm, umumiy ovqatlanish shaxobchalari, umumiy ovqatlanish shaxobchalari turlari, xorijiy frenchayzlar, samaradorlik usullari va tahlili.

**Аннотация:** Статья представляет собой научное исследование важных особенностей анализа передового опыта зарубежных стран с целью дальнейшего расширения количества предприятий общественного питания в нашей стране, использования зарубежного опыта, а также знаний и навыков иностранных квалифицированных специалистов. В целях поддержки этих инициатив на нашей территории открываются различные предприятия общественного питания, через них научно обосновывается создание информационных центров гастрономического туризма и через них повышение качества и стандартов услуг общественного питания в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** Гастрономический туризм, предприятия общественного питания, типы предприятий общественного питания, зарубежные франшизы, методы и анализ эффективности.

**Abstract:** The article is a scientific study of important features of the analysis of advanced experience of foreign countries with the purpose of further expansion of the number of catering establishments in our country, use of foreign experience, as well as knowledge and skills of foreign qualified specialists. In order to support these initiatives, various catering establishments are opened in our territory, through them the creation of information centers of gastronomic tourism is scientifically substantiated and through them the improvement of the quality and standards of catering services in foreign countries.

**Key words:** Gastronomic tourism, catering establishments, types of catering establishments, foreign franchises, methods and analysis of efficiency.

**Kirish:**

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish maqsadida turistlarga xizmat ko‘rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik komplekslar, mehmonxonalar, kempinglar, restoranlar, barlar, transport sohalari uchun katga mablag‘lar ajratilmoqda. Bunday sur‘atda turizmni rivojlantirish albatta umumiy ovqatlantirishni ham rivojlanishiga ta’sir etadi, chunki barcha turistlar xoh ichki turist bo‘lsin, xoh xalqaro turist bo‘lsin, bulardan qat’iy nazar restoran xo‘jaligiga yoki ovqatlantirish korxonalarini xizmatlaridan foydalanishga majbur. Aks holda insonlar ovqatlantirish uchun barcha mahsulotlarni o‘zlari bilan olib yurishi yoki uy sharoitida tayyorlab, iste’mol qilishi kerak. Ammo turistlarda bunday imkoniyatlar yo‘q, shuning uchun ham ular ovqatlantirish korxonalarini xizmatlaridan foydalanishga majburdir va anashu holatlarining mavjud bo‘lishi turizm sohasida umumiy ovqatlantirish korxonalarining uyg‘un holda rivojlanishi uchun imkon beradi.

**Adabiyotlar tahlili:**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maqsudova, M. (2015). O'qituvchi nutq madaniyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

2. Rahmonov, J. (2016). O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot. Samarqand: Xalq ta'limi nashriyoti.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNING ROLI

**Mardonova Mohigul Teshayevna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998919209120)

**Annotatsiya:** Inklyuziv ta'lim – bu har bir o'quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limning roli ayniqsa muhimdir, chunki bu davrda o'quvchilar bir-birlaridan farqli bo'lishi mumkin: ba'zilari akademik jihatdan yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, boshqalari esa maxsus ehtiyojlarga ega bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, boshlang'ich ta'lim, differensiyalangan ta'lim, maxsus ehtiyojli o'quvchilar.

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga individual tarzda o'rganishga yordam beradi va ularning o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishlariga ko'maklashadi.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi, o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning ijtimoiy, emotsional va ma'naviy rivojlanishiga ham ko'maklashishdir. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv yondashuvning samarali amalga oshirilishi uchun o'qituvchilar maxsus usullar va metodlarni qo'llashlari, shuningdek, o'quvchilarni o'zlarining turli ehtiyojlari bilan qabul qilishlari kerak. Bu nafaqat o'quvchilarni individual tarzda o'qitishga, balki jamiyatda muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari:

Har bir o'quvchining qobiliyatini rivojlantirish: Inklyuziv ta'lim o'quvchilarni o'z potensialiga erishishga yordam beradi, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish orqali o'quvchilarning mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Ijtimoiy moslashuv: O'quvchilar turli ehtiyojlar bilan o'qishlari, ijtimoiy hayotga integratsiya qilishlarini osonlashtiradi. Bu nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshiradi, balki ular bir-birini hurmat qilishni va bir-biriga yordam berishni o'rganadilar.

O'qituvchining malakasi va adaptatsiya: O'qituvchilar inklyuziv ta'limni qo'llash uchun maxsus usullarni o'zlashtirishi kerak. Bu ularning pedagogik malakasini oshirishga yordam beradi va turli sharoitlarda samarali ta'lim berishga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'limning muhim jihatlari:

Differensiyalangan yondashuv: O'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, turli darajadagi materiallar va topshiriqlarni taqdim etadilar.

Maxsus yordamchilar va resurslar: Inklyuziv ta'limda maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga yordam berish uchun qo'shimcha yordamchilar, materiallar va resurslar mavjud.

Xulosa:

Inklyuziv ta'lim orqali o'quvchilar bir-birlaridan o'rganishadi va jamiyatda bir-biriga hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi uchun maxsus yordamchilar, resurslar va individual yondashuvlar kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodmonova, Z. (2019). Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari. Buxoro: Ta'lim nashriyoti.
2. Jumaniyazova, M. (2018). Inklyuziv ta'lim va uning boshlang'ich sinfdagi o'rni. Toshkent: Xalq ta'limi.



**О'QITUVCHINING KIYINISH MADANIYATINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI**

**Olimova Muqaddam O'rinovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998919230712)

**Annotatsiya:** O'qituvchining kiyinish madaniyati ta'lim jarayonida nafaqat uning professional imijini, balki o'quvchilarga ta'limni etkazish usulini ham shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni professionalizm, o'qituvchi imiji, madaniy me'yorlar, Shaxsiy gigiyena

O'qituvchining tashqi ko'rinishi, uning o'qituvchilik kasbiga bo'lgan hurmatini va shu bilan birga o'quvchilarni qanday tarzda qabul qilishi, ularga ta'lim berishda qanday motivatsiya yaratishi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Kiyinish madaniyati faqatgina tashqi ko'rinish bilan bog'liq emas, balki o'qituvchining nutqi, gestikulatsiyasi va umumiy muloqotiga ham ta'sir qiladi. Kiyinishda, o'qituvchi professional va madaniy ko'rinishni saqlash, o'quvchilarga yaxshi namuna bo'lishi kerak. Shuningdek, kiyimning ranglari va uslubi, o'quvchi ruhiyatiga va o'qituvchining pedagogik yondashuviga mos bo'lishi kerak.

O'qituvchining kiyinish madaniyati asosiy asoslari:

Professionalizm – O'qituvchining kiyim-kechaklari professional va o'ziga xos bo'lishi kerak. Bu o'qituvchining o'z ishiga jiddiy yondashishini va o'ziga bo'lgan hurmatni ko'rsatadi.

Madaniy me'yorlar – O'qituvchining kiyinish madaniy me'yorlarga mos bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni yetkazishda yordam beradi.

Tozaligi va tartibi – O'qituvchining kiyimlari doimo toza va tartibli bo'lishi zarur. Bu o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy gigiyena va tartib-intizomlariga rioya qilishni o'rgatadi.

Ta'lim muhitiga moslashuvchanlik – O'qituvchi kiyimni o'quvchilarning yoshiga, ta'lim shaklini va muhitiga qarab tanlashi kerak.

O'qituvchining kiyinish madaniyati faqat tashqi ko'rinish bilan bog'liq emas, balki u pedagogik yondashuvni, o'quvchilarga o'zlarining ta'lim jarayoniga bo'lgan hurmatini va jiddiy munosabatini aks ettiradi. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining tashqi ko'rinishi o'quvchilarga o'qituvchiga bo'lgan hurmatni oshiradi. Kiyinish madaniyati o'qituvchining professional imijini shakllantiradi. To'g'ri kiyimlar o'qituvchining kasbiy malakasi va bilimlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. O'qituvchining kiyimi o'quvchilarni nazorat qilish va motivatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Kiyinish orqali o'qituvchi o'quvchilarga o'zini namuna sifatida ko'rsatadi va ular uchun ta'lim muhitini ijobiy qilib yaratadi. Kiyinish madaniyati pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'qitish samaradorligini va o'quvchilar bilan samarali aloqani ta'minlaydi.

Xulosa:

O'qituvchining kiyinish madaniyati ta'lim muhitida o'quvchilarga axloqiy va madaniy tarbiya beradi. Kiyinishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish o'quvchilarga ham ijobiy namuna bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodmonova, Z. (2018). O'qituvchining tashqi ko'rinishi va uning ta'limdagi o'rni. Buxoro: Ta'lim.

2. Jumaniyazova, M. (2019). Pedagogik madaniyat va kiyinish. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA QO'LLASH  
IMKONIYATLARI

**Rajabova Fotima Amonovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998906133972)

Annotatsiya:

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'quv jarayonini interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilarning individual qobiliyatlari rivojlanadi, darslar esa zamon talablari darajasida tashkil etiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, interaktiv dars, o'quv ilovalari, ta'lim innovatsiyalari, raqamli savodxonlik

Zamonaviy ta'lim jarayoni texnologik yutuqlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish dolzarb masalaga aylangan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning tafakkurini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib, bu jarayonda interaktiv va innovatsion uslublardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar – bu o'qitish jarayoniga kompyuterlar, planshetlar, elektron doskalar, interaktiv ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan dasturlarni jalb qilishdir. Ularning qo'llanilishi dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Quyidagi imkoniyatlarni ajratish mumkin:

Interaktiv darslar: Elektron doskalar va multimediali darslar orqali bolalarning diqqatini uzoqroq vaqt davomida ushlab turish mumkin.

Individual yondashuv: Har bir o'quvchining bilim darajasiga qarab mashqlarni moslashtirish imkoniyati.

O'yinli o'qitish: O'quv ilovalari orqali bolalar bilimni o'yinga singdirilgan holda egallaydilar.

Baholashda qulaylik: Onlayn testlar, avtomatik baholash tizimlari orqali o'qituvchi vaqtini tejaydi.

Masofaviy ta'lim: Xastalik yoki boshqa sabablarga ko'ra maktabga bora olmagan o'quvchilar uchun ta'limni uzluksiz davom ettirish imkoniyati.

Xulosa:

Raqamli texnologiyalar boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu vositalardan to'g'ri va samarali foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilimga qiziqishi va darsga bo'lgan faolligi sezilarli darajada oshadi. Asosiy vazifa – ularni puxta reja asosida va metodik yondashuv bilan ta'limga joriy qilishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedova G.T. "Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", Toshkent, 2020.
2. Karimov A. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi", O'zbekiston nashriyoti, 2021.
3. Navoiy viloyat pedagogika instituti ilmiy jurnali, 2022-yil, 3-son.
4. UNESCO. "ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications". 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi me'yoriy hujjatlari (www.maktab.uz)





**Ravshanova Nilufar Suvonovna**  
Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
4-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi  
(+998919739750)

**Annotatsiya:** Boshlang`ich ta`limda ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish o`quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Maktab va oilaning hamjihatligi bolalarning bilim olishga bo`lgan munosabatini, tarbiyasini va ijtimoiy ko`nikmalarini mustahkamlaydi.

**Kalit so`zlar:** Boshlang`ich ta`lim, ota-onalar bilan hamkorlik, pedagogik muloqot, oilaviy tarbiya, o`qituvchi va ota-ona aloqasi

Boshlang`ich sinf o`quvchisi uchun eng yaqin tarbiya muhitlari bu — maktab va oila hisoblanadi. O`quvchining muvaffaqiyati ko`p jihatdan ota-onalar va o`qituvchilar o`rtasidagi hamkorlik darajasiga bog`liq. Zamonaviy ta`limda bu aloqa nafaqat majburiy, balki zaruriy shart sifatida qaralmoqda.

1. Hamkorlikning ahamiyati Ota-onalar bilan samarali muloqot o`quvchining maktabdagi holati, bilim darajasi, psixologik muammolari va ijtimoiy munosabatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa o`qituvchiga har bir bolaning individualligini inobatga olib yondashish imkonini beradi.

2. Samarali hamkorlik shakllari:

Davra suhbatlari va sinf yig`ilishlari: Ota-onalarning fikrini eshitish, maslahatlashish.

Shaxsiy suhbatlar: Bolaning individual holatlarini muhokama qilish.

Elektron aloqa vositalari: Telegram, ClassDojo, Google Forms orqali ota-onalarni xabardor qilish.

Uyga vazifalarni nazorat qilishda birgalik: Uyda ota-onalarning pedagogik yordam ko`rsatishi.

Ota-onalarni ta`limiy jarayonga jalb qilish: Sinfdan tashqari tadbirlarda faol qatnashishlarini ta`minlash.

3. Ota-onalar bilan ishlashdagi muammolar

Ayrim ota-onalarning befarqligi yoki vaqt yo`qligi

Maktabga nisbatan ishonch pastligi

Raqamli texnologiyalarni bilmaslik

4. Taklif va tavsiyalar

O`quv yili boshida ota-onalar bilan hamkorlik rejasi tuzish

Har oyda bir marta “Ota-onalar kuni”ni tashkil etish

Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik maslahatlar berish

Ta`limdagi yutuqlarni ijtimoiy tarmoqlarda e`lon qilish orqali ishonchni oshirish

Xulosa: Ota-onalar bilan samarali hamkorlik boshlang`ich sinf o`quvchisining ta`limiy va tarbiyaviy muvaffaqiyatini ta`minlaydi. O`qituvchi bu jarayonning tashkilotchisi bo`lib, har ikki tomon ishonchli, ochiq va doimiy muloqotda bo`lishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Raximova D.A. “Ota-onalar bilan ishlash metodikasi”, Toshkent, 2021.

2. Jo`raev Sh., Karimova M. “Boshlang`ich ta`lim psixologiyasi”



О‘QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH: BOSHLANG‘ICH BOSQICH TAJRIBALARI

**Raximova Feruza Kamolovna**

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani  
4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
(+998904128662)

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta‘lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, bu jarayon boshlang‘ich sinf davrida boshlanganida, bola shaxsining keyingi rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta‘lim, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyat, interaktiv metod, o‘quvchi faoliyati, kreativ yondashuv, refleksiya.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi tajribalardan foydalanish mumkin: Muammoli vaziyatlar asosida dars tashkil etish: O‘quvchilarga turli savollar, masalalar yoki hayotiy vaziyatlar asosida mustaqil yechim topish vazifasi beriladi.

Savol-javoblar orqali ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish: Har bir darsda “nima uchun?”, “agar... bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollarni berish orqali tahlil qilish va taxmin yuritish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Kichik guruhlarda ishlash: Jamoaviy muhokamalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bildirishga va boshqalarnikini tinglashga o‘rganadilar.

O‘quv kundaliklari yoki refleksiya daftarlari: Har bir darsdan so‘ng o‘quvchidan “bugun men nima o‘rgandim?” kabi savollarga javob yozish talab qilinadi. Bu ularning darsni anglashini va o‘z fikrini ifoda etishini rivojlantiradi.

Didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlar: O‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali bolalar mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining psixologik xususiyatlari

6-10 yoshli bolalarda qiziqish, yangilikka ishtiyoq kuchli bo‘ladi.

Ular o‘yin orqali bilimlarni o‘zlashtirishga moyil.

Bu yoshdagi bolalar tashqi motivatsiyaga tayanadi (o‘qituvchi maqtovi, baho, rag‘bat).

Mustaqil fikrlash hali to‘liq shakllanmagan, ammo asoslarini qo‘yish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi.

Xulosa:

Boshlang‘ich sinfda mustaqil fikrlashni rivojlantirish bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida, keyingi sinf bosqichlaridagi muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar bu borada zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
- G‘ofurov K., G‘anieva M. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi”. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
- 2.Hasanboyeva O. “Ta‘limda interaktiv metodlar”. – T.: O‘qituvchi, 2016.
- Vygotsky L.S. “Psixologiya va ta‘lim”. – M.: Pedagogika, 1986.
- 3.Qodirov A. “Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish”. – T.: Innovatsiya, 2020.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ROLLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Sharapova Gulshanda Sharifovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998913344809)

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimni faqat eslab qolish emas, balki uni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, rolli o'yinlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

**Kalit so'zlar:** Rolli o'yin, boshlang'ich ta'lim, faol ta'lim usullari, ijtimoiylashuv, muloqot ko'nikmalari, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash, o'yin orqali o'rganish, dars jarayonida o'yin, metodik yondashuv, bolalar psixologiyasi

Bugungi kunda ta'limda innovatsion metodlardan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini jonlantirish va bolalarni faol ishtirok etishga undashda rolli o'yinlar muhim o'rin tutadi. Bu o'yinlar nafaqat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, balki ularning ijtimoiylashuvi, muloqotga kirishishi, o'z fikrini bayon qila olishi kabi ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Rolli o'yinlar — bu o'quvchilarning muayyan rolda ishtirok etib, voqea yoki holatni ifodalovchi faoliyatidir. Masalan, “do'konchi va xaridor”, “shifokor va bemor”, “muallim va o'quvchi” kabi ssenariylar orqali bolalar hayotiy vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'radilar. Bu o'yinlar orqali ular yangi so'zlarni tezroq o'zlashtiradi, nutqi ravonlashadi, o'z fikrini mantiqan ifodalay boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun rolli o'yinlarning foydasi:

1. Ijodiy fikrlash: Har bir bola rolli o'yin orqali mustaqil qarorlar qabul qilishni, o'z harakatlarini boshqalarnikiga moslashtirishni o'rganadi.

2. Muloqot ko'nikmalari: O'yin davomida bolalar bir-biri bilan so'zlashishga, fikr almashishga majbur bo'ladi, bu esa ularning ijtimoiylashuvini kuchaytiradi.

3. Psixologik rivojlanish: Bola o'zini boshqa biron rolda tasavvur qilganida empatiya hissi, boshqalarni tushunish qobiliyati shakllanadi.

4. Darsga qiziqish: Oddiy darsdan farqli ravishda, rolli o'yinlar bilan boyitilgan dars bolalar uchun qiziqarli va esda qolarli bo'ladi.

Rolli o'yinlar boshlang'ich sinfda dars jarayonida, darsdan keyingi mashg'ulotlarda yoki erkin suhbat vaqtida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, ona tili darslarida hikoyani sahnalashtirish, ingliz tilida kundalik hayotdagi muloqotlarni rollar orqali ijro etish, texnologiya yoki hayotiy bilimlar darslarida esa kasblar haqida rolli taqdimotlar qilish mumkin. Rolli o'yinlar boshlang'ich sinflar uchun ta'lim jarayonini yanada jonli, samarali va ta'sirchan qiladi. Ular orqali bolalar nafaqat bilim oladi, balki o'zini erkin ifodalash, jamoa bilan ishlash, vaziyatga mos fikrlash kabi ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar. Shu bois, pedagoglar o'z darslarida rolli o'yinlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa: O'yinlar orqali o'quvchilarda ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini ko'rsatish. Rolli o'yinlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev Q. – Didaktika asoslari, Toshkent: “O'qituvchi”, 2020.

2. Karimova N. – Boshlang'ich ta'lim metodikasi, Toshkent: “Fan”, 2019.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FAN DARSLARINI QIZIQARLI TASHKIL ETISH**

**Sharopova Zuxro Sharifovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998916460876)

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'lim bosqichi — o'quvchilarda hayotga, atrof-muhitga bo'lgan qiziqish, kuzatish, tahlil qilish va izlanish ko'nikmalari shakllanadigan muhim davrdir. Ayniqsa, tabiiy fan darslari orqali bolalar tabiat hodisalarini tushunadi, o'ziga savollar beradi va sabab-oqibat munosabatlarini o'rganadi. Shu bois bu fanni qiziqarli va o'quvchining yoshiga mos tarzda o'qitish zarur.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fan, boshlang'ich ta'lim, qiziqarli dars, interfaol metodlar, o'quvchi faolligi, tajriba faolligi

1. Qiziqarli dars — samarali ta'lim garovi

Tabiiy fanlar ko'proq nazariy tushunchalardan iborat bo'lgani sababli, yosh o'quvchilar uchun uni jonli misollar, tajribalar va o'yinlar bilan boyitish muhim. Darsda amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari, kichik guruhlar bilan ishlash, savol-javoblar, mantiqiy o'yinlar bolalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

2. Interfaol usullarning o'rni

Zamonaviy darsda “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Insert”, “Klaster”, “Kim tez?” kabi metodlar yordamida o'quvchilar faollashtiriladi. O'quvchi faqat tinglovchi emas, balki o'rganuvchi, topuvchi va ijodkorga aylanishi kerak. Masalan, “Suvning xossalari” mavzusida oddiy tajriba o'tkazish orqali bolalar ilmiy kuzatishni o'zlari amalga oshiradi.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Multimediali darslar, animatsiyalar, videoroliklar bolalarning e'tiborini jalb qiladi. Vizual materiallar orqali murakkab biologik yoki fizik hodisalar soddaroq qabul qilinadi. Elektron darsliklar, interaktiv doskalar yordamida dars jarayoni yanada jonli o'tadi.

4. Tabiiy fan darslarida ekskursiyalar va loyihalar

Tabiiy fanlarni atrof-muhit bilan bog'lash — eng samarali yondashuvlardan biridir. Maktab bog'iga, yaqin park yoki suv havzasiga ekskursiyalar tashkil etish, oddiy kuzatuvlar va loyiha ishlarini bajarish bolalarda fanlarga nisbatan real hayotiy qiziqishni uyg'otadi. Tabiiy fanlar — o'quvchilarda atrof-muhitni anglash, kuzatish, fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy fanlardan biridir. Ammo yosh o'quvchilar uchun bu mavzularni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish o'qituvchidan metodik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarga qiziqish uyg'otish va darsni samarali tashkil etishning innovatsion usullarini o'rganish.

Xulosa:

Tabiiy fan darslarini qiziqarli tashkil etish orqali o'quvchilarda nafaqat fanga mehr, balki hayotiy tafakkur, izlanish, kuzatish, muammoga yechim topish kabi ko'nikmalar shakllanadi. O'qituvchi darsni bolalarning yoshi, qiziqishi va qabul qilish darajasini hisobga olib rejalashtirsa, natija ham samarali bo'ladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nishonova S.N. – Zamonaviy dars va interfaol metodlar, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.
2. Yo'ldoshev Q. – Didaktika asoslari, Toshkent: “O'qituvchi”, 2020.
3. Karimova N. – Boshlang'ich ta'lim metodikasi, Toshkent: “Fan”, 2019.



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHNING KOMMUNIKATSIYA VA  
MULOQOTDA SAMARALI YONDOSHUVLARI**

**Tolibova Nazira Tolibovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998907457395)

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun kommunikatsiya va muloqotning ahamiyati katta. O'qituvchining o'quvchilari bilan to'g'ri va samarali aloqasi, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'limda kommunikatsiya nafaqat ma'lumot berish, balki o'quvchilar bilan muloqot qurish, ularning fikrlarini tinglash va ularning hissiy holatini tushunish imkoniyatini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Kommunikatsiya, muloqot, pedagogic muloqot, noverbal muloqot, empatiya, guruhli ish.

O'qituvchining kommunikatsiya ko'nikmalari, o'quvchilarning o'zlarini ifoda etishiga, muammolarni hal qilishga, o'zaro yordamga va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Muloqot orqali o'qituvchi o'quvchilarni yaxshiroq tushunishga va o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin va aniq ifoda etishga imkon yaratadi. Samarali muloqot orqali o'qituvchi o'quvchilarga qanday tarzda ta'lim berish kerakligini, qanday usullar va yondashuvlarni qo'llashni aniq belgilaydi.

Kommunikatsiyaning samarali yondoshuvlari:

Ochig'lik va aniq ifoda: O'qituvchi o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va sodda tarzda etkazish kerak. Ularning savollariga to'liq javob berish va o'quvchilarning fikrlarini eshitish zarur.

O'quvchilarga tinglash va e'tibor berish: Samarali muloqot o'quvchilarni tinglashni o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, savollar berishlari va muammolarni muhokama qilishlari kerak. O'qituvchining ularga e'tibor berishi o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Non-verbal muloqot: Tana tili, yuz ifodalari va qo'l harakatlari o'qituvchining xabarini mustahkamlaydi. O'qituvchining tana tili o'quvchilarga o'zlarini qulay va ishonchli his qilishlariga yordam beradi.

Ijobiy motivatsiya: O'qituvchining so'zlari va harakatlari ijobiy bo'lishi kerak. O'quvchilarga ularning muvaffaqiyatlari va yutuqlari haqida ijobiy fikr bildirish, ularning rivojlanishiga turtki beradi.

Empatiya va hissiy aloqalar: O'qituvchining o'quvchilarning hissiy holatini tushunishi va ularga yordam berishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiyatini va emotsional ehtiyojlarini hisobga olib, ularga qulay ta'lim muhitini yaratadi.

Fikr almashish va hamkorlik: O'quvchilarni guruhlarga ajratib, bir-biri bilan fikr almashish va hamkorlik qilishni rag'batlantirish. Bu metod nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki jamoaviy ish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa:

Kommunikatsiya va muloqotda samarali yondoshuvlar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Samarali kommunikatsiya o'qituvchining o'quvchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maqsudova, M. (2018). Boshlang'ich ta'limda kommunikatsiya va muloqotning o'rnini. Buxoro: Ta'lim nashriyoti.

2. Jumaniyazova, M. (2017). Pedagogik kommunikatsiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ma'naviyat.





QO'RQUVNING PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY VA MADANIY ASOSLARI: TA'SIRI VA BOSHQARISH YO'LLARI XUSUSIYATLARI

Djumaniyazova Iroda Baxtiyorovna

Urganch tumani 19-sonli maktab

Abdullaeva Gulnora Hayitboyevna

Urganch tumani 3-sonli maktab

Telefon: +998 97 221 61 57

**Annotatsiya:** Maqolada qo'rquv hissiyotining tabiati, uning psixologik va fiziologik ta'siri, shuningdek, fobiyalar haqida so'z yuritiladi. Qo'rquv – xavf-xatarni sezish natijasida yuzaga keladigan salbiy hissiyot bo'lib, u insonning normal hayotiga ta'sir qiladi. Maqolada qo'rquvning turlari, kelib chiqish sabablari va uning ijtimoiy va psixologik jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Qo'rquv, fobiya, psixologik ta'sir, xavf-xatar, hissiyot, vegetativ reaksiyalar, emotsional holat, diqqat, ijtimoiy tahdidlar, irsiyat.

Hayot davomida ko'plab noxushliklar, dilxiraliklar va qo'rqinchli hodisalarga duch kelamiz. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun qo'rqamiz? Qo'rquv qanday hodisa va bizga qanday ta'sir qiladi? Insonlar ko'pincha xavf-xatar, muhim uchrashuvlar, nizoli vaziyatlar, muvaffaqiyatsizliklar, jamoa oldida so'zlashish yoki kutilmagan hodisalar bilan qo'rquvni his qilishadi. Qo'rquv – xavf-xatar haqidagi xabarni olgan insonning salbiy hissiyotidir. Kishi qo'rquvga berilganda, muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda his qiladi.

Qo'rquv his-tuyg'ulari stenik va astenik tusda bo'lishi mumkin, ya'ni ba'zan kuchli va ijobiy energiya beradigan, ba'zan esa tushkunlikka olib keluvchi tarzda namoyon bo'ladi. Qo'rquv, odatda, psixik jarayonlarni o'zgartiradi va sezgirlikni oshiradi yoki kamaytiradi. U fikrlash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatib, ba'zi insonlarda tezkor qaror qabul qilishga intilish, boshqalarda esa tafakkur pasayishiga olib keladi. Qo'rquv holatida adrenalini miqdori ko'payadi, natijada inson qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ko'pincha nutq buzilib, tovushda titroq paydo bo'ladi.

Diqqat jarayonida ham qo'rquv sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inson o'z diqqatini to'plashda qiyinchilikka duch keladi, ba'zan esa faqat bitta ob'ektga e'tiborini jamlaydi. P. P. Blonskiy qo'rquv va vahimani bir xil hodisa deb qaragan. A. Kempinski qo'rquvni keltirib chiqaruvchi holatlarni to'rt guruhga ajratgan: hayot uchun bevosita xavfli omillar, ijtimoiy tahdidlar, faollikni shaxsiy tanlash imkoniyatining yo'qligi va ijtimoiy muhitda yuz beradigan buzilishlar.

Qo'rquv biologik, ijtimoiy, ruhiy va dezintegratsion turlarga bo'linadi. U normal holat sifatida xavf-xatardan himoyalanişga undaydi, ammo ba'zi insonlarda noadekvat reaksiyalar va fobiyalar paydo bo'lishi mumkin. Fobiya – biror vaziyat yoki ob'ektga nisbatan asossiz qo'rquvdir. Fobiya bilan azob chekayotgan insonlar qo'rquv sababini tushunsa ham undan qutula olmaydi. Bu holat shaxsning normal hayotiga, ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fobiyalarning turlari juda ko'p, masalan, balandlikdan, yolg'iz qolishdan yoki kasallikdan qo'rqish. Hatto fobofobiya – fobiyaga duchor bo'lishdan qo'rqish ham mavjud. Fobiya paytida vegetativ nerv tizimi ikkita javob reaksiyasini ko'rsatishi mumkin: biri yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining ko'tarilishi va terining qizarishi, boshqasi esa yurak urishining sekinlashuvi kabi holatlar.

Qo'rquv yosh davrlariga qarab o'zgarib boradi. Masalan, go'dalikda begonalardan, bolalikda shifokordan qo'rqish, o'quvchilarda imtihonlardan qo'rqish kabi holatlar mavjud. Shaxsning qo'rquvga nisbatan reaksiyasi ijtimoiy muhitga, oilaga, tarbiyaga bog'liq. Fobiyalar esa ongsiz komplekslar va tarbiyadagi muammolar tufayli yuzaga keladi. Masalan, notinch oilada o'sgan bola onasining “ketish” yoki “o'lish” haqidagi gaplarini eshitgan bo'lsa, bu qo'rquv o'rgimchak yoki boshqa bir ob'ektga ko'chiriladi. Fobiyalar ko'pincha tarixiy voqealar, shaxsiy oilaviy tajribalar va oilaviy biografiyalarda yuz beradigan hodisalardan kelib chiqadi. Fobiya – patologik holat bo'lib, uni psixoterapevtik suxbatlar, tahlil yoki ijod orqali davolash mumkin.

Fobiyalar vaqtida davolanmasa, bu shaxsni nevrozga, ichkilikka yoki psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun qo'rquvni yo'qotish yoki fobiyani davolash shaxsning aqli, oilasi va jamiyat pozitsiyasiga bog'liqdir. Har bir insonning ruhi shaxsiy va sirli bo'lib, unga alohida yondashuv talab etiladi.

Qo'rquv va uning tasiri ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir jamiyatda qo'rquvni anglash va unga nisbatan munosabat farqlidir. Masalan, ba'zi madaniyatlarda qo'rquv odatiy holat sifatida qaralib, uning yuzaga kelishi tabiiy va zarur deb hisoblanadi. Boshqa



madaniyatlarda esa qo'rquvni yengish, mustahkam ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ko'proq rivojlangan.

Sotsial qo'rquvlar ham juda muhimdir. Jamiyatdagi ijtimoiy nizo yoki jamoaviy qabul qilish muammolari ba'zi kishilarda xavotir va qo'rquvni kuchaytirishi mumkin. Masalan, notanish muhitda odamlar o'zlarini xavf ostida sezishlari mumkin, bu esa ularning ijtimoiy aloqalarini susaytirishi yoki hatto ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Bunday qo'rquvlar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, ular o'zlarini boshqalar tomonidan qabul qilinishidan xavotir olishadi va bu ko'pincha yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularni o'zlarini izolyatsiya qilishga, o'z xohish-istaklariga qarshi harakat qilishga undaydi.

Shunday qilib, qo'rquv – bu faqat insonning shaxsiy his-tuyg'usi emas, balki ijtimoiy, madaniy va biologik omillarga ham bog'liq bo'lgan murakkab hodisadir. U hayotimizni turli shakllarda ta'sir qiladi, lekin uning shaxsiyatimiz va faoliyatimizga qanday ta'sir qilishini tushunish, uning oldini olish yoki uni boshqarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.



АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

UDK 72.03

ZURMALA STUPASINING ME'MORIY YECHIMI

**Abdiraxmonova Maxfuza Nodir qizi**  
Mustaqil tadqiqotchi (PhD),  
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat  
arxitektura-qurilish universiteti

Milodiy II asr boshlarida Kushon podsholigi o'zining eng yuqori cho'qqisiga Kanishka I boshqaruvi ostida erishgan. Ushbu ulug' podshoh nafaqat davlatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlagan, balki uning madaniy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shgan. Aynan Kanishka davrida To'rtinchi Buddaviylar Kengashi o'tkazilib, unda buyuk donishmand Nagarjuna Mahayana ta'limotining asoslarini yaratgan. Mahayana, avvalgi buddaviy ta'limotlardan farqli o'laroq, faqatgina faylasuflar va rohiblar uchun emas, balki oddiy odamlarga ham murojaat qilib, ularga odobli hayot kechirish va ezgu amallar qilish yo'lini ko'rsatgan. Bu buddaviylikning keng omma orasida tushunarli va qabul qilinadigan bo'lishiga olib kelgan va Markaziy Osiyoning katta hududlariga tez tarqalishiga sabab bo'lgan. Shu tufayli, turli mintaqalarda dehqonlardan tortib savdogarlargacha barcha uchun ochiq bo'lgan yo'l bo'yidagi ibodatxonalar qurila boshlangan.

Ushbu davrning muhim yodgorliklaridan biri Zurmala stupasi Termizdagi me'moriy yodgorlik (miloddan avvalgi II asr) Kushonlar davriga oid budda inshooti. A. Strelkov uni stupa deb hisoblagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida, Zurmalaning balandligi 14,5 m gacha bo'lgan. Asosi to'g'ri to'rtburchak tarhli (22 x 16 m), silindrsimon minora shaklida xom g'ishtdan qurilgan, tepasiga qubba — gumbaz ishlangan, oqish ohaqtosh bilan qoplangan, asosida bo'rtma gorelef haykallar bo'lgan. Toshtaxtalar hamda taroshlangan bo'lak parchalari ko'plab topilishi Zurmalani tashqaridan ham tosh bilan qoplangan deb taxmin qilinadi. [1]. Zurmalaning umumiy silueti juda yaxshi to'g'ridan-to'g'ri platformada joylashgan. Afg'onistondagi Hadda stupalariga o'xshaydi. [4].



Stupaning vazifasi quyidagilardan iborat bo'lgan:

- Buddizmning asosiy ramzi sifatida xizmat qilgan;
- Buddaviy marosimlarini (stupa atrofida aylanish) o'tkazish uchun ishlatilgan;
- Muqaddas qoldiqlarni saqlash uchun mo'ljallangan.



1-rasm. Zurmala stupasi. Bugungi kundagi holati

Zurmala stupasi o'zining do'mboq shakli bilan dafn tepaligiga o'xshaydi va tiriklar uchun hayotning o'tkinchiligi haqida eslatma bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, u Buddaning vafoti va uning dafn etilishini ramziy ifoda etadi. Buddaning vafotidan keyingi dastlabki yillarda stupalar o'ziga xos ibodatxonalarga aylangan. Ularning ichida kub shaklidagi qutida Buddaning soch tolasi, kiyimining bir parchasi yoki muqaddas qoldiqlari saqlangan.



2-rasm. Zurmala stupasi. G. Pugachenkova bo'yicha

3-rasm. Zurmala stupasi. A. O'lmasov bo'yicha

Zurmala stupasi to'g'ri to'rtburchak shakldagi asosdan (22x16 m) va uning asosiy qismi bo'lgan 14,5 metr diametrli silindrdan iborat bo'lgan. Binoda ibodat qiluvchilarni aylanish marosimi uchun asosiy platformaga olib boruvchi zinapoya bo'lgan. Shuningdek, g'ishtdan qurilgan konstruksiyaning dumaloq tugallanmasiga o'tishi aniq ko'ringan. Arxeologlarning tadqiqotlariga ko'ra, stupaning asosi mergelli ohaktosh bilan qoplangan, bezak uchun esa pishirilgan g'isht ishlatilgan.

Zurmalaning atrofida biron bir inshoot bo'lganmi-yo'qmi, hulosa qilish qiyin. Chunki ilgari o'tkazilgan ba'zi tadqiqot ishlarini hisobga olmaganda, har qanday qurilish turi aniqlanmagan. Paxta maydonini kengaytirish uchun qo'shimcha yerlar o'zlashtirilish ishlari stupa atrofidagi madaniy qatlamlardan mahrum qilgan. Ammo, an'anaviy ravishda, stupalar yonida monastir yoki rohiblar xujralari va yordamchi-iqtisodiy binolar bo'lgan bo'lishi mumkin. Olingan kuzatishlar natijasiga ko'ra, Zurmala stupasining asl qiyofasini balandligi 16 m bo'lgan monumental inshoot shaklida tiklashga imkon bergan. [5].

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд, Тошкент.: 2002. 46-бет.
2. Турсунов С., Пардаев Т., Пайғамов А., Нарзуллаева Н. Сурхон воҳаси моддий маданияти тарихи Т.: 2013
3. Termiz — Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar, T.: 2001
4. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Т.: 1990. – С. 95.
5. Ulmasov A. Reconstruction of the Zurmala Buddhist Stupa in Termez, Uzbekistan. IJISSET - International Journal of Innovative Science, Engineering & Technology, Vol. 5 Issue 5, May 2018 Page 95.
6. <https://www.centralasia-travel.com>





ТО'QIMACHILIK MAXSULOTLARINI QAYTA ISHLASHNING EKOLOGIK SAMARADORLIGI

Jo'raqulova Shaxnoza Abdurazzoq qizi

Renessans ta'lim universiteti

Matematika va iqtisod fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

assistant o'qituvchisi

Телефон: +998908116669

shanuzka96@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada qayta ishlash (Recycling) - zamonaviy dunyoda mashhur bo'lib kelayotgan atama haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Har kuni biz ekologiyamizga zarar yetkazadigan ko'plab to'qimachilik maxsulotlarini tashlaymiz. To'qimachilik maxsulotlari chiqindilarini qayta ishlash orqali vaziyatdan chiqish yo'llari haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** qayta ishlash, qayta ishlatish, foydalanish, to'qimachilik, chiqindilar, ekologiya, material, resurs, polietilen tereftalat, kiyim-kechak, tezkor moda, maxsulot, to'qish, ishlab chiqarish, brend.

Recycling- ingliz tilidan “qayta ishlash” deb tarjima qilinadi. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun chiqindilar yig'iladi va qayta ishlanadi.

Shu orqali yangi maxsulotlarni yaratish uchun yangi materiallar olinadi. Yevropa mamlakatlari tobora chiqindilarni yoqish va ko'mishdan bosh tortishni boshladilar, buning o'rniga qayta ishlashni afzal ko'rishmoqda. Biz hammamiz ekologiyamiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladigan katta miqdordagi resurslardan foydalanamiz va bizning garderoblarimiz bundan mustasno emas. Aslida tashlab yuborilgan kiyimlarning 95% gacha qayta ishlanish mumkin edi. To'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash (recycling) eski kiyim va boshqa to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlatishga imkon beruvchi jarayonni anglatadi [1].

Hozirgi vaqtda ishlatilgan to'qimachilikning atigi 1 % qayta ishlangan bo'lsa-da, qayta ishlash tendentsiyasi tezlashishi kutilmoqda va rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan eng yaxshi texnologiyalar, yechimlar va moda kiyimlarini ixtiro qilish ustunlikka ega bo'lmoqda.

To'qimachilikni qayta ishlash jarayoni materiallarni turiga qarab saralashni o'z ichiga oladi va bu matoni qayta bo'yash zarurligini kamaytiradi, shu bilan energiya, suvni tejaydi va ekologiya ifloslanishidan saqlaydi. Keyingi o'rinda to'qimachilik matolari tolalarga ajratiladi yoki maydalanadi va ba'zida tolalarni ishlatilishiga qarab boshqa tolalar bilan aralashtiriladi. Tolalar tozalanadi, jarayonda aralashtiriladi, qayta o'raladi va keyinchalik to'qish yoki o'rish uchun foydalanishga tayyorlanadi.

Umuman olganda, Yevropada yig'ilgan iste'moldan chiqqan to'qimachilik kiyimlarining 50% takroran ishlatiladi (masalan, boshqa mamlakatlarga eksport va xayriya qilinadi) va taxminan 50% qayta ishlashga yuboriladi. Shu qayta ishlashga yuborilgan iste'moldan chiqqan to'qimachilik kiyimlarining atigi 1% ga yangi kiyimlarga aylantiriladi. Xayriya qilingan kiyimlarning taxminan 35% sanoat lattalariga aylanadi. Oxir-oqibat, iste'molga yaroqsiz kiyimlarining atigi 15% qayta ishlanib, iste'molga yaroqli kiyimlarning 75% dan ortig'i ishlab chiqaruvchilar tomonidan qayta ishlanadi. Bu har yili 100 milliard AQSh dollaridan ortiq materiallarning yo'qolishini va to'qimachilik chiqindilarini olib tashlashning yuqori xarajatlari bilan kuchayadi [2, b.56].

Chet el bozorida takror ishlatish ko'proq mashhur. Balenciaga, Marni kabi brendlar turli xil materiallarni qayta ishlatish bilan tajriba o'tkazmoqda. 2020 yil oktyabr oyida taniqli Miu Miu brendi Upcycled to'plamini — antiqa kiyimlardan tikilgan 80ta libosdan iborat eksklyuziv kapsulani taqdim etdi (1-rasm) [3].






**1-rasm: Miu Miu brendi Upcycled to‘plamidan namunalar;**

Chet el bozorida takror ishlatish ko‘proq mashxur. Balenciaga, Marni kabi brendlar turli xil materiallarni qayta ishlatish bilan tajriba o‘tkazmoqda. 2020 yil oktyabr oyida taniqli Miu Miu brendi Upcycled to‘plamini — antiqa kiyimlardan tikilgan 80ta libosdan iborat eksklyuziv kapsulani taqdim etdi (1-rasm) [3].

Dunyo bo‘ylab har yili qariyb 150 million tonna kiyim va poyabzal sotiladi. Iste‘moldan so‘ng, ularning 85% qayta ishlanishga qaytish o‘rniga chiqindixonalarga yuboriladi yoki yoqib yuboriladi (2-rasm).



**2-rasm: Atakama cho‘lidagi ishlatilgan kiyimlarning havodan ko‘rinishi, Alto Xospicio, Chili, 26-sentabr, 2021-yil. Martin Bernetti/AFP/Getty Images;**

Shu sababli, H&M o‘z do‘konlaridagi barcha kiyimlar 2030 yilga kelib barqaror qayta ishlash manbalaridan ishlab chiqarishni va‘da qilmoqda [1, c. 145] [4].

Keng tarqalgan birlamchi sintetika o‘rnini bosuvchi polietilen tereftalat (PET) butilkalari bo‘lib, har yili milliardlab ishlab chiqariladigan plastik butilkalarni qayta ishlash mumkin bo‘ladi. Changing Markets Foundation jamg‘armasi 50 ga yaqin moda brendlari o‘rtasida o‘tkazgan so‘rov natijasi shuni ko‘rsatdiki, moda brendlarining 85% plastik butilkalardan qayta ishlangan poliester ishlab chiqarish yo‘nalishini maqsad qilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, qayta ishlangan poliester chiqindilarni birlamchi poliesterga nisbatan 32% gacha kamaytirishi mumkin (3-rasm).


**3-rasm: Polietilen tereftalat (PET) butilkalari turlari.**

To'qimachilikda ishlab chiqarish va iste'mol hajmi jadal rivojlanmoqda. 2000 yildan 2015 yillargacha oraliqda yillik kiyim ishlab chiqarish ikki baravar ko'paygani va foydalanish (uni kiyish soni) 36% ga kamayganini ko'rsatgan. 2030 yilga borib Yevropada kiyim-kechak va poyafzallarning global iste'moli yana 63 foizga oshib, 62 million tonnadan 102 million tonnagacha o'sishi prognoz qilinmoqda [4, c.8].

Demak, aholi to'qimachilik maxsulotlari har qachongidan ham sezilarli darajada ko'proq xarid qilmoqda. Ayni paytda maxsulotlar sifatsizligi sababli tezda eskiradi yoki yaroqsiz holga keladi. Sifatning pasayishi, o'z navbatida, "tezkor moda" ning tarqalishi bilan bog'liq - mahsulot tannarxini pasaytirish va ularning miqdorini ko'paytirish orqali maksimal foyda olishga intiladigan chiziqli ishlab chiqarish turi hisoblanadi [5, c.9].

Qayta foydalanish va qayta ishlash uchun to'qimachilik mahsulotlarini yig'ish sanoatning aylanma iqtisodiyotga global o'tish jarayonining bir qismidir. Yangi yondashuvga binoan, kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilar uzoq muddatga bardoshli va keyingi qayta ishlash uchun javob beradigan maxsulotlarni ishlab chiqarishi ko'zlangan [6], [7].

Foydalanishdan keyingi barcha to'qimachilik buyumlari to'planishi, saralanishi va keyingi takror ishlatilishi yoki qayta ishlanishi va oxirgi o'rinda poligonga yuborilishi yoki yoqilishi kerak. Yig'ish infratuzilmasini rivojlantirish, qayta ishlovchilar ishini tartibga solish va to'qimachilikni qayta ishlash bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatning boshqa jihatlarini nafaqat iqtisodiy rivojlanishi, balki alohida mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda (Yevropa Ittifoqida qabul qilingan umumiy kontseptsiya bilan ham belgilanadi (4-rasm).

**4-rasm: Iqtisodiyotning chiziqli, qayta ishlash va siklik modellari.**



Qayta ishlash korxonalarining aksariyati to'qimachilikni mexanik qayta ishlash usulidan foydalanadi. Qayta ishlashning eng keng tarqalgan texnologiyalaridan biri bu tozalashda ishlatiladigan matolarni tayyorlash hisoblanib: aksessuarlar va qo'shimcha detallar olib tashlanadi, so'ng mato bo'laklari bir xil o'lchamlarda bo'linadi. Ba'zan bu ishni bajarishga maxsus uskunalar talab etiladi, lekin oddiy tikuvchilik qaychisi bilan ham ishni bajarish mumkin bo'ladi (bu faqat mahsulot sifatiga emas, faqat mehnat samaradorligiga ta'sir qiladi). Olingan mahsulotdan asosan changlar, dog' va kirlarni artish va tozalashda ishlatiladi.

To'qimachilikda qayta ishlashning mexanik usullaridan yana biri tolalarni aralashtirish va va tolalardan noto'qima matolarni ishlab chiqish hisoblanadi. Birinchi bosqichda barcha aksessuarlar va furnituralar to'qimachilik matolaridan olinadi va tozalanadi (shuning uchun foydalanilgan to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash aksessuarlarga ega bo'lmagan to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlashga qaraganda qimmatroq bo'lishi mumkin). Keyingi bosqichda mato mayda bo'laklari qolmay, yaxlit tusni olguniga qadar eziladi va aralashtiriladi. Keyingi o'rinlarda yaxlit tusni olgan tolalardan issiqlik va tovush izolyatorlari, to'qilmagan matolar va boshqa materiallar, shuningdek, ip-kalava ishlab chiqarish uchun ishlatiladi, ulardan yangi to'qimachilik mahsulotlari tayyorlanishi mumkin (masalan, qo'lqoplar, paypoq va poyabzal).

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** To'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarni chiqindixonalarga tashlanmasligini nazorat qilish, foydalanilgan va foydalanishga yaroqsiz to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarni topshirish uchun maxsus shaxobchalarni tashkil etish. Topshirilgan yaroqsiz to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklari uchun ma'lum bir rag'batlantirish usullarini tashkil etish. Hamda ushbu turdagi shahobchalarga solinadigan soliq summalarini maksimal kamaytirish ham ekologiyaga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beridi [8].

Foydalanilgan to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarini qayta ishlatilishini, ularga ikkinchi hayot berishni rag'batlantirish, ishlatilgan to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlatish bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga imtiyozlar va subsidiyalar berish orqali ham ushbu yuqorida keltirilgan muammolarga keskin ta'sir o'tkazish mumkin bo'ladi.

To'qimachilik chiqindilari bilan munosabatni to'laqonli tizimini shakllantirish: mintaqadagi barcha operatorlar va yig'uvchi tashkilotlar (xayriya va notijorat tashkilotlari), shuningdek chiqindilarni qayta ishlovchi va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni bu tizimga yo'naltirish.

Aholi orasida shu jumladan, bolalar bog'chalari, maktablar, universitetlar va boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlari doirasida - ongli iste'molchi madaniyatini oshirish ham ekologiyaga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beridi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Катрин де Сильги. История мусора. М.: Текст, 2011. 285 с.
2. Pintu Pandit, Shakeel Ahmed, Kunal Singha, Sanjay Shrivastava. Request Digital Evaluation, 2020. 496 с
3. <https://www.miumiu.com>
4. <https://profashion.ru/business/sustainability/h-m-investiruet-600-mln-dollarov-v-vypusk-tsiklichnogo-poliestera/>
5. “Вторая жизнь текстиля” Информация об исследовании авторы, Исследования: Дарья Алексеева, Елена Мязина, Наталья Парамонова; дизайнер: Александра Дубровина; иллюстратор: Лиля Матвеева; корректура: Юлия Исакова январь СРО «Ассоциация утилизаторов отходов “Клевер”» ФГБУ УралНИИ «Экология» 2023 г.
6. Герасимович Е.М. Проблемы и перспективы вторичной переработки отходов текстильной промышленности // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016. №5-1. С. 79...82.
7. A new textiles economy: redesigning fashion's future [<https://ellenmacarthurfoundation.org/a-new-textiles-economy>]
8. <https://infinitedfiber.com>



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

КРИВОЛИНЕЙНЫ ИНТЕГРАЛЫ ПЕРВОГО РОДА

PhD, доцент М.И. Охунбаев,  
ТУИТ muzoxun@mail.ru  
PhD, доцент Рахматов Р.Р,  
ТУИТ rahmatovrr@mail.ru

**Аннотация:** Изучение криволинейных интегралов весьма полезно будущему инженеру, т.к. криволинейные интегралы богаты своими геометрическими, механическими и физическими приложениями и наглядно показывают глубокую связь математика с практикой, что очень важно в создании интереса и мотивации к усвоению математики. В этой статье изучено Криволинейные интегралы 1-го рода и её некоторые применения для решения ряда задач. Также приведены примеры вычисления физических величин при помощи криволинейных интегралов.

**Ключевые слова:** Интегральная сумма, кривая, интегрируемая функция, разбиение, разбиение кривой, интегральная сумма, криволинейный интеграл, непрерывно дифференцируемые функции, контур прямоугольника, масса участка линии.

Обобщим понятие определённого интеграла на случай, когда область интегрирования является отрезок некоторой кривой, лежащей в плоскости.

Интегралы такого рода называются *криволинейными*. Они имеют широкое применение в различных разделах математики.

Различают два типа криволинейных интегралов: криволинейные интегралы первого и второго рода.

**Понятие криволинейного интеграла первого рода**

Рассмотрим на плоскости Оху гладкую АВ (или L) и непрерывную функцию f(x,y), определённую в каждой точке этой кривой. Разобьём кривую АВ точками из дуг M<sub>0</sub>=A, M<sub>1</sub>, .....M<sub>n</sub>=B на n произвольную дуг длиной Δl<sub>i</sub> (i = 1,2, ... ..n) и выберем на каждой из дуг M<sub>i-1</sub>M<sub>i</sub> произвольную точку M<sub>i</sub>(x<sub>i</sub>,y<sub>i</sub>).

Составим интегральную сумму вида

$$\sum_{i=1}^n f(M_i) \Delta l_i$$

Пусть λ = max Δl<sub>i</sub> - наибольшая из длин дуг деления.

**Определение.** Если существует конечный предел интегральной суммы независимый ни от способа разбиения кривой на отрезки, ни от выбора точек M<sub>i</sub> то он называется криволинейным интервалом первого рода от функции f(x,y) по кривой L и обозначается

$$\int_L f(M)dl = \int_L f(x,y)dl = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(M_i) \Delta l_i$$

**Геометрический смысл криволинейного интеграла первого рода**

Если f(x, y)=1, то ∫<sub>L</sub> dl = l -длина дуги L.

**Механический смысл криволинейного интеграла первого рода**

Если f(x, y)- линейная плотность материальной дуги L, то

$$\int_L f(x, y)dl = M - \text{масса дуги } L.$$

**Физическая смысл криволинейного интеграла**

Если функция f(x, y) > 0 задается плотность кривой АВ в точке M, ∫<sub>AB</sub> f(M)dl равен массе рассматриваемой кривой.

**1. Свойства криволинейного интеграла 1-го рода**

1. Криволинейный интеграл 1-го рода не зависит от направления движения по кривой, то





есть от того, какую из точек, ограничивающих кривую, считать начальной, а какую - конечной. Если назвать эти точки А и В, то

$$\int_A^B f(x, y) dl = \int_B^A f(x, y) dl$$

2. Постоянный множитель можно выносить за знак криволинейного интеграла:

$$\int_L C f(x, y) dl = C \int_L f(x, y) dl$$

3. Криволинейный интеграл от суммы двух или более функций равен сумме криволинейных интегралов от этих функций.

$$\int_L (f_1(x, y) \pm f_2(x, y)) dl = \int_L f_1(x, y) dl \pm \int_L f_2(x, y) dl$$

4. Если путь интегрирования L разбить на части L<sub>1</sub> и L<sub>2</sub> и L<sub>1</sub> и L<sub>2</sub> имеют единственную общую точку, то

$$\int_L f(x, y) dl = \int_{L_1} f(x, y) dl + \int_{L_2} f(x, y) dl$$

5. Если для точек кривой L выполняется неравенства

$$f_1(x, y) \leq f_2(x, y) \text{ то}$$

$$\int_{L_1} f_1(x, y) dl \leq \int_{L_2} f_2(x, y) dl$$

6.  $\int_L dl = l$ , где l - длина кривой L

7. Теорема о среднем.

Если функция f(x, y) непрерывно на кривой L, то на этой кривой найдется точка C(x<sub>c</sub>, y<sub>c</sub>) такая, что

$$\int_L f(x, y) dl = f(x_c, y_c) \cdot l$$

### Вычисление криволинейного интеграла 1-го рода

1. Пусть кривая АВ задана параметрическим x(t), y(t), где x, y - непрерывно дифференцируемые функции параметра t. Пусть t ∈ [α, β], причем точкам А и В соответствуют соответственно t = α и t = β.

Тогда 
$$\int_{AB} f(x, y) dl = \int_{\alpha}^{\beta} f(x(t), y(t)) \sqrt{(x_t')^2 + (y_t')^2} dt$$

2. Пусть кривая АВ задана в явном виде y = φ(x).

Тогда дифференциал дуги dl = √(1 + (φ'(x))<sup>2</sup>) dx и

$$\int_{AB} f(x, y) dl = \int_a^b f(x, \varphi(x)) \sqrt{1 + (\varphi'(x))^2} dx$$

3. Если кривая задана уравнением x = g(y), где c ≤ y ≤ d, то

$$dl = \sqrt{1 + (g'(y))^2} dy \text{ и}$$

$$\int_L f(x, y) dl = \int_c^d f(g(y), y) \sqrt{1 + (g'(y))^2} dy$$

4. Если кривая задана в полярной системе координат уравнением ρ = ρ(φ), где φ<sub>1</sub> ≤ φ ≤ φ<sub>2</sub>, то dl = √(ρ(φ))<sup>2</sup> + (ρ'(φ))<sup>2</sup> dφ и

$$\int_L f(x, y) dl = \int_{\varphi_1}^{\varphi_2} f(\rho \cos \varphi, \rho \sin \varphi) \sqrt{(\rho(\varphi))^2 + (\rho'(\varphi))^2} d\varphi$$

**Аналогично определяются криволинейные интегралы 1 го рода от непрерывной**

в некоторой пространственной области функций f(M)=f(x, y, z) по длине дуги пространственной кусочно – гладкой кривой L, расположенной в этой области:

$$\int_L f(M) dl = \lim_{\Delta \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(M_i) \Delta l_i$$





Если кривая задана параметрическими уравнениями  $x=x(t)$ ,  $y=y(t)$ ,  $z=z(t)$ , где  $\alpha \leq t \leq \beta$  то  $dl = \sqrt{(x'(t))^2 + (y'(t))^2 + (z'(t))^2} dt$  и

$$\int_L f(x,y)dl = \int_{\alpha}^{\beta} f(x(t), y(t), z(t)) \sqrt{(x'(t))^2 + (y'(t))^2 + (z'(t))^2} dt$$

Таким образом, вычисление криволинейного интеграла 1-го рода сводится к вычислению обычного определенного интеграла от функции переменной  $t$  в пределах, соответствующих изменению значения этой переменной на рассматриваемой кривой.

**Пример 1.** Вычислить  $\int_L (x-y)dl$ .

где  $L$ - отрезок прямой, соединяющий точки  $A(0;0)$  и  $B(4;3)$ .

Решение.

Найдем уравнение прямой, проходящей через точки  $A(0;0)$  и  $B(4;3)$ .

$$\frac{y}{3} = \frac{x}{4} \text{ или } y = \frac{3}{4}x$$

$$\text{Тогда } y' = \frac{3}{4} \text{ и } dl = \sqrt{1 + \left(\frac{3}{4}\right)^2} dx = \sqrt{1 + \frac{9}{16}} dx = \sqrt{\frac{25}{16}} dx = \frac{5}{4}dx$$

$$\int_L (x-y)dl = \int_0^4 \left(x - \frac{3}{4}x\right) \frac{5}{4} dx = \frac{5}{4} \int_0^4 \frac{1}{4} x dx = \frac{5}{16} \int_0^4 x dx = \frac{5}{16} \cdot \frac{x^2}{2} \Big|_0^4 = \frac{5}{16} \cdot \frac{16}{2} = \frac{5}{2}$$

**Пример 2.** Вычислить  $\int_L \frac{dl}{2x-3y}$ , где  $L$  –отрезок прямой, заключенный между точками  $A(0;3)$  и  $B(1;5)$ .

Решение.

Напишем уравнение прямой  $AB$  по двум точкам  $\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1}$ .

$$AB: \frac{x-0}{1-0} = \frac{y-3}{5-3}; \frac{x}{1} = \frac{y-3}{2}; y = 2x + 3; y' = 2; dl = \sqrt{1 + (y')^2} = \sqrt{5} dx.$$

$$\frac{13}{\ln 9} I = \int_0^1 \frac{\sqrt{5} dx}{2x-3(2x+3)} = \sqrt{5} \int_0^1 \frac{dx}{-4x-9} = -\frac{\sqrt{5}}{4} \ln|4x+9| \Big|_0^1 = -\frac{\sqrt{5}}{4} (\ln 13 - \ln 9) = -\frac{\sqrt{5}}{4} \ln \frac{13}{9}$$

**Пример 3.** Вычислить:  $I = \int_L (2z - \sqrt{x^2 + y^2})dl$ , где  $L$ -дуга кривой, заданной параметрический  $x=t*\cos t$ ,  $y=t*\sin t$ ,  $z=t$ ,  $0 \leq t \leq 2\pi$ .

Решение.  $x'(t)=\cos t - t\sin t$ ,  $y'(t)=\sin t + t\cos t$ ,  $z'(t)=1$ ,

$$dl = \sqrt{(x'(t))^2 + (y'(t))^2 + (z'(t))^2} dt = \sqrt{(\cos t - t\sin t)^2 + (\sin t + t\cos t)^2 + 1} dt = \sqrt{\cos^2 t - 2t\sin t\cos t + t^2\sin^2 t + \sin^2 t + 2t\sin t\cos t + t^2\cos^2 t + 1} dt = \sqrt{2 + t^2} dt$$

$$I = \int_0^{2\pi} (2t - \sqrt{t^2\cos^2 t + t^2\sin^2 t}) * \sqrt{2 + t^2} dt = \int_0^{2\pi} t\sqrt{2 + t^2} dt = \frac{1}{2} \frac{(2+t^2)^{3/2}}{3/2} \Big|_0^{2\pi} = \frac{1}{3} ((2 + 4\pi^2)^{3/2} - 2\sqrt{2}) = \frac{2\sqrt{2}}{3} (1 + 2\pi^2)^{3/2} - \frac{2\sqrt{2}}{3}$$

**Пример 4.** Вычислить  $I = \int_{AB} (x^2 + y^2)^{\frac{3}{2}} dl$ , где  $AB$  –часть гиперболической спирали  $\rho = \frac{1}{\varphi}$  от  $\varphi_1 = \sqrt{3}$  до  $\varphi_2 = 2\sqrt{2}$ .



**Решение.** Линия АВ задана в полярной системе координат.

$$dl = \sqrt{\rho^2 + (\rho')^2} d\varphi = \sqrt{\frac{1}{\varphi^2} + \left(-\frac{1}{\varphi^2}\right)^2} d\varphi = \sqrt{\frac{\varphi^2+1}{\varphi^4}} d\varphi = \frac{\sqrt{\varphi^2+1}}{\varphi^2} d\varphi$$

$$I = \int_{\sqrt{3}}^{2\sqrt{2}} (\rho^2 \cos^2 \varphi + \rho^2 \sin^2 \varphi)^{\frac{3}{2}} * \frac{\sqrt{\varphi^2+1}}{\varphi^2} d\varphi = \int_{\sqrt{3}}^{2\sqrt{2}} \left(\frac{1}{\varphi}\right)^{-3} \frac{\sqrt{\varphi^2+1}}{\varphi^2} d\varphi =$$

$$\int_{\sqrt{3}}^{2\sqrt{2}} \varphi \sqrt{1 + \varphi^2} d\varphi = \frac{1}{3} (1 + \varphi^2)^{\frac{3}{2}} \Big|_{\sqrt{3}}^{2\sqrt{2}} = \frac{1}{3} (27-8) = \frac{19}{3}.$$

### ЛИТЕРАТУРА

1. Берман Н.Г. Сборник задач по курсу математического анализа.-СПб: Специальная литература , 2000 г.
2. Бугров Я. С., Никольский С.М. Высшая математика .Дифференциальное и интегральное исчисление.- М: Наука , 1984.
3. Данко П.Е.,Попов А.Г. , Кожевников Т.Я. Высшая математика в упражнениях и задачах. Ч-1-М., 2004.
4. Пискунов Н.С. Дифференциальные и интегральное исчисление для ВТУЗов Т.1,2. М: Наука 1996.
5. Письменный Д. Конспект лекций по Высшей матетике . Полный курс –М: Айрис-Пресс, 2011.



PhD, доцент **М.И. Охунбаев**,  
 ТУИТ muzoxun@mail.ru  
 PhD, доцент **Рахматов Р.Р.**,  
 ТУИТ rahmatovrr@mail.ru

**Аннотация:** Изучение криволинейных интегралов весьма полезно будущему инженеру, т.к. криволинейные интегралы богаты своими геометрическими, механическими и физическими приложениями и наглядно показывают глубокую связь математика с практикой, что очень важно в создании интереса и мотивации к усвоению математики. В этой статье изучено Криволинейные интегралы 2-го рода и её некоторые применения для решения ряда задач. Также приведены примеры вычисления физических величин при помощи криволинейных интегралов.

**Ключевые слова:** Интегральная сумма, кривая, интегрируемая функция, разбиение, разбиение кривой, интегральная сумма, криволинейный интеграл, непрерывно дифференцируемые функции, контур прямоугольника, масса участка линии.

Обобщим понятие определённого интеграла на случай, когда область интегрирования является отрезок некоторой кривой, лежащей в плоскости.

Интегралы такого рода называются *криволинейными*. Они имеют широкое применение в различных разделах математики.

Различают два типа криволинейных интегралов: криволинейные интегралы первого и второго рода.

### Понятие криволинейного интеграла второго рода

#### 4. Криволинейный интеграл 2-го рода

Криволинейный интеграл от непрерывной в некоторой области плоскости  $xOy$  функции  $P(x,y)$  по координате  $x$  вдоль дуги плоской кусочно-гладкой кривой  $L$ , расположенной в этой области, связан с криволинейным интегралом 1-го рода соотношением

$$\int_L P(x,y)dx = \int_L P(x,y)\cos \alpha dl,$$

где  $\alpha$  - угол между касательной, проведенной к кривой в любой её точке, и положительным направлением оси  $Ox$

Аналогично,

$$\int_L Q(x,y)dy = \int_L Q(x,y)\cos \beta dl,$$

где  $\beta$  угол между касательной, проведённой к кривой в любой её точке, и положительным направлением оси  $Oy$ .

Обычно рассматривают сумму интегралов по координате  $x$  и  $y$  и записывают в виде:

$$\int_L P(x,y)dx + Q(x,y) dy$$

Криволинейный интеграл 2-го рода обладают теми свойствами, что и криволинейный интеграл 1-рода, кроме

$$\int_{AB} P(x,y)dx + Q(x,y) dy = - \int_{BA} P(x,y)dx + Q(x,y) dy$$

### Механический смысл криволинейного интеграла второго рода



Функции  $P(x,y)$  и  $Q(x,y)$  можно трактовать как координаты вектора сила  $\vec{F}$ , заданной в каждой точке дуги  $L$ . Элементарное перемещение  $d\vec{l}$  можно интерпретировать как вектор  $\vec{dl}$  с координатами  $dx$  и  $dy$ . Тогда элементарная работа  $dW$  сила  $\vec{F}$  на пути  $\vec{dl}$  равна (как известна из механики) их скалярному произведению т.е.

$$dW = \vec{F} \cdot \vec{dl} = P(x,y)dx + Q(x,y) dy$$

и следовательно, интеграл

$$\int_L dW = W = \int_L P(x,y)dx + Q(x,y) dy$$

Представляет работу силы  $\vec{F}$  на пути  $L$ .

Впервые криволинейные интегралы встречаются в работе Клеро А.К «Теория фигур Земли, основанная на началах гидростатики» (1743г).

**Для вычисления криволинейного интеграла 2-го рода пользуются формулами:**

1. Если кривая задана уравнением  $y = \varphi(x)$  и  $a \leq x \leq b$ , то

$$\int_L P(x,y)dx + Q(x,y) dy = \int_a^b (P(x, \varphi(x)) + Q(x, \varphi(x))\varphi'(x)) dx$$

2. Если кривая задана уравнение  $x = g(y)$   $c \leq y \leq d$ , то

$$\int_L P(x,y)dx + Q(x,y) dy = \int_c^d (P(g(y), y) g'(y) + Q(g(y), y)) dy;$$

3. Если кривая задана параметрическими уравнениями  $x = x(t)$  и  $y = y(t)$ ,  $t \in [\alpha, \beta]$  то

$$\int_L P(x,y)dx + Q(x,y) dy = \int_{[\alpha]}^{\beta} (P(x(t), y(t)) x'(t) + Q(x(t), y(t)) y'(t)) dt;$$

В случае замкнутой области положительное направление обхода выбирают так, чтобы область, ограниченная кривой  $L$ , всегда оставалась слева. Интеграл по замкнутой области обозначают

$$\oint_L Pdx + Qdy.$$

Аналогично определяется криволинейные интегралы по координатам, если кривая  $L$  лежит в плоскости  $xOy$  и  $yOz$ .

Криволинейный интеграл 2-го рода от непрерывных в некоторой пространственной области функций  $P(x,y,z)$ ,  $Q(x,y,z)$ ,  $R(x,y,z)$  вдоль дуги кусочно-гладкой кривой  $L$  определяется так:

$$\int_L P(x,y,z)dx + Q(x,y,z) dy + R(x,y,z)dz$$

Если кривая  $L$  задана параметрическими уравнениями  $x = x(t)$ ,  $y = y(t)$ ,  $z = z(t)$ ,  $\alpha \leq t \leq \beta$ , то

$$\int_L P(x,y,z)dx + Q(x,y,z) dy + R(x,y,z)dz = \int_{\alpha}^{\beta} (P(x(t), y(t), z(t)) x'(t) + Q(x(t), y(t), z(t)) y'(t) + R(x(t), y(t), z(t)) z'(t)) dt$$

### Вычисление криволинейного интеграла 2 рода

**Теорема.** Пусть кривая  $L$  задана параметрическими уравнениями

$$x = \varphi(t), y = \psi(t), z = \chi(t), \quad \alpha \leq t \leq \beta,$$



где  $\varphi, \psi, X$  – непрерывно дифференцируемые функции, и на ней задана непрерывная функция  $f(x,y,z)$ . Тогда существует криволинейный интеграл

$$\int_L P(x,y,z)dx + Q(x,y,z) dy + R(x,y,z)dz \text{ и имеет место равенство}$$

$$\int_L P(x,y,z)dx + Q(x,y,z) dy + R(x,y,z)dz = \int_\alpha^\beta (P(\varphi(t), \psi(t)X(t)\varphi'(t)) + Q(\varphi(t), \psi(t)X(t)\psi'(t)) + R(\varphi(t), \psi(t)X(t)X'(t))dt$$

Если кривая  $L$  задана на плоскости уравнением  $y=f(x)$ , то

$$\int_L P(x,y,z)dx + Q(x,y,z) dy = \int_\alpha^\beta (P(x,f(x)) + Q(x,f(x))f'(x))dx$$

### Образцы решение примеров

#### Пример 1

Вычислить  $\int_L ydx - (y+x^2)dy$ , где  $L$  часть параболы  $y=2x-x^2$ , расположенная над осью  $Ox$  от точки  $A(0;0)$  до точки  $B(2;0)$ .

Решение.

$dy = (2-2x)dx$ . Тогда

$$\int_L ydx - (y+x^2)dy = \int_0^2 [2x - x^2 - (2x - x^2 + x)(2 - 2x)]dx = \int_0^2 2x - x^2 - 4x + 4x^2 + 2x^2 - 2x^3 + 2x^2 + 2x^3 dx = \int_0^2 (3x^2 - 2x)dx = (x^3 - x^2)|_0^2 = 8 - 4 = 4.$$

#### Пример 2

Вычислить  $\int_L xydx - (y+x)dy$

а) по прямой линии, соединяющей точки  $O(0;0)$  и  $A(1;1)$ ;

б) по ломанной линии  $OBA$ , где  $O(0;0)$ ,  $A(1;1)$ ,  $B(1;0)$ .

Решение.

а) Уравнение отрезка  $OA$ :  $y=x$ ,  $dy=dx$

$$\int_L ydx - (y+x^2)dy = \int_0^1 (x^2 + (x+x)dx) = \int_0^1 (x^2 + 2x)dx = (\frac{x^3}{3} + x^2)|_0^1 = \frac{1}{3} + 1 = \frac{4}{3}.$$

б) Уравнение отрезка  $OB$ :  $y=0$ ;  $dy=0$ .

Уравнение отрезка  $BA$ ;  $x=1$ ;  $dx=0$

$$\int_L ydx - (y+x^2)dy = \int_{OB} xydx + (y+x)dy + \int_{BA} xydx + (y+x)dy.$$

$$\int_{OB} xydx + (y+x)dy = 0$$

$$\int_{BA} xydx + (y+x)dy = \int_0^1 (y+1)dy = (\frac{y^2}{2} + y)|_0^1 = \frac{3}{2}.$$

$$\int_L xydx - (y+x)dy = \frac{3}{2}.$$

#### Пример 3

Вычислить  $I = \int_{AB} (x^2 - 2xz)dx + (z^2 - 2xz)dz$  где  $AB$  – дуга параболы  $z=x^2$ , пробегаемой от точки  $A(-1;1)$  до точки  $B(1;1)$





$$I = \int_{-1}^1 (x^2 - 2x * x^2 + (x^4 - 2x * x^2)2x) dx = \int_{-1}^1 (x^2 - 2x^3 + 2x^5 - 4x^4) dx =$$

$$\left(\frac{x^3}{3} - \frac{x^4}{4} + \frac{x^6}{3} - \frac{4x^5}{5}\right)\Big|_{-1}^1 = \frac{14}{15}.$$

**Пример 4.**

Вычислить :  $I = \int_L (xy - y^2) dx + xdy$ , где  $L$  ломанная ОВА точки  $A(1;2), B(1/2;3)$ .

Решение:

Контур ОВА состоит из отрезков  $OB$  и  $BA$ , поэтому согласно свойству аддитивной,  $I = \int_{OB} + \int_{BA}$ . Уравнение прямой  $OB$ :  $y=6x$ , где  $0 \leq x \leq 0,5$ . Тогда  $dy=6dx$ .

$$\int_{OB} (xy - y^2) dx + xdy = \int_0^{0,5} (6x^2 - 36x^2 + 6x) dx = (-10x^3 + 3x^2)\Big|_0^{0,5} = -0,5.$$

Найдем уравнение прямой  $BA$ :  $\frac{x-1/2}{1-1/2} = \frac{y-3}{2-3}$ ;  $y=4-2x$ , где  $0,5 \leq x \leq 1$ .

$$\int_{BA} (xy - y^2) dx + xdy = \int_{0,5}^1 (4x - 2x^2 - (4 - 2x)^2 -$$

$$2x) dx = \int_{0,5}^1 (18x - 6x^2 - 16) dx = (9x^2 - 2x^3 - 16x)\Big|_{0,5}^1 = (9-2-16) -$$

$$\frac{9}{4} - \frac{1}{4} - 8 = -3$$

$$I = -0,5 - 3 = -3,5.$$

Л И Т Е Р А Т У Р А

1. Берман Н.Г. Сборник задач по курсу математического анализа.-СПб: Специальная литература, 2000 г.
2. Бугров Я. С., Никольский С.М. Высшая математика. Дифференциальное и интегральное исчисление.- М: Наука, 1984.
3. Данко П.Е., Попов А.Г., Кожевников Т.Я. Высшая математика в упражнениях и задачах. Ч-1-М., 2004.
4. Пискунов Н.С. Дифференциальные и интегральное исчисление для ВТУЗов Т.1,2. М: Наука 1996.
5. Письменный Д. Конспект лекций по Высшей математике. Полный курс -М: Айрис-Пресс, 2011.



**Tilavova Xurshida Odil qizi**  
ALFRAGANUS UNIVERSITY  
Raqamli texnologiyalari kafedrası  
II-kurs magistri  
Telefon:+998 91 443 85 80  
tilavovaxurshida93@gmail.com

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada intellektual axborot tizimining tushunchasi, tarkibiy qismlari va asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt usullari asosida yaratilgan bunday tizimlar qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi, foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchan va o'z holatini baholay oladigan tizimlar sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada shuningdek, intellektual tizimlarni an'anaviy axborot tizimlaridan ajratib turuvchi asosiy farqlar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, intellektual tizim, mashinali o'qitish, bilim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti bilan birga, intellektual axborot tizimlari(IAT) inson faoliyatining turli sohalarida muhim o'rin egallamoqda. An'anaviy axborot tizimlari ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va uzatishga qaratilgan bo'lsa, IATlar sun'iy intellekt, mashinali o'qitish va bilimlar bazasi texnologiyalarini integratsiyalash orqali qaror qabul qilish, o'z-o'zini o'rganish va moslashuvchanlik kabi ilg'or funksiyalarni amalga oshiradi.

So'nggi yillarda IATlar sog'liqni saqlash, ta'lim, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida keng qo'llanilmoqda. Masalan, sog'liqni saqlash sohasida IATlar bemorlarning tibbiy ma'lumotlarini tahlil qilish, kasalliklarni erta aniqlash va individual davolash rejaları tuzishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim sohasida esa IATlar talabalarning o'qish jarayonini kuzatish, baholash va individual o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanilmoqda. Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonida axborot tizimlarining intellektuallashuvi dolzarb ilmiy-texnik muammolardan biriga aylangan. Bu boradagi izlanishlar, ayniqsa, sun'iy intellekt algoritmlari va mashinali o'qitish modellari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilmoqda. Intellektual axborot tizimlari insonning kognitiv faoliyatini modellashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va muhitga moslasha olish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Shu jihatdan, ushbu mavzuni chuqur tadqiq qilish uchun birinchi navbatda so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy ishlanmalarni o'rganish zarur. Bu nafaqat mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklarini aniqlashga, balki ushbu tadqiqot doirasida tanlanayotgan yechimlarning yangiligi va ilmiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Sharma va Tripathi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda[1] katta til modellari (LLM) yordamida foydalanuvchi talablarining sifatini baholovchi yondashuv ishlab chiqilgan. Ushbu usul IATlar uchun tabiiy til interfeyslarini avtomatlashtirish hamda tizimga kiritilgan matnlarni semantik tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada chuqurroq tushunishga asos yaratadi. Boshqa bir muhim yondashuv Powell va Riccardi tomonidan taklif etilgan[2]. Ular rejalashtirishga oid axborotlarni izchil va tushunarli matnga aylantirish orqali foydalanuvchi va tizim o'rtasidagi muloqotni intuitiv ko'rinishga keltirishga harakat qilgan. Bu yondashuv IATlarning tushuntirib beruvchi imkoniyatlarini kengaytiradi. Bai va Qin tadqiqotida [3] esa ko'p manbali (multi-view) hujjatlar asosida kontekstga mos klasterlash modeli taklif qilingan. Bu yondashuv IATlarning katta hajmdagi matnli ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish qobiliyatini oshirishda foydali bo'ladi, ayniqsa hujjatlar bilan ishlaydigan tizimlarda. Zhou va Wang[4] tomonidan ishlab chiqilgan BiPC (Bidirectional Probability Calibration) modeli esa nazoratsiz domenga moslashuv muammosini yechishga qaratilgan. Ushbu model IATlarning turli amaliy sohalariga oson moslashuvini ta'minlaydi, bu esa ularning ko'lamini kengaytiradi.

IoT texnologiyalari bilan integratsiyalashgan IATlar ham faol tadqiqot mavzusiga aylangan. Masalan, Ma va Gelenbe hamda Kuaban va Gelenbe[5,6] tomonidan o'rganilgan IoT asosidagi tizimlar real vaqtda axborot yig'ish, holatni kuzatish va operativ qaror qabul qilish imkoniyatlarini namoyish qiladi. Bu xususiyatlar, ayniqsa, favqulodda vaziyatlar va xavfsizlik sohalarida dolzarb hisoblanadi. Tarmoq xavfsizligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (Nakip & Gelenbe) [7,8] IATlar doirasida o'z-o'zini o'rganuvchi chuqur o'qitish modellarining samaradorligini isbotlab berdi. Ushbu modellar tahdidlarni aniqlashda va zararni minimallashtirishda yuqori aniqlikka ega. Ayniqsa, DISFIDA nomli



tarqatilgan federativ tizim (Gelenbe va Nakip) [10] sog'liqni saqlash va transport tizimlari uchun mo'ljallangan bo'lib, xavfsizlikka oid tahdidlarni real vaqtda aniqlash va oldini olishda sezilarli natijalar bergan. Gelenbe va Siavvas[9] tomonidan ishlab chiqilgan ko'p komponentli dasturiy tizimlar zaifliklarini baholashga qaratilgan yondashuv esa intellektual tizimlarning barqarorlik darajasini oshirish, nosozliklarga chidamli arxitekturani yaratishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

IAT an'anaviy axborot tizimlariga nisbatan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati hamda foydalanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvi bilan ajralib turadi. Bunday tizimlar sun'iy intellektning ilg'or yutuqlarini o'z ichiga olgan holda, ma'lumotlarga asoslangan holda mantiqiy tahlil va bashorat qilish funksiyalarini bajara oladi.

IATlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Moslashuvchanlik: Tizimlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslasha oladi va yangi ma'lumotlarga asoslangan holda o'z faoliyatini optimallashtiradi.
- O'z-o'zini o'rganish: Mashinali o'qitish algoritmlari yordamida tizimlar yangi bilimlarni o'zlashtiradi va o'z faoliyatini takomillashtiradi.
- Interaktivlik: Foydalanuvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi, bu esa foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi.
- Qaror qabul qilish: Tizimlar murakkab muammolarni tahlil qilish va optimal yechimlarni taklif qilish qobiliyatiga ega.

Bu xususiyatlar IATlarning amaliyotda keng qo'llanilishiga zamin yaratadi. Jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, logistik boshqaruv, tarmoq xavfsizligi kabi sohalarda ushbu tizimlar real vaqtda qaror qabul qilish, foydalanuvchi bilan doimiy muloqotda bo'lish va o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, IATlar murakkab axborot muhitida ham yuqori ishonchlilik va samaradorlikni saqlab qolish xususiyatiga ega bo'lib, ularni strategik qarorlar qabul qilinadigan muhim tizimlar qatoriga kiritadi.

IAT bugungi kunda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali axborotni tahlil qilish, foydalanuvchi ehtiyojlariga mos xizmat ko'rsatish hamda murakkab muammolarni hal qilish imkonini beruvchi ilg'or tizimlarga aylanib bormoqda. Tizimlarning moslashuvchanlik, o'z-o'zini o'rganish, interaktivlik va mustaqil qaror qabul qilish kabi xususiyatlari ularning real sohalardagi qo'llanish doirasini kengaytirmoqda.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda IATlar katta til modellari, mashinali o'qitish, IoT va federativ o'rganish kabi texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Bu esa ularning samaradorligi, aniqligi va funkcionallik darajasini oshirmoqda. Ayniqsa, tarmoq xavfsizligi, sog'liqni saqlash, hujjatlar bilan ishlash va real vaqtda monitoring sohasida IATlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, intellektual axborot tizimlarining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish va ularni turli amaliy sohalarga tatbiq etish istiqboldagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa IATlar orqali inson faoliyatini raqamlashtirish, optimallashtirish va avtomatlashtirish jarayonlariga ulkan hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharma, A., & Tripathi, A. K. (2025). Evaluating user story quality with LLMs: A comparative study. *Journal of Intelligent Information Systems*. Retrieved from <https://arxiv.org/abs/2504.00513>
2. Powell, C., & Riccardi, A. (2025). Generating textual explanations for scheduling systems leveraging the reasoning capabilities of large language models. *Journal of Intelligent Information Systems*. Retrieved from <https://link.springer.com/article/10.1007/s10844-025-00940-w>
3. Bai, R., & Qin, Y. (2025). CSMDC: Exploring consistently context semantics for multi-view document clustering. *Expert Systems with Applications*. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S095741742402253X>
4. Zhou, W., & Wang, T. (2025). BiPC: Bidirectional probability calibration for unsupervised domain adaption. *Expert Systems with Applications*. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0957417424023273>
5. Ma, Y., & Gelenbe, E. (2024). IoT performance for maritime passenger evacuation. *IEEE 10th World Forum on the Internet of Things (WF-IoT)*. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/384446235>



6. Kuaban, G. S., & Gelenbe, E. (2024). Energy performance of Internet of Things (IoT) networks for pipeline monitoring. *International Wireless Communications and Mobile Computing Conference (IWCMC)*. Retrieved from <https://www.semanticscholar.org/paper/11d3e2c6723046a04d158b803f8781989c9b723e>
7. Nakip, M., & Gelenbe, E. (2024). Online self-supervised deep learning for intrusion detection systems. *IEEE Transactions on Information Forensics and Security*. Retrieved from <https://dl.acm.org/doi/10.1109/TIFS.2024.3402148>
8. Gelenbe, E., & Nakip, M. (2024). Adaptive attack mitigation for IoV flood attacks. *IEEE Internet of Things Journal*. Retrieved from <https://iitis.pl/sites/default/files/pubs/FinalIoT40865-2024.pdf>
9. Gelenbe, E., & Siavvas, M. (2024). System-wide vulnerability of multi-component software. *Computers & Industrial Engineering*. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0360835224005746>
10. Gelenbe, E., & Nakip, M. (2024). DISFIDA: Distributed self-supervised federated intrusion detection algorithm with online learning for health Internet of Things and Internet of Vehicles. *Internet of Things*. Retrieved from <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2542660524002816>



OLTIN ELEKTROLIZI

**Yuldosheva Shahriyona Jamoliddin qizi**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Телефон: +998944850909

talant1805@mail.ru



**Annotatsiya**

Ushbu tezisda oltinni elektroliz yo'li bilan tozalash usuli, uning fizik-kimyoviy asoslari, jarayonning afzalliklari va amaliy qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan. Elektrolitik tozalash oltin olishning zamonaviy va samarali usuli hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** oltin, elektroliz, oltin xlorid, anod, katod, elektrokimyoviy jarayon.

Oltin - kimyoviy jihatdan faol bo'lmagan, yuqori qiymatli qimmatbaho metall bo'lib, u asosan zargarlik, elektronika va investitsiya sohalarida keng qo'llaniladi. Tabiiy holatda u ko'pincha boshqa metallar - kumush, mis, platina guruhidagi metallar bilan aralashgan holda uchraydi. Oltinni yuqori tozalik darajasida olish uchun elektroliz usuli muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltin elektrolizi - bu elektrokimyoviy jarayon bo'lib, unda anod sifatida texnik oltin (qotishma), katod sifatida esa sof oltin ajralib chiqadigan inert plastina ishlatiladi (titan). Odatda, elektrolit eritma sifatida oltin xloridning natriyli birikmasi ( $\text{Na}[\text{AuCl}_4]$ ) yoki boshqa xlorli tuzlardan foydalaniladi. Elektroliz jarayonida quyidagi elektrokimyoviy reaksiya sodir bo'ladi:



Elektroliz natijasida ifloslantiruvchi komponentlar (kumush, mis, qo'rg'oshin va boshqalar) anod qoldiqlarida qoladi yoki elektrolitga o'tadi, toza oltin esa katod yuzasida cho'kadi. Bu usul yuqori tozalikdagi (99.99%) oltinni olish imkonini beradi.

Jarayon afzalliklari:

- yuqori darajadagi tozalash imkoniyati;
- minimal mexanik yo'qotishlar;
- jarayon avtomatlashtirishga mos;
- atrof-muhitga ta'siri past

Xulosa: Oltin elektrolizi zamonaviy metallurgiyada yuqori tozalikdagi oltin olishning eng samarali va ekologik toza usullaridan biridir. Bu usul sanoatda keng qo'llanilmoqda va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan birga takomillashib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]. Sirojov T.T., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N., Yuldosheva Sh.J. Oltin va mis tarkibli rudalarni kompleks qayta ishlash texnologiyasini tadqiq qilish. Sanoatda raqamli texnologiyalar. Volume 2, № 4 2024.

[2]. Aripov, A.R., Sayfullayev, F.I., Qurbonov, M.N., Jabborova, S.G'. Murakkab tarkibli xom-ashyolardan qimmatbaho metallarni ajratib olish jarayonida gidrometallurgik usullarning ilmiy asoslari va amaliy qo'llanilishi. Sanoatda raqamli texnologiyalar 27.03.2025.





## ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### PISA TOPSHIRIQLARIDA МАТЕМАТИК SAVODXONLIK

**Djurayeva Feruza,**

Yangi Namangan tumani Maktabgacha va maktab ta'limi  
bo'limi 57-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi  
matematika fani o'qituvchisi

Annatatsiya. PISA topshiriqlari esa matematik masala emas, u matematik masaladan oldin keluvchi bosqich – muammoli vaziyatning tavsifi (kontekst)dan iborat. Topshiriq kontekstida tasvirlangan muammoli vaziyatni mulohaza yuritish orqali o'rganib, uni matematik tilga o'girib ifodalash, ya'ni matematik masalaga keltirish kerak bo'ladi

Kalit so'zlar: PISA, topshiriq, kontekst, masala, mulohaza, matematik savodxonlik.

PISA tadqiqotlarida darsliklarimizdagi odatdagi matematik masala emas, balki biror kontekstda taqdim qilingan real hayotiy muammoli vaziyatlar beriladi.<sup>1</sup> Eslatib o'tamiz, darsliklarimizdan o'rin olgan, odatdagi standart matematik masalada berilgan miqdorlar (ma'lumlar) va topish kerak bo'lgan noma'lum miqdor bo'ladi. Noma'lumni berilgan ma'lumlardan foydalanib topish talab qilinadi. Bunda berilganlar noma'lumni topish uchun yetarli bo'lib, ular kam ham bo'lmaydi, ko'p ham bo'lmaydi.

PISA topshiriqlari esa matematik masala emas, u matematik masaladan oldin keluvchi bosqich – muammoli vaziyatning tavsifi (kontekst)dan iborat. Topshiriq kontekstida tasvirlangan muammoli vaziyatni mulohaza yuritish orqali o'rganib, uni matematik tilga o'girib ifodalash, ya'ni matematik masalaga keltirish kerak bo'ladi. Shundan keyingina masalani matematikani qo'llab yechishga kirishiladi.

Shunday qilib, PISA topshirig'i konteksti, bu – real hayotiy vaziyatlarning turli ko'rinishlardagi tavsifidan iboratdir.



PISA 2022 tadqiqotida matematika bo'yicha erkin foydalanish mumkin bo'lgan topshiriq:

Yelkanli kemalar.

Butun dunyodagi yuklarning 95 foizi dengiz tranzit yo'llari orqali tashishadi. Bunda taxminan 50 000 ga yaqin tankerlar, ulkan yuk ortiladigan kemalardan foydalaniladi. Bu kemalarning ko'pchiligi dizel yoqilg'isi orqali harakatlanadi. Endilikda muhandislar shamol kuchi yordami bilan harakatlanadigan kemalarni

loyihalashtirmoqda. Ularning taklifiga ko'ra, kemalarning old qismiga ulkan yelkanlar o'rnatiladi. Agar bu taklif qo'llab-quvvatlangan, dizel yoqilg'isi iste'moli keskin kamayishi va atrofmuhitga chiqayotgan zaharli gazlarning miqdori pasayishi kutilmoqda.

**1-savol.** Bunday yelkanlarni qo'llashning afzalliklaridan biri u 150 metr balandlikda uchadi. Bu balandlikda shamol tezligi kemandagi palubasidagi shamol tezligidan taxminan 25% yuqori bo'ladi. Kema palubasidagi shamol tezligi soatiga 24 kilometr (24 km/h) bo'lsa, yelkanga kelib uriladigan shamolning taxminiy tezligi qancha bo'lishi mumkin?

A) 6 km/h      B) 18 km/h      C) 25 km/h      D) 30 km/h

1-savol to'g'risida ma'lumot.

Savol tavsifi: hayotiy masala yechishda foizlarni qo'llash.

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.

<sup>1</sup> A.Ismailov, B.Xaydarov, N.Karimov, Sh.Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (metodik qo'llanma). Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2019-yil.



Kontekst: ilmiy.

Aqliy faoliyat turi: qo'llash.

1-savolning baholash mezon.

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: D) 30 km/h

Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi: boshqa javoblar bo'lsa; javob berilmagan bo'lsa.

2-savol. Rasmda ko'rsatilganidek, agar yelkan kemani  $45^\circ$  burchak ostida tortsa va uning balandligi 150 m bo'lsa, yelkan arqonining uzunligi qancha bo'ladi?

A) 173 m

B) 212 m

C) 285 m

D) 300 m

2-savol to'g'risida ma'lumot.

Savol tavsifi: Pifagor teoremasidan hayotiy masalani yechishda foydalanish. Matematikaga oid mazmun sohasi: fazo va shakl.

Kontekst: ilmiy.

Aqliy faoliyat turi: qo'llash.

2-savolning baholash mezon.

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: B) 212 m

Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi: boshqa javoblar bo'lsa; javob berilmagan bo'lsa.

2-savol. 1 litr dizel yoqilg'isining narxi qimmat bo'lib, 0,42 zed (shartli pul birligi)ni tashkil qilganligi uchun "Yangi to'lqin" nomli kemaga yelkan o'rnatilishi rejalashtirilmoqda. Ma'lumki, kemalarga o'rnatilganyelkan umumiy sarflangan dizel yoqilg'isi sarflanishini taxminan 20 % kamaytirilishiga imkon beradi.



Nomi: «Yangi to'lqin»

Turi: yuk ortiladigan kema (ijaraga beriladi)

Kema uzunligi: 117 metr

Kemaning kengligi: 18 metr

Ortiladigan yuk hajmi: 12 000 tonna

Eng yuqori tezlik: 19 uzel (1 uzel=1,852 km/h)

Yelkansiz kemanding yillik umumiy dizel

iste'moli: taxminan 3 500 000 litr



"Yangi to'lqin" nomli kemaga yelkanni o'rnatishning umumiy xarajati 2 500 000 zedga teng. Taxminan necha yildan keyin tejab qolingan dizel yoqilg'isi narxi kemaga o'rnatilgan yelkanga sarflangan xarajatni qoplashi mumkin? Javobingizni aniq hisob-kitoblar asosida izohlab bering.

3-savol to'g'risida ma'lumot.

Savol tavsifi: xarajat va yoqilg'i sarfini tejash va sarflashga oid real masalalarni yechish.

Matematikaga oid mazmun sohasi: o'zgarish va munosabatlar.

Kontekst: ilmiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

3-savolning baholash mezon.

Quyidagi holda javob to'liq qabul qilinadi:

To'g'ri javob: "8 yildan 9 yilgacha" javobi aniq hisobkitoblarga tayanilgan holda berilgan.

Yelkansiz kemanding yillik dizel yoqilg'i sarfi 3,5 million litrni tashkil qiladi. Har bir litr yoqilg'i uchun 0,42 zed sarflansa, bir yillik yelkansiz harakatlanish natijasida 1 470 000 zed sarflanar edi. Agar kemaga yelkan o'rnatilsa, bu kemanding umumiy xarajati 20 % gacha kamayadi.

Bundan, bir yilda  $1\,470\,000 \times 0,2 = 294\,000$  zed. Shunday qilib,  $2\,500\,000 : 294\,000 \approx 8,5$  yil. Demak, taxminan 8-9 yildan so'ng yelkanga sarflangan xarajatlar to'liq qoplanadi. Quyidagi hollarda javob qabul qilinmaydi: boshqa javoblar bo'lsa;



javob berilmagan bo'lsa.

Izoh: 1-savol. Savol 5-6 – sinf o'quvchilariga mo'ljallab tuzilgan. Bunda masalaning javobiga ta'sir ko'rsatmaydigan ko'p ma'lumotlar berilishi qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Asosiy xatoliklar (A, B, C javoblari) savolning shartini tushunmaslik oqibatida yuzaga kelgan, shuningdek, foizlarga oid masalalarni yechishda yetarlicha bilimga ega emaslik ham masalani yecha olmasliklariga sabab bo'lgan. Savolga doir berilgan javoblar natijalari uncha qoniqarli emas. OECD tarkibidagi davlatlar o'quvchilarining 60 foizi mazkur masalaga to'g'ri javob topishgan.

2-savol. Mazkur masalani yechilishida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat kesma uzunligini hisoblashda Pifagor teoremasidan foydalanish va teng yonli to'g'ri burchakli uchburchaklar katetlarining tengligi haqida bilimlarga ega bo'lish (burchagi  $45^\circ$ ). Masalaga mos chizmaning va bir necha javob variantlarini berilishi savolning yechilishini bir qadar yengillashtiradi. Savolning topshirig'i noan'anaviy tarzda berilgan, shu sababli bu savol ko'pgina o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirgan bo'lishi mumkin. Masalaning yechilishi quyidagicha: Arqonning uzunligi  $\sqrt{150^2 + 150^2} \approx 212,13$ . To'g'ri berilgan javob variantlari bilan taqqoslab, B javob tanlanishi kerak edi (212). Savol bo'yicha berilgan javob natijalari qoniqarli emas: OECD tarkibidagi davlatlar o'quvchilarining 50 foizi mazkur masalaga to'g'ri javob topishgan.

3-savol. Murakkablik darajasiga ko'ra ancha qiyin savollar turkumiga kiradi. Bu masalani yechishda o'quvchilardan vaziyatning modelini yaratish, foizlarga oid masalani yechish algoritmidan foydalanish hamda ko'p xonali sonlar bilan bajariladigan arifmetik amallarni bajarish talab etiladi. Savoldan kelib chiqib, o'quvchidan topilgan o'nli kasr ko'rinishidagi javobni (8,5) yaxlitlash so'raladi. Mazkur masalani yechishda talab etiladigan bilim va ko'nikmalar 5-6 – sinflarda shakllanadi.

Test nazoratini o'tkazish chog'ida o'quvchilarga kalkulatoridan foydalanish-lariga ruxsat berilishi hisoblash jarayonini yengillashtirishga va vaqtni tejashga imkon bergan. Bu turdagi masala va topshiriqlar darsliklarda berilmagan. Masalaning murakkabligi undagi topshiriq matnining nisbatan katta hajmda berilishi va u masalani yechimiga tegishli bo'lmagan ortiqcha ma'lumotlardan iborat ekanligi bilan bog'liq. O'quvchilardan masalani yechishda kerak bo'ladigan ma'lumotlarni matnning turli joylaridan qidirib topish talab etiladi. Shu sababli mazkur masalaga berilgan javoblar natijasi uncha yuqori emas: OECD tarkibidagi davlatlar o'quvchilarining 15 foizi mazkur masalaga to'g'ri javob topishgan. Yetakchi mamlakatlarning o'quvchilari tomonidan ushbu masalaga bergan javoblarining eng yuqori natijasi 47 foizni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-sonli Qarori
2. Pathak R.P. Methodology of Educational Research. Atlantic. USA-2008.
3. Mirzaahmedov M., Rahimqoriyev A. Matematika 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. -T.: "O'qituvchi", 2019 y.



## БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### АРОЕ ГЕНИ Leu28Pro ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ МЕТАБОЛИК СИНДРОМ ВА УНИНГ ЮРАК ИШЕМИК КАСАЛЛИГИ БИЛАН КОМОРБИД ХОЛАТ РИВОЖЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ

Мусашайхов У.Х., Сагтаров О.Х., Бобоев К.Т., Арипов О.А.  
Андижон давлат тиббиёт институти

**Мавзунинг долзарблиги:** Сўнги йилларда жаҳон амалиётида МСни эрта ташхислаш, прогноз қилиш, даволаш ва олдини олиш усуллари такомиллаштириш бўйича бир қатор илмий тадқиқотлар ўтказилмоқда. ЖССТ мутахассисларининг маълумотларига кўра, “сайёраамиздаги ҳар тўртинчи аҳоли метаболик синдромдан азият чекмоқда”. Хитой, Испания, Россия, АҚШ каби кўплаб мамлакатларда МС ва ЮИКнинг тарқалиши тез суръатларда ошиб бораётгани ташвишга солмоқда

Аҳоли орасида MetC тарқалишининг ортиши, беморларнинг ҳаёт сифати пасайишига ва соғлиқни сақлаш билан боғлиқ иқтисодий харажатларнинг ошишига сабаб бўлади. Шу сабабли, MetC ва унинг қон-томир асоратларини ривожланишини наслий предикторларини аниқлаш орқали бу хасталикни эрта ташхислаш ва олдини олиш, шунингдек, самарали даволаш-профилактика чора-тадбирларини ишлаб чиқиш замонавий тиббиётнинг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Бугунги кунда МС ва ЮИКни ривожланишида турли хавф омиллари, жумладан, ушбу касалликларга генетик мойиллик аниқланган. Ҳозирги вақтда МС тарқалиши тез суръатларда ўсиб бормоқда ва бу муаммо катта тиббий-ижтимоий хавф касб этмоқда

Турли кенг кўламли тадқиқотлар маълумотларига кўра, бугунги кунда бутун дунё бўйлаб МС 10% дан 60% гача аҳолида аниқланмоқда ва бу кўрсаткич ёш ортиши билан, айниқса ўрта ва кекса ёшдаги кишилар орасида (30–40%) кескин ортиб бормоқда. МС аниқланиш даражаси, аввало, аҳолининг турмуш даражасига ва, катта даражада, ушбу патологик ҳолатни диагностика қилиш мезонларига боғлиқ. Умумий популяцияда МС 20–29 ёшдаги одамлар орасида 5–10% аҳолида, 30–69 ёш оралиғида 25–40% да, 70 ёш ва ундан катта ёшдаги аҳолининг 40–45% да учрайди.

**Тадқиқот мақсади:** АРОЕ гени Leu28Pro полиморфизмининг метаболик синдром ва унинг юрак ишемик касаллиги билан коморбид ҳолат ривожланишидаги аҳамияти.

**Тадқиқот материал ва усуллари:** Молекуляр-генетик тадқиқот учун материал сифатида метаболик синдроам ва юрак ишемик касаллиги ташҳиси қўйилган АДТИ клиникаси 1-кардиология бўлимида стационар шароитда даволанган 102 нафар беморни периферик қони ишлатилган.

Шундай қилиб, ушбу беморлардан 3 та кичик гуруҳлар шакллантирилди: - 1- кичик гуруҳи: юрак ишемик касаллиги (ЮИК) ассоцирланган метаболик синдром (MetC) мавжуд беморлар гуруҳи (n=36); - 2-кичик гуруҳи: ЮИК билан ассоцирланмаган MetC аниқланган беморлар гуруҳи (n=32); - 3 кичик гуруҳи: MetC кузатилмаган ЮИК мавжуд беморлар гуруҳи (n=34).

Беморларнинг жинси бўйича олинган маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, асосий гуруҳдаги 102 нафар беморларнинг 46.0% ни эркеклар ҳамда 54.0% ни аёллар ташкил этди.

**Тадқиқот натижалари:** Олинган маълумотлар, асосий гуруҳ беморлари ва номзод-ген АРОЕ Leu28Pro ижобий Leu ва салбий Pro аллеллари ўртасида ишонарли ассоциациясини қайд этмади (94.1% қарши 96.5%;  $\chi^2=1.3$ ;  $p=0.3$ ; OR=0.6; 95%CI:0.22-1.47 ва 5.9% қарши 3.5%;  $\chi^2=1.3$ ;  $p=0.3$ ; OR=1.7; 95%CI:0.68-4.47). Бироқ МС ва ЮИК га мойиллик имкониятини баҳолаш салбий Pro аллелнинг ушбу патологиялар ривожланиш хавфига таъсир кўрсатади, бунга мувофиқ МС ва ЮИК билан касалланиш имконияти кўрсатилган аллеларни ташувчиларда ушбу аллел аниқланмаган шахсларга нисбатан 1.7 марта ортишига суэт тенденция мавжуд. Асосий гуруҳ беморларнинг АРОЕ гени Leu28Pro полиморф маркёри гомзигот Leu/Leu ва гетерозигот Leu/Pro генотипларини ташувчилари, таққослаш гуруҳидан статистик аҳамиятли даражада фарқ қилмади (89.2% қарши 93.1% ва 9.8 қарши 6.9%) (4.6-расм). Гетерозигот Leu/





Pro генотиби ташувчилари асосий беморлар гуруҳида назоратга нисбатан сезиларсиз юқори булишига қарамай, ушбу генотип MC ва ЮИК ривожланиши хавфини 1.5 марта оширишига суэт тенденция мавжуд бўлди ( $\chi^2=0.5$ ;  $p=0.5$ ;  $OR=1.5$ ;  $95\%CI:0.54-3.98$ ). Pro/Pro гомозигот генотип эса асосий гуруҳ беморларининг 1.0% да аниқланган бўлса, респондентлар орасида ушбу генотип қайд этилмаган.

MC кузатилмаган ЮИК мавжуд беморлар гуруҳининг барча иштрокчиларида APOE гени Leu28Proполиморфизмининг ижобий Leu/Leu генотиби аниқланди, салбий ва гетерозигот генотиплар ушбу гуруҳ беморларида қайд этилмади.

Назорат гуруҳи ва асосий гуруҳнинг 2-3 кичик гуруҳлари текширилувчиларидан фаркли равишда, ЮИК билан ассоцирланган MC мавжуд беморларнинг кичик гуруҳида APOE гени Leu28Proполиморфизмининг салбий Pro/ Pro генотиби 2.8% холатларда аниқланди.

ЮИК билан ассоцирланган MC мавжуд беморлар гуруҳида минор Pro аллел ва гомозигот Leu/Pro генотипларнинг сезиларли устуворлиги аниқланди (15.3% қарши 3.5%; ва 25.0% қарши 6.9%), бошқача қилиб айтганда, ушбу шахсларда юқоридаги салбий аллел ва гетерозигот генотипнинг борлиги MCга мойиллик ва унинг ЮИК билан синтропияси хавфини ишонарли равишда 4.5 ва 5.0 марта оширади ( $\chi^2=12.1$ ;  $p=0.01$ ;  $OR=5.0$ ;  $95\%CI:2.02-12.49$  ва  $\chi^2=8.4$ ;  $p=0.01$ ;  $OR=4.5$ ;  $95\%CI:1.62-12.33$ )

Аксинча, юқоридаги патологиялар мавжуд беморларга нисбатан шартли-соғлом шахсларда Leu ижобий аллелнинг учраш даражаси юқорилиги билан Leu/Leu ёввойи гомозиготали генотипнинг устуворлиги қайд этилди (86.7% қарши 96.5% ва 72.2% қарши 93.1%). Шундай қилиб, ўтказилган тадқиқотлар натижалари ушбу аллел ва генотипларнинг касаллик ривожланишига қарши протектив таъсирини кўрсатди ( $\chi^2=12.1$ ;  $P=0.01$ ;  $OR=0.2$ ;  $95\%CI:0.08-0.49$  ва  $\chi^2=10.6$ ;  $p=0.01$ ;  $OR=0.2$ ;  $95\%CI:0.07-0.52$ )

ЮИК билан ассоцирланмаган MC мавжуд беморлар гуруҳида мутант аллел «Pro» назорат гуруҳидагига нисбатан ахамиятсиз даражада кам учради (1.6% ва 3.5%) мос равишда, «ёввойи» аллел «Leu» эса беморларнинг 2-кичик гуруҳида кўпроқ учради (98.4% - беморлар гуруҳида; 96.5% – назорат гуруҳида), лекин иккала гуруҳда ҳам кўрсаткичлар фарқи статистик жихатдан ахамиятли эканлиги аниқланмади ( $\chi^2<3.84$ ;  $p>0.05$ )

ЮИК билан ассоцирланмаган MC мавжуд беморлар гуруҳида «Leu/Leu» генотипик варианты назорат гуруҳига нисбатан кўп учради. Қизиқарли томони шундаки, метаболик синдром ривожланган беморлар гуруҳи билан таққослаганда «Leu/Pro» гетерозигот генотиби частотаси назорат гуруҳида юқори нисбатда эканлиги аниқланди (3.1% – беморлар гуруҳида; 6.9% – назорат гуруҳида). Аммо, шунга қарамай гуруҳлар ўртасида статистик жихатдан ахамиятли фарқлар аниқланмади ( $\chi^2<3.84$ ;  $p>0.05$ )

**Хулоса.** Шундай қилиб, генетик тестлар MC ва ЮИК синтропияси ривожланиш хавфини аниқлашда муҳим ахамият касб этади. SOD2, LEPR ва APOE генлари полиморф локусларини тадқиқ қилиш, индивидуал даражада профилактика ва даволаш стратегияларини шакллантириш имконини беради. Бу эса тиббий хизмат кўрсатишда шахсий ёндашувни жорий этиш учун муҳимдир.





МЕТАБОЛИК СИНДРОМ ВА УНИНГ ЮРАК ИШЕМИК КАСАЛЛИГИ  
БИЛАН LEPR ГЕНИ ARG223GLN ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ КОМОРБИД  
РИВОЖЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ

Саттаров О.Х., Бобоев К.Т., Арипов О.А., Мусашайхов У.Х.  
Андижанский давлат тиббиёт институти

**Мавзунинг долзарблиги** Ҳозирги вақтда МС эпидемиологияси ва патогенезини ўрганишда бир қатор муҳим муаммолар юзага келмоқда. Дунёнинг турли мамлакатларида МС ва унинг алоҳида компонентларининг тарқалиши бўйича етарлича маълумот тўпланган бўлса-да, МС диагностика мезонларининг ягона стандартлаштирилмаганлиги сабабли ўтказилган тадқиқотлар натижаларини солиштириш деярли имконсиз бўлиб қолмоқда. Сўнгги йилларда молекуляр генетиканинг асосий тадқиқот объекти МС бўлиб, у бир қатор метаболик ва гормонал бузилишларни ўз ичига олади. МСнинг алоҳида компонентлари бўлган семизлик, АГ, ИР ва дислипидемиянинг ривожланиши билан боғлиқ бўлган бир қатор генетик полиморфизмлар аниқланган. Шу билан бирга, ҳозирги кунгача МСнинг ҳар бир компоненти мустақил равишда мерос қилиб олинadими ёки улар умумий молекуляр-генетик детерминантларга эгами, деган савол тўлиқ аниқланмаган. Бундан ташқари, синдромнинг тарқалиши ва прогноз аҳамиятидаги популяцион фарқлар айрим генларнинг роли ва уларнинг турли популяциялардаги ўзаро таъсирга боғлиқ бўлиши мумкин.

Шу муносабат билан, тадқиқотчилар МСга генетик мойилликнинг молекуляр-генетик омилларини ўрганишга ва уларнинг полиморфизмларининг синдромнинг турли компонентлари билан боғлиқлигини таҳлил қилишга тобора кўпроқ эътибор қаратмоқдалар. Бунинг учун турли ёндашувлардан фойдаланилади, улардан бири МСга мойиллик келтириб чиқарувчи номзод генларни таҳлил қилишусулдир. Шунингдек, МСнинг липопротеинлар метаболизи билан боғлиқ генларнинг полиморфизмлари билан ассоциацияси ҳақида хабарлар мавжуд.

**Тадқиқот мақсади:** метаболик синдром ва унинг юрак ишемик касаллиги билан Lepr гени Arg223gln полиморфизмининг коморбид ривожланишидаги аҳамияти.

**Тадқиқот материал ва усуллари:** Молекуляр-генетик тадқиқот учун материал сифатида метаболик синдроам ва юрак ишемик касаллиги ташҳиси қўйилган АДТИ клиникаси 1-кардиология бўлимида стационар шароитда даволанган 102 нафар беморни периферик қони ишлатилган.

Шундай қилиб, ушбу беморлардан 3 та кичик гуруҳлар шакллантирилди: - 1- кичик гуруҳи: юрак ишемик касаллиги (ЮИК) ассоцирланган метаболик синдром (MetC) мавжуд беморлар гуруҳи (n=36); - 2-кичик гуруҳи: ЮИК билан ассоцирланмаган MetC аниқланган беморлар гуруҳи (n=32); - 3 кичик гуруҳи: MetC қузатилмаган ЮИК мавжуд беморлар гуруҳи (n=34).

Беморларнинг жинси бўйича олинган маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, асосий гуруҳдаги 102 нафар беморларнинг 46.0% ни эркаklar ҳамда 54.0% ни аёллар ташкил этди.

Ушбу тадқиқот доирасида «Метаболик синдром» касаллигининг ривожланиши ҳамда унинг ва юрак ишемияси касаллиги билан синтропиясида генетик омилларнинг роли кенг қўламда ўрганилди. Жумладан, LEPR (Arg223Gln), SOD2 (Ala16Val, C60T, C58T), LEP (G-2548A) ва APOE (Leu28Pro) ДНК полиморфизмларининг аллеллари ҳамда генотипларининг тарқалиш частоталари аниқланди. Бундан ташқари, юқоридаги генетик маркерларнинг MetC ва унинг ЮИК билан коморбид ҳолат ривожланишидаги таъсир кўрсатувчи омил сифатидаги ўрни баҳоланди.

**Тадқиқот натижалари:** LEPR гени Arg223Gln полиморфизмининг ёввойи Arg аллели тақсимланишида сезиларли фарқлар аниқланди ва бу кўрсаткич респондентлар орасида юқори бўлди ҳамда ушбу Arg аллелнинг мавжудлиги МС ҳамда ЮИК ривожланишига ўзининг протектив таъсирини ифодалади (78.0% қарши 86.0%;  $\chi^2=4.0$ ;  $p=0.04$ ; OR=0.6; 95%CI:0.35-0.09). Функционал жихатдан салбий Gln аллели таҳлил қилинганда беморлар ва назорат гуруҳи орасида учраш даражаси орасида ҳам сезиларли тафовут аниқланган ҳамда ушбу аллел беморлар гуруҳида 22.0% ни ташкил этиб шартли-соғлом шахслар гуруҳига нисбатан юқори кўрсаткичга эга бўлган, мос равишда ушбу аллель респондентлар орасида 14.0% ҳолатларда қайд этилган. Беморлар орасида салбий Gln аллели мавжудлиги МС ва ЮИК ривожланиш эҳтимолини 1.7 мартта оширади ( $\chi^2=4.0$ ;  $p=0.04$ ; OR=1.7; 95%CI:1.01-2.82).

Яъни, олинган маълумотлар LEPR гени Arg223Gln полиморфизмининг салбий Gln аллели



касалликка бўлган мойилликка муҳим ҳисса қўшиб, ушбу патологиянинг ривожланиши учун асосий башоратлаш омилларидан бири ҳисобланади. Шу билан бирга, асосий гуруҳ беморлари ва назорат намуналарида LEPR гени (Arg223Gln) генотипларининг тақсимланиши даражаси қиёсий таҳлил қилинганда ишончли фарқлар аниқланмаган ( $\chi^2 < 3.84$ ;  $p > 0.05$ ). Беморлар гуруҳига нисбатан назорат гуруҳида ёввойи Arg/Arg генотиби ахамиятсиз равишда кўп тарқалган (63.7% қарши 75.2%;  $\chi^2 = 3.2$ ;  $p = 0.08$ ; OR=0.6; 95%CI:0.32-1.06)

Аммо, статистик ахамиятсиз фарқларга қарамай, ушбу геннинг гетерозигот Arg/Gln ва мутант Gln/Gln генотиплари MC ва ЮИК коморбид ҳолатлари ривожланишига олиб келадиган потенциал хавфли генотиплар ҳисобланади. Статистик таҳлил натижалари шуни баён қилдики, юқоридаги иккита генотип аниқланганда ушбу патологияларнинг ривожланиш хавфи назорат гуруҳига нисбатан 1.5 ва 2.0 мартга юқори бўлди (28.4% қарши 20.8%;  $\chi^2 = 1.6$ ;  $p = 0.24$ ; OR=1.5; 95%CI:0.79-2.89 ва 7.8% қарши 4.0%;  $\chi^2 = 1.4$ ;  $p = 0.2$ ; OR=2.0; 95%CI:0.60-7.08)

Натижалардан шуни таъкидлашимиз мумкинки, LEPR генетик (Arg223Gln) локусининг ижобий Arg аллели MC ҳамда унинг ЮИК билан ассоцирлашишининг муҳим ҳимоя аллели деб ҳулоса қилинган бир вақтда, ушбу генетик маркернинг мутунт Gln аллеллик варианты эса юқоридаги патологик ҳолатлар ривожланиш хавфини ошириши қайд этилди.

Ушбу полиморф маркер генотипларининг гуруҳлараро тақсимланиши ўрганилганда ЮИК ассоцирланган MC мавжуд беморлар гуруҳида мутант Gln/Gln генотипларининг учраш частотасини ортиши, шу билан бир вақтда, соғлом назорат гуруҳига қараганда ижобий Arg/Arg генотипининг улуши камайиши қайд этилди. Мутант Gln/Gln генотипининг учраш частотаси беморларнинг 1-кичик гуруҳида 13.9%, назорат гуруҳида 4.0% бўлди. Arg/Arg генотиплари частотаси эса куйидагича бўлди: беморлар гуруҳида 55.6% ҳамда назорат гуруҳида 75.2%. Бу фарқланишлар статистик аниқ характерга эга бўлиб, LEPR гени Arg223Gln полиморфизмининг MC ҳамда ЮИК ривожланиши билан ассоциацияланувига далолат қилади. Бунда салбий гомозигот Gln/Gln генотипининг ташувчанлиги касаллик ривожланиши хавфи ортиши билан аниқ боғлиқдир ( $\chi^2 = 4.3$ ;  $P = 0.04$ ; OR=3.9; 95%CI:0.99-15.48). Ёввойи Arg/Arg генотип, аксинча, протектив маркер ҳисобланади ( $\chi^2 = 4.9$ ;  $P = 0.03$ ; OR=0.4; 95%CI:0.19-0.91).

Бундан ташқари Arg/Gln гетерозигот генотипини учраш даражаси таҳлил қилинганда, ушбу генотипнинг ЮИК ассоцирланган MC мавжуд беморларда учраши назорат гуруҳига нисбатан фарқли бўлмаган. Ахамиятсиз фарқларга қарамай ушбу гетерозигот генотип юқоридаги патологиялар ривожланиши ва синергизмини (OR=1.5) кучайтиришига тенденцияси мавжуд (30.6% нисбатан 20.8%;  $\chi^2 = 1.4$ ;  $p = 0.2$ ; 95%CI:0.71-3.95)

**Хулоса.** Шундай қилиб, натижаларимиз LEPR гени Arg223Gln полиморфизмининг MC ҳамда ЮИК ривожланиши билан ассоциацияланувига далолат қилади. Бунда салбий гомозигот Gln/Gln генотипининг ташувчанлиги касаллик ривожланиши хавфи ортиши билан аниқ боғлиқ бўлиб, ушбу тоифадаги беморлар MC ва ЮИК билан коморбид ҳолатлар ривожланишининг юқори хавф гуруҳига кириб, мақсадли превентив муолажалар ўтказиш объекти ҳисобланса, ёввойи Arg/Arg генотип эса, аксинча, ушбу турдаги патологик жараёнлар ривожланишига протектив эффектни намоён қилади.



ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

PREGABALINNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI  
USULIDA ANIQLASH SHAROITLARINI ISHLAB CHIQUISH

**Boisxo'jayeva A.A'**

Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova  
nomidagi Respublika Sud ekspertiza  
markazi katta eksperti, 3-darajali yurist  
Toshkent Farmasevtika instituti Mustaqil izlanuvchisi(PhD)  
www.aboisxojaeva@mail.ru

**Xalilova N.Sh.**

Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova  
nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining  
Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i,  
farmatsevtika fanlari nomzodi, 3-darajali adliya maslahatchisi

**Usmanaliyeva Z.U.**

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti,  
analitik va farmatsevtik kimyo kafedrasi mudiri,  
farmatsevtika fanlari doktori, professor

**Annotatsiya** Pregabalinning yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX) usulida tahlil sharoitlari ishlab chiqildi. Olingan natijalarga ko'ra, Pregabalinning ushlanish vaqti 4,783 daqiqani tashkil qildi Pregabalinning YuSSX usulida ishlab chiqilgan tahlil sharoitlarida miqdoriy tahlili o'tkazildi. Usulning Pregabalin uchun chiziqlilik diapazoni 0,05-0,25 mkg va sezgirligi 0,01 mkg tashkil qilishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Pregabalin, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli, xromatogramma, ushlanish vaqti, chiziqlilik, aniqlilik.

**Dolzarbli.** Bugungi kunda giyohvand vositalari bilan bir qatorda, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bilan ham qonunga xilof ravishda muomala qilish insonlarning sog'ligi hamda farovon hayot kechirishiga jiddiy havf solmoqda. Psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni noqonuniy ravishda voyaga yetmaganlar yoki nosog'lom odamlar tomonidan iste'mol qilinishi oqibatida, yosh oilalarning barbod bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda sir emaski psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni noqonuniy ravishda iste'mol qilish holatlarining uchrab turishi hamda yoshlarimizning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib yetishishlari, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilgan bo'lishiga qaramay, shu kabi moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni sodir qilishlari va giyohvandlik yo'liga kirib ketayotganligi achinarli holdir. Hozirgi kunda sud ekspertiza amaliyotida ko'plab uchrayotgan – pregabalin dori preparati shular jumlasidandir.

**Tadqiqotning maqsadi:** So'nggi yillarda sud ekspertiza amaliyotida tadqiqot ob'ekti sifatida uchrayotgan noma'lum tarkibli kapsulalar tarkibini yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida tahlil qilishning maqbul sharoitlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

**Usullar va uslublar:** Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi - bu murakkab aralashmadagi turli komponentlarni ajratish, aniqlash va miqdorini aniqlash uchun keng qo'llaniladigan kuchli analitik usul hisoblanadi. Uslubni ishlab chiqish uchun Amerikaning "Shimadzu" korxonasi ishlab chiqarilgan Shimadzu rusumli yuqori samarali suyuqlik xromatografida – o'zgaruvchan to'lqin uzunligi 190 dan 600 nm gacha bo'lgan UB detektor bilan jihozlangan suyuqlik xromatografidan foydalanildi. Izlanishlar quyidagi sharoitlarda olib borildi: xromatografik kolonka – 4,6x250 mm; sorbent – LiChospher 100RP-18e; zarracha o'lchami – 5 mkm; deteksiyalash to'lqin uzunligi – 220 nm; mobil faza – asetonitril : ammoniy asetat (50:50); elyuent oqimi tezligi – 1,0 ml/daqiqqa; kolonka harorati – 30°C; tahlil davomiyligi 15 daqiqani tashkil qildi. Pregabalinning standart namunasidan 10,0 mg (a.t) tortilib, sig'imi 50 ml bo'lgan o'lchov kolbasida asetonitril : ammoniy asetat bilan eritildi va



eritmaning hajmi belgisigacha yetkazildi. Ushbu eritmadan 1 ml olinib eritmaning hajmi 10 ml o'lov kolbasiga solindi va hajmi qo'zg'aluvchi faza bilan chizig'igacha yetkazilib, pregabalinning tahlili amalga oshirildi. So'ngra olingan pregabalinning standart namuna eritmasidan 0,5ml hajmda olib xromatografiya qilindi. Pregabalinni miqdorini aniqlash uchun xromatografik cho'qqi balandligini moddaning konsentratsiyasiga bog'liqlik chizmasi tuzildi. Buning uchun tarkibida 0,05-0,25 mkg/ml pregabalinning standart moddasini saqlagan ishchi eritmalar tayyorlandi. Ushbu eritmalarining namunalarini mikroshprits yordamida 0,5 ml hajmda xromatograf injektoriga ketma-ket yuborildi va xromatografiya qilindi. Tahlil uchun olingan pregabalinning miqdorlari va ularga mos keluvchi xromatografik cho'qqi maydon yuzalariga bog'liqlik asosida kalibrlash chizmasi asbob boshqaruv dasturi orqali tuzildi.

**Natijalar:** Pregabalinni yuqoridagi sharoitda xromatografiya qilinganda, ushlanish vaqti 4,783 daqiqani tashkil qildi. Ishlab chiqilgan sharoitda yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida standart eritma tarkibidagi pregabalinning miqdori aniqlandi. Pregabalinning miqdori 0,05-0,25 mkg/ml konsentratsiya oralig'ida tuzilgan kalibrlash chizmasi orqali aniqlandi. Pregabalinning yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida aniqlash chegarasi 0,01 mkg/ml tashkil etdi. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida aniqlangan pregabalinning standart eritmasidagi miqdori 99,9 % ni tashkil etdi.

**Xulosa:** Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tahlil qilinayotgan namuna tarkibidagi pregabalin moddasini yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida aniqlashning mo'tadil sharoitlari tanlab olindi. Olingan natijalar sud-kimyoy amaliyotida biologik ob'yekt va biologik suyuqliklar tarkibidan ajratib olingan pregabalinni aniqlashda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar:

1. Xalilova N.Sh. Ekspertizaga taqdim qilingan kam miqdordagi yoki turli xil predmet tashuvchilardagi modda qoldiqlarini aniqlash usullari. // Ekspertlar uchun uslubiy tavsiya. – Toshkent, 2022.- 32b.
2. Швайкова М.Д., /Токсикологическая химия - М. – 1975. - 376с.
3. Азарова, И.Н. Новые возможности высокоэффективной жидкостной хроматографии: Базы данных «ВЭЖХ-УФ» И.Н. Азарова, С.С. Барсегян, Г.И. Барам // Хроматография на благо России под ред. А.А. Курганова. М. : Граница, 2007. - С. 653-665.
4. Высокоэффективная газовая хроматография: пер. с англ. под ред. К. Хайвера. М. : Мир, 1993. - 288 с.
5. Высокоэффективная жидкостная хроматография в контроле качества лекарственных средств Г.И. Барам и др. // Фарматека. 2005. -№2.-С. 12-18.
6. Abdullaeva M.U., Usmanalieva Z.U., Khalilova N.Sh., Boisxojaeva A.A. "Expert method for examining trace amounts of the psychotropic substance pregabalin using gas chromatography with a mass spectrometer detector", In: Proceedings of the IV International Scientific and Practical Conference, Ukraine, Kharkiv, 2020, pp. 93- 94.





СПЕЦИФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ МАСЛЯНОГО ЭКСТРАКТА КУРКУМЫ  
ДЛИННОЙ СУРХАНДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА

Турсунова М.Р.<sup>а</sup>, Солиев А.Б.<sup>б</sup>, Иногамов У.К.<sup>а</sup>

<sup>а</sup>Ташкентский научно-исследовательский институт вакцины и сывороток,  
100084, Ташкент, р.Юнусабад, ул.Чингиз Айтматов, тел.:(+99871)234-77-67  
e-mail:[malikaphd@mail.ru](mailto:malikaphd@mail.ru)

<sup>б</sup>Ташкентский Туринский политехнический университет,  
100095, Малая кольцевая автомобильная дорога 17, Ташкент,  
тел.; (+99871) 246-80-52

Куркумин или диферулоилметан с химической формулой из (1,7-бис (4-гидрокси-3-метоксифенил) -1,6-гептадиен-3,5-dione), и другие куркуминоиды составляют основные фитохимические вещества *Curcuma longa* L. (Zingiberaceae семейство) корневище с общим названием куркума. Это полифенольное соединение за счет множества биологических свойств привлекает значительное внимание исследователей во всем мире. В качестве основного источника куркумина считается *Curcuma longa*, которая используется как древнее красящее специя в Азии. Как и многих других источников растительного сырья, содержание куркумина в *Curcuma longa* из разных географических регионов отличаются, может быть связано с гибридизацией с другими видами куркумы, содержание куркумина. Корневище *Curcuma longa* традиционно использовалось в качестве противомикробного средства; и репеллента от насекомых. В нескольких исследованиях сообщалось антибактериальной, противовирусной, антигрибковой и противомаларийной активности куркумина, и безопасности в высоких дозах (12 г/день) в клинических испытаниях на людях, куркумин использован при разработке новых противомикробных препаратов с модифицированным и усиленным действием. Изучено как противомикробное действие, в текстильной промышленности. Результаты показали, что куркумин в сочетании с алоэ вера и хитозаном может подавлять рост микробов в хлопке, шерста и кроличьем мехе оценивали методом исчерпания. Непрерывный или периодический процесс окрашивания куркумином. Помимо цвета очищал текстиль от антимикробов. Шерсть, обработанная куркумином, обладала антимикробным свойством, на 45% и 30% против *Staphylococcus aureus* и *Escherichia coli* после 30 циклы домашней стирки. Смесь куркумина с другими противомикробными средствами используются для кожных гелей и эмульсий. Гель и эмульсии куркумина с нано частицами гидрогеля серебра в сочетании с другими противомикробными средствами значительно улучшает заживления кожных ран. Микроэмульсия миристиновой кислоты с содержанием с 0,86 мкг / мл куркумина, подавляет 50% роста *S. Epidermidis*, часто встречающейся внутрибольничной инфекции и в 12 раз сильнее по сравнению с активностью куркумина, растворенного в диметилсульфоксид (ДМСО) [2].

Целью исследований являлось специфическая активность изучение масляного экстракта длинной куркумы Сурхандарьинского региона.

Влияние масляных экстрактов на острое асептическое воспаление изучали на 24 белых крысах обоего пола. У крыс предварительно измеряли исходный объём лапки (мл) в норме [2].

Для эксперимента крыс разделили на группы по 6 особей в каждой:

1 группа – контрольная – 0,1 мл 6% раствор декстрана;

2 группа – опытная – в/ж масляный экстракт длинной куркумы Сурхандарьинского региона в дозе 500 мг/кг + 0,1 мл 6% раствора декстрана;

3 группа – опытная – в/ж масляный экстракт длинной куркумы Индия в дозе 500 мг/кг + 0,1 мл 6% раствора декстрана;

4 группа – опытная – «Диклофенак натрия» производства ОАО «Борисовский завод медицинских препаратов», Беларусь в дозе 10 г/кг + 0,1 мл 6% раствора декстрана.

Острую воспалительную реакцию (отёк) воспроизводили субплантарным (между 1 и 2 пальцами левой задней лапки) введением 0,1 мл 6% раствора декстрана. Сравнимые масляные экстракты вводили желудочно за час до введения декстрана. Выраженность воспалительной реакции оценивали через 1 ч, 2 ч, 3 ч и 4 часа после индукции воспаления по изменению объёма лапы с помощью плетизмометра.

Противовоспалительную активность (ПВА) вычисляют по формуле:

По  $PVA = \frac{Po - Pk}{PK} * 100$ , где





По – прибавка объёма лапки в опытной группе;

Пк – прирост объёма лапки в контрольной группе.

Полученные при изучении противовоспалительной активности масляного экстракта длинной куркумы Сурхандарьинского региона показывают, что экстракт через 1 час уменьшил отек воспалённой лапки на 25,7%, через 2 часа – на 33,3%, через 3 часа - на 31,8%, а через 4 часа - на 31% по сравнению с контролем. ПВА экстракта составила 24,9-33,8.

Изучение специфической активности масляного экстракта длинной куркумы Индия показало, что через 1 час отек воспалённой лапки уменьшился на 23,7%, через 2 часа – на 23,6%, через 3 часа - на 31,8%, а через 4 часа - на 33,8% по сравнению с контролем. ПВА экстракта составила 23,4-33,4.

Изучение специфической активности препарата «Диклофенак натрия» производства ОАО «Борисовский завод медицинских препаратов», Беларусь показало, что через 1 час отек воспалённой лапки уменьшился на 19,5%, через 2 часа – на 35,4%, через 3 часа - на 38,6%, а через 4 часа - на 46,4% по сравнению с контролем. ПВА препарата составила 19,7-46,3.

Таблица 1

**Изучение специфической активности масляного экстракта *Curcuma longa* Сурхандарьинского региона и масляного экстракта *Curcuma longa* Индии.**

Группы	Исход-ный объем лапы, см <sup>3</sup>	1 час		2 часа		3 час		4 часа	
		Абс. Объем лапы, см <sup>3</sup> /объем отёка, см <sup>3</sup>	ПВА	Абс. Объем лапы, см <sup>3</sup> /объем отёка, см <sup>3</sup>	ПВА	Абс. Объем лапы, см <sup>3</sup> /объем отёка, см <sup>3</sup>	ПВА	Абс. Объем лапы, см <sup>3</sup> /объем отёка, см <sup>3</sup>	ПВА
Контроль	0,88±0,03	<u>1,85±0,06*</u> 0,97±0,04	-	<u>1,81±0,04*</u> 0,93±0,02	-	<u>1,75±0,07*</u> 0,88±0,07	-	<u>1,58±0,05*</u> 0,71±0,05	-
Диклофенак	0,89±0,03	<u>1,67±0,04*</u> 0,78±0,01**	19,7	<u>1,49±0,09*</u> 0,60±0,07**	35,7	<u>1,43±0,06*</u> 0,54±0,04**	38,4	<u>1,27±0,05*</u> 0,38±0,04**	46,3
масляный экстракт длинной куркумы Сурхандарьинского региона	0,96±0,07	<u>1,69±0,07*</u> 0,72±0,03**	24,9	<u>1,58±0,05*</u> 0,62±0,03**	33,8	<u>1,56±0,04*</u> 0,60±0,04**	31,4	<u>1,45±0,05*</u> 0,49±0,06**	30,8
масляный экстракт длинной куркумы Индия	0,85±0,05	<u>1,59±0,06*</u> 0,74±0,01**	23,6	<u>1,56±0,05*</u> 0,71±0,05**	23,4	<u>1,46±0,03*</u> 0,60±0,05**	31,2	<u>1,32±0,05*</u> 0,47±0,08**	33,4

Примечание: \*\*-достоверно по отношению к исходным показателем при P<0,05. Таким образом, изучение специфической активности исследуемых масляных экстрактов показало, что экстракты равнозначно достоверно влияют на декстриновой отёк у крыс. Экспериментальное изучение противовоспалительной активности масляного экстракта длинной куркумы Сурхандарьинского региона, обладает противовоспалительной активностью.

**Литература:**

1. Hindawi Publishing Corporation BioMed Research International Volume 2014, Article ID 186864, 12 pages. A Review on Antibacterial, Antiviral, and Antifungal Activity of Curcumin. Soheil Zorofchian Moghadamtousi, Habsah Abdul Kadir, Pouya Hassandarvish, Hassan Tajik, Szaly Abubakar, Keivan Zandi.

2. Методические указания в Руководстве по экспериментальному (доклиническому) изучению новых фармакологических веществ. Под общей редакцией члена-корреспондента РАМН, профессора Р. У. ХАБРИЕВА. Издание второе, переработанное и дополненное/. М.: - 2005. - М.: ОАО «Издательство «Медицина», 2005.- 830с.



**БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

**APORRECTODEA CALIGINOSA TRAPEZOIDES ЁМҒИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ  
ТУПРОҚ МУХИТИДА ТАРҚАЛИШИ**

**Хусниддин Боймуродов**

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,  
чорвачилик ва биотехнологиялар университети профессори

**Пардаев Юнус Собирович**

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича  
мутахассисларни қайта тайёрлаш ва  
малакасини ошириш институти

Самарқанд филиали катта ўқитувчиси

**Хафизова Малика**

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси  
чорвачилик ва биотехнологиялар университети магистри

**Аннотация**

Тадқиқотлар натижасида *Aporrectodea rosea* (Savigny, 1826) танасининг узунлиги 36-151 мм, диаметри 3-7 мм. Ҳалқалари сони 71 дан 172 тагача, териси рангсиз. Танаси кесими тўғарак, бош тузилиши эпилобик шаклда, орқа тешиклари 4-5-ҳалқалар оралиғидан бошланади. Туклари ўзаро яқин жойлашган, аб туклар йўналиши бўйлаб 9-12 ва белбоғ камари ҳалқаларида безли папиллалари бор. Эркаклик жинсий тешиги 15-16 ҳалқада жойлашган бўлиб, атрофи без билан қопланган. Белбоғ камари 24-25 ёки 26-ҳалқалардан бошланиб, 31,32, 33- ҳалқаларгача давом этади.

**Калит сўзлар:** *aporrectodea caliginosa trapezoides*, ёмғир чувалчанги, тупроқ намлиги, максимал таъсир.

Ўрта Осиё ва Ўзбекистоннинг чўл, адир ва тоғ минтақалари тупроқ ресурсларидан кенг фойдаланиб келинмоқда. Тупроқ, сув, ҳаво ва турли организмларнинг биргаликдаги таъсири натижасида тоғ жинсларининг табиий ҳолда ўзгарган ташқи қатламидир. Тупроқнинг мухит сифатида организм учун кўрсатадиган асосий хусусиятларига унинг табиий ва кимёвий таркиби ҳамда унда моддаларнинг айланиб туриши, яъни газлар, сув, органик ва минерал моддаларнинг ион ҳолида айланишлари кабилар киради. Шу билан бирга тупроқда тарқалган ўсимлик ва ҳайвон турлари унинг табиий-кимёвий хусусиятларининг ўзгаришига ҳам сабабчи бўлади. Ҳозирги вақтда Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида ёмғир чувалчанларининг тарқалишига абиотик омилларнинг таъсирини ўрганиш долзарб муаммолардан бири бўлиб ҳисобланади [4.5.6,8,11].

Ёмғир чувалчанглари фаунаси ва экологиясини ўрганиш бўйича K.Sharma, V.K.Garg (2018), D.F.Marchán, Cs.Csuzdi (2021), R.A. Atabak va boshq (2021), G.N.Ganin (2013), A.P.Geraskina (2016), S.V.Shexovsov va boshq., (2016), M.N.Kim-Kashmenskaya (2016), S.A.Ermolovlarning (2019), S.Dadayev, A.Raxmatullayev, T.Kobilov, U.Raxmatov (2004), Asirovich (2011) L.Ғофурова,(2014), D.Egamberdiyeva (2010) va O.X. Ergasheva (2018) тадқиқотлар олиб боришган [1,2, 3,7,9,10].

Қуйи Зарафшон худуди ва унга яқин бўлган минтақаларда ёмғир чувалчангларининг таксономик рўйхатини шакллантириш мақсадида шу кунгача мавжуд маълумотлар ва ўзимизнинг тадқиқотларимиздан олинган натижалар асосида таҳлил ўтказдик.

Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида ёмғир чувалчангларининг узунлиги 15 -20 см дан ошмайди. Танасидаги ҳалқалар сони ўртача 80 дан 258 гача бўлиши таҳлил қилинди. Ҳар бир ҳалқасида 4 жуфтдан ёки ундан кўпроқ туклар бор. Туклар ёмғир чувалчанлари ҳаракатланганда таянч бўлиб хизмат қилади. Махсус сезги органлари ривожланмаган, бироқ терисида жуда кўп сезгир ҳужайралари бор. Териси орқали нафас олади. Қон айланиш системаси туташ, юраги бўлмайди. Қони қизил, унинг таркибида гемоглобин бор. Нера системаси битта



ҳалқум усти нерв тугунидан ва қорин нерв занжирини ҳосил қилувчи бирмунча майда қорин нерв тугунларидан иборат. Тадқиқот ҳудудида тарқалган барча ёмғир чувалчанглари тупроқнинг юза қатламидаги чириётган органик қолдиқлар билан озикланиб тупроқ унумдорлигини оширишда муҳим бўлиб ҳисобланади. Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида ёмғир чувалчанглари тупроқнинг турли қатламларида тарқалган бўлиб ёмғирдан сўнг тупроқ юзасига чиқиши кўзатилади. Гермафирадит тур бўлиб ҳисобланади тухумини пиллага қўяди. Агроеценозларда ёмғир чувалчанги ин қазиб тупроқни юмшатади, унинг чуқур қатламларига ҳаво ўтиши ва сув шимилишига имкон беради тупроқ қатламларини аралаштиради, ўсимлик қолдиқлари чиришини тезлаштиради, тупроқни гумусга бойитиб, унумдорлигини оширади. Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида ёмғир чувалчанги буз тупроқли нам жойларда айниқса кўп 1 м<sup>2</sup> тупроқда 40-48 дан ортиқ эканлигини ўргандик. Ўрганилган ҳудудда ёмғир чувалчанги асосан ариқлар яқинида, суғориладиган нам тупроқли ерларда ва дарё яқинидаги туқайзорлар ҳудудларида тарқалганлигини ўргандик. Бизнинг тадқиқотларимиз натижасида ўрганилаётган ҳудудда ёмғир чувалчанглари 10 дан ортиқ тури тарқалганлиги таҳлил қилинди.

Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида тарқалган *Aporrectodea caliginosa trapezoides* ёмғир чувалчангининг тарқалишига абиотик омилларнинг таъсирини таҳлил қилдик.

*Aporrectodea caliginosa trapezoides* (DuGES, 1828) - Бухоро шаҳрига яқин ҳудудлардаги агроеценозларда тарқалган бўлиб тур танасининг ўртача узунлиги 60-166 мм, йўғонлиги 4-8 мм, ҳалқалар сони 110 дан 231 тагача, териси кўнғир рангда, баъзан рангсиз эканлигини аниқладик. Танасининг кўндаланг кесими юмалоқ ёки бирмунча яссилашган. Космополит тур бўлиб ҳисобланади. Боши эпилобик шаклда. Орқа тешиклари 8,9 ёки 9,10- ҳалқалар оралиғидан бошланади. Туклари ўзаро жуда яқин жойлашган. аб-йўналишли 9,10 ва 11- ҳалқалардаги тукларнинг атрофи безли папиллардан иборат. Эркаклик жинсий тешиги 15 ҳалқада жойлашган бўлиб, қўшни ҳалқаларга кириб борувчи қалин без билан қопланган. Белбоғ камари 26-36 ҳалқаларни эгаллайди, 31 ва 33 ҳалқаларнинг ён томонлари тангасимон безли валиклардан иборат. Уруғ халталари 10-12 ҳалқаларда жойлашган. Икки жуфт уруғқабул қилгичи 9-10, 10-11- ҳалқалардаги сд туклар йўналишида очилади. Белбоғкамари жойлашган ҳалқаларда сперматофорлар томчисимон бўлиши аниқланган. Диссепиментлари 5-6 ва 9-10-ҳалқалар оралиғида йўғонлашган. Дивертикул шаклдаги оҳак безлари 10 ҳалқада жойлашган. Мускул тўқимаси патсимон шаклда бўлади. *Aporrectodea caliginosa trapezoides* кенжа тур Навоий ва Бухоро вилоятлари суғориб дехқончилик қилинадиган ҳудудларида нам тупроқли экин майдонларида кенг тарқалганлиги ўрганилди.

Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида ёмғир чувалчанглари тарқалишига абиотик омилларда тупроқ температураси, намлиги, шурланиши ва бошқалар ўз таъсирини кўрсатади. Тупроқ температураси 14-16<sup>0</sup> С га етганда тупроқ муҳитининг ўзгариши чувалчангларининг бир қатламдан иккинчи қатламга кўчиб ўтишига олиб келиши кўзатилади. Абиотик факторлар ёмғир чувалчанглари морфологик хусусиятларига ўз таъсирини кўрсатади. Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида тарқалган ёмғир чувалчанглари оиласининг морфологик хусусиятлари таҳлил қилинди. Тадқиқотларда терилган турларни аниқлашда ёмғир чувалчангининг морфологик белгиларига турларни аниқлашда тукларнинг тузилиши, жойлашиши, елка тешиклари, бош қисми ва унинг тузилиши, жинсий аъзолар ва бошқа морфологик белгиларига эътиборга олдик.

Ўрганишлар натижасида Зарафшон водийси қуйи қисми агросенозларида тарқалган *Aporrectodea caliginosa trapezoides* ёмғир чувалчангининг тарқалишига абиотик омилларнинг таъсири катта эканлиги таҳлил қилинди. *Aporrectodea caliginosa trapezoides* - Бухоро шаҳрига яқин ҳудудлардаги агроеценозларда тарқалган бўлиб тур танасининг ўртача узунлиги 60-166 мм, йўғонлиги 4-8 мм, ҳалқалар сони 110 дан 231 тагача, териси кўнғир рангда, баъзан рангсиз эканлигини аниқладик. Танасининг кўндаланг кесими юмалоқ ёки бирмунча яссилашган. Белбоғ камари 26-36 ҳалқалардан иборат. Тупроқдаги абиотик омилларнинг таъсири натижасида ёмғир чувалчанглари бир қатламдан иккинчи қатламга кучиб ўтиши кўзатилади.



### Фойдаланилган адабиётлар

1. Войтехов М. Я. О некоторых факторах, лимитирующих почвообразовательную роль дождевых червей в европейской части таежной зоны России // Почвы и окружающая среда. 2018. Т. 1. № 4. С. 267–276.
2. Гапонов С. П., Хицова Л. Н. Почвенная зоология. Воронеж: Воронежский государственный университет, 2005. 143 с.
3. Гафурова Л.А., Набиева Г.М., Кучкарова Л.С., Аскарходжаев Н.А., Рахматуллаев А.Ю., Махкамова Д.Ю., Эргашева О.Х. “Внедрение в сельском хозяйстве экологически чистых ресурсосберегающих технологий в повышении плодородия деградированных почв”. // О научно-исследовательской работе инновационный проект ИОТ-2013-5-33. (НУУЗ им.М.Улугбека) Ташкент -2014 г.
4. Bekchanova M.K., Abdullaev I.I. Xorazm vohasi yomg\_ir chuvalchaglari (Lumbricidae) tur tarkibini aniqlash uslublari // —Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi - Xiva, 2022. № 6/1 bet 40-42.
5. Bekchanova M.K., Abdullaev I.I. Shimoli-g\_arbiy O\_zbekistonhududining yomg\_ir chuvalchaglari (Oligochaeta: Lumbricidae) bioxilma-xilligi // Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. - Xiva, 2023. № 3/1. - b. 7-12.
6. Rakhmatullaev A, Gafurova L, Egamberdieva D. 2010. Ecology and role of earthworms in productivity of arid soils of Uzbekistan. // Dynamic Soil, Dynamic Plant 4 (1): 72–75.
7. Рахматуллаев А.Ю. «Распространение дождевых червей- Чаткальского горно-лесового заповедника»././ 6-я Пущинская школа-конференция молодых ученых 20-24 мая 2002 г. Т.№2, с.132.



SOYA O‘SIMLIGINING FIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

**Raximova Xolisxon Maqsudovna**  
Urganch davlat universityeti dosent, b.f.f.d.  
(PhD), rxolisxon@inbox.ru  
tel: 97 791 7010

**Bobojonova Xulkar Madrahimovna**  
bobojonovaxulkar@gmail.com  
Urganch davlat universityeti Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi  
**Kamiljonova Dilnoza Kaxramon qizi**  
Ranch universiteti tyutori

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi soya (*Glycine max L.*) o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlari – fotosintez intensivligi, transpiratsiya darajasi, barg yuzasi indeksi, biologik azot fiksatsiyasi, protein va yog‘ tarkibi hamda stress omillar ta‘siridagi fiziologik javoblari adabiyotlar tahlili asosida umumlashtirilgan. Tahlilda soya o‘simligining o‘sish bosqichlari, uni hayotiy davrlarida yuz beradigan fiziologik jarayonlar va muhim fiziologik indekslar keltirilgan. Shuningdek, turli stress omillar (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, oziqa modda tanqisligi)ga bo‘lgan chidamliligi va o‘simlikning moslanish mexanizmlari yoritilgan. Olingan tahliliy ma‘lumotlar soya yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Soya o‘simligi, fiziologik ko‘rsatkichlar, fotosintez, transpiratsiya, azot fiksatsiyasi, barg yuzasi indeksi, stress omillari, oqsil, yog‘, o‘sish bosqichlari.

Soya (*Glycine max L.*) — dunyoda keng ekiladigan dukkakli ekin bo‘lib, yuqori protein (~36–42%) va yog‘ (~18–22%) miqdori bilan ajralib turadi. O‘simlik sifatida u o‘ziga xos fiziologik xususiyatlarga ega:

**Fotosintez koeffitsiyenti yuqori** - C3 tipdagi o‘simlik.

**Azot fiksatsiyasi** - *Bradyrhizobium japonicum* bakteriyalari bilan simbiozda yashab, havodagi azotni o‘zlashtiradi.

**Vegetatsiya davomiyligi** - 85 kundan 160 kungacha naviga bog‘liq.

**Stressga chidamlilik** - issiqlik, qurg‘oqchilik va sho‘r tuproqlarga nisbatan o‘rta darajada chidamli.

1. **Jadval**

**Soya o‘simligining asosiy fiziologik ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkich	Me‘yoriy qiymatlar
1	Fotosintez intensivligi	10–15 mkmol CO <sub>2</sub> m <sup>2</sup> /s
2	Transpiratsiya intensivligi	6–9 mmol H <sub>2</sub> O m <sup>2</sup> /s
3	Barg yuzasining sathi (LAI)	3,5–5,5 birlik
4	Biologik azot fiksatsiyasi	50–300 kg/ha azot
5	Urug‘ protein tarkibi	36–42%
6	Urug‘ yog‘ tarkibi	18–22%
7	Xlorofill miqdori	2,5–3,5 mg/g barg

**O‘sish va rivojlanish bosqichlari (BBCH shkalasi asosida)**

**V0-V2 bosqichlari:** Nihol chiqishi va dastlabki haqiqiy barglarning rivojlanishi.

**R1-R2 bosqichlari:** Gullash boshlanishi.

**R3-R6 bosqichlari:** G‘o‘za hosil qilish, don to‘lish bosqichlari.

**R7-R8 bosqichlari:** Yetilish va to‘liq pishish.

Har bir fiziologik bosqichda: **Fotosintez faoliyati** maksimal darajaga chiqadi (R3–R5 bosqichida).

**Azot fiksatsiyasi** faol bo‘ladi (asosiy nodulalar gullash boshlanishidan boshlab faoliyat ko‘rsatadi).

**Transpiratsiya** kuchayadi, ayniqsa qurg‘oqchilik sharoitida.

**Stresslarga fiziologik javoblari. Suv tanqisligida:** Barglarda transpiratsiya kamayadi, stomatalarning yopilishi tezlashadi, fotosintez sekinlashadi. **Sho‘rlanishda:** Ionlar (Na<sup>+</sup>, Cl<sup>-</sup>) bargda to‘planadi, osmoprotektantlar (prolin, glycinbetaine) miqdori oshadi. **Azot tanqisligida:** Nodulalar faolligi pasayadi, o‘simlikning umumiy o‘sish sur‘ati sekinlashadi.





### Adabiyotlar tahlili

**Xalqaro tadqiqotlar:** Salisbury F.B., Ross C.W. (1992). *Plant Physiology*. – Soya fotosintez va transpiratsiya jarayonlarini boshqarishda asosiy model sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Hungria M., Vargas M.A.T. (2000).** Environmental factors affecting N<sub>2</sub> fixation in soybean. – Biologik azot fiksatsiyasiga stress omillar ta‘sirini o‘rganilgan.

**Board J.E., Harville B.G. (1996).** Growth dynamics during the reproductive period in soybean. – Gullash va don to‘lish davridagi fiziologik o‘zgarishlar yoritilgan.

**O‘zbek olimlari tadqiqotlari:** G‘aniyev Sh.M., Qo‘chqorov S.M. (2019). Soya o‘simligining fiziologiyasi va ekin texnologiyasi. – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi institutlarida o‘rganilgan fiziologik xususiyatlar.

**Toshpo‘latov M.M. (2022).** O‘zbekiston sharoitida soya ekinlarida stressga chidamlilik fiziologiyasi. – Iqlim omillariga javoban o‘zgarishlar tahlil qilingan.

**Xulosa:** Soya o‘simligi o‘ziga xos fiziologik tizimga ega bo‘lib, yuqori darajada fotosintez faoliyati va biologik azot fiksatsiya qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Vegetatsiya davrining turli bosqichlarida fiziologik jarayonlar har xil darajada namoyon bo‘ladi. Optimal sharoitda soya o‘simligida don sifati yuqori bo‘ladi, noqulay sharoitlarda esa fotosintez va azot fiksatsiyasi faoliyati keskin pasayadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Board J.E., Harville B.G. (1996). Growth dynamics during the reproductive period in soybean. // *Agronomy Journal*, 88(3): 567–572.

2. G‘aniyev Sh.M., Qo‘chqorov S.M. (2019). Soya o‘simligining fiziologiyasi va ekin texnologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi ilmiy-amaliy markazi, 120 b.

3. Hungria M., Vargas M.A.T. (2000). Environmental factors affecting N<sub>2</sub> fixation in soybean. // *Field Crops Research*, 65(2): 151–164.

4. Salisbury F.B., Ross C.W. (1992). *Plant Physiology*. 4th edition. Belmont, CA: Wadsworth Publishing Company, 682 p.

5. Toshpo‘latov M.M. (2022). O‘zbekiston sharoitida soya ekinlarida stressga chidamlilik fiziologiyasi. // *Agrar fanlar axborotnomasi*, №2, 45–49.



## АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### KUZGI BUG'DOY O'SIMLIGINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI

Egamberdiyeva Dilshoda Safarboy qizi,  
stajyor o'qituvchi  
edilshoda557@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kuzgi bug'doy (*Triticum aestivum L.*) o'simligining asosiy fiziologik ko'rsatkichlari, jumladan fotosintez intensivligi, transpiratsiya darajasi, barg yuzasi indeksi, xlorofill miqdori va o'sish bosqichlari adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan. Shuningdek, ekologik stress omillari — qurg'oqchilik, sho'rlanish va sovuqqa chidamlilikning fiziologik javoblariga alohida e'tibor qaratilgan. Turli manbalar tahlili asosida kuzgi bug'doyning rivojlanish bosqichlari va har bir bosqichda ro'y beradigan fiziologik o'zgarishlar ilmiy asosda bayon etilgan. Olingan xulosalar kuzgi bug'doyni agroiklimiy sharoitga moslashtirish va hosildorlikni oshirishda fiziologik yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** kuzgi bug'doy, fotosintez, transpiratsiya, fiziologik ko'rsatkichlar, rivojlanish bosqichlari, sho'rlanish, qurg'oqchilik, barg yuzasi indeksi, xlorofill.

Kuzgi bug'doy (*Triticum aestivum L.*) O'zbekiston sharoitida muhim don ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning hosildorligi va don sifati o'simlikning fiziologik rivojlanishiga, agroiklimiy sharoitga va o'z vaqtida amalga oshirilgan agrotexnik tadbirlarga bog'liq. Fiziologik jarayonlar - fotosintez, transpiratsiya, oziqa moddalar aylanishi, barg yuzasi indeksi kabi ko'rsatkichlar orqali o'simlik holatini aniqlash mumkin.

#### 1- Jadval

#### KUZGI BUG'DOYNING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI

№	Ko'rsatkich	O'rtacha qiymati
1	Fotosintez intensivligi	10–20 mkmol CO <sub>2</sub> /m <sup>2</sup> /s
2	Transpiratsiya darajasi	3–8 mmol H <sub>2</sub> O/m <sup>2</sup> /s
3	Barg yuzasi indeksi (LAI)	4,0–6,0 birlik
4	Xlorofill miqdori	1,5–2,5 mg/g barg
5	Oqsil miqdori (don)	11–14 %
6	Kleykovina miqdori	22–30 %
7	Azot o'zlashtirish koeffitsiyenti	35–65 %

#### O'SISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kuzgi bug'doy o'zining rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi (BBCH shkalasi asosida): Nihollanish (00–09), Barg rivojlanishi (10–19), Poya o'sishi (20–29)

Gullash (50–59), Don to'lishi va pishishi (60–89). Har bir bosqichda fiziologik faoliyat darajasi har xil bo'ladi. Masalan, fotosintez faoliyati asosan 30–60 bosqichlar orasida maksimal darajaga yetadi. Gullash davrida oziqa moddalarga talab ortadi.

#### STRESS OMILLAR TA'SIRI

**Qurg'oqchilik:** stomatalar yopiladi, transpiratsiya kamayadi, fotosintez sekinlashadi.

**Sho'rlanish:** ionlar to'planishi va prolin sintezi oshadi.

**Sovuqqa chidamlilik:** hujayra membranalarida prolin, shakarlar ko'pligi sovuqqa bardoshlilikni oshiradi.

**XULOSA.** Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzgi bug'doy o'simligi fiziologik rivojlanishida eng muhim omillar - fotosintez, barg indeksi, oziqa moddalarning harakati va ekologik stresslarga javob reaksiyalaridir. Har bir fiziologik ko'rsatkich o'simlikning mahsuldorligini bevosita belgilaydi. Shuning uchun kuzgi bug'doy yetishtirishda agrotexnik tadbirlar biologik jarayonlar bilan uyg'un holda olib borilishi zarur.



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘aybullayev G., Xoliqov B. (2021). Mikro va makro o‘g‘itlarning kuzgi bug‘doy hosildorligi va don sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri. O‘zbekiston QX jurnali.
2. Iminov A., Xoliqov B. (2023). Sho‘rlangan tuproqlarda kuzgi bug‘doyning oziqa rejimi. ResearchGate.



Содержание

ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

<b>Ўталов Илёсжон Абдусаломович</b> ЗЎРЛИК ИШЛАТМАСДАН ЎЗГАЛАР МУЛКИНИ ТАЛОН-ТОРОЖ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	5
<b>Саломов Нодир Қурбонович</b> ТЕРГОВ ВА СУД ИШЛАРИГА АРАЛАШИШ: ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИК ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАР.....	7
<b>Махмудов Алишер Абдусалимович</b> ПРОКУРАТУРАНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ ВА МОҲИЯТИГА ОИД НАЗАРИЯЛАР.....	9
<b>Махмудов Алишер Абдусалимович</b> ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДИДА ҚАДИМГИ ДАВР ВА ЎРТА АСРЛАРДА ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН НАЗОРАТ ҚИЛИШ ХУСУСИДА.....	12
<b>Мирзобоев Миродил Минавварович</b> ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МОҲИЯТИ ВА ҲИМОЯ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	15
<b>Ахмедов Шухратжон Камилевич</b> КУЧЛИ РУҲИЙ ҲАЯЖОНЛАНИШ ҲОЛАТИДА КАСДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТИНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	17
<b>Мухаммедов Жалолоддин Шарофжон ўғли</b> ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИ ЁКИ ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИДАН ҲУҚУҚҚА ХИЛОФ РАВИШДА ФОЙДАЛАНИШ ВА ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИККА ТОРТИШ МУАММОЛАРИ.....	20
<b>Olimova Sharifa Oybek qizi</b> BUGUNGI KUNDA KIBER JINOYATLAR.....	23

ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>Файзуллаева Рухшона Лутфуллоевна</b> ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	24
<b>Murotov Akmal Inoyatovich</b> O‘ZBEK XALQI OILAVIY MUNOSABATLARI MUSTAHKAMLIGIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI.....	26
<b>Do‘snazarov Mirjalol Esanboy o‘g‘li</b> HAYOT VA O‘LIM MUAMMOSINING FALSAFIY TAHLILI.....	29
<b>Vohidova Dilshoda Vohid qizi</b> TURKIY TASAVVUFNING BUYUK NAMOYANDASI.....	31

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>Xojiyeva Mahbuba Umidjon qizi</b> CHENG XIAOQING USLUBI VA LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ...	64
<b>Asadova Gavhar Teshabayevna</b> IKKI VALENTLI YADRO IKKI KARRA PREDIKATLANUVCHI KOMPONENTNING MOR- FOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	67
<b>Ergasheva Madinabonu Rustamjon qizi, L.A.Sultanova</b> “歇后语”LARNING XITOUY MADANIYATIDA TUTGAN O‘RNI.....	40
<b>Kuchkarov Iskandarbek Alisher o‘g‘li</b> TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK OMIL ASOSIDA SO‘Z O‘ZLASHTIRISH.....	43
<b>Sapayeva Feruza Norbayevna</b>	



MIFOLOGIK SO‘ZLARNING INGLIZ LEKSIKASIGA TA’SIRI .....	46
<b>Baymuradova Gulbaxar Chari qizi</b>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARI SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	49
<b>Nigoraxon Israilova Xudaberdiyeva, Zarinabonu Zokirjonova Shuxratbek qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKT: TIL O‘RGANISHDA QO‘LLANILISHI, MAVJUD	
IMKONIYATLAR VA IQTISODIY SIYOSATNING HARAKAT YO‘NALISHLARI.....	51
<b>Matyakubova Noila Shakirjanovna</b>	
MASHINA TARJIMASI TURLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI.....	54

**АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Linora Shermuhammedova Alijon qizi, Muqaddas Murodova Ikromovna</b>	
ISHONCH VA MAQSADNING KUCHI: "O‘YLA VA BOY BO‘L " KITOBIDA TALQINIDA..	60

**ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Raxmonova Feruza Musakulovna</b>	
RESPUBLIKAMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISH	
TENDENSIYALARI .....	63
<b>Duvshatova Nigora</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHOLI TURMUSH TARZIGA TA’SIRI: O‘ZBEKISTON	
MISOLIDA.....	66
<b>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</b>	
QURILISH SANOATI KORXONALARI IQTISODIY FAOLIYATINI BOSHQARISHNING	
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	69
<b>Абилов Феруз Нематуллаевич</b>	
КАМБАҒАЛЛИК ДАРАЖАСИНИ КАМАЙТИРИШНИНГ БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ	
РИВОЖЛАНИШГА ЭРИШИШДАГИ ЎРНИ.....	71
<b>Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi</b>	
TURIZM SOHASIDA UMUMIY OVQATLANISH RESURSLARI SIFATINI OSHIRISHNING	
ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI.....	74
<b>Кахоров Абдумалик Бахтиёрович</b>	
ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ КОРПОРАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ.....	78

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Abdullayeva Sabohat G‘ayratullayevna</b>	
YAPONIYADA MAKTABGACHA YOSHDA BO‘LGAN BOLALARGA TA‘LIM-TARBIYA	
BERISHNING AFZALLIKLARI.....	81
<b>Nafosat Valijonova, Dilafruz Sarimsakova</b>	
ERROR CORRECTION TECHNIQUES.....	83
<b>Olimjon Isakov</b>	
STRATEGIES TO ENRICH STUDENTS’ MORAL AND ETHICAL WORLDVIEWS .....	85
<b>Davronova Navbahor Shamsiddinovna</b>	
YOZMA VA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOLANTIRISHDA ERTAKLAR VA ADABIYOTNING	
O‘RNI .....	87
<b>Hamroyeva Vohida Ismatovna</b>	
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FANLARARO BOG‘LANISHNI TASHKIL ETISH.....	88
<b>Jo‘rayeva Orzigul Sadirovna</b>	
O‘QITUVCHI NUTQ MADANIYATINING TA;LIM JARAYONIDAGI ROLI VA	
AHAMIYATI .....	89





<b>Mardonova Mohigul Teshayevna</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNING ROLI.....	90
<b>Olimova Muqaddam O`rinovna</b> O`QITUVCHINING KIYINISH MADANIYATINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI.....	91
<b>Rajabova Fotima Amonovna</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA QO`LLASH IMKONIYATLARI .....	92
<b>Ravshanova Nilufar Suvonovna</b> OTA-ONALAR BILAN SAMARALI HAMKORLIK YO`LLARI .....	93
<b>Raximova Feruza Kamolovna</b> O`QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH: BOSHLANG'ICH BOSQICH TAJRIBALARI.....	94
<b>Sharapova Gulshanda Sharifovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ROLLI O`YINLARNING AHAMIYATI .....	95
<b>Sharopova Zuxro Sharifovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FAN DARSLARINI QIZIQARLI TASHKIL ETISH ..	96
<b>Tolibova Nazira Tolibovna</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O`QITISHNING KOMMUNIKATSIYA VA MULOQOTDA SAMARALI YONDOSHUVLARI .....	97
<b>Djumaniyazova Iroda Baxtiyorovna, Abdullaeva Gulnora Hayitboyevna</b> QO`RQUVNING PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY VA MADANIY ASOSLARI: TA`SIRI VA BOSHQARISH YO`LLARI XUSUSIYATLARI .....	98

**АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Abdiraxmonova Maxfuza Nodir qizi</b> ZURMALA STUPASINING ME`MORIY YECHIMI.....	100
<b>Jo`raqulova Shaxnoza Abdurazzoq qizi</b> TO`QIMACHILIK MAXSULOTLARINI QAYTA ISHLASHNING EKOLOGIK SAMARADORLIGI.....	102

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>М.И. Охунбаев, Рахматов Р.Р</b> КРИВОЛИНЕЙНЫ ИНТЕГРАЛЫ ПЕРВОГО РОДА .....	106
<b>М.И. Охунбаев, Рахматов Р.Р</b> КРИВОЛИНЕЙНЫ ИНТЕГРАЛЫ ВТОРОГО РОДА .....	110
<b>Tilavova Xurshida Odil qizi</b> INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI .....	114
<b>Yuldosheva Shahriyona Jamoliddin qizi</b> OLTIN ELEKTROLIZI .....	117

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>Djurayeva Feruza</b> PISA TOPSHIRIQLARIDA МАТЕМАТИК SAVODXONLIK .....	118
---	-----



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

- Мусашайхов У.Х., Саггаров О.Х., Бобоев К.Т., Арипов О.А.**  
AROE ГЕНИ LEU28PRO ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ МЕТАБОЛИК СИНДРОМ  
ВА УНИНГ ЮРАК ИШЕМИК КАСАЛЛИГИ БИЛАН КОМОРБИД ХОЛАТ  
РИВОЖЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ ..... 121
- Саггаров О.Х., Бобоев К.Т., Арипов О.А., Мусашайхов У.Х.**  
МЕТАБОЛИК СИНДРОМ ВА УНИНГ ЮРАК ИШЕМИК КАСАЛЛИГИ БИЛАН LEPR  
ГЕНИ ARG223GLN ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ КОМОРБИД РИВОЖЛАНИШИДАГИ  
АҲАМИЯТИ ..... 123

ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

- Xalilova N.Sh, Usmanaliyeva Z.U.**  
PREGABALINNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI USULIDA  
ANIQLASH SHAROITLARINI ISHLAB CHIQUISH..... 125
- Boisxo'jayeva A.A<sup>1</sup>**..... 125
- Турсунова М.Р., Солиев А.Б., Иногамов У.К.**  
СПЕЦИФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ МАСЛЯНОГО ЭКСТРАКТА КУРКУМЫ  
ДЛИННОЙ СУРХАНДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА..... 127

БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

- Хусниддин Боймуродов, Пардаев Юнус Собирович, Хафизова Малика**  
ARORRECTODEA CALIGINOSA TRAPEZOIDES ЁМФИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ ТУПРОҚ  
МУХИТИДА ТАРҚАЛИШИ ..... 129
- Raximova Xolisxon Maqsudovna, Bobojonova Xulkar Madrahimovna,  
Kamiljonova Dilnoza Kaxramon qizi**  
SOYA O'SIMLIGINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI  
(ADABIYOTLAR TAHLILI)..... 132

АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

- Egamberdiyeva Dilshoda Safarboy qizi**  
KUZGI BUG'DOY O'SIMLIGINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI ..... 134

**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР” МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА**  
**75-КЎП ТАРМОҚЛИ**  
**ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(2-қисм)**

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 30.04.2025